

39
H68

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI**



**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI
FANIDAN OLIMPIADA
ISHTIROKCHILARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA**

TOSHKENT - 2012

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI**

**U.J. HOTAMOV
T.E. TO'RAYEV
M.H. TOPVOLDIYEV**

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI
FANIDAN OLIMPIADA
ISHTIROKCHILARI UCHUN
O'QUV QO'LLANMA**

(Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 17-sentabrdagi 392-sonli buyrug'i hamda Xalq ta'limi vazirligi ilmiy-metodik kengashining 2011-yil 28-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasiga muvofiq akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi)

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

371193

Axborot Resurs Markazi

**Toshkent
«Adolat»
2012**

UDK: 342(575.1)(075)

67.0

H-68

H-68

Hotamov U.J., To'rayev T.E., Topvoldiyev M.H. Davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun o'quv qo'llanma/Mas'ul muharrir: O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri N.T.Yo'ldoshev. – Toshkent: Adolat. 2012. – 384 b.

ISBN 978-9943-394-31-5

UDK: 342(575.1)(075)

BBK 67.0ya7

Mas'ul muharrir:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri
Yo'ldoshev Nig'matilla To'liqinovich

Taqrizchilar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi, yu.f.n., dotsent

U.Bozorov.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy o'quv kurslari kafedra boshlig'i, yu.f.d., professor **B.X.Po'latov.**

Toshkent Davlat yuridik instituti «Davlat va huquq tarixi» kafedrasini mudiri, yu.f.n., dotsent **M.Hamidova.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi Toshkent shahar o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi bosh mutaxassisi **L.N.Axmedova.**

O'quv qo'llanma davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida tayyorlangan bo'lib, unda o'quvchi ushbu fandan olimpiada imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bilishi lozim bo'lgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining "Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadasini o'tkazish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'ida ko'rsatilgan talab va mezonlar asosida yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada qatnashchilari, shuningdek, mazkur mavzu doirasidagi ma'lumotlar bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-394-31-5

© U.J.Hotamov, T.E.To'rayev, M.H.Topvoldiyev, 2012-y.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Adolat» nashriyoti, 2012-yil.

«Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoqlab parvona bo'lib, unga yo'l ochib bersak, barcha sa'y-harakat va intilishlarimizni ana shunday olijanob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, xasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz».

I. KARIMOV

KIRISH SO'ZI

Mamlakatimizda istiqlol yillarida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida aholi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Ta'kidlash lozimki, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va barkamol avlodni tarbiyalash islohotlar tizimida markaziy o'rinni egallamoqda. Barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosatida diqqat-e'tiborda bo'lib kelayotgani bejiz emas, albatta. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimovning barkamol avlod tarbiyasining ahamiyati haqidagi "Hayotimizning qaysi sohasini olmaylik, ularning barchasi oxir-oqibatda shu masalaga, ya'ni bizning qanday jamiyat qurishimiz va shu jamiyatga munosib barkamol avlodni tarbiyalashimizga borib taqaladi"¹, degan fikrlari ham ushbu masalaning davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida davlatimizda bevosita Prezidentimiz rahnamoligida yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan barqaror huquqiy zamin hamda zarur ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratildi. Bularni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonunlarimizda ko'rishimiz mumkin. Ushbu qonunlarda yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishga kafolat berish kabi munosabatlar o'zining huquqiy asoslarini topgan.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda barkamol avlodni huquqiy jihatdan komil qilib tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy jihatdan barkamol avlodgina, qonuniylikni ta'minlash va shu tariqa mamlakat ravnaqi uchun hissa qo'shishga,

¹ Karimov I.A. Tinchlik va xavisizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – B.135.

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'la oladi. Shu ma'noda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun, umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifadir"².

Huquqiy jihatdan barkamol bo'lgan yoshlarning siyosiy ongi va siyosiy dunyoqarashi ham yetuk bo'ladiki, bu davlat siyosatiga oid muhim masalalarning jamiyatning eng quyi pog'onalarigacha kirib borishi uchun zamin hozirlaydi hamda shu tarzda davlatda siyosiy tizimning barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, "Yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratganimiz bejiz emas"³. Shunday ekan, hozirda yoshlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish yuqoridagi vazifalarni hal qilishda muhim omil bo'lib qolaveradi.

Ayni damda mamlakatimizda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish borasida Adliya vazirligi va bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ko'plab loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Albatta, bu jarayonda iste'dodli yoshlarni topish, ularga imkoniyatlar eshigini ochib berish, ijtimoiy faollik pozitsiyasini yuksaltirish nuqtai nazaridan sezilarli ishlar amalga oshirilib, yuzlab huquq bilimdonlari kashf etildi va ular doimiy ravishda rag'batlantirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni kashf etish borasida o'tkazilayotgan fan olimpiadalari ham yangi iste'dodli yoshlarni izlab topishda va ularning kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassislari bo'lib shakllanishida qo'l kelmoqda, deyishga haqlimiz.

² Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam tayanchi va suyanchi bo'lsin // Xalq so'zi. 2001-yil 25-yanvar.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. - Toshkent: O'zbekiston. 2010. - B.16

Xususan, Adliya vazirligi tomonidan 2009-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "Huquq bilimdonlari" respublika bellashuvi jarayonida kashf etilgan o'nlab huquq bilimdonlari ham aynan fan olimpiadalarining huquq yo'nalishida g'oliblikni qo'lga kiritishlari va tajribali huquqshunos kadrlar bo'lib voyaga yetishishlari hamkorlikdagi tadbirlarimizning samarasi, desak mubolag'a bo'lmas.

Bir so'z bilan aytganda, Respublika miqyosida huquqshunoslik yo'nalishidagi bunday fan olimpiadalarining tashkil etilishi yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, ularning shu sohaga bo'lgan qiziqishi ortib borishiga hamda pirovardida Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan yetuk huquqshunos kadrlar bo'lishlarida ham ahamiyatlidir.

Shu ma'noda davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma mohiyatan bu sohada amalga oshirilgan ilk ilmiy izlanishlar natijasi bo'lib, ushbu kitob yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga, ularni huquqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shadi hamda iqtidorli yoshlarni kashf qilishga va ularga o'z qobiliyatlarini namoyon etish uchun imkon berishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Zotan, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir"¹.

Nig'matilla Yo'ldoshev,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.27.

1-BOB. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN OLIMPIADA ISHTIROKCHILARI UCHUN UMUMIY TAVSIYALAR

Davlat va huquq asoslari fanidan fan olimpiadasi ishtirokchilari uchun umumiy tavsiyalar deb nomlangan ushbu bobda biz shu yo'nalishda olimpiadada qatnashish istagida bo'lgan o'quvchiga yordam bo'lishi uchun umumiy va tashkiliy tusdagi ayrim masalalarni bayon etib o'tmoqchimiz.

Davlat va huquq asoslari fanidan fan olimpiadasida qatnashishda olimpiada ishtirokchilari avvalambor, uch yo'nalishda tayyorgarlik ko'rishi lozim bo'ladi:

birinchi yo'nalishda va dastlabki bosqichda o'quvchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini – uning barcha moddalarini yod olishi, uning mazmun-mohiyatini anglab yetishi lozim. Ushbu bosqichda o'quvchi Konstitutsiya moddalarini yod olgach, uni mezon talablari asosida sharhlashga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, ushbu bosqichda o'quvchi Konstitutsiya moddalarini yodlash jarayonida har bir moddaga taalluqli bo'lgan qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqishi lozim bo'ladi. Ushbu bosqichda o'quvchi yana davlat va huquq asoslarini ham o'rganishi lozim. Unda o'quvchi davlat va huquqqa oid asosiy tushunchalar, eng muhim institutlar to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi:

ikkinchi yo'nalish va navbatdagi bosqichda o'quvchi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari va ularni yuritish bilan bog'liq jinoyat huquqi, protsessi va ma'muriy huquqni o'rganishi lozim bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari bilan tanishib chiqadi. O'quvchi ushbu jarayonda ushbu kodekslarning barchasi bilan tanishib chiqishi hamda voyaga yetmaganlar bilan bog'liq normalarni chuqur o'rganishi, ta'bir joiz bo'lsa, atroflicha yod olishi lozim bo'ladi. Chunki, o'quvchi vaziyatga huquqiy baho berishda, qilmishning o'g'rilik yoki talonchilik ekanligini aniqlagach, uni Jinoyat kodeksining qaysi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishini ham yozishi lozim bo'ladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarini yuritishdagi o'ziga xosliklarini ham Jinoyat-protsessual kodeksidagi aniq moddalar bilan izohlab berishi maqsadga muvofiq.

uchinchi yo'nalishda fan olimpiadasiga qatnashish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi huquq sohalari – fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi, xalqaro huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, ekologiya huquqi singari asosiy huquq sohalari to'g'risida qisqacha tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda o'quvchi muayyan reja asosida har bir huquq sohasi bilan ma'lum muddat ajratgan holda tanishib chiqishi maqsadga muvofiq.

Fan olimpiadasida qatnashish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi konstitutsiyaviy normani sharhlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat va huquqning dolzarb masalalariga oid fikr va g'oyalari o'z aksini topgan asarlaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq. Ayni damda davlatimizda fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish hamda milliy qonunchiligimizni shu yo'nalishda isloh etish uchun muhim dasturilamal bo'lgan Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi⁵ bilan yaqindan tanish bo'lishlari, uning oltita ustuvor yo'nalishi haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishlari hamda unda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha bildirilgan ilg'or g'oyalardan xabardor bo'lishlari, unda qanday yangi qonunlar qabul qilish va qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish taklif etilgani haqida bilishlari, ushbu bilimlardan tegishli konstitutsiyaviy-huquqiy qoidani sharhlashda foydalana olishlari maqsadga muvofiq.

O'quvchi shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga tegishli BMTning minimal standart qoidalari" (Pekin qoidalari), "Turma qamog'i bilan bog'liq

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.55.

bo'lmagan choralarga tegishli BMTning minimal standart qoidalari" (Tokio qoidalari), "Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari" (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishlari hamda yozma ishda ulardan foydalanishlari ishning saviyasini ancha oshirgan bo'lardi. Ushbu xalqaro hujjatlar haqida kitobda zarur bilimlar berilgan.

O'quvchi yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgach, mezon asosida yozishni mashq qilishi lozim. Chunki, ba'zida garchand o'quvchining bilimi saviyasi yuqori bo'lsa-da, yozish malakasi yetishmasligi tufayli yozma ish uchun ajratilgan muddatda mezonning barcha talablariga mos holda yoza olmasligiga sabab bo'ladi. Shu bois, o'quvchi mezon asosida yozishni uzluksiz mashq qilib borishi zarur.

Fan olimpiadasida qatnashish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi ijobiy natijaga erishish uchun maktab dasturi bilan cheklanib qolmasligi zarur. O'quvchi imkoniyat darajasida o'z yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida chop etilgan adabiyotlardan ham foydalanishi maqsadga muvofiq. Chunki, mazkur adabiyotlar ilmiy va nazariy jihatdan ancha mukammal bo'ladi va bu o'z navbatida o'quvchining yozma ishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'quvchi shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashda, vaziyatga yuridik baho berishda ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatni farqlay bilishi lozim. Ko'p hollarda o'quvchilar tomonidan aynan ma'muriy qilmish va jinoyat o'rtasidagi farqni belgilay olmaslik qilmishga noto'g'ri yuridik baho berishga sabab bo'ladi. Shunday ekan, ushbu kitobda berilgan tavsiyalardan foydalangan holda o'quvchi avvalambor, vaziyatda ma'muriy qilmish yoki jinoyat haqida so'z borishini aniqlashi lozim.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'quvchi yozma ishni yozar ekan, ajratilgan vaqtni uchta yo'nalish bo'yicha mutanosib ajratishi zarur. Asosiy vaqtni Konstitutsiya va vaziyatni sharhlashga sarflab, uchinchi yo'nalish saviyasi past bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Vaholanki, amaliyotda aynan shunday holatga ko'p duch kelamiz.

Shuningdek, o'quvchi mezonning yangi talablaridan doimiy xabardor bo'lib borishi darkor. Chunki, 2011-yil olimpiada ishtirokchilari uchun taqdim etilgan mezonga yangilik sifatida bir qator o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, konstitutsiyaviy normani

sharhlashda yangicha talablar sifatida o'quvchidan nazariy sharhlash, tizimli sharhlash, qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish, qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish belgilandi;

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashda esa, vaziyatni O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan bog'lash, ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatning farqlovchi jihatlarini ko'rsatib berish talab qilindi.

Shunday ekan, o'quvchi mezondagi yangiliklardan xabardor bo'lib, ishni aynan ularda belgilangan talablar doirasida yozishi lozim.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI MODDALARINI SHARHLASH

2.1. Konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini yoritish

Konstitutsiyaviy normani sharhlashdagi birlamchi mezon uning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Konstitutsiyaviy normaning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati beqiyos. Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati avvalo, uning jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy norma mohiyatan jamiyat hayotidagi eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Konstitutsiya xalqimizning taqdirida muhrlanib qoladigan tarixiy hujjat sifatida millat ravnaqi, davlatchilik poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Konstitutsiya o'zbek xalqi tarixida keskin burilish yasagan, istiqlol uchun kurashlar samarasi bo'lgan, ahamiyati jihatidan asrlarga tatigulik huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Mustaqil davlatchilikning belgisi hisoblangan Konstitutsiya avvalo millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. Tom ma'noda yangi demokratik tuzumni barpo etish maqsadida qabul qilingan Konstitutsiyamizning g'oyasi, asosiy prinsip va qoidalari umume'tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan⁶.

⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / Mas'ul muharrir: prof. A.A.Aziz-xo'jayev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B.3.

Mustaqillik yillarida oz fursat ichida mamlakatimiz Konstitutsiyasini qabul qilish zarurati mas'uliyatni yanada oshirdi. Davlat qurilishi sohasida mustaqil tajribaning endigina shakllanayotgani, davlat boshqaruvi, jamiyatni idora etish masalalariga tamoman yangicha yondashuv lozimligi, ijtimoiy munosabatlarni tamoman yangidan huquqiy tartibga solish ehtiyoji Konstitutsiyani qabul qilishga o'z ta'sirini o'tkazuvchi murakkab omillardan edi.

Mustaqil davlatchilik siyosatini yuritish, bunda jahon hamjamiyatining e'tiborini qozonish, mamlakat ijtimoiy hayotining osoyishtaligini ta'minlash, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, iqtisodiy rivojlanish hamda ma'naviy yuksalish poydevorini shakllantirish kabi masalalarga oydinlik kiritish, uning huquqiy asosini yaratish mas'uliyati ham davlat oldida turgan dastlabki vazifalar edi.

Shu bilan birgalikda xalq hokimiyatchilik institutining mazmunida butun hokimiyat va suverenitet xalqqa tegishli ekanligi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai deb e'tirof etilgani Konstitutsiyamizning xalqchil tabiatini namoyon etadi. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi (8-modda), deb e'tirof etilishi, fuqarolarning millatidan, irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, huquq va erkinliklar barcha uchun bir xilda teng sharoitlarda ta'minlanishi jamiyat barqarorligi va osoyishtaligining garovi bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat a'zolarining manfaatleri teng himoya qilinishi barobarida davlat o'zining kuchli ijtimoiy siyosatini amalga oshirmoqda.

Milliy qadriyatlarimizni o'ziga singdirgan Konstitutsiyamiz asosida oila, onalik va bolalik davlat muhofazasida ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitishni o'z zimmasiga olganligini alohida e'tirof etish lozim. O'z farzandlarini voyaga yetkazish ota-onaning oldidagi burch, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar esa, ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga burchli ekanligi aytilgan qoidalar xalqimizning azaliy urf-odatleri, an'analari oilaning muqaddasligiga tayanishini ko'rsatadi.

Demak, yuqoridagilar asosida konstitutsiyaviy normalarning davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim munosabatlarni tartibga solishini qayd etgan holda, normaning ijtimoiy ahamiyatini yoritishda yuqoridagi holatlarni aks ettirish kerakligini ta'kidlash lozim.

O'quvchiga oson va qulay bo'lishi uchun konstitutsiyaviy normalarning ijtimoiy ahamiyatini quyidagi yo'nalishlarda yoritishni tavsiya etishimiz mumkin:

Birinchidan, konstitutsiyaviy normaning tartibga soluvchi ahamiyatini ko'rsatish. Ya'ni, Konstitutsiyaning har bir moddasi muayyan ijtimoiy munosabatlar majmuini tartibga solishga xizmat qiladi. Shunday ekan, o'quvchi avvalo konstitutsiyaviy norma qaysi ijtimoiy munosabatlarni (inson huquqlari, davlat boshqaruvi, oila, iqtisodiy munosabatlar va h.k.) tartibga solishini ko'rsatib berishi lozim. Zero, Konstitutsiya mamlakat ijtimoiy hayotining osoyishtaligini ta'minlash, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'vish, iqtisodiy rivojlanish hamda ma'naviy yuksalish poydevorini shakllantiradi. Jumladan, Konstitutsiyaning 17-moddasi davlat tashqi siyosatining asosiy ustuvor qoidalarini, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini belgilab berib, shu soha munosabatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tegishli normaning mamlakatimiz huquqiy poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qilishini yoritib berish lozim. Ya'ni, konstitutsiyaviy normaning qonunchilik tizimidagi o'rni hamda tegishli tarmoq qonunchiligini shakllantirishga ta'sirini ko'rsatish lozim. Zero, Konstitutsiyaning har bir moddasi tegishli soha qonunchiligini shakllantirishga salmoqli ta'sir ko'rsatib, uning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Konstitutsiyaviy normalar ijtimoiy munosabatlarni tamoman yangidan huquqiy tartibga soldi hamda hech bir qonun Konstitutsiya normalariga zid bo'lishi mumkin emasligini belgilab berdi. O'quvchi shuni atroflicha yoritib berishi lozim. Jumladan, davlat tashqi siyosatining asosiy ustuvor qoidalarini belgilab bergan Konstitutsiyaning 17-moddasi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida" (22.12.1995-y.), yangi tahrirdagi "Mudofaa to'g'risida" (11.05.2001-y.), yangi tahrirdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" (26.05.2000-y.), "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi (26.12.1996-y.) qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasi (30.08.1995-y.) asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etgan.

Uchinchidan, yuqoridagi holatning mantiqiy davomi sifatida Konstitutsiyaviy normaning tegishli huquq tarmoqlarini

shakllantirishdagi o'rnini ham ochib berish lozim. Jumladan, Konstitutsiyaning 17-moddasi xalqaro huquq sohasining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim huquq manbai bo'lib xizmat qilishini e'tirof etib o'tish mumkin.

To'rtinchidan, konstitutsiyaviy normaning O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlatchilik siyosatini yuritish, davlat boshqaruvi, jamiyatni idora etish masalalariga tamoman yangicha yondashilganligi hamda davlat suverenitetini mustahkamlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq. Zero, Konstitutsiyaning aksariyat moddalari mustaqil davlatchilik siyosatini yuritishda asosiy huquqiy kafolat vazifasini bajaradi. Jumladan, Konstitutsiyaning 17-moddasi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatda mustaqil xalqaro huquq subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlaydi hamda uning suveren davlat ekanligini belgilab beradi.

Beshinchidan, konstitutsiyaviy normaning umume'tirof etilgan xalqaro normalariga muvofiqligi hamda mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatning e'tiborini qozonishdagi ahamiyatini yoritib berishi lozim. Jumladan, Konstitutsiyaning 17-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga hamohang bo'lib, BMT nizomida ko'zda tutilgan qoidalarga to'la mos keladi.

Oltinchidan, yuqoridagilar bilan bir qatorda konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini ochib berishda, albatta, davlatimiz rahbarining asarlaridan foydalanish zarur. Bu avvalo, davlatimiz rahbari asarlarida davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, shu jumladan, sud-huquq sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, yurtimizda demokratik-huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konseptual g'oyalarini o'zida mujassam etishi bilan izohlanadi. Shunday ekan, konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini ochib berishda davlatimiz rahbarining tegishli asarlaridan foydalanish ishning saviyasini oshiradi. Jumladan, 17-moddani sharhlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura" asarida keltirilgan quyidagi jumladan foydalanish o'rinli bo'lar edi: "O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining davlat va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyati-

dan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralari-ga ega emas edi”⁷.

Davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” mavzusidagi ma'ruzasidagi quyidagi ta'kidi ham Konstitutsiyamizning 17-moddasi bilan bevosita aloqador: “Mana, yon qo'shnimiz Afg'onistonda 30 yildan buyon davom etayotgan qurolli mojaroning hali-beri oxiri ko'rinmayapti. Xalqimizda “Qo'shning tinch – sen tinch” degan maqol bejiz aytilmagan. Qo'shni mamlakat hududida mana shunday keskinlik saqlanib turar ekan, albatta, mintaqamizda tinchlik-barqarorlikka nisbatan tahdid ham saqlanib qolaveradi.

Afg'onistondagi murakkab vaziyatni hal etish bo'yicha O'zbekiston eng nufuzli xalqaro minbarlardan muhim amaliy tashabbuslarni doimiy ravishda bayon qilib kelmoqda. Ayniqsa, NATO/SEAP tashkilotining 2008-yil aprel oyida bo'lib o'tgan Buxarest sammitida O'zbekiston Prezidenti tomonidan afg'on muammosini faqat harbiy yo'l bilan yechib bo'lmasligi haqidagi fikr birinchi bo'lib o'rtaga qo'yilgan va bu mojaroni siyosiy yo'l bilan hal etish maqsadida “6+2” muloqot guruhini “6+3” guruhiga aylantirish haqidagi taklif ilgari surilgan edi. Bu guruhga Afg'oniston bilan qo'shni bo'lgan davlatlar, AQSh va Rossiya hamda NATO tashkilotining vakolatli vakillari kirishi nazarda tutiladi. O'zbekistonning bu taklifi dunyo siyosiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otgani sizlarga yaxshi ma'lum, deb o'ylayman”⁸.

Yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” deb nomlangan ma'ruzasidagi quyidagi e'tirofi ham Konstitutsiyamizning 17-moddasi sharhiga hamohangdir: “Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz,

⁷ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, malkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – B.49.

⁸ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.18–19.

tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kecha-yotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.

Ma'lumki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Shu bois avvalambor ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi"⁹.

Demak, xulosa qilib aytganda, o'quvchi konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini ochib berishda o'z fikrlarini yuqoridagi holatlar bo'yicha muayyan ketma-ketlik va mantiqiy izchillik asosida bayon etsa, ish har tomonlama to'liq bo'ladi.

2.2. Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddani o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaning har bir moddasi muayyan bob, u esa, o'z navbatida ma'lum bir bo'limdan o'rin olgan.

Mezon bo'yicha konstitutsiyaviy normani sharhlashda talab qilinadigan yana bir holat normaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berishdan iborat.

Shunday ekan, biz o'quvchiga qulay bo'lishi uchun quyida har bir bo'lim va boblarga qisqacha ta'rif berib o'tamiz. Bu o'quvchiga kelgusida konstitutsiyaviy modda tegishli bo'lgan bob va bo'limni sharhlashda ushbu ta'riflardan foydalanish imkonini beradi.

Birinchi bo'lim "Asosiy prinsiplar" deb nomlangan. Konstitutsiyaning "Asosiy prinsiplar" bo'limi deganda, jamiyat va davlat hayotining asosiy ijtimoiy munosabatlarini konstitutsiyaviy tartibga solishning bosh prinsip va g'oyalarini o'zida mujassam etgan birinchi bo'limi tushuniladi.

Asosiy prinsiplarning o'ziga xos jihati shundaki, ular Konstitutsiyaning boshqa qoidalari, amaldagi qonunchilik tizimi

⁹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.6.

va barcha normativ-huquqiy hujjatlar uchun birlamchi normativ asos vazifasini bajaradi. Ya'ni, Konstitutsiyaning qolgan boshqa bo'limlari ushbu asosiy prinsiplar asosida rivojlantiriladi.

Ushbu bo'lim quyidagi to'rtta bobni o'z ichiga oladi: I bob. Davlat suvereniteti; II bob. Xalq hokimiyatchiligi; III bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi; IV bob. Tashqi siyosat.

Quyida birinchi bo'limga taalluqli har bir bobga qisqacha ta'rif berib o'tamiz:

1-bob. Konstitutsiyaning "Davlat suvereniteti" bobi deganda, O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini belgilab beruvchi, har bir suveren davlatga xos bo'lgan belgilarni o'zida ifodalovchi hamda O'zbekiston davlatining mohiyatini ochib beruvchi Konstitutsiyaning birinchi bobi tushuniladi.

2-bob. Konstitutsiyaning "Xalq hokimiyatchiligi" bobi deganda, O'zbekistonda xalq hokimiyatchiligi asoslarini mustahkamlovchi, davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy qoidalarini belgilovchi, inson, jamiyat va davlat munosabatlarini tartibga soluvchi Konstitutsiyaning ikkinchi bobi tushuniladi.

3-bob. Konstitutsiyaning "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" bobi deganda, O'zbekistonda mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlarining so'zsiz ustunligining tan olinishini, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlarini mustahkamlovchi, huquqiy davlat qurishning asosiy talabini belgilovchi Konstitutsiyaning uchinchi bobi tushuniladi.

4-bob. Konstitutsiyaning "Tashqi siyosat" bobi deganda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda va munosabatlardagi holati, davlatimiz tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini belgilovchi, xalqaro huquq normalari ustuvorligini ta'minlovchi hamda O'zbekistonning xalqaro huquqning teng huquqli suveren subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning to'rtinchi bobi tushuniladi.

Ikkinchi bo'lim "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi. Konstitutsiyaning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limi deganda, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid qoidalarni mustahkamlovchi, demokratik rivojlanish yo'lini tanlab olgan davlatimizning inson huquqlari masalasiga doir siyosatini o'zida aks ettiruvchi, yuksak

insonparvarlik g'oyalari o'zida mujassam etgan hamda mamlakatimizning umuminsoniy siyosiy-huquqiy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqodi va sodiqligini namoyish etuvchi Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi tushuniladi.

Konstitutsiyamizning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limining ahamiyati unda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari o'z aksini topganligida ham namoyon bo'ladi. Xususan, ushbu bo'lim normalari 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarning normalariga mos keladi.

Ushbu bo'lim yetti bobdan iborat: V bob. Umumiy qoidalar; VI bob. Fuqarolik; VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar; VIII bob. Siyosiy huquqlar; IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; X bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari; XI bob. Fuqarolarning burchlari.

5-bob. Konstitutsiyaning "Umumiy qoidalar" bobi deganda, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid muhim umumiy qoidalarni aks ettiruvchi, demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy qoidalarini mustahkamlovchi hamda davlat va fuqarolar o'rtasidagi inson huquq va burchlariga oid munosabatlarni tartibga soluvchi Konstitutsiyaning beshinchi bobi tushuniladi.

6-bob. Konstitutsiyaning "Fuqarolik" bobi deganda, davlat hududida yashab turgan insonlarning davlatga mansubligi, fuqaro va davlat o'rtasidagi doimiy siyosiy-huquqiy aloqadorlik, uning huquqiy holati va oqibatlarini tartibga soluvchi Konstitutsiyaning oltinchi bobi tushuniladi.

7-bob. Konstitutsiyaning "Shaxsiy huquq va erkinliklar" bobi deganda, demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan shaxsni himoya qilish, shuningdek, uning hayotini ijtimoiy xavfli tajovuzlardan muhofaza qilishga qaratilgan hamda insonlarning tabiiy shaxsiy huquq va erkinliklarini kafolatlovchi Konstitutsiyaning yettinchi bobi tushuniladi.

8-bob. Konstitutsiyaning "Siyosiy huquqlar" bobi deganda, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini ta'minlovchi, siyosiy manfaatlarini muhofaza qiluvchi, siyosiy jarayonlar va davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish

imkoniyatlarini kafolatlovchi Konstitutsiyaning sakkizinchi bobi tushuniladi.

9-bob. Konstitutsiyaning "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" bobi deganda, shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy huquq va erkinliklarini, uning jamiyatda erkin yashashini kafolatlovchi, shaxslarning moddiy manfaatlarini himoyalash va ularni ta'minlashga qaratilgan Konstitutsiyaning to'qqizinchi bobi tushuniladi.

10-bob. Konstitutsiyaning "Inson huquqlari va erkinliklari-ning kafolatlari" bobi deganda, inson huquqlari va erkinliklarining yuridik kafolatlarini o'zida mujassam etgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etish bilan bog'liq majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi Konstitutsiyaning o'ninchi bobi tushuniladi.

11-bob. Konstitutsiyaning "Fuqarolarning burchlari" bobi deganda, shaxsning jamiyat va davlat oldidagi asosiy beshta burchini hamda ularni bajarish majburiyatini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi Konstitutsiyaning o'n birinchi bobi tushuniladi.

Uchinchi bo'lim "Jamiyat va shaxs"ga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limi deganda, konstitutsiyaviy tuzumning iqtisodiy asoslari, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan jamoat birlashmalari, jamiyatning asosiy bo'g'ini – oila hamda muhim demokratik institutlardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari va ular faoliyatining kafolatlarini ko'zda tutuvchi Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi tushuniladi.

Ushbu bo'limda ilk marotaba jamiyatning iqtisodiy negizlari, xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorning mulkka nisbatan haqiqiy egaligining kafolati belgilangan. Mazkur qoidalar mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun muhim huquqiy zamin hozirladi.

Mazkur bo'lim to'rt bobdan tashkil topgan: XII bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari; XIII bob. Jamoat birlashmalari; XIV bob. Oila; XV bob. Ommaviy axborot vositalari.

12-bob. Konstitutsiyaning "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" bobi deganda, barcha mulk shakllarini, xususiy mulk daxlsizligini, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni, mulk huquqi va uning talablarini, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik va ularni muhofaza qilish talablarini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning o'n ikkinchi bobi tushuniladi.

13-bob. Konstitutsiyaning "Jamoat birlashmalari" bobi deganda, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan jamoat birlashmalari, ularning faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan teng huquqiy imkoniyatlar yaratilishi, xodimlar huquqlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari, turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar faoliyati, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani va qonun oldida tengligi kabi qoidalarni belgilovchi Konstitutsiyaning o'n uchinchi bobi tushuniladi.

14-bob. Konstitutsiyaning "Oila" bobi deganda, jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalgan oila, onalik va bolalik davlat va jamiyat muhojizasida ekanligi, hech qaysi davlatning konstitutsiyalarida uchramaydigan, o'zligimizga xos xususiyatlardan kelib chiqib, ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunicha boqish va tarbiyalashga majburligi, o'z navbatida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishi majburiyatini belgilaydigan Konstitutsiyaning o'n to'rtinchi bobi tushuniladi.

15-bob. Konstitutsiyaning "Ommaviy axborot vositalari" bobi deganda, "to'rtinchi hokimiyat" sanalmish ommaviy axborot vositalari, ular faoliyatining prinsiplarini ta'minlovchi, asosiy qoida sifatida senzura qo'yilmasligini belgilovchi, ommaviy axborot vositalari chinakam erkin faoliyat yuritishining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilayotgan Konstitutsiyaning o'n beshinchi bobi tushuniladi.

To'rtinchi bo'lim "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" deb nomlanadi. Konstitutsiyaning "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" bo'limi deganda, O'zbekiston Respublikasining davlat va uning tarkibiga kiruvchi bo'laklar o'rtasidagi munosabat shakllari va huquqiy holatini anglatuvchi milliy-davlat hamda davlat-huquqiy maqomga ega bo'lgan birliklar bilan o'zaro boshqaruv va bo'ysunish munosabatlari tizimini ifodalovchi ma'muriy-hududiy tuzilishini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limi tushuniladi.

Mazkur bo'lim ikki bobdan iborat: XVI bob. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi; XVII bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi.

16-bob. Konstitutsiyaning "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi" bobi deganda, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy davlat tuzilmalari, ularning maqomi hamda tashkil etish va tugatish tartibini belgilab beruvchi Konstitutsiyaning o'n oltinchi bobi tushuniladi.

17-bob. Konstitutsiyaning "Qoraqalpog'iston Respublikasi" bobi deganda, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi munosabatlarning va Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi Konstitutsiyaning o'n yettinchi bobi tushuniladi.

Beshinchi bo'lim "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" masalalariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" bo'limi deganda, davlat hokimiyatining tashkil etilishi hamda uning davlat va jamiyat hayotini tashkil etish yo'li bilan bog'liq vakolatlari huquqiy jihatdan mustahkamlangan, davlatning qonunchilik hokimiyati, davlat boshlig'i, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura hamda mudofaa va xavisizlik tizimini, shuningdek, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov tizimini e'tirof etadigan Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi tushuniladi.

Ushbu bo'lim to'qqiz bobdan iborat: XVIII bob. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi; XIX bob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti; XX bob. Vazirlar Mahkamasi; XXI bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari; XXII bob. O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati; XXIII bob. Saylov tizimi; XXIV bob. Prokuratura; XXV bob. Moliya va kredit; XXVI bob. Mudofaa va xavisizlik.

Mazkur bo'limda huquqiy davlatning muhim sharti – hokimiyatlar taqsimlanish prinsipi o'z aksini topgan bo'lib, mamlakatimizda ushbu tamoyil qay tartibda amal qilishi aynan shu bo'lim qoidalariga asoslanadi. U davlat hokimiyati asoslarini yangicha va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda mustahkamlaydi.

Ushbu bo'limning 18, 19, 20, 23-boblariga 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum natijalariga ko'ra, 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.

18-bob. Konstitutsiyaning "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi" bobi deganda, hokimiyatning muhim bo'g'ini – qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis palatalarining maqomi, tarkibiy tuzilishi va shakllanish prinsiplari, vakolatlari, qonun hujjatlarining ishlab chiqilish va qabul qilinish tartibi, rahbar organlarining saylanishi va faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari kabi davlat huquqining asosiy masalalarini belgilab beradigan Konstitutsiyaning o'n sakkizinchi bobi tushuniladi.

19-bob. Konstitutsiyaning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti" bobi deganda, O'zbekiston Respublikasida davlat boshlig'i – jamiyatni jipslashtiruvchi va davlat hokimiyati boshqaruv mexanizmining barqarorligi hamda doimiy ishlashini ta'minlovchi oliy mansabdor shaxs – Prezidentning konstitutsiyaviy maqomini belgilab beradigan Konstitutsiyaning o'n to'qqizinchi bobi tushuniladi.

20-bob. Konstitutsiyaning "Vazirlar Mahkamasi" bobi deganda, mamlakatimizning oliy ijroiya hokimiyati organi – hukumatning maqomi, uning shakllanish tartibi, faoliyat prinsiplari, qabul qiladigan hujjatlari va boshqa vakolatlari doirasini belgilovchi Konstitutsiyaning yigirmanchi bobi tushuniladi.

21-bob. Konstitutsiyaning "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" bobi deganda, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning jamiyat va davlat hayotida tutgan o'rni, bu organlarning davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi vakolatlari va boshqa davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarining asoslarini, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, tuzilishi, vakolatlari, vazifalari, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat shakllari, joylarda qonuniylikni ta'minlashga oid o'zaro huquqiy munosabatlar doirasini belgilab beruvchi Konstitutsiyaning yigirma birinchi bobi tushuniladi.

22-bob. Konstitutsiyaning "O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati" bobi deganda, sud hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy maqomi, tizimi va vakolatlarini, sud ishlarini yuritishning umumiy prinsip va qoidalarini belgilab beruvchi, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligini ta'minlovchi, himoyalash va yuridik yordam olish huquqini kafolatlovchi Konstitutsiyaning yigirma ikkinchi bobi tushuniladi.

23-bob. Konstitutsiyaning "Saylov tizimi" bobi deganda, xalq hokimiyatchiligini, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston savlov tizimining asosiy qoidalari va prinsiplarini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning yigirma uchinchi bobi tushuniladi.

24-bob. Konstitutsiyaning "Prokuratura" bobi deganda, mamlakatimizda prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining ustuvor qoida va prinsiplarini belgilab beruvchi, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashda fuqarolar ishtiroki asoslarini mujassamlashtiruvchi Konstitutsiyaning yigirma to'rtinchi bobi tushuniladi.

25-bob. Konstitutsiyaning "Moliya va kredit" bobi deganda, O'zbekistonda moliya va kredit munosabatlarini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlovchi, davlat moliyaviy faoliyati asoslarini belgilovchi, budjet, soliq va bank tizimiga oid asosiy qoidalarni o'zida aks ettiruvchi Konstitutsiyaning yigirma beshinchi bobi tushuniladi.

26-bob. Konstitutsiyaning "Mudofaa va xavfsizlik" bobi deganda, davlatning mudofaa va xavfsizlikka oid siyosatining asosiy yo'nalishlarini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlovchi, Qurolli Kuchlar maqsadi va faoliyatini belgilovchi, O'zbekiston xavfsizligini ta'minlashga oid normalarni o'zida mujassamlashtiruvchi Konstitutsiyaning yigirma oltinchi bobi tushuniladi.

Oltinchi bo'lim "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" deb nomlangan bo'lib, boblardan tashkil topmay, ikki moddadan iborat. Konstitutsiyaning "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" bo'limi deganda, Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi Konstitutsiyaning oltinchi bo'limi tushuniladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda konstitutsiyaviy normalarni Konstitutsiyaning qaysi bo'lim va bobga taalluqli ekanligini yoritish bilan bir qatorda ushbu normaning **konstitutsiyaviy huquqning qaysi instituti tarkibiga** kirishini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq. Jumladan, Konstitutsiyaning fuqarolikka oid 21-moddasi konstitutsiyaviy huquqning fuqarolik institutida; saylov tizimiga oid 117-moddasi saylov huquqi instituti tarkibiga kiradi; prokuraturaga oid 118-moddasi huquqni muhofaza qilish organlari institutida o'rganiladi va h.k.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi va shartlari joriy qonunlarga o'zgartirish kiritish tartibiga nisbatan murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. Ushbu tartibning mavjudligi konstitutsiyaning, pirovardida yaxlit holda huquqiy tizimning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2.3. Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish

Mezon asosida konstitutsiyaviy normani sharhlashning yana bir talabi qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirishdan iborat.

Demak, qoidani amaliyot bilan bog'lash deganda, shu qoidaning amalda tatbiq etilishiga oid holatlar yoritilishi nazarda tutiladi.

Shuni unutmaslik lozimki, Asosiy Qomusimizning har bir moddasi amaliyot bilan bevosita bog'liq, ya'ni deklarativ tusda emas, balki real voqelikni qamrab oladi. Ayni damda Konstitutsiya normalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha mexanizm ishlab chiqilgan va samarali amal qilmoqda. Konstitutsiyamiz normalari sobiq Ittifoq tuzumidagi tizimdan farqli ravishda amalda haqqoniy ishlaydigan huquqiy kafolatga aylanib ulgurgan.

Konstitutsiyaviy normada nazarda tutilgan qoidani amaliyot bilan bog'lash bo'yicha bir nechta misollar keltirib o'tamiz. Jumladan, Konstitutsiyaning 53-moddasida belgilanishicha, "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi".

Ushbu normada belgilangan qoidani amaliyot bilan bog'lar ekanmiz, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ishlar amalga oshirilayotganini, mazkur sohalarni rivojlantirish bo'yicha qator qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, 2000-yil 25-mayda O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010-yil 28-iyuldagi PF-4232-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrdagi 311-sonli "2010-2012-yillarda Qo'qon shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 24-avgustdagi 246-sonli "2009-2012-yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 29-iyuldagi 216-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqalar qabul qilinganligini, bu sohani rivojlantirish, raqobatni qo'llab-quvvatlash va monopoliyani cheklash bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlari, xususan, O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi

Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi va boshqalar tashkil etilganligini qayd etib o'tishimiz mumkin.

Demak, konstitutsiyaviy normada mustahkamlangan qoidani amaliyot bilan bog'lashda ushbu norma hayotda qay darajada amal qilayotganligini, uni amalda tatbiq etishga qaratilgan qanday qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini, bu bo'yicha qanday davlat organlari tashkil etilganligini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mezonning keyingi talablari-ning deyarli barchasida misollar keltirish ko'zda tutilgan. O'quvchi konstitutsiyaviy normada nazarda tutilgan qoidani misollar bilan to'ldirishda bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, faol ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, huquqiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'lashi, fikrini mamlakatimizda turli sohalarda bo'layotgan voqea va hodisalar bilan asoslashi lozim.

Jumladan, Konstitutsiyamizning yuqoridagi 53-moddasini misollar bilan to'ldiradigan bo'lsak, mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tizimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga keng e'tibor qaratilayotganligini, xususan, Prezidentimizning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida 2011-yilning mamlakatimizda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi, 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010-yil yakuni bilan bu ko'rsatkich qariyb 53-foizga yetganligi ham yuqorida qayd etilgan fikrimizning tasdig'idir.

Shuningdek, so'nggi yillarda xo'jalik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 2005-yildagi 13 foizdan 7 foizga tushirish yoki qariyb 2 barobar kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar tug'dirmoqda. Shu borada davlatimiz rahbari tomonidan yuqoridagi ma'ruzada 2011-yildan boshlab bu ko'rsatkich 7 foizdan 6 foizga tushirilishi qayd etilganligi ham mamlakatimizda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligidan dalolat beradi.

Demak, konstitutsiyaviy normani misollar keltirgan holda to'ldirishda yurtimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlarga murojaat etish, shuningdek imkoniyat darajasida aniq faktlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2.4. Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish

Konstitutsiyaviy norma qoidasining huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritib, misollar bilan izohlab berish mezon bo'yi-cha konstitutsiyaviy normani sharhlashning navbatdagi talabidir.

Ta'kidlash lozimki, huquq sohasi deganda, huquq institutlari majmuidan tashkil topgan huquqshunoslik yo'nalishlari tushuniladi. Jumladan, mamlakatimizda konstitutsiyaviy huquq, moliya huquqi, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, oila huquqi, xalqaro xususiy huquq, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi, fuqarolik-protsessual huquqi, mehnat huquqi, ekologiya huquqi, yer huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, jinoyat jarayoni, xalqaro huquq singari huquq sohalari shiddat bilan rivojlanib kelmoqda.

Ayni damda ushbu huquq sohaslarining rivojlanishida konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati katta. Ta'bir joiz bo'lsa, Konstitutsiyaning asosiy qoidalari ushbu huquq sohaslarining rivojlanishi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi. Ayni damda Konstitutsiyaning barcha moddalari konstitutsiyaviy huquqda keng qo'llaniladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning:

– “Asosiy prinsiplar”ga bag'ishlangan 1-bo'limidagi moddalar konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq, jinoyat huquqi singari huquq sohalari uchun muhim huquqiy zamin bo'lib xizmat qiladi;

– “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”ga oid 2-bo'limidagi moddalar konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, soliq huquqi, xalqaro huquq, fuqarolik huquqi, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi, mehnat huquqi, ijtimoiy himoya huquqi, ekologiya huquqi, fuqarolik-protsessual huquqi, xo'jalik-protsessual huquqi, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi va boshqa huquq sohalari uchun fundamental asos vazifasini bajaradi:

– “Jamiyat va shaxs” deb nomlangan 3-bo'limidagi moddalar konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, oila huquqi, moliya

huquqi, soliq huquqi, xalqaro huquq, fuqarolik huquqi, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi, ekologiya huquqi, yer huquqi, suv huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, jinoyat huquqi va boshqa huquq sohalari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

– “Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi” deb nomlangan 4-bo'limidagi moddalar konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq va boshqa huquq sohalari uchun mustahkam huquqiy zamin hozirlaydi.

– “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi”ga oid 5-bo'limidagi moddalar konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq, moliya huquqi, soliq huquqi, bank huquqi, budjet huquqi, jinoyat-protsessual huquqi va boshqa huquq sohalari uchun asosiy huquqiy manba bo'lib hisoblanadi.

– “Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi” to'g'risidagi 6-bo'limi moddalari konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq va boshqa huquq sohalari uchun asosiy huquqiy asos bo'lib hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy norma qoidasining huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yuqoridagicha yoritib bergach, fikrni misollar yordamida izohlab, asoslab berish talab qilinadi. Bunda qaysi huquq sohalariga aloqadorligi aytilgan bo'lsa, imkoniyat darajasida ularning barchasi bilan asoslab bog'lash kerak.

Masalan, Konstitutsiyaning 66-moddasi sharhlash uchun berildi. Unga binoan, “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar”.

Ushbu konstitutsiyaviy norma konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi va boshqa huquq sohalari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, konstitutsiyaviy huquqda Konstitutsiyaning ushbu moddasi mazmunidan kelib chiqqan holda “O'zbekistonda oilaning konstitutsiyaviy maqomi” alohida mavzu sifatida tadqiq etiladi. Oila huquqida ham O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida belgilangan normalar asosida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyati o'rganilinadi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi mulkiy, shaxsiy nomulkiy munosabatlar esa, fuqarolik huquqining obyektiga ham kiradi va shunga ko'ra, ushbu huquq sohasida ham qo'llaniladi. Jinoyat huquqi esa, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash Jinoyat kodeksining “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” deb nomlangan 123-moddasida taqiqlangan ijt-

moiy xavfli qilmish sifatida alohida o'rganiladi. Shuningdek, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'am-xo'rlik qilish majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, ushbu modda asosida jinoiy javobgar bo'ladilar.

2.5. Tizimli sharhlash

Mezon bo'yicha navbatdagi talablardan biri konstitutsiyaviy normada mustahkamlangan qoidani tizimli sharhlash va unga misol keltirishdan iborat.

Huquq normasini **tizimli sharhlash** deganda, tatbiq etiladigan huquqiy normaning mazmunini boshqa huquqiy normalar bilan solishtirib, uning tegishli huquq sohasi normalari tizimidagi o'rnini aniqlash tushuniladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani tizimli sharhlashda ushbu normaning mazmuni boshqa normalar bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, uning normativ-huquqiy hujjat, huquq instituti, huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyati aniqlanadi. Tizimli sharhlash yordamida normalar va hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlar (kolliziyalar) aniqlanadi va bartaraf etiladi.

Tizimli sharhlashda sharhlovchi subyekt tomonidan, birinchidan, huquq normasining huquq tizimidagi o'rnini aniqlanadi (huquq sohasi, huquq instituti); ikkinchidan, sharhlanayotgan huquq normasi bilan mazkur norma tatbiq etilishi nazarda tutilayotgan aniq hayotiy munosabat o'rtasida mantiqiy bog'liqlik borligi aniqlanadi; uchinchidan, sharhlanayotgan normaning mazmunini bilishga erishiladi.

Tizimli sharhlash rasman bekor qilinmagan, biroq amalda boshqalari bilan almashtirilgani sababli ahamiyatsiz, foydalanilmay qolgan normalarni ham aniqlash imkonini beradi. Normalarning o'zi mansub bo'lgan huquq tarmog'ining umumiy qismi bilan aloqalari, tizimli sharhlash vaqtida hisobga olish zarur bo'lgan holatlardan biridir. Bunday aloqani ko'rib chiqish, talqin qilinayotgan normaning ma'nosini har tomondan aniqlashtirish va kengroq ochish, uning umumiy yo'naltirilganligini anglashga imkon beradi.

Tizimli sharhlash uchun quyidagi maxsus qoidalardan foydalaniladi:

Birinchidan, umumiy va maxsus normalarning aloqadorligi (maxsus qonunlar muayyan faktga tegishli umumiy qonun harakatlarini bekor qiladi, ya'ni maxsus qonun normalari mavjud bo'lgan taqdirda, umumiy qonun normalari qo'llanilmasdan, maxsus qonun

normalari qo'llaniladi. Demak, maxsus normalar umumiy normalarning harakat faoliyatini cheklaydi).

Ikkinchidan, havola etuvchi moddalarning aloqadorligi (havola etuvchi moddalar sharhlanayotgan moddalarni aniqlashtirish uchun mo'ljallangan yoki mazkur normaning mohiyatini yoritish uchun havola etilayotgan moddalarga murojaat qilinadi).

Uchinchidan, agar turli organlar tomonidan chiqarilgan huquqiy normaning qarama-qarshiligi aniqlansa, yuqori turuvchi organlar tomonidan qabul qilingan normaga asoslanish lozim.

To'rtinchidan, agar bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki normaning bir-biriga zidligi aniqlansa, u holda norma qabul qilingan vaqt e'tiborga olinadi va keyingi qabul qilingan normaga asoslanishi lozim¹⁰.

Demak, konstitutsiyaviy-huquqiy normani tizimli sharhlashda ushbu normaning boshqa normalar bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqligini ko'rsatib berish, uning normativ-huquqiy hujjat, huquq instituti, huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyatini aniqlash talab qilinadi. Shuningdek, bu usulda sharhlanayotgan konstitutsiyaviy-huquqiy normaning yangisi bilan almashtirilganligi, qo'llashda qoidadan istisno bor-yo'qligi aniqlanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normaning boshqa normalar bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqligini ko'rsatib berishda avvalambor, ushbu normaning Konstitutsiyaning boshqa normalari bilan aloqasini, so'ngra boshqa qonun hujjatlari (dastavval konstitutsiyaviy qonunlar, so'ngra kodekslar va undan keyin joriy qonunlar ketma-ketligida bayon etish maqsadga muvofiq) va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'liqligini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 2-moddasida qayd etilishicha, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar". Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy normani tizimli sharhlar ekanmiz, uning Konstitutsiyamizning xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligini hamda O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishini mustahkamlovchi 7-moddasi, O'zbekiston xalqini

¹⁰ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.136-137.

millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishini belgilovchi 8-moddasi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishini qayd etuvchi 9-modda, O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkinligini e'tirof etuvchi 10-modda, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishini kafoilatlovchi 22-modda, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanishini belgilovchi 43-modda, sud orqali himoyalash, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafoilatlovchi 44-modda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining vakolatlarini tartibga soluvchi 78-80-moddalar, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti vakolatlarini mustahkamlovchi 93-modda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tartibga soluvchi 98-modda, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini belgilovchi 100-modda va boshqa moddalar bilan uzviy bog'liq, bir-birini mantiqan to'ldiradi.

Konstitutsiyamizning 2-moddasida mustahkamlangan qoida o'z navbatida milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-apreldagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi, 2002-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar, Jinoyat kodeksi, yangi tahrirdagi 2003-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi, yangi tahrirdagi 2000-yil 14-dekabrda "Sudlar to'g'risida"gi, 1995-yil 30-avgustdagi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonunlarda ham rivojlantirilgan.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlarda ushbu davlat organlarining O'zbekiston xalqi nomidan xalqaro maydonda ish ko'rishi hamda mamlakatning ichki va tashqi siyosatini belgilab berish bilan bog'liq vakolatlari belgilangan bo'lib,

bu Konstitutsiyamizning 2-moddasidagi qoidalarni yanada rivojlantiradi.

“Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun esa, jamiyat hayotiga davlatning xalq irodasini ifodalashiga xizmat qiluvchi muhim yangiliklarni kiritdi.

Jinoyat kodeksining 205–212-moddalarida esa, mansabdor shaxslarning mansab vakolati bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlari uchun javobgarlik ko‘zda tutilgan. Bu mansabdor shaxslarning Konstitutsiyada ko‘zda tutilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligining huquqiy oqibati sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini to‘g‘risida”gi hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunlarda esa, ushbu organlarning fuqarolar manfaatlarini muhofaza qilish, xalq irodasini ifodalash bilan bog‘liq vakolat va majburiyatlari belgilab berilgan.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonunda ham basharti, mansabdor shaxslar fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlarni amalga oshirsa yoki shunday qarorlar qabul qilsa, fuqarolarning sudga murojaat etishini kafolatlaydi.

Ushbu moddani tizimli sharhlashda, shuningdek, uning Konstitutsiya, tegishli huquq instituti va huquq tarmog‘ida tutgan o‘rni va ahamiyatini ham aniqlash zarur. Mazkur norma Konstitutsiyada tutgan o‘rni kattadir. Zero, yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, ushbu moddadagi qoida Asosiy Qomusimizning bir qator boshqa normalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masala – xalq va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur norma Konstitutsiyaning boshqa normalariga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi va ustuvor prinsip sifatida baholanadi.

Shuningdek, mazkur norma konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining davlat hokimiyati institutiga taalluqli bo‘lib, ushbu huquq tarmog‘ida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu avvalo, ushbu norma-ni konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining boshqa institutlarini shakllantirishga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatishi hamda davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Demak, konstitutsiyaviy norma qoidalarini tizimli sharhlash uni yanada chuqurroq o'rganish, xususan, u taalluqli bo'lgan huquq tarmog'i va institutida tutgan o'rnini aniqlash, uning tegishli qonunchilik hujjatlari bilan aloqasini tahlil qilish va o'zaro konstitutsiyaviy norma hamda qonunlardagi normalar o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini beradi.

2.6. Tarixiy sharhlash

Mezon bo'yicha navbatdagi talablardan biri konstitutsiyaviy normani tarixiy sharhlash bo'lib, bu mamlakatimiz hududida amal qilgan konstitutsiyaviy normalarning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog'liq.

Huquqiy normani tarixiy sharhlash usulida qonun chiqaruvchi idora belgilagan har bir normaning maqsadi va ma'nosini aniqroq tushunib olish uchun, sharhlanayotgan norma qabul qilinayotgan paytda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sharoit inobatga olinadi.

Tarixiy sharhlashda tatbiq etilayotgan huquqiy normaning mazmuni qanday tarixiy sharoitda, davlatning qaysi organi tomonidan, qanday maqsadda qabul qilinganligi aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan tahririda 89-moddaning mazmuni quyidagicha edi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro hokimiyati boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi hisoblanadi". Ushbu qoida O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, o'tish davrida mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligi va farovonligini ta'minlashda mustahkam zamin bo'ldi.

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, hokimiyatlar taqsimlanish prinsipini yanada chuqurlashtirish, oliy hokimiyat organlari tizimida ro'y bergan muhim o'zgarishlar tufayli mazkur qoida tadrijiy ravishda o'zgarib bordi. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi Konstitutsiyaviy qonuni bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga quyidagicha tuzatishlar kiritildi: "O'zbekiston Respublikasining

Prezidenti **davlat boshlig'idir** va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi".

Sharhlanayotgan normaning tarixiy kelib chiqish shartlari, ya'ni huquqiy norma ma'nosining qabul qilinishi tarixiga murojaat etish orqali uni huquqiy tartibga solish tizimiga kiritishdan ko'zlangan maqsad aniqlanadi.

Sharhlashning tarixiy usulida normativ hujjatning matni bilan birga tarixiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining muhokama qilinishi va qabul qilinishi bilan bog'liq materiallar, bunday hujjatlar chiqarilishi vaqtidagi urf-odatlar, yuridik amaliyotning ilmiy sharhlari va boshqa shu kabi qo'shimcha manbalardan foydalaniladi.

Sharhlovchi subyekt xayolan huquqiy normaning hayotga kirib kelishiga sabab bo'lgan tarixiy sharoitlarga qaytib, o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhitni o'rganib chiqadi¹¹.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach qabul qilingan istiqlol mahsuli bo'lmish yangi Konstitutsiya jahon konstitutsiyaviy tajribasida alohida o'rin tutuvchi huquqiy pretsedent hisoblanadi. Loyihasi ikki marotaba umumxalq muhokamasidan o'tgan Konstitutsiyamizning yaratilish davri o'ta murakkab tarixiy jarayonlar silsilasiga to'g'ri keldi.

Konstitutsiya normalarini tarixiy sharhlashda ushbu normada ko'zda tutilgan qoidalarning muqaddam qaysi huquqiy hujjatlarda o'z aksini topganligini bayon etish maqsadga muvofiq. O'zbekiston huquqshunosligi tarixida davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalar eng qadimgi davrda "Avesto", o'rta asrlarda shariat – islom huquqi normalari, xususan, unga asoslangan Yasoq qonunlari, "Temur tuzuklari" singari hujjatlar, yangi davrda dastavval Buxoro va Xiva Konstitutsiyalari, keyinchalik sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida 1927, 1937 va 1978-yilgi Konstitutsiyalar bilan tartibga solingan. Konstitutsiya normalarini tarixiy sharhlashda ham aynan ushbu hujjatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quyida ushbu tarixiy hujjatlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamizki, o'quvchi kelgusida konstitutsiyaviy normani tarixiy sharhlashda ulardan foydalanishi mumkin bo'ladi.

"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bizgacha yetib kelgan qismlari milodning III-VII asrlarida tahrir

¹¹ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.437-438.

qilingan. "Avesto" boblari fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iborat. "Avesto" fors tilidan "Apastak" yoki "Asos" deb tarjima qilinadi.

"Avesto" birinchi bo'lib XVIII asrda (1755–1761-yillarda) fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan.

"Avesto" 1000 fasldan iborat bo'lib, 21 kitobni o'z ichiga olgan, ilk yozmasi 8300000 so'zdan iborat bo'lgan.

Dastlabki "Avesto" 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Ayrim qismlari saqlanib qolgan: Yasna – "qurbonlik keltirish", Vispard – "hamma hukmronlar", Yasht – "qadrlash", "ulug'lash". Videvdat – "devlarga qarshi qonun" bo'lib, sosoniylar davrida tahlil qilingan.

I. Yasna 72 bobdan iborat bo'lib, unda hamdu sanolar, qurbonlik qilish va boshqa zardushtiylik marosimlarini bajarish paytida yoddan o'qiladigan duolarni qiroat bilan o'qish, otashparastlik bayramlari rasm-rusumlari o'z ifodasini topgan.

II. Yasht – alohida xudolarni madh etuvchi va yovuz qushlarga qarshi kurashda ezgu ma'budalariga madadkor bo'lgan qushlarni ulug'lovchi 22 ta oyatlarlardan iborat.

III. Visparad 24 bobdan iborat bo'lib, poklik, to'g'rilik yo'lini tutgan zotlar Oliy Tangri Axura Mazdaning barcha yaxshi xislat va fazilatlariga bag'ishlangan.

IV. Videvdat 22 bobdan iborat, ularda Axura Mazda yaratgan 16 ta mamlakat va Anxra Manuning ularga yetkazgan zarari haqida so'z yuritiladi. 20-bobida dunyodagi birinchi tabib Srita haqida ma'lumot beriladi.

Videvdatning keyingi boblarida qadimgi zardushtiylar chiqargan qonunlar kishilarning induvidual va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, odamlarning jamiyatdagi bir-biriga nisbatan tutgan o'rinlari, axloq va odob, jinoyat va jazo, badanni va ruhni chiniqtirish, kishi o'zini har xil nopokliklardan asrashi, tabiblik va tabib haqi, o'likni yerga ko'mib, yerni harom qilgan yoki yolg'on va'da bergan odamni jazolash, o'liklarni qo'yadigan daxmalar qurish, ko'mish marosimi va o'likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va uni ehtiyot qilish, ayollarga munosabatda bo'lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, odamlarni g'aflatdan uyg'otuvchi xo'roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash va hokazolar o'z ifodasini topgan.

"Avesto"da jamiyat to'rtta asosiy qismga bo'linadi. Uy, oila jamoasi – "nmana", "dmana", urug' jamoasi – "vis", "qabila".

“zantu”, qabilalar ittifoqi – “daxiyu” deb atalgan. Vis 15 ta qarindosh nmanadan tashkil topgan. Visga qizning farzandlari kirmagan. Chunki, “vis” mutlaqo patriarxal oila bo‘lgan. Jamiyat iqtisodiy asosini urug‘ jamoasi tashkil etib, ijtimoiy-huquqiy vazifani bajargan¹².

“Avesto”da qadimgi 16 mamlakatning hududiy-ma‘muriy va siyosiy-huquqiy boshqaruv tizimi quyidagicha tashkil etilgan: davlatni – podshoh “kavi” boshqargan, kavi muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Tarixchilarning fikriga ko‘ra, “kavi”ning hukmdorlik huquqi belgilanishida “farr” (“Avesto”da Xvarno) asos sifatida qabul qilingan, ya‘ni oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning (vakilidan ikkinchisiga o‘tishida muayyan ilohiy belgi sodir bo‘lar, muayyan bir jonivor yoki yog‘du shu‘lasi hukmronlikka tanlangan kishilarni ko‘rsatadi. Oilalarning birlashmasi, “nmana”, uy, oila jamoasi “dmana”, katta oila jamoasi oqsoqoli “nmanapati”, urug‘ jamoasi boshlig‘i “vis”, katta qishloq oqsoqoli “vispati” qabila boshlig‘i “zantupati”, viloyat hokimi “daxiyupati” (bir necha viloyatlarning boshlig‘i va harbiy boshliq “daxiyu sastar”). Qonun chiqaruvchi organ oqsoqollar kengashi “varzanapati” deb, xalq Majlisi esa, “vyaxa” deb atalgan. Oqsoqollar Kengashining uyushmasi kohin Oliy sudya vazifasini bajargan, uni “Zaraushtroyema” deb atashgan, uning hukmi qat‘iy bo‘lgan, unga hech kimning e‘tiroz bildirishga haqqi bo‘lmagan. Oqsoqollar kengashi – varzanapati qo‘lida diniy mafkura va hokimiyat birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo‘jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasi oqsoqoli “nmanapati” oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. “Vis” muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarini bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari “nmapati”lar ichidan saylanib, urug‘ jamoasi boshlig‘i, qozi, diniy kohin, rahnamo hisoblangan. “Daoxiyu sastar”lar bir necha qabilalar yashaydigan ma‘muriy hududni, viloyatlar va yirik o‘lkani va harbiy qo‘mondonlik boshqaruvi vazifasini bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qanday nizomlar va buyruqlar jamoa a‘zolari uchun muqaddas qonun vazifasini bajargan.

¹² Hamidova M. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. O‘quv qo‘llanma / Mas‘ul muharrir: prof. H.B.Boboyev. – Toshkent: TDYuL, 2005. – B.25-26.

Jamiyat aholisi 4 toifaga bo'lingan: kohinlar, jangchi askar, chorvador va hunarmandlar ("Yasna", 19-bob). Qullar – "vaysa", oila xizmatkorlari "viranmaja", insoniy huquqlari cheklangan cho'pon – "payshautar" deb atalgan. Asosiy boylik jamoa boshliqlari, oqsoqollar, sarkardalarning qo'lida to'planib, "gayta" boylik yoki xususiy mulk degan ma'noni anglatgan¹³.

Musulmon huquqi (shariat). O'rta asrlarda mamlakati-miz hududida rivojlangan davlatlarda ijtimoiy munosabatlar musulmon huquqi (shariat) normalari asosida tartibga solingan. Islom huquqi VII asrdan boshlab kirib keldi.

Shariatning muhim manbasi oyat va suralardan tashkil topgan, musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'oni Karim hisoblanadi. Uning to'liq ishlangan nusxasini xalifa Umar (644-656 yillar) hozirgi holatga keltirgan. Qur'onning o'zida uning huquqiy ahamiyati quyidagicha ta'riflanadi: "Shunday qilib, biz uni arab qonunlari sifatida nozil qildik".

Qur'on 6666 oyatga bo'lingan, 114 suradan iborat. Ularning ko'pchilik qismi diniy xarakterga ega va faqatgina 500 ga yaqini musulmonlarning yurish-turish qoidalariga tegishli. Ularning 80 ga yaqini huquqiy (deyarli, bular oila, nikohga tegishli), qolgani esa, diniy marosim va majburiyatlarga qaratilgandir.

Musulmonlar uchun eng muhim manbalardan biri bu sunna bo'lib, u Muhammad (s.a.v.)ning fikr-mulohazalari va qilgan ishlari jamlangan ko'plab hodisalardan iboratdir.

Musulmon huquqi manbalari ichida uchinchi o'rinni ijmo egallagan bo'lib, unga musulmon jamoasining umumiy kelishuvi sifatida qaralgan. Ijmo Qur'on va sunna bilan bir qatorda ta'sirchan manbalar guruhiga kirgan.

Musulmon huquqining eng bahsli manbalaridan biri qiyos (ilgarigi qarorga qarab qaror chiqarish) bo'yicha huquqiy masalalarni yechish hisoblangan. Qiyosga ko'ra Qur'onida, sunnada yoki ijmoda o'rnatilgan qoidalar bu huquq manbalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan ishlarda ham qo'llanishi mumkin bo'lgan. Qiyos nafaqat yangi paydo bo'lgan munosabatlarni tez yechishga imkon yaratgan, balki u shariatni bir qator holatlarda ilohiy aralashuvlaridan ozod qilishga xizmat qilgan.

¹³ Hamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: prof. H.B.Boboyev. – Toshkent: TDYuL, 2005. – B.26-27.

Shariat huquqni alohida sohalarga bo'lishni nazarda tutmasada, unda fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan, mulk huquqi, shartnoma va delikt huquqlar nisbatan rivojlandi.

Musulmon huquqiga binoan shaxsning huquqiy holati uni dinni qabul qilishi bilan belgilangan. Xristian yoki iudaizm dinini qabul qilganlar qiyin ahvolga solingan va katta davlat soliqlarini to'lashga majbur etilganlar. Ularga nisbatan shariat normalari faqatgina ular musulmon kishi bilan bitim tuzganlarida yoki jinoyat sodir etganlarida qo'llanilgan. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi qullarning holatiga ta'sir qildi.

Ashyo huquqi bilan bog'liq bo'lgan, shariatning o'ziga xos institutlaridan biri "vaqf" bo'lib, u o'zida mulkni aks ettirgan. Odatda bu mulk mulkdor tomonidan qandaydir diniy va ilohiy maqsadlar yo'lida berilgan.

Rim huquqidan farqli o'laroq, shariatda majburiyatning umumiy konsepsiyasi aniq belgilanmagan bo'lib, ammo tovar-pul munosabatlariga asoslangan amaliy shartnoma huquqi masalalari har tomonlama ishlab chiqilgan. Majburiyatlar bir tomonlama va ko'p tomonlama, tez bajariladigan va tez bajarilmaydigan turlarga bo'lingan.

"Hidoya" islom dunyosida e'tiborli kitoblardan bo'lib, barcha madrasalarda musulmon huquqi bo'yicha qo'llanma sifatida o'qitilgan. "Hidoya" muallifi mujtahidi muallaq darajasidagi fiqh olimi bo'lib, yuridik amaliyotda pretsedent (o'xshash holatlar va ishlarga qo'llanilishi mumkin) bo'la oladigan qarorlar (fatvo)ni qabul qilishga haqli edi. Shuning uchun ham muallif kitobning ko'pgina joylarida huquqiy masala yechimida o'z fikrini keltiradi. Sharhlar berilgan joylarda Abu Hanifa huquq maktabi hamda shogirdlarining fikrini ham keltiradi.

"Hidoya" faqat musulmon dunyosida fiqhni o'rganish manbai sifatidagina emas, uning yuridik (huquqiy masalalarni hal etishda qo'llanma) manbaiga ham aylanib qolgan.

"Hidoya" shariat sudlari – qozilar, ularning oldiga qo'yiladigan maqsad va vazifalar, ish yuritish, jazo, hukmni ijro etish masalalariga maxsus kitob bag'ishlangan bo'lib, u "qozining majburiyatlari" deb ataladi. Musulmon fiqhi asosida ish ko'radigan sudyalar – qozilar tizimi ham dastlab Arabistonda vujudga kelib, ayniqsa, Abu Yusuf davrida u maxsus muassasa sifatida shakllangan, musulmon huquqiy ideologiyasiga ko'ra, qozilik so'rab yoki iltimos qilib, tanish-bilishchilik qilib egallanadigan mansab emas, hukmdor

tomonidan shu ishga loyiq qilish majburiy tayinlash natijasida egallanishi rag'batlidir. Bunga "kim qozi qilib tayinlansa, u halqumi o'tkir pichoq bilan emas, o'tmas pichoq bilan kesilayotgan hayvon kabi azobga tortiladi", degan hadis sabab bo'lsa kerak. Shuning uchun ham manbalarda keltirilishicha, ko'plab faqihlar qozilik mansabini egallashdan bosh tortganlar (masalan, Abu hanifaning o'zi), qiynoq ostidagina uni egallashga rozi bo'lganlar.

Xullas, "Hidoya" islom dunyosida e'tiborli kitoblardan biri bo'lib, barcha madrasalarda musulmon huquqi bo'yicha qo'llanma sifatida o'qitilgan. "Hidoya"ga ko'ra, qozining buyrug'i bilan har qanday kishi jazolash to'g'risidagi hukmni ijro etishi mumkin. Agar qozi: "Men bu shaxsni toshbo'ron qilishga hukm qildim, shuning uchun uning qo'lini chopib tashla, deb aytsa, buyurilgan shaxs qozining hukmini bajarishga majbur bo'lgan. Qozi ishdan bo'shatilgandan so'ng oddiy xususiy shaxs bo'lib qolgan".

Dunyoviy huquq-tartibot esa, qozilarning barcha turlari, bosh qozi (qozi kalon) (qozi kuznat), shuningdek, biylar sudlari, bundan tashqari, davlatga qarshi chiqib, jinoyatlarni hokim va beklar o'zlari ko'rib jazo tayinlaganlar. Ammo bu sudlar vazifalari biror-bir sud to'g'risidagi qonunlar bilan aniq ajratib qo'yilmagan. Shuning uchun ham sudlovlik turli qozilarga almashib, o'tib ham turgan. Qozilar shariat, fiqh ilmlaridan xabardor, odatda madrasalarda tahsil ko'rgan kishilardan tayinlangan.

O'rta asrlarda jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri bu – "Temur tuzuklari"dir. "**Temur tuzuklari**" XIV asrning II yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'rganishga doir Temur saltanati, uning davlati tizimi, boshqarilishi, sud tuzilishiga oid juda muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan tarixiy huquqiy manbadir. Tuzilishi jihatidan "Temur tuzuklari" ma'muriy-harbiy kodeksdir.

Tuzuklar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi – birinchi maqola Sohibqiron Temurning 7 yoshidan to uning so'nggi kunigacha bo'lgan hayoti, siyosiy faoliyati haqida, aniqrog'i, Amir Temurning asta-sekin Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritishi va uning keyingi yurishlari asosida Temuriylar saltanatiga asos solinishi haqida hikoya qilinadi.

Shuningdek, **Buxoro amirligi** davlatchiligi tarixida Amir Shohmurod salmoqli islohotlar olib borgan hukmdorlardan sanaladi. Bunday islohotlarning amalga oshirilganligi haqida noyob va

huquqiy manba deb to'la e'tirof etish mumkin bo'lgan huquqiy yodgorlik sanalmish — "**Majmu al-arqom**" ("Raqamlar majmuasi") rasmiy qoidalar to'plamini ko'rsatish mumkin.

Buxoro amirligida amir farmoyishlari — muboraknoma, farmonlari — hukmnoma, xabarnomalar — ariza deb nomlangan. Amir Shohmurodning bevosita tashbusi bilan **qirq a'lamdan** (qonunshunoslardan) iborat tarkibda oliy sud (qozixona) palatasi tuzildi. Ushbu palataning a'zolari, ya'ni qonunshunoslar shariat qonun-qoidalari asosida Amir Shohmurod tomonidan tuzilgan qoidalar to'plami asosida quyi sud idoralari qozilarining hukmidan norozi bo'lib yozilgan arz va shikoyatnomalarni ko'rib chiqar edilar.

Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida sud tizimi: qasaba (kattaroq qishloq), tuman, viloyat qozilari. Bosh qozi va qirq a'lam sudi vujudga kelib, eng oliy qozi amirning o'zi edi¹⁴.

Amir Shohmurod shaxsan Qushbegi Davlat Biy hamda Qozikalon Nizomiddin xo'jalarga aniq vazifalarni belgilab beradi va ushbu holatlar uchun ularni davlat boshlig'i — amir hamda xalq oldida hisobdor va mas'ul qilib qo'yadi.

Buxoro amirligida davlatni boshqarish boshqa xonliklardan deyarli farq qilmagan. XVI-XVII asrlarda otaliq lavozimidagi shaxs xonning o'ng qo'li hisoblanib, butun mamlakatni boshqargan. Naqib harbiy va tashqi siyosat bilan shug'ullangan. Vaqf yerlarni nazorat qilish sadrlar zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, qo'shin uchun alohida qozi (qoziaskar) tayinlangan. Qonunshunoslikka va umuman shariatga doir muhim masalani yechish va hayotga tatbiq etish qirq a'lam zimmasida bo'lgan. Devonbegi otaliq mansabidan keyin turgan. U urush va sulh ishlari, ayrim viloyat boshliqlarini tayinlash va boshqa masalalar bilan shug'ullangan. Parvonachi xon yorliqlarini topshirish va harbiy qismlarga boshchilik qilish kabi vazifalarni ado etgan.

Mang'itlar sulolasi davrida ham mustabid hokimiyat shakli mavjud bo'lib, amir huquqi chegaralanmagan oliy hukmdor edi. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir — qushbegi boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan. Shayxulislom bosh ruhoniy va adliya ishlarining sardori hisoblangan. U jamiyat ma'naviy hayotini

¹⁴ Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. — Toshkent: O'qituvchi. — B.208.

boshqargan. Mamlakat murakkab davlat apparati orqali idora qilingan. Masalan, moliya ishlari devonbegiyi kalonga, davlat xavfsizligi ko'kaldoshga, ichki tartib va xavfsizlikni nazorat qilib turish raisga topshirilgan. Sud hokimiyati ruhoniylar qo'lida bo'lgan¹⁵.

Bevosita o'zbek konstitutsionalizmi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasi** 1920-yilning 30-aprelida xalq vakillarining Butun Xorazm I qurultoyida qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiya VI bo'lim, XV bob va 87-moddadan iborat edi. Birinchi bo'lim kirish qismi va III bobdan iborat edi. Ikkinchi bo'lim XXSR Konstitutsiyasining Umumiy qoidalari deb atalib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, fuqarolarning huquq va burchlariga bag'ishlangan edi. Uchinchi qism davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy va markaziy organlari, to'rtinchi qism saylov huquqi, beshinchi qism budjet huquqi, oltinchi qism gerb va bayroq haqidagi qoidalardan iborat bo'lgan. Konstitutsiya – RSFSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan.

Respublikada xususiy mulk, sohibkorlik va savdo oboroti bilan shug'ullanishning to'la ozodligi saqlab qolinishi e'lon qilindi. "Shaxslarga erkin holda kommertiya ishlari bilan shug'ullanish huquqi berildi", kommertiya va savdo kompaniyalarini tashkil qilishga qarshilik qilinmadi (Konstitutsiyaning 16-moddasi). Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik saqlab qolindi. Xon va uning avlodlariga, amaldorlariga tegishli yerlar musodara etilib, yersiz dehqonlarga bo'lib berildi. Vaqf yerlari saqlab qolindi. XXSR iqtisodi davlat sektori, kooperativ sektor, yakka xo'jalikchi dehqon va hunarmandlar sektori, feodal kapitalistik (xususiy) sektorlardan iborat edi.

Oliy qonunchilik va hokimiyat organi – xalq vakillari Umum Xorazm qurultoyi hamda Umum Xorazm Markaziy Ijroiya qo'mitasi va uning Prezidentidan iborat bo'lib, 4 ming aholidan 1 ta deputat, 100 askarlardan bir vakil tartibida tashkil topdi.

Davlat boshqaruvining oliy organi Xalq Nozirlar Soveti edi. Dastlab yetti nozirlik – harbiy, moliya, davlat nazorati, iqtisodiy, tashqi ishlar, madaniyat va maorif, yustitsiya nozirliklaridan iborat edi. Umumjinoiy va grajdanlik ishlarini ko'rib hal etish uchun esa, yustitsiya nozirligida Xalq sudi tuzildi.

¹⁵ Shodiyev J.M. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: prof. H.B.Boboyev. – Toshkent: TDYul, 2005. – B.49-50.

Saylovlar ko'p pog'onali tuman ijroiya komitetlari ikki pog'onali, Oliy hokimiyat organlariga esa, uch pog'onali tartibda amalga oshirilgan.

1923-yilning oktabrida Umum Xorazm Sovetlarining IV qurultoyi XXSSR deb e'lon qilindi. Qozilar o'rniga yangi sudlar, qishloqlarda esa, Sho'rolar Kengashi tuzilgan. Qabul qilinayotgan dekretlarning deyarli hammasi uchun asos qilinib shariat qonunlari qabul qilingan edi. Jumladan, "Sudxo'rlik ishlarini amalga oshirish to'g'risida"gi dekretga muvofiq sudxo'rlardan 20 foizdan ziyod qarz olgan barcha qarzdorlarning qarzi bekor qilindi. Berilgan kreditning 10 % dan ortig'ini olgan sudxo'rlarning bir yildan besh yilgacha qamalishi belgilanadi. S'ezd qabul qilgan qonunlardan biri "Vaqf yerlari haqidagi qonun" bo'lib, u machit va madrasalar, diniy tashkilotlarga tegishli barcha mulklar davlat mulki deb e'lon qilindi. Hosilning 10/1 qismi davlat solig'i sifatida to'lanishi belgilandi. Mehnatkashlarning mavjud huquq va erkinliklari kengaytirildi, xususiy mulk bekor bo'ldi, mulkdorlar, ruhoniylar, aksilinqilobiy kuchlarning saylov huquqlari bekor qilindi.

1920-yilning 23-sentabrida Buxoro Sovetlarining qurultoyi **Buxoro Konstitutsiyasini** qabul qildi. Konstitutsiya RSFSRning 1918-yildagi Konstitutsiyasiga asoslandi. Konstitutsiya Umumbuxoro Xalq deputatlari s'ezdi Oliy hokimiyat organi hisoblanib, 2 ming kishidan bir deputat miqdorida saylangan. Uning sessiyalari doimiy organ bo'lgan. Butun Buxoro Xalq Sovet Respublikasining hukumati Xalq Nozirlari Soveti ustidan nazorat organi hisoblanib, uning muhim qarorlarini tasdiqlagan.

Buxoroda qozi sudlari tiklanib, 1924-yilda 57 ta qozi sudlari faoliyat ko'rsatgan. 1924-yilda BXSrdagi sud tuzilishi bo'yicha Nizom qabul qilinib, xalq sudlari – qozi sudlari; okrug sudi; Oliy sud tuzilgan. Qozi sudlari shariat huquqi asosida faoliyat ko'rsatgan.

1922-yildan boshlab Buxoro hududida RSFSR qonunlari joriy qilingan. Davlatga qarshi jinoyatlar faqat RSFSR JK va JPK asosida ko'rilgan. 1923-yilda Respublika Prokuraturasi tuzilgan, uning boshida yustitsiya Xalq Komissarlarining birinchi o'rinbosari turgan. Uning yordamchisi Respublika Oliy sudi huzuridagi Prokuror funksiyasini bajargan, viloyat prokurorlari unga bo'ysungan.

Mamlakatimizning sobiq SSSR tarkibida bo'lishi davrida uchta Konstitutsiya qabul qilingan. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30-martda O'zbekiston SSR Sovetlar II s'ezdida qabul qilingan. Konstitutsiya 8 bo'lim, 17 bob va

114 moddadan iborat. Bu davlatning kapitalizmdan sotsializmga o'tish bosqichidagi Asosiy qonuni bo'lgan. Uning mohiyati proletariat diktaturasini huquqiy jihatdan mustahkamlashdan iborat bo'lgan. Hokimiyatning oliy egasi sifatida mamlakatning qishloq va shahar Kengashlarida birlashgan barcha ishchi aholi e'lon qilingan.

1927-yilgi Konstitutsiya faqatgina respublika ta'minlashi mumkin bo'lgan huquq va erkinliklarni huquqiy mustahkamlagan. Ayni damda 1927-yilgi Konstitutsiya mehnatkashlarning bir qator huquqlarini e'tirof etmagan. Jumladan, mehnat qilish huquqi o'z aksini topmagan, chunki uni amalga oshirishning moddiy kafolatlari amalda ta'minlanmagan edi. Shuningdek, ta'lim va dam olishga bo'lgan huquqlar ham to'la-to'kis ta'minlanmagan. Fuqarolarning irqiy va milliy mansubligidan qat'i nazar tengligi tan olingan. Shu bilan birga, milliy kamchilikni tahqirleydigan yoki ularning teng huquqliligini chekleydigan asosda har qanday imtiyoz yoki qulaylik yaratilishi ham noqonuniy deb topilishi e'lon qilingan.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini sanash barobarida Konstitutsiya eng muhim burchlarni ham mustahkamlagan: mehnat qilish (11-modda), harbiy majburiyat (12-modda). Shu bilan birga, revolyutsiyani qo'lida qurol bilan muhofaza qilishdek sharafli huquqqa faqatgina mehnatkashlar egaligi qayd etilgan, mehnat bilan band bo'lmagan emitentlar boshqa harbiy majburiyatlarni o'tashlari talab qilingan.

Konstitutsiyada ishchi sinf va sotsial revolyutsiya manfaatlariga xilof ish yuritayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash prinsipi belgilangan (17-modda). Muxtasar qilib, aytganda, ushbu Konstitutsiya O'zbekistonning sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqchi davlat sifatidagi davlat-huquqiy maqomini belgilab berdi.

Keyingi Konstitutsiya 1937-yilda qabul qilindi. 1937-yilgi Konstitutsiyada respublika hayotida ro'y bergan so'nggi o'zgarishlar – iqtisodiyot sohasida sotsializmning g'alaba qilishi, sotsializm qurishning yakunlanishi, mamlakatning rivojlangan sotsializmga o'tishi kabi voqealar o'z aksini topdi. Ushbu Konstitutsiya respublikada sotsializm g'alabasini – ishchi va dehqonlarning sotsializm qurish yo'lidagi kurashi natijasini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Mazkur Konstitutsiyada yangi ijtimoiy va davlat tuzumi belgilandi, davlat organlarini tashkil etish va faoliyat yuritishning prinsiplari o'z aksini topdi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari mustahkamlandi.

O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasi 14-fevralda O'zbekiston Soveti VI favqulodda S'ezdida qabul qilingan. Xususan, 1937-yilgi Konstitutsiyaning 4-moddasiga binoan, ishlab chiqarish quroli va vositalariga nisbatan xususiy mulk bekor qilindi; insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi taqiqlandi va butun iqtisodiy tizim negizida qo'yildi.

Ushbu Konstitutsiya 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasiga butkul muvofiqlikda ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ayrim o'ziga xos jihatlarga ham ega bo'lgan. Xususan, uning 121-moddasida erkak va ayollarning teng huquqliligi belgilanib, ikkinchi qismida ayollarning ozod qilinishiga qarshilik qilish (voyaga yetmay erga berish, qalin, ayollarning o'qish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishga, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etilishiga to'sqinlik qilish) qonun bilan taqiqlanishi ko'rsatildi. Shuningdek, 1937-yilgi Konstitutsiya yangi saylov tizimini – teng, umumiy, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish huquqini belgilab berdi.

1978-yil 19-aprelda Oliy Kengashning navbatdan tashqari to'qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida O'zbekiston SSRning uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. U muqaddima, 11 bo'lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo'lib, unda respublikamizning ijtimoiy va siyosiy tuzumi, milliy va ma'muriy-hududiy tuzilishi, oliy va mahalliy davlat hokimiyati organlari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish davlat dasturlari, davlat budjeti tartibga solingan, shuningdek, davlat va shaxs tushunchalarining o'zaro munosabati aniqlashtirilgan. 1978-yilgi Konstitutsiya bo'yicha "mehnatkashlar deputatlari Kengashlari" "xalq deputatlari Kengashlari" deb o'zgartirildi. "Jamiyatning siyosiy tizimi" atamasi kiritilib, unda davlat, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari bilan bir qatorda kommunistik partiya ham kiritildi.

1978-yilgi Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda – ya'ni, mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar amal qildi.

1978-yilgi Konstitutsiyada 1-bo'lim "O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy va siyosiy tizimi asoslari" (1–30-moddalar), 2-bo'lim "Davlat va shaxs" (31–67-moddalar), 3-bo'lim "O'zbekiston Respublikasining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi" (68–81-moddalar), 4-bo'lim "O'zbekiston Respublikasi Xalq deputatlari kengashlari va ularni saylash tartibi" (82–100-moddalar), 5-bo'lim "O'zbekiston Respublikasida oliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari" (101–127-moddalar), 6-bo'lim

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari” (128–133-moddalar), 7-bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari” (134–149-moddalar), 8-bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish davlat rejasi. O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti” (150–161-moddalar), 9-bo‘lim “Odil sudlov, hakamlik va prokuror nazorati” (162–177-moddalar), 10-bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasining gerbi, bayrog‘i, madhiyasi va poytaxti” (178–181-moddalar), 11-bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amal qilish va uni o‘zgartirish tartibi” (182–183-moddalar) kabi masalalarni tartibga solishga bag‘ishlangan.

Demak, o‘quvchiga qulay bo‘lishi uchun Konstitutsiyaning 106-moddasida berilgan qoidani tarixiy sharhlab o‘tamiz.

Unga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi”.

O‘zbekiston Respublikasi hududida sud hokimiyati uzoq rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. O‘zbekiston huquqshunosligi tarixida odil sudlovga oid masalalar eng qadimgi davrda “Avesto”, o‘rta asrlarda shariat – islom huquqi normalari, xususan, unga asoslangan Yasoq qonunlari, “Temur tuzuklari” singari hujjatlar, yangi davrda dastavval Buxoro va Xiva Konstitutsiyalari, keyinchalik sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida 1927, 1937 va 1978-yilgi konstitutsiyalar bilan tartibga solingan.

Xususan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ning Videvdadan keyingi boblarida qadimgi zardushtiylar chiqargan qonunlar kishilarning individual va ijtimoiy huquqlari, jinoyat va jazo masalalari belgilangan. “Avesto”da sudya vazifasini kohinlar amalga oshirishgan. Ularning sudyalik bilan bog‘liq maqomi huquqiy jihatdan maxsus belgilab berilmagan. Kohinlar o‘z qarorini jamoaviy omma oldida e‘lon qilgan va jazo tayinlagan.

Oqsoqollar Kengashining uyushmasi qohin Oliy sudya vazifasini bajargan, uni “Zaraushtroyema” deb atashgan, uning hukmi qat‘iy bo‘lgan, unga hech kimning e‘tiroz bildirishga haqqi bo‘lmagan. Oqsoqollar kengashi – Varzanapati qo‘lida diniy mafkura va hokimiyat birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo‘jalik masalalarini hal etganlar.

“Vis” muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarni bajar-gan. U katta oila jamoasi oqsoqollari “nmapati”lar ichidan saylanib, urug’ jamoasi boshlig’i, diniy kohin, rahnamo bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshiradigan qozi ham hisoblangan.

O’rta asrlarda sudyalarning maqomi shariat – islom huquqi normalari bilan tartibga solingan. Unga ko’ra, ushbu funksiyani qozilar amalga oshirgan. Qozilar o’z faoliyatida shariatning muhim manbasi, oyat va suralardan tashkil topgan, musulmonlarning muqaddas kitobi bo’lgan Qur’oni Karim hamda sunnatga rioya qilgan.

Shuningdek, islom dunyosida e’tiborli kitoblardan biri bo’lgan, bar-cha madrasalarda o’qitilgan musulmon huquqi bo’yicha qo’llanma – “Hidoya”da ham qozilik mas’uliyati to’g’risida hadislar keltirilgan.

Mamlakatimizning sobiq Ittifoq tarkibida bo’lishi davrida uchta Konstitutsiya qabul qilingan. O’zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30-martda O’zbekiston SSR Sovetlar II s’ezdida qabul qilingan. Konstitutsiya 8 bo’lim, 17 bob va 114 moddadan iborat. Navbatdagi Konstitutsiya 1937-yil 14-fevralda qabul qilingan. Ushbu Konstitutsiyalarda sud hokimiyati mustaqilligi tan olingan bo’lsa-da, amalda ular hukmron sinf manfaatlarini ifodalashga xizmat qilgan. Konstitutsiyalarda belgilangan demokratik prinsiplar deklarativ tusda bo’lib, amalda tatbiq etilmas, sud hukmron sinf va mafkura qo’lidagi qurol vazifasini bajarar edi.

1978-yil 19-aprelda Oliy Kengashning navbatdan tashqari to’qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida O’zbekiston SSRning uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. U muqaddima, 11 bo’lim, 21 bob va 183 moddadan iborat. Uning 9-bo’limi “Odil sudlov, hakamlik va prokuror nazorati” (162–177-moddalar) deb nomlanib, u ikki bobdan – 20-bob “Sud va hakamlik” hamda 21-bob “Prokuratura”dan iborat.

Uning 162-moddasida “O’zbekiston SSRda odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. O’zbekiston SSR sudlari: O’zbekiston SSR Oliy sudi, Qoraqalpog’iston ASSR Oliy sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, rayon (shahar) xalq sudlaridir”, deb belgilangan.

Ushbu Konstitutsiyaga muvofiq, O’zbekiston SSRda hamma sudlar sudyalarni va xalq maslahatchilarini saylash asosida tuzilgan. Rayon (shahar) xalq sudlarining xalq maslahatchilari istiqomat joylaridagi yoki ish joyidagi fuqarolarning yig’ilishlarida ochiq ovoz berish yo’li bilan saylanadi. Yuqori sudlarning xalq maslahatchilari esa, xalq deputatlari tegishli Sovetlari tomonidan saylanadi. Barcha sudlarning sudyalari o’n yil muddatga saylanadi. Barcha sudlarning xalq maslahatchilari besh yil muddatga saylanadi. Sudyalar va

xalq maslahatchilari o'zlarini saylagan organlar yoki saylovchilar oldida javobgardirlar, ular huzurida hisob beradilar va shu organlar yoki saylovchilar tomonidan qonunda belgilangan tartibda chaqirib olinishlari mumkin (163-modda).

Guvohi bo'lganimizdek, Sovet Ittifoqi tuzumining ilk davrlarida sudlar adliya huzurida tashkil etilgan, mustaqilligi cheklangan organ sifatida faoliyat yuritgan. keyinchalik 1992-yilda mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan 1978-yilgi Konstitutsiyada ham sudlov tizimi butkul boshqacha mexanizm asosida tashkil etilgan. Ya'ni, muqaddam amal qilgan tizim sudyalari va xalq maslahatchilarining saylanishi, faoliyati muddati, hisobdorligi kabi mezonlarga ko'ra mavjud sud tizimidan tubdan farq qilgan. Bu avvalo ushbu tarixiy davrda qaror topgan siyosiy-huquqiy tizimdagi o'ziga xosliklar, shu davrdagi tarixiy shart-sharoit bilan belgilanadi.

Mustaqillikdan so'ng ham sud-huquq sohasida tub islohotlar olib borildi, chunonchi, 2000-yil 14-dekabrda "Sudlar to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi bilan mamlakatimizda sudlar ixtisoslashtirildi, sudlarning amalda chinakam mustaqilligi ta'minlandi, xususan, uning hokimiyatlar tizimidagi mavqei mustahkamlanib, huquqni muhofaza qilish organlari tizimida markaziy o'rinni egallashiga erishildi. jumladan, ehtiyot chorasi sifatida qamoqni qo'llash uchun sanksiya berish huquqi ham sudlarga o'tkazildi. Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li" nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq etildi, sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil qilindi, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" deb nomlangan ma'ruzasida "Sud-huquq tizimini isloh etish" alohida 2-bo'limda tahlil qilingan. Konsepsiyada sud-huquq tizimini isloh etish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda ushbu sohadagi islohotlar istiqbolini

belgilab beradigan asosiy takliflar ilgari surilganligi sababli uning asosiy jihatlariga ko'proq to'xtalib o'tish lozim. Xususan, unga ko'ra, "Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, o'z navbatida, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini berganini alohida ta'kidlash lozim.

Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo'zg'atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma – Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash departamenti tashkil etildi. Bu esa, sudlarning ularga xos bo'lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo'lishi va butun diqqat-e'tiborini o'zlarining asosiy burchi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi. Umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etildi. Bu o'z navbatida ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko'rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to'la va har tomonlama himoya qilish bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Aynan ushbu davrda kassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning apellyatsiya tartibi joriy etilgani ham muhim yangilik bo'ldi. Mazkur o'zgarishlarga muvofiq endilikda apellyatsiya instansiyasi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uni o'zi to'la hajmda ko'rib chiqishi mumkin.

¹⁶ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.15-28.

Shuningdek, sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi prokuratura vakolatlari doirasidan chiqarildi. Tuman va shahar prokurorlarining esa tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi"¹⁶.

Konsepsiyaning aynan sud-huquq islohotlariga taalluqli jihatlaridan biri ushbu sohani isloh etishning kelgusidagi istiqbollari belgilab berilganligi bo'ldi. Olimpiadada ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi ushbu yo'nalishlarni atroflicha o'rganishi va kelgusida o'z faoliyatida qo'llashi ishning saviyasini oshirishi shubhasiz. Shunday ekan, quyida ushbu takliflarni to'liqligicha keltirib o'tamiz:

"Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlat-huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lamlı vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'yayotganini biz o'zimizga albatta yaxshi tasavvur etamiz. Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchi. Bundan o'n yil oldin qabul qilingan amaldagi "**Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida**"gi Qonunning yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o'zi talab qilmoqda. Ya'ni, o'tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylıknı ta'minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo'lishini taqozo etmoqda.

Ikkinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi. Bu o'rında sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarnı faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Ushbu vakolatların prokurordan sud organlariga o'tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida "Xabeas korpus" institutini

qo'llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Uchinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutadigan norma o'rnatish taklif etiladi. Chunki amaldagi qonunchilikda davlat ayblovchisi, ya'ni prokurorning sud majlisida ayblov xulosasini o'qib eshittirish bo'yicha majburiyati aniq belgilanmagan. Shuning uchun ayblov xulosasi ko'pincha sudylar tomonidan o'qib eshittiriladi. Bu esa sudning vazifa va maqsadlariga mos kelmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan normaning kiritilishi sudning mustaqilligi, xolisligi va betaraflligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv prinsipi kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ma'lumki, jinoyat ishini qo'zg'atish avvalo surishtiruv va dastlabki tergov organlari, jinoiy ta'qibni amalga oshiradigan boshqa huquq-tartibot organlarining vazifasi hisoblanadi. Suddan esa shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholash talab etiladi.

Vaholanki, hozirgi paytda sud tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish tarzidagi protsessual harakatning amalga oshirilishi mohiyati jinoiy ta'qibning va undan kelib chiqadigan barcha oqibatlarining boshlanishi hisoblanadi. Bu esa, sudni jinoiy ta'qib ishtirokchilari toifasiga kiritib qo'yadi. Aytish kerakki, bunday amaliyot sudning oliy maqsadi bo'lgan odil sudlovni amalga oshirish tamoyiliga mutlaqo mos kelmaydi.

Beshinchi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan **"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish taklif etiladi.** Ushbu qonunning maqsadi tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o'tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo'naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume'tirof etilgan amali-

yotiga mos keladi. Ta'kidlash kerakki, bu qonun jinoyatlar sodir etilishining dastlabki bosqichlaridayoq ularning oldini olish va o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralarning samaradorligini, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, avvalambor, ichki ishlar idoralarining bu sohadaagi faoliyatining yanada liberallashtirishini ta'minlashga olib keladi.

Oltinchi. Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur.

1994-yilda qabul qilingan amaldagi mazkur kodeksga o'tgan davr mobaynida 60 martadan ko'proq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Uning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik va jinoiy-huquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi prinsipial o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamlil tarzda aks ettirishi lozim. Bunda, avvalambor, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni ko'zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o'nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya'ni birxillashuvini ta'minlaydi. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko'zda tutish lozim.

Yettinchi. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish talab etilmoqda. Adliya organlarining huquq ijodkorligi sohasi va huquqni qo'llash amaliyotida yagona davlat siyosatini o'tkazishdagi rolini kuchaytirish uchun ularga zarur bo'lgan tegishli vakolatlarining berilishi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tizimida o'zaro

tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi hamda ushbu organlar faoliyatida qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sakkizinchi. Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir. Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi¹⁷.

Demak, ushbu paragrafimizga xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy normani tarixiy sharhlashda o'quvchiga O'zbekiston tarixiga oid huquq manbalarida tegishli munosabatlarning qay darajada tartibga solinishini, mustaqillikdan keyingi o'zgarishlar va bu borada amalga oshirilgan islohotlar samarasi va istiqboldagi ishlar to'g'risida to'xtalib o'tish, bunda davlatimiz rahbarining konseptual fikr va mulohazalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

2.7. Mantiqiy sharhlash

Mantiqiy sharhlash – tafakkur jarayoni bo'lib, huquqni talqin etayotgan shaxs sharhlashning boshqa usullariga murojaat etmasdan faqat mantiq usullari yordamida huquq normasini izohlash usulidir.

Bunda huquqiy normaning matnidagi ifodalar, tushunchalar bir-biri bilan ichki mutanosibli va mantiqiy jihatdan uzviy bog'langanligiga e'tibor berilib, huquqiy normaning mazmuni aniqlanadi.

Mantiqiy usul huquqiy holatlarni bilishda, formal va dialektik mantiq vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunda sharhlashning obykti normativ-huquqiy hujjat ichki qismlarining o'zaro aloqadorligi hisoblanadi.

¹⁷ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.15-28.

Mantiqiy sharhlashning maqsadi huquq normalarining mazmunini mantiq qonuniyatlari va prinsiplariga tayangan holda tushuntirishdan iborat bo'ladi.

Mazkur sharhlash usuli yordamida huquq normasining mazmuni mantiqiy jihatdan qayta shakllantiriladi, tushunchasi mantiqiy tahlil qilinadi. Ularning hajmi, belgilari va aloqalari aniqlanadi. Huquqiy qoida hayotiy holatga yaqinlashtiriladi, shuningdek, o'xshash va qarama-qarshi jihatlar o'rganib chiqiladi¹⁸.

Mantiqiy sharhlashda konstitutsiyaviy-huquqiy normaning jamiyat va davlat rivojlanishidagi ahamiyatini keng yoritib berish, normaning jamiyat va davlatga ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib berish zarur. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Asosiy Qomusimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va qoidalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro huquq talablariga to'la-to'kis javob beradi. Shunday ekan, konstitutsiyaviy-huquqiy normani mantiqiy sharhlashda uning salbiy jihatlarini ochib berish emas, balki yanada takomillashtirish nuqtai nazaridan sharhlash maqsadga muvofiq.

Fikrimizni quyida konstitutsiyaviy-huquqiy normani mantiqiy sharhlash asosida yanada aniqroq ifodalab berishga harakat qilamiz.

Jumladan, Konstitutsiyamizning "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" degan qoidani mustahkamlovchi 50-moddasini mantiqiy sharhlab o'tsak. Ushbu huquq normasi davlat va jamiyat hayotida ekologik munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, u fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi. Ushbu normaning davlat hayotidagi ahamiyati uning tartibga soluvchi ahamiyati bilan belgilansa, jamiyat hayotidagi ahamiyati fuqarolarning ekologik-huquqiy ongi va madaniyatini belgilab berishdagi muhim omil vazifasini bajarishi bilan asoslanadi. Shubhasiz, mazkur norma davlat hayotida uning iqtisodiyoti negizini tashkil etuvchi tabiiy resurslarni muhofaza qilishga qaratilganligi bilan katta ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida esa, fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashga, barkamol avlod uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Huquq normasining jamiyatga ijobiy ta'siri bilan

¹⁸ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.439.

bog'liq jihatlari uning yuqorida ko'rsatilgan davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Ushbu normani takomillashtirish nuqtai nazaridan uning salbiy tomoni haqida shuni aytish lozimki, Konstitutsiyamizda faqatgina fuqarolarning ekologik burchlari belgilab berilgan, holbuki bir qator davlatlarda, xususan, Italiya, Shveysariya, Braziliya, Yaponiya, Moldova, Ukraina va Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyalarida fuqarolarning ekologik huquqlari (masalan, qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi) to'g'risida ham so'z boradi. Shundan kelib chiqqan holda, Konstitutsiyamizda ham fuqarolarning so'nggi yillarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan ekologik huquqlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2.8. Nazariy sharhlash

Nazariy (ilmiy yoki doktrinal) sharhlash deganda, kundalik faoliyatda bevosita huquqdagi muammolarga duch keluvchi va ularni bartaraf etish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, huquqshunos olimlarning mavjud huquq normalarining mohiyatini yoritib berishga yo'naltirilgan izohlari tushuniladi.

Tatbiq etilayotgan normalarni ilmiy (nazariy) sharhlash ilmiy xodimlar, olimlar, mutaxassislar tomonidan monografiyalar, darsliklar, ma'ruzalar va ilmiy maqolalarda amalga oshirilishi mumkin. Bunday sharhlash ilmiy xarakterga ega bo'lib, majburiy (normativ) ahamiyat kasb etmaydi.

Huquqiy normani ilmiy sharhlashning maqsadi qonun chiqaruvchi idora nazarda tutgan huquqiy me'yorning ma'nosini aynan aniqlashdan iborat. Qonun chiqaruvchi idora o'z irodasini til vositalarida ifodalaydi. Shuning uchun uning so'zlari yordamida ifodalangan irodasi har doim ham uning haqiqiy mazmuni bilan mos kelmasligi mumkin. Huquq normasi ma'nosining bir xilligi va to'la aniqligi sharhlashning natijasi hisoblanadi¹⁹.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani nazariy sharhlashda ushbu normaning mazmunini ilmiy jihatdan ochib berish talab qilinadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy normani nazariy sharhlashda tegishli konstitutsiyaviy norma yuzasidan mamlakatimizda mustaqillik

¹⁹ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.443-444.

yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan misollar keltirish maqsadga muvofiq.

O'quvchiga qulay bo'lishi uchun Respublikamizda mustaqillik yillarida huquqshunoslikning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan hamda konstitutsiyaviy-huquqiy normani sharhlashda foydalanilishi mumkin bo'lgan asosiy tadqiqot ishlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamizki, o'quvchi ushbu ma'lumotlardan kelgusida tegishli konstitutsiyaviy-huquqiy normani nazariy sharhlashda foydalanishi tavsiya etiladi:

1. Mamlakatimizda konstitutsiyaviy huquq, davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, xalqaro huquq rivojiga ulkan hissa qo'shgan quyidagi o'zbek huquqshunolarining ilmiy ishlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish lozim:

– Azizxo'jayev A.A. Davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqni muhofaza qilishga oid faoliyatining nazariy muammolari, 1992.

– Abbosxo'jayev S.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish, 2007.

– Abbosxo'jayev Sh.A. Demokratik davlat qurish sharoitida Prezidentlik institutining huquqiy asoslari, 2008.

– Bekov I.R. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi shakllanishi va faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining huquqiy asoslari, 2009.

– Boboyev H.B. O'zbekistonda XIV-XV asrlarda siyosiy va huquqiy ta'limotlar, 1993.

– Djumaboyev K.N. Zakonodatelnaya i ispolnitelnaya vlasti: vzaimosvyaz i vzaimodeystviye, 1993 (Qonunchilik va ijroiya hokimiyati: o'zaro aloqasi va munosabati).

– Yerniyazova G.Ye. Razvitiye zakonodatelstva o pravovom statute Respubliki Karakalpakstan i problemi yego sovershenstvovaniya, 1993 (Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi to'g'risidagi qonunchilik rivoji va uni takomillashtirish muammolari).

– Jumayev R.Z. Problemi formirovaniya i ukrepleniya politicheskoy sistemi Respubliki Uzbekistan (O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi va mustahkamlash muammolari), 1996.

– Jumayev Y.G. Viloyat, tuman va shahar hokimlarining huquqiy holati, 2004.

– Zulfiqarov Sh.X. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, 2008.

– Islomov Z.M. “Uchastiyе professionalnix soyuzov v upravlenii gosudarstvom”. 1972 (Kasaba uyushmalarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki); “Politika – pravovaya reforma: vzaimodeystviye prava i norm obshestvennix organizatsiy v samoupravlenii naroda”. 1991 (Siyosat – huquqiy islohot: huquq va jamoat birlashmalari qoida va normalarining xalqning o‘zini o‘zi boshqaruvidagi ishtiroki).

– Malikova G.R. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim vazifa vakolatlarini o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish (huquqiy tashkiliy masalalar), 2004.

– Matkarimova G. Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari, 2002.

– Muhamedov O‘.H. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta‘minlashning nazariy muammolari, 2002.

– Muhammadjonov O.Z. Formirovaniye organizatsionno-pravovix osnov deyatelnosti dvuxpalatnogo parlamenta v Respubliki Uzbekistan, 2004 (O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish).

– Najimov M.K. Davlatning ekologik funksiyasi, 2004.

– Odilqoriyev H.T. O‘zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayoni: nazariy va amaliy masalalar, 1995.

– Odilxo‘jayeva S.M. Evolyutsiya politiko-pravovix idey liberalizma problemi ix realizatsii na sovremennom etape: voprosi teorii i praktiki, 2003 (Liberalizm siyosiy-huquqiy g‘oyalarning taraqqiyoti, ularni zamonaviy bosqichda amalga oshirish muammolari: nazariya va amaliyot masalalari).

– Ollamov Ya.Y. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat tizimi (nazariy-huquqiy muammolar), 2001.

– Oxunjonov L.M. Qoraqalpog‘istonda milliy davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, 1993.

– Ochilov O‘.S. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari (huquqiy maqomi), 2003.

– Rahimov F.H. O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etishning nazariy-amaliy muammolari, 2001.

– Raxmanov A.Ye. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, 2009.

– Rahmonov A.R. Mejdunarodnie pravovie aspekti obespecheniya vseob‘emlyayushey natsionalnoy bezopasnosti Respub-

liki Uzbekistan, 2002 (O'zbekiston Respublikasining keng qamrovli milliy xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy jihatlari).

– Saburov N. Fuqarolarning huquqiy xulq-atvorini shakllantirish muammolari (nazariya va amaliyot), 2001.

– Saidova L.A. Diplomaticeskoye pravo v Uzbekistane: problemi teorii i praktiki, 2001 (O'zbekiston Respublikasida diplomatiya huquqi: nazariya va amaliyot muammolari).

– Tadjixanov U. Nauchno-teoreticheskiye problemi pravovoy kulturi, 1995 (Huquqiy madaniyatning ilmiy-nazariy muammolari).

– Tojiyev U.Z. O'zbekistonda so'z erkinligi huquqi (nazariy va amaliy masalalar), 2001.

– Toshqulov J. Osnovnie napravleniya politiko-pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XIX pervoy chetverti XX vv, 1995 (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi choragida O'zbekiston xalqlarining siyosiy-huquqiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari).

– Umaraxunov I.M. Respublika Uzbekistan i mejdunarodnoye dogovornoye pravo: voprosi teorii i praktiki, 2004 (O'zbekiston Respublikasi va xalqaro shartnoma huquqi: nazariya va amaliyot masalalari).

– Utemuratov M.A. Mustaqil O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi (nazariya va amaliyot), 2004.

– Xalilov Ye. H. Stanovleniye i razvitiye visshego zakonodatel'nogo organa gosudarstvennoy vlasti Respubliki Uzbekistan, 2000 (O'zbekiston Respublikasi oliy davlat qonunchilik hokimiyati organining shakllanishi va rivojlanishi).

– Xamidova M.A. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (nazariy va amaliy muammolar), 2000.

– Xoshimxonov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari, 2008.

– Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mahalliy davlat hokimiyati asoslari huquqiy tashkiliy masalalar va muammolar, 1995.

– O'razayev Sh.Z. Markaziy Osiyo va O'zbekistonda milliy davlatchilikning vujudga kelishi hamda rivojlanishi, 1962 (Hokimiyat

va qonun. 1992: Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi, 1994, singari asarlar muallifi).

2. Fuqarolik, oila, xo'jalik (tadbirkorlik), mehnat va ekologiya huquqlari sohasida atoqli o'zbek huquqshunoslari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar:

– Raxmonqulov H.R. Sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi tovar aylanishining huquqiy shakllari, 1970.

– Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalashda fuqaroviy sud ishlarini yuritish muammolari, 1995.

– Zokirov I.B. Stanovleniye i razvitiye osnovnix institutov grajdanskogo prava v Buxarskoy i Xorazmskoy narodnix sovetkix Respublikax, 1990 (Buxoro va Xiva Xalq Sovetlari Respublikalarida fuqarolik huquqi asosiy institutlarining shakllanishi va rivojlanishi).

– Usmonov M.B. Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini huquqiy tartibga solishning nazariy muammolari, 1997.

– Fayziyev Sh.H. Teoreticheskiye problemi pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan, 2005 (O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatini huquqiy ta'minlashning nazariy muammolari).

– Borotov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari, 2008.

– Mamasiddiqov M. Mehnatga oid yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni sudda undirishning nazariy va amaliy muammolari, 2009.

– Mirzayev T.R. O'zbekistonda ekologiyaga doir qonunchilik ijrosi ustidan prokurorlik nazorati muammolari, 2000.

– Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi, 2000.

– Otaxo'jayev F.M. O'zbekiston Respublikasida nikoh to'g'risidagi qonunlarning rivojlanishi va ularni yanada takomillashtirish muammolari, 2000.

– Raxmonkulov M.X. Sushnost grajdansko-pravovogo dogovora i yego rol v usloviyax rinochnoy ekonomiki, 1994 (Fuqarolik-huquqiy shartnomalar mohiyati va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni).

– Samarxo'jayev B.B. Problemi pravovogo regulirovaniya otnosheniy po investitsiyam v Respubliki Uzbekistan (mejdunarodno-chastno-pravovoy aspekt), 2003 (O'zbekiston Respublikasida investitsiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish muammolari (xalqaro xususiy huquqiy jihat)).

– Toshev B.N. O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilishning qonuniy asoslari va shakllari, 1999.

– Umarov T.A. Pravovoye polojenije fizicheskix lits v mejdunarodnom chastnom prave, 2005 (Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslarning huquqiy holati).

– Usmonova M.A. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani tashkil etishning fuqarolik-huquqiy muammolari. 2006.

– Xamrayev S.S. Problemi pravovogo regulirovaniya ispolzovaniya i oxrani nedr, 2006 (Yer qa'ridan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish).

– Shodmonov F.Yu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun fuqarolik jarayoni: huquqiy javobgarlik muammolari. 2002.

– Ergashev V.Yo. Fuqarolar xususiy mulk huquqi vujudga kelishi va bekor bo'lishi ilmiy-nazariy jihatlar, 2005.

– Yuldasheva Sh.R. Fuqarolik va oila huquqida vasiy va homiylarning huquq va majburiyatlari. 2005.

– Inamdjanova G.S. Ota-onalar va bolalarning huquqlarini oila huquqiy himoya qilish muammolari. 2005.

– Esanova Z.N. O'talikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. 2005.

– Babayev J.I. Iste'molchi huquqlari va ularni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolari. 2005.

3. Jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat huquqi va umuman jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan va shu soha rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarning ishlari to'g'risida ma'lumotlar:

– Rustamboyev M.H. Sotsialno-pravovaya obuslovlennost i ugolovno-pravovie sredstva oxrani zdorovya i telesnoy neprikosnovennosti grajdan (ugolovno-pravovoy, kriminologicheskij, viktimologicheskij aspekti), 1993 (Fuqarolarning sog'lig'ini va jismoniy daxlsizligini muhofaza qilishning ijtimoiy-huquqiy zaruriyati va jinoyat-huquqiy vositalari (jinoyat-huquqi, kriminologik, viktimologik jihatlar).

– Abdumajidov F. Problemi teorii, zakonodatelnogo regulirovaniya i praktiki rassledovaniya prestupleniy (Jinoyatlar-ni tergov qilish nazariyasi, qonunchilikda tartibga solinishi va amaliyoti muammolari). 1982.

- G'ulomov Z.X. Problemi borbi s prestupleniyami protiv pravosudiya: teoriya i praktika, 2003 (Odil sudlovga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot).
- Zaripov Z.S. Huquqbuzarlik profilaktikasining huquqiy choralar tizimi va uni samarali amalga oshirishning asosiy shartlari, 1991.
- Inog'omjonova Z.F. Jinoyat protsessida sud nazorati va uni amalga oshirish muammolari, 2006.
- Kabulov R. Ugolovno-pravovie meri borba s xisheniyami: teoriya i praktika, 1997 (Talon-torojga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari: nazariya va amaliyot).
- Karaketov Yu.M. Problemi borbi s koristno-nasilstvennimi prestupleniyami, 1996 (Farazli zo'ravonlik jinoyatlariga qarshi kurash muammolari).
- Madaliyev O.M. Uchastiye prokurora pri rassmotrenii ugolovnix del v sudax pervoy instansii, 2004 (Birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini ko'rishda prokuror ishtiroki).
- Norbo'tayev Ye.X. Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy choralarning samaradorligi muammolari (nazariya va amaliyot), 1991.
- Po'latov B.X. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemi i puti sovershenstvovaniya zakonodatelnogo regulirovaniya uchastiya prokurora pri rassmotreniya ugolovnix del v sudax, 2003 (Sudlarda jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda prokuror ishtirokini qonunchilikda tartibga solinishini takomillashtirishning nazariy va amaliy muammolari va yo'llari).
- Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy muammolari, 2002.
- Sabirov I.M. Osobennosti naznacheniya nakazaniya nesovershennoletnim (po materialam Respubliki Uzbekistan), 1992 (Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari (O'zbekiston Respublikasi materiallari asosida)).
- Salomov B. Advokatskaya deyatelnost, yeyo garantii i sotsialnaya zashita advokatov v Respubliki Uzbekistan, 2005 (O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy muhofazasi).
- Sobirov M. Iqtisodiy jinoyatchilikning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ijtimoiy kriminologik islohotlari, 2002.

– Xidoyatov B.B. Problemi regulirovaniya doznaniya v Respublike Uzbekistan, 2002 (O'zbekiston Respublikasida surishtiruvni tartibga solish muammolari).

– Shodiyev F.M. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklovchi tergov harakatlari ustidan sud nazorati, 2010.

– Yakubov A.S. Pravovie osnovi ucheniya o prestupleniyax: predposilki, realnost perspektivi. 1996 (Jinoyatchilik to'g'risidagi ta'limotning huquqiy asoslari: asoslari, voqelik va istiqbollari).

Quyida bir necha konstitutsiyaviy-huquqiy normani nazariy sharhlashga misol keltirib o'tamiz. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasiga binoan, "O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas". Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma mamlakatimizda davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqni muhofaza qilishga oid faoliyatining nazariy muammolarini o'rgangan A.A.Azizxo'jayev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish masalalarini o'rgangan S.A.Abbosxo'jayev, demokratik davlat qurish sharoitida Prezidentlik institutining huquqiy asoslarini tadqiq etgan Sh.A.Abbosxo'jayev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shakllanishi va faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining huquqiy asoslarini tahlil qilgan I.R.Bekov, O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish masalalarini o'rgangan O.Z.Muhammadjonov, O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etishning nazariy-amaliy muammolarini o'rgangan F.H.Rahimov, O'zbekiston Respublikasi oliy davlat qonunchilik hokimiyati organining shakllanishi va rivojlanishini o'rgangan Ye.H.Xalilovlarning va boshqa huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaning 17-moddasini nazariy sharhlaydigan bo'lsak, unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga

asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin". O'zbekiston tashqi siyosatiga oid asosiy prinsiplarni belgilab beruvchi ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma Sh.A.Abbosxo'jayevning demokratik davlat qurish sharoitida Prezidentlik institutining huquqiy asoslariga, G.Matkarimovanning xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlariga, A.R.Rahmonovning O'zbekiston Respublikasining keng qamrovli milliy xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy jihatlariga, L.A.Saidovanning O'zbekiston Respublikasida diplomatiya huquqi: nazariya va amaliyot muammolariga, I.M. Umaraxunov O'zbekiston Respublikasi va xalqaro shartnoma huquqi: nazariya va amaliyot masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Konstitutsiyaning 70-moddasiga ko'ra, "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi". Qoraqalpog'iston Respublikasi maqomiga oid ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma respublikamiz huquqshunos olimlaridan G.Ye.Yerniyazovanning "Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi to'g'risidagi qonunchilik rivoji va uni takomillashtirish muammolari", L.M.Oxunjonovning "Qoraqalpog'istonda milliy davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi", M.A.Utemuratovning "Mustaqil O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi (nazariya va amaliyot)" masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Konstitutsiyaning 55-moddasiga ko'ra, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir". O'zbekistonda ekologiya huquqi asoslarini belgilab beruvchi ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy normaning nazariy-huquqiy tahlili M.B.Usmonovning "Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini huquqiy tartibga solishning nazariy muammolari", Sh.H.Fayziyevning "O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatini huquqiy ta'minlashning nazariy muammolari", S.S.Xamrayevning "Yer qo'riqidan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish" masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

2.9. Kengaytirib sharhlash

Kengaytirilgan sharhlash qonun normasi matnining mazmuni uning mantiqiy ma'nosidan tor bo'lganda qo'llaniladi. Bunda qo'llaniladigan huquqiy normaning mazmuni uning yozilgan matniga nisbatan kengroq qilib sharhlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida "sudyalarni mustaqildir, faqat qonunga buysunadilar", deyilgan. Bunda qo'llanilgan "sudya" iborasining haqiqiy ma'nosi keng tushuniladi. Qonun chiqaruvchi idora sudya iborasi orqali faqat sudyalarni emas, shu bilan birga xalq maslahatchilarining ham mustaqilligini va faqat qonunga bo'ysunishini nazarda tutgan²⁰.

Konstitutsiya moddasini kengaytirib sharhlashda o'quvchidan ushbu moddani mavjud qonunlar bilan bog'lash hamda mazkur modda asosida qabul qilingan qonunlarni sharhlash talab etiladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani kengaytirib sharhlash jarayonida uni mavjud qonunlar bilan bog'lashda muayyan izchillik va ketma-ketlikka rioya qilish lozim. Avvalo:

birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normaning Konstitutsiyaning boshqa qaysi normalari bilan bog'liqligini ko'rsatib berish lozim;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy normaning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlaridagi qoida va talablarga mosligini yozish darkor;

uchinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy normaning amaldagi qaysi qonun hujjatlarida o'z aksini topganligini ko'rsatib berish kerak;

to'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma qaysi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar uchun huquqiy asos bo'lishini aniqlab berish maqsadga muvofiq.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani ushbu tarzda kengaytirib sharhlash uning to'liq va mukammal bo'lishi uchun xizmat qiladi. Quyida o'quvchi tushunishi oson bo'lishi uchun Konstitutsiyaning 66-moddasini sharhlab o'tamiz. Unga ko'ra, "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar".

²⁰ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.445.

Konstitutsiyamizning ushbu moddasini kengaytirib sharhlashni quyidagicha boshlash maqsadga muvofiq:

Konstitutsiyaning voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyatini yuklovchi 66-moddasi Konstitutsiyamizning boshqa bir qator moddalari bilan ham uzviy bog'liq. Xususan, uning "Oila"ga bag'ishlangan 14-bobidagi oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda jamiyat va davlat muhojizasida bo'lish huquqiga egaligini belgilovchi 63-moddasi, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklarini mustahkamlovchi 64-moddasi, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklarini e'tirof etuvchi 65-moddalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi.

Asosiy Qomusimizning 66-moddasi xalqaro huquq normalaridan farqli ravishda milliy qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, farzandlarning ota-onalari oldidagi mas'uliyatini belgilaydiki, bunday normani biz boshqa mamlakatlar va xalqaro huquqiy hujjatlarda uchratmaymiz.

Konstitutsiyamizning ushbu normasi amaldagi qonunchilikda yanada kengaytirilgan holda o'z aksini topgan. Amalda ushbu normaning ijrosini ta'minlash uchun zarur qonunchilik bazasi yaratilgan. Xususan, Oila kodeksining 109-111, 113-moddalarida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati, ota-onaga beriladigan ta'minot miqdori va tartibi, ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar, bolalarni ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati kabi masalalar tartibga solingan. Chunonchi, Oila kodeksi 109-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart bo'lib, ota-onasining davlat va nodavlat muassasalar qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarni ota-onasiga g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Shuningdek, yuqorida qayd etganimizdek, Jinoyat kodeksining 123-moddasida ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu norma mazkur

konstitutsiyaviy qoida ijrosini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy kafolat vazifasini bajarimoqda.

Konstitutsiyamizning 66-moddasi talablari mazmuni qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarga ham singdirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi, 1995-yil 20-noyabrda "Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-avgustda "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi, 2007-yil 31-iyulda "Oilaviy bolalar uylari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2002-yil 5-iyulda "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1996-yil 10-dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari oilaviy barqarorlikni ta'minlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash va oila sohasidagi konstitutsiyaviy normalarni, shu jumladan, Konstitutsiyaning 66-moddasi talablarini o'zida ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy-huquqiy normani kengaytirib sharhlashda uni xalqaro-huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik bilan o'zaro aloqadorligi va munosabatini muayyan ketma-ketlikda izohlab berish maqsadga muvofiq.

2.10. Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani sharhlashda mezon talablaridan biri bu ushbu normada berilgan so'zlarga ta'rif berishdan iborat. Ushbu talab mezonning "huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish" talabi bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, qoidada berilgan huquqiy atamalarga amaldagi qonunchilik mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri ta'rif berish o'z navbatida huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish ham hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normada berilgan so'zlarga ta'rif berishda o'quvchi legal, ya'ni qonuniy ta'rif berishga harakat qilishi lozim. Ya'ni, konstitutsiyaviy norma mazmunidagi huquqiy atamalar Konstitutsiyaning boshqa moddalarida yoxud amaldagi qonun

hujjatlarida izohlab berilgan bo'ladi. Basharti, o'quvchi ushbu ta'rifni aniq bayon eta olsa, bu ishning saviyasini ancha oshirgan bo'ladi.

Agarda, konstitutsiyaviy normadagi so'zlarning amaldagi qonunchilikda legal ta'rifi berilmagan bo'lsa, unda ushbu tushunchalarning doktrinal (ilmiy-nazariy) ta'rifi keltirib o'tiladi.

O'quvchiga tushunish oson bo'lishi uchun Konstitutsiyamizning bir necha moddalarida berilgan so'zlarga amaldagi qonunchilik mazmunidan kelib chiqqan holda ta'rif berib o'tamiz.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 1-moddasida belgilanishicha, "O'zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi".

Ushbu qoidadagi "suveren", "demokratik" va "respublika" kabi huquqiy tushunchalarga legal ta'rif berilmaganligi sababli ularning doktrinal (ilmiy-nazariy) tushunchasini izohlab o'tamiz:

Suverenitet – (fransuzcha – "oliy hokimiyat") davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi.

Demokratiya – (yunoncha – "xalq hokimiyati") konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxlsizligi kabi asoslarini e'tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi.

Respublika – (lotincha – "jamoat ishi", "umumxalq" ishi) boshqaruv shakli bo'lib, unda davlat hokimiyatining barcha oliy organlari yo saylanadi yoki umummilliy vakillik muassasalari tomonidan shakllantiriladi.

Davlat – umuman olganda, jamiyat birligi va yaxlitligini ta'minlovchi, davlat mexanizmi vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi suveren ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi huquqqa umummajburiylik maqomini beruvchi, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlovchi jamiyatning siyosiy tashkiloti²¹.

Guvohi bo'lganimizdek, yuqoridagi moddadagi qoidalarning legal (qonuniy) ta'rifi bo'lmaganligi sababli, umumtan olingan doktrinal (ilmiy-nazariy) ta'riflari keltirib sharhlandi. Quyida esa, legal ta'rifi bo'lgan konstitutsiyaviy moddalardan birini sharhlaymiz. Asosiy Qomusimizning 10-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston xalqi

²¹ O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir: N.Toychiyev. – Toshkent: Adolat, 2010. – B. 98, 130, 383, 412.

nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas".

Ushbu normadagi Oliy Majlis, Prezident, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi va ijtimoiy harakat kabi tushunchalarga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiq.

Oliy Majlis – ushbu tushunchaning legal ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida keltirilgan bo'lib, unga binoan, "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat".

Prezident – ushbu tushunchaning legal ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida keltirilgan bo'lib, unga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi".

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir".

Jamoat birlashmasi – O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi qonuni 1-moddasiga muvofiq, "O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir".

Ijtimoiy harakat – jamoaviy harakatlar yoki birlashmalarining alohida turi bo'lib, ular faoliyati aniq siyosiy yoki ijtimoiy muammolarga yo'naltirilgan bo'ladi. "Ijtimoiy harakat" tushunchasi 1850-yilda nemis sotsiologi Lorens fon Shtayn tomonidan kiritilgan.

Muxtasar aytganda, konstitutsiyaviy-huquqiy normada berilgan so'zlarga ta'rif berish ushbu normaning mazmun-mohiyatini ochib berish va uni tushuntirib berishga xizmat qiladi.

2.11. Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish

Mezon bo'yicha sharhlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan holat bu qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish bo'lib, bu mezonda yangi talab sifatida kiritilgan.

Konstitutsiyamizning barcha moddalari inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, konstitutsiyaviy normalar inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Konstitutsiya tom ma'noda inson huquqlarining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, "Davlatimiz va xalqimiz hayotida tom ma'noda tarixiy sana bo'lgan ushbu ayyom haqida gapirar ekanmiz, biz Konstitutsiyamizning bugungi O'zbekiston davlatchiligining tiklanish va rivojlanishidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini yuksak baholaymiz. Va shu asnoda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadga erishish, ya'ni yurtimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiyamizning mustahkam poydevor bo'lib kelayotganini mamnuniyat bilan e'tirof etamiz".

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Vatanimiz mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalarida so'zlagan "Bu aziz Vatanda azizdir inson" ma'ruzasida "Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun, uning haq-huquqlari va manfaatlarini ta'minlash uchun, degan hayotiy tamoyil hayotimizda o'z ifodasini topmoqda. Konstitutsiyamizda

inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo'yilgan".

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" asarida qayd etilganidek, "Avvalambor, bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra, yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda "fuqaro – jamiyat – davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik"²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" deb nomlangan ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "Bu borada "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi"²³. Ushbu islohotlar ham pirovardida fuqarolarning Konstitutsiyamizda belgilangan huquq va erkinliklarining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, Konstitutsiyamizda kafolatlangan insonning yashash huquqini yanada keng ko'lamda ta'minlash maqsadida Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi xalqimizga xos bag'rikenglik, insonparvarlik fazilatlarining yana bir namunasi bo'ldi.

²² Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B.37.

²³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.22.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish maqsadida huquqni muhofaza qilish va sud organlari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Demak, konstitutsiyaviy qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritishda davlatimiz rahbarining yuqoridagi ma'ruzalaridan foydalanish o'rinli.

Quyida o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun konstitutsiyaviy qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish bo'yicha Konstitutsiyamizning aniq moddalarini sharhlaymiz. Asosiy Qomusimizning 2-moddasiga muvofiq, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar".

Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish ekanmiz, mazkur normaning davlatning xalq manfaatini ta'minlashini ko'zda tutishi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'uliyatini belgilashini qayd etish lozim.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida davlat organlari va mansabdor shaxslarga jamiyat va fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish majburiyatini, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish mas'uliyatini yuklaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga bevosita ta'sir qiluvchi normalardan bo'lib, "davlat – jamiyat – fuqaro" munosabatlari tizimida inson hamda uning huquq va erkinliklari o'rnini belgilab beradi.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida davlat organlari va mansabdor shaxslarning insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish majburiyatini yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritishda birinchidan, davlatimiz rahbarining konseptual fikr va mulohazalaridan foydalanish; ikkinchidan, ushbu normaning bevosita yoki bilvosita inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq.

2.12. Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish mezon bo'yicha konstitutsiyaviy normani sharhlashda tatbiq etiladigan qoidalardan biridir.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normani sharhlashda mezon talablaridan biri bu ushbu normani sharhlashda huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishdan iborat. Ushbu talab mezonning "qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish" talabi bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, qoidada berilgan huquqiy atamalarga amaldagi qonunchilik mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri ta'rif berish, o'z navbatida, huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish ham hisoblanadi.

O'quvchi bo'lajak huquqshunos sifatida huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalana olishi lozim. Bunda u konstitutsiyaviy normani bayon etishda qo'llanilgan huquqiy tushuncha va atamalarni izohlab, to'g'ri qo'llashi talab qilinadi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish asosan texnik talab bo'lib, buni konstitutsiyaviy normani sharhlash jarayonida to'liq qo'llash lozim. Ya'ni, berilgan konstitutsiyaviy normani, uning ahamiyatini yoritishda, qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berishda, qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirishda, qoidaning huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirishda, uni tizimli, tarixiy, mantiqiy, nazariy, kengaytirib sharhlashda, qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berishda, qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritishda o'quvchi huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishi lozim.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida foydalanish — bu huquq normasida uchraydigan atamadan kerakli joyda va zarur holda foydalanish.

Huquqiy atamalardan to'g'ri foydalanish — huquqiy atamaning mazmun-mohiyatini to'g'ri ochib, izohlab va sharhlab berish.

O'quvchiga tushunish qulay bo'lishi uchun konstitutsiyaviy-huquqiy normadagi huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishga misol keltirib o'tamiz.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi".

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-apreldagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga binoan mamlakatimizda monokameralizmdan bikameralizmga o'tildi. Bunda monokameralizm – bir palatali parlament, bikameralizm – ikki palatali parlament degan ma'nolarni anglatadi.

2.13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini sharhlashga misollar

Birinchi misol.

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma ekologiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma amaldagi ekologik qonunchilikning shakllanishiga muhim hissa qo'shib, ulardagi fuqarolarning ekologiya sohasidagi majburiyatlarini belgilab berishda fundamental asos vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma O'zbekiston ekologiya huquqining rivojlanishi uchun muhim hissa qo'shadi, mamlakatimizda ushbu huquq sohasi rivojlanishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining huquqiy asosini tashkil etib, ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga ta'sir etadi.

Beshinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma ekologiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarning asosiy mazmun-mohiyatiga mos, bu boradagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablariga muvofiqdir. Jumladan, 2002-yil Yoxannesburgda bo'lib o'tgan xalqaro sammit prinsiplariga mos keladi.

Oltinchidan, bu norma mamlakatimiz aholisi zimmasiga atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish majburiyatini yuklaydi.

Yettinchidan, ushbu norma fuqarolarning tabiatni asrab-avaylash, unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish bo'yicha majburiyatlarini konstitutsiyaviy burch sifatida mustahkamlaydi.

Sakkizinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma atrof tabiiy muhitning davlat tomonidan huquqiy jihatdan muhofaza ostiga olinganligini bildiradi.

To'qqizinchidan, atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalasi davlatimiz rahbarining doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-sentabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasida "Biz atrof muhitni nazorat qilish va jahon miqyosidagi ekologik falokatlarining oldini olishda BMTning roli kuchaytirilishini ham yoqlab chiqayapsiz. Mana shu olijanob vazifani amalga oshirishda har jihatdan ko'mak berishga tayyormiz", deb ta'kidlab, dunyo hamjamiyati e'tiborini ekologik muammolarga befarq bo'lmaslikka undadi, ta'bir joiz bo'lsa, shunday oliy minbardan turib, kela-jak asri muammosini hal etish tashabbusi bilan chiqdi. Ta'kidlash lozimki, davlatimiz rahbari mamlakatimizning ekologik siyosatidagi ushbu pozitsiyasini yaqinda bo'lib o'tgan BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida ham qat'iy ifodalab o'tdi. Chunonchi, davlatimiz rahbari Islom Karimov o'z nutqida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, "ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash ayniqsa, hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi", deb ta'kidladi. Haqiqatan ham hozirgi kunda ekologik muammo alohida bir mintaqa, hudud yoki davlat doirasidan chiqib bo'lgan, uni hal etish borasida barcha davlatlar, xalqlar va millatlar sa'y-harakatini, kuchg'ayratini jipslashtirish zarur. Bunda, xususan, jamoatchilik ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ekologik qonunchilikni takomillashtirish,

uni fuqarolik jamiyati talablariga mos ravishda isloh qilish va O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish to'g'risida bildirgan fikrlari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish.

Konstitutsiyaning 50-moddasi uning 11-bobiga kiradi. Konstitutsiyaning "*Fuqarolarning burchlari*" deb ataluvchi 11-bobi deganda, shaxsning jamiyat va davlat oldidagi asosiy beshta burchini hamda ularni bajarish majburiyatini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi Konstitutsiyaning o'n birinchi bobi tushuniladi.

Ushbu modda Konstitutsiyaning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limiga kiradi. Konstitutsiyaning "*Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari*" bo'limi deganda, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid qoidalarni mustahkamlovchi, demokratik rivojlanish yo'lini tanlab olgan davlatimizning inson huquqlari masalasiga doir siyosatini o'zida aks ettiruvchi, yuksak insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan hamda mamlakatimizning umuminsoniy siyosiy-huquqiy qadriyatlarga bo'lgan e'tiqodi va sodiqligini namoyish etuvchi Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish.

Mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida qonunchilik hujjatlari yanada takomillashtirilmoqda. Bu esa sharhlanayotgan moddaning amaliyotda yanada keng qo'llanishini kafolatlaydi. Ushbu normaning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 20 dan ziyod qonun va 100 dan ortiq qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, ushbu norma talabi O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida, Yer kodeksida, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Chiqindilar to'g'risida"gi va boshqa qonunlari hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, mamlakatimizda ekologik siyosatni ta'minlash, fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish burchlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida ekologiya sohasida maxsus vakolatli davlat organlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo'mitasi, Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qo'mitani geologik jihatdan o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal, maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi va boshqalar faoliyat yuritadi.

Ushbu normaning qo'llanilishiga misol keltiradigan bo'lsak, basharti, fuqaro o'ziga berilgan yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanganida: yer uchastkasidan oqilona foydalanmaganda: yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda Yer kodeksining 36-moddasiga muvoliq, yer uchastkalariga bo'lgan huquq bekor qilinadi.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Mazkur konstitutsiyaviy norma konstitutsiyaviy huquqda keng qo'llanilishi barobarida, ekologiya huquqi, yer huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, suv huquqi, o'rmon huquqi kabi huquq sohalari-ning asosini tashkil etadi; shuningdek, fuqarolik huquqi, xalqaro xususiy huquq, ma'muriy huquq va jinoyat huquqida ham tegishli institutlarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Xususan, ekologiya huquqi, yer huquqi, qishloq xo'jalik huquqi, suv huquqi, o'rmon huquqida fuqarolarning tabiiy resurslardan foydalanishda bilan bog'liq huquqlarini amalga oshirishlari jarayonida tabiiy resurslar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik, ularni muhofaza qilish bilan bog'liq maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatlari, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazganlik uchun kompensatsiyaviy to'lovlar tizimi belgilangan.

Fuqarolik huquqida ham fuqarolarning o'z mulkidan foydalanishda atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi majburiyati, shuningdek, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplash masalalari tartibga solingan.

Xalqaro va xalqaro xususiy huquqda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ekologik majburiyatlarini belgilab beradi. Yer kodeksining 36-moddasida ham muayyan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar bekor qilinishi belgilangan.

Ma'muriy va jinoyat huquqida esa, fuqarolarning ekologiya sohasidagi majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun tegishincha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkinligi belgilab berilgan. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 8-bobi "Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik", deb nomlanadi. Unda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi (65–96-moddalar) huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 4-bo'limi 14-bobi ham ekologiya sohasidagi jinoyatlarga bag'ishlangan bo'lib, u 193–204-moddalarni qamrab oladi. Ta'kidlash o'rinliki, javobgarlikka oid normalar Konstitutsiyamizning yuqoridagi moddasi qoidalari amal qilishini ta'minlashda muhim ahamiyat egallaydi. Ya'ni, ushbu konstitutsiyaviy norma talablari buzilgan taqdirda, yuridik javobgarlik instituti ishga tushadi hamda huquqbuzarlikni bartaraf etadi.

Tizimli sharhlash. Konstitutsiyaning 50-moddasini tizimli sharhlar ekanmiz, ushbu normaning boshqa konstitutsiyaviy normalar bilan o'zaro aloqador va bog'liqligini ta'kidlash lozim. Xususan, fuqarolarning ekologiya sohasidagi burchlari belgilangan 50-modda Asosiy Qomusimizning mulkdorning mulkdan foydalanishi ekologik muhitga zarar yetkazmasligi mustahkamlangan 54-moddasi bilan uzviy bog'liq. Shuningdek, tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik masalalari tartibga solingan 55-modda hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, shu jumladan ekologiya sohasidagi vakolatlari belgilangan 100-moddasi bilan uzviy bog'liq.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida mustahkamlangan qoida o'z navbatida milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan. Yer kodeksida, 1993-yil 6-maydagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", 1996-yil 27-dekabrda "Atmosfera havosini muhofa-

za qilish to'g'risida". 1999-yil 15-apreldagi "O'rmon to'g'risida", 1997-yil 26-dekabrda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", 2002-yil 5-apreldagi "Chiqindilar to'g'risida", 2002-yil 13-dekabrda "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi (yangi tahriri) va boshqa qonunlari mazmunida yanada kengroq yoritilgan va rivojlantirilgan. Ushbu qonunlarda yuridik va jismoniy shaxslarning tegishli tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha huquq va majburiyatlari, tashkiliy, texnologik, iqtisodiy va huquqiy talablar belgilangan.

Ushbu moddani tizimli sharhlashda, shuningdek, uning Konstitutsiya, tegishli huquq instituti va huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyatini ham aniqlash zarur. Mazkur normaning Konstitutsiyada tutgan o'rni kattadir. Zero, yuqorida guvohi bo'lganimizdek, ushbu moddadagi qoida Asosiy Qomusimizning bir qator boshqa normalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalardan biri – ekologik munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu norma Konstitutsiyaning boshqa normalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi va ekologik siyosatni shakllantirishda ustuvor prinsip sifatida baholanadi.

Shuningdek, mazkur norma konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining ekologiya huquqi sohasiga taalluqli bo'lib, ushbu huquq tarmog'ida markaziy o'rinni egallaydi. Bu avvalo, ushbu normaning konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining boshqa institutlarini shakllantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi hamda ekologiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tarixiy sharhlash. Ushbu norma o'zida tarixda sinalgan umumbashariy qadriyatlarni mujassam etgan. Xususan, eng qadimgi tarixiy manbalardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da tabiiy resurslar, xususan, to'rt unsur – yer, suv, havo va olov muqaddas hisoblanib, himoya qilingan. Zardushtiylik ta'limoti bo'yicha suvni iflos qilish, daryo, dengiz, chashma, ariq, quduq va hovuz suvlariga nopok narsalarni tashlash qat'iyan man etilgan. Anhor va ariq bo'ylarida mol boqish, otlarni bog'lashga ruxsat berilmagan. Suvga tupurish, suvga qarab axlat supurish, toza qilib yuvilmagan idishlarda ariq va hovuzlardan suv olish, nopok holda suvga qarash ajdodlarimiz diniy e'tiqodlari bo'yicha odob-axloqqa xilof deb baholangan. Jasadlarning suvga oqizilishi ham mumkin

bo'lmagan. Suvga murda tushsa u harom sanalib, murdor suvdan olinmaguncha uni iste'mol qilish mumkin bo'lmagan. "Avesto"da ifloslangan suvni tozalash to'g'risida "bulg'anch suvning yarmini yoxud undan uchdan bir yo to'rt dan bir, yo beshdan bir qismini olmoq zarur. Murdor tortib olinib, suvning ma'lum qismi ajratib tashlangach, qolgan qismi poklanadi. Tuyalar va odamlar undan burungidek foydalanaveradilar", deb yoziladi. "Avesto"ning "Vendidat" nomli bobida suvdan oqilona foydalanmaganlik, uni ifloslantirganlik uchun jazo (qamchi bilan to'rt yuz marotabagacha savalanish) qo'llash haqidagi qoidalar o'z aksini topgan.

Musulmon huquqining manbalari bo'lmish Qur'on, hadis, ijmo' va qiyosda ham yer-suv, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish talablari, ularni muhofaza qilish majburiyatlari, javobgarlik choralari kabi qoidalar belgilangan bo'lib, ushbu sohada munosabatlarni tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Tabiat boyliklarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda shariat qonunlarining sharhi hisoblangan "Al-Hidoya" muhim ahamiyatga ega. Unda tabiat muhofazasi, inson-tabiat munosabatlari batafsil tartibga solingan.

Shariatda har bir jonzotning suvga nisbatan huquqi, ya'ni tabiiy huquqi borligi belgilangan. Chunonchi, "Muxtasar"da yozi-lishicha, shirb – suvdan tegadigan ulush, ya'ni har bir jon egasi-ning – odam, hayvon, o'simlikning suv ichish uchun foydalanadi-gan ulushdir. Odam va hayvonlarning idishga solib saqlab qo'yilmagan har qanday suvda hojatiga ko'ra iste'mol qilishga haqi bordir deb belgilangan.

Sobiq Ittifoq davrida, 1917-yil Oktabr to'ntarilishining birinchi kuniyoq, "Yer to'g'risida" Dekret qabul qilindi. Unga ko'ra, yer va boshqa tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligi o'rnatildi.

1920-yil 24-sentabrda Turkiston avtonom sotsialistik respub-likasi (TASSR) o'z Konstitutsiyasini qabul qilib, o'zida barcha tabiiy resurslarni milliy lashtirishga qaratilgan huquqiy normalar 1918-yildagi RSFSR Konstitutsiyasidan shundayligicha ko'chirib olindi.

1923-yil 20-oktabrdagi Xorazm Respublikasi, 1924-yil 19-oktabrdagi Buxoro Respublikasining Konstitutsiyalarida barcha tabiiy resurslar, xususan, suv ham umumxalq boyligi deb belgilandi.

1927-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasida tabiat boyliklari davlat mulki deb e'tirof etildi va faqat

foydalanish uchungina beriladigan bo'ldi. 1937-yilda va 1978-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyalarida ham tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligi saqlab qolindi.

O'zbekistonning 1978-yil 19-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning 65-moddasida ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari, uning boyliklarini muhofaza qilishlari shartligi belgilangan.

Sobiq Ittifoq tuzumida O'zbekiston mustaqil davlat bo'lmay, uning tabiiy boyliklari xom ashyo bazasi sifatida talon-toroj qilingan, ulardan ko'r-ko'rona, ilmiy asoslanmagan va tabiat qonuniyatlarini hisobga olmagan, iqtisodiy manfaatlar ustuvorligiga asoslangan holda hamda "tabiat ustidan hukmronlik qilish" qabilida foydalanish natijasida ko'plab ekologik halokatli oqibatlar ro'y berdi. Xususan, ulardan eng yirigi bo'lmish Orol dengizining qurishi bilan bog'liq global muammo ham aynan shu davrda yuzaga keldi.

Yaqinda BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning mamlakatimizga aynan ushbu muammo yuzasidan tashrif buyurgani va respublikamizda yirik xalqaro uchrashuv bo'lib o'tgani ham ushbu muammoning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Hozirda ushbu muammoni hal etish maqsadida Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi hamda Xalqaro Orol dengizini qutqarish jamg'armasi tuzildi; BMT, Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki, Germaniya, Quvayt, Yaponiya va MDH davlatlari ishtirokida ko'p sonli loyihalar ustida ishlar olib borilmoqda.

Mantiqiy sharhlash. Ushbu huquq normasi davlat va jamiyat hayotida ekologik munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, u fuqarolarning ekologik majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi. Ushbu normaning davlat hayotidagi ahamiyati uning tartibga soluvchi ahamiyati bilan belgilansa, jamiyat hayotidagi ahamiyati fuqarolarning ekologik-huquqiy ongi va madaniyatini belgilab berishdagi muhim omil vazifasini bajarishi bilan asoslanadi. Shubhasiz, mazkur norma davlat hayotida uning iqtisodiyoti negizini tashkil etuvchi tabiiy resurslarni muhofaza qilishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida esa, fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashga, barkamol avlod uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Huquq normasining jamiyatga ijobiy ta'siri bilan bog'liq jihatlari uning

yuqorida ko'rsatilgan davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Uning salbiy tomoni haqida shuni aytish lozimki, Konstitutsiyamizda faqatgina fuqarolarning ekologik burchlari belgilab berilgan, holbuki bir qator davlatlarda, xususan, Italiya, Shveysariya, Braziliya, Yaponiya, Moldova, Ukraina va Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyalarida fuqarolarning ekologik huquqlari (masalan, qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi) to'g'risida ham so'z boradi. Shundan kelib chiqqan holda, Konstitutsiyamizda ham fuqarolarning so'nggi yillarda yanada dolzarb ahamiyat kash etib borayotgan ekologik huquqlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Nazariy sharhlash. O'zbekiston Respublikasida ekologiya huquqi rivojiga, shu jumladan, yuqoridagi konstitutsiyaviy norma mazmunini u yoki bu darajada ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar o'zbekistonlik ekolog-huquqshunos olimlar – professorlar Sh.H.Fayziyev, M.B.Usmonov, Y.O.Jo'rayev, S.S.Hamroyev, J.T.Xolmo'minov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Chunonchi, Sh.H.Fayziyevning O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatini huquqiy ta'minlash masalalariga, M.B.Usmonovning qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini huquqiy tartibga solishga, Y.O.Jo'rayevning O'zbekiston Respublikasida tabiiy muhitdan foydalanish va muhofaza qilish sohasida huquq va boshqaruvga, S.S.Hamroyevning yer qari-dan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishga, J.T.Xolmo'minovning sug'oriladigan yerlarni muhofaza qilishning huquqiy masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida fuqarolarning tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlariga oid konstitutsiyaviy norma ham ma'lum darajada o'rganilgan.

Kengaytirilgan sharh. Avvalambor, mazkur konstitutsiyaviy norma Asosiy Qomusimizning bir qator moddalari bilan ham chambarchas bog'liq. Xususan, Konstitutsiyamizning 54-moddasida belgilanganidek, mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi shart: 55-moddasiga muvofiq, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Konstitutsiyamizning mazkur normalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib, yanada aniqlashtirib turadi.

Ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiya (1993-yil), Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konven-

siyasi (1993-yil), Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli (1998-yil), Biologik xilma-xillik to'g'risida konvensiya (1995-yil), Sahrolanishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT konvensiya (1995-yil), Atrof muhitga salbiy ta'sir qiluvchi harbiy va boshqa harakatlarni taqiqlash haqida Bazel konferensiyasi (1996-yil) va boshqa ekologiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar mazmuniga mosdir.

Shuningdek, ushbu konstitutsiyaviy norma bir qator qonun hujjatlarida yanada kengaytirilgan holda mustahkamlangan. Xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida belgilanishicha, "O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart". Shuningdek, ushbu norma Yer kodeksi (1998-yil 30-aprel), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993-yil 6-may), "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" (2004-yil 3-dekabr), "Yer osti boyliklari to'g'risida" (2002-yil 13-dekabr), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997-yil 26-dekabr), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997-yil 26-dekabr), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996-yil 27-dekabr), "O'rmon to'g'risida" (1999-yil 15-aprel), "Chiqindilar to'g'risida" (2002-yil 5-aprel)gi qonunlarning tegishli tabiiy resursdan foydalanish bilan bog'liq normalarda foydalanuvchining majburiyati sifatida e'tirof etilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur qonunlarda tabiiy resurslardan foydalanish shartlari, talablari, ularni muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari belgilab berilgan.

Jumladan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunga binoan, atrof tabiiy muhit holatini hamda xo'jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish; atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish maqsadida ekologik nazorat olib boriladi (29-modda).

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "2008–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi",

2003-yil 1-maydagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to‘lovlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur ekologik talabni ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Muxtasar aytganda, amaldagi qonunlar Konstitutsiyaning yuqoridagi moddasi talablarini o‘zida aks ettirib, alohida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq holatlarda uni tatbiq etadi.

Qoidada berilgan so‘zlarga ta’rif berish.

Qomusimizning 50-moddasida keltirilgan asosiy atamalarga quyidagicha ta’rif beramiz:

Fuqarolik – O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o‘zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo‘lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas (1-modda).

Fuqaro – u yoki bu davlatning xalqiga tegishli, ushbu davlatda o‘rnatilgan barcha huquqlardan foydalanadigan va burchlarni bajaradigan shaxs. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq: 1) kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e’tiqodi, mashg‘ulotining turi va sajiyasidan qat’i nazar, yuqoridagi Qonun kuchga kirgan vaqtda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmagan hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslar; 2) davlat yo‘llanmasi bilan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o‘tayotgan yoki o‘qiyotgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining hududida tug‘ilgan bo‘lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo‘lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmasalar va yuqoridagi Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan bo‘lsalar; 3) yuqoridagi Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining

fuqaroligini olgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari hisoblanadilar (4-modda).

Atrof tabiiy muhit – insonni o'rab turgan tabiiy kelib chiqishga ega bo'lgan muhit bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etilishi lozim. Davlat qo'riqxonalari, milliy, tarixiy-tabiiy va yodgorlik bog'lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari, botanika va zoologiya bog'lari, dendrariya bog'lari, shuningdek, Xalqaro qizil kitobga va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar hamda o'simliklar alohida muhofaza qilinadigan tabiat hududlari va obyektlari jumlasiga kiradi (2-modda).

Majburiyat – shaxsning zimmasiga O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish davomida Konstitutsiya va qonunlar bilan yuklanadigan, majburiy bo'ladigan va rioya etmaslik tegishli huquqiy oqibatlariga sabab bo'lgan harakat yoki harakatsizlikdir. Konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlardan farqli ravishda fuqarolik huquqida majburiyat munosabatlari O'zR FKning 234-moddasiga asosan hal qilinadi.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida mustahkamlangan ekologik majburiyat o'z navbatida jamiyatimizda istiqomat qilayotgan boshqa fuqarolar va umuman jamiyatning ekologik maniaatlarini ta'minlashga, ularning ekologik huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Zero, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi mustahkamlangan (12-modda). Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega. Ayni damda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart.

Demak, xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamizning 50-moddasida mustahkamlangan ekologik majburiyat ayni damda jami-

yatda ekologik barqarorlik va xavfsizlikni, boshqa fuqarolarning qulay va sog'lom tabiiy muhitga ega bo'lishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish:

Mezonning ushbu talabida huquqiy atamalarni "Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish" qismida yoritib berganligimiz sababli, ushbu normada qo'llanilgan ayrim atamalarning ma'nosini qisqacha sharhlaymiz. Xususan, ushbu modda yuzasidan shuni ta'kidlash lozimki, mazkur moddada garchand fuqarolar to'g'risida so'z borsa-da, ushbu burch nafaqat fuqarolar, balki O'zbekiston hududidagi chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun ham birdek taalluqlidir.

Shuningdek, burch va majburiyat tushunchalariga ham oydinlik kiritib o'tishimiz lozim. Burch bu O'zbekiston Respublikasi-ni-ni-ni Konstitutsiyasi bilan aniq qilib belgilangan majburiyatlar, ya'ni Asosiy Qomusimizning 48-52-moddalarida nazarda tutilgan majburiyatlardir. Majburiyat, shartnoma asosida yoki zarar yetkazishdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday majburiy xatti-harakat yoki harakatsizlikdan iboratdir.

Ehtiyotkorona munosabat deganda, fuqarolarning atrof tabiiy muhitdan foydalanganda undan oqilona, kompleks foydalanishi, unga zarar yetkazmasligi, asrab-avaylashi, kundalik hayotida tabiiy muhitni muhofaza qilishi lozimligini tushunish mumkin.

Ikkinchi misol. 53-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*Birinchi*dan, ushbu konstitutsiyaviy norma jamiyat hayotidagi eng muhim munosabatlar – iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu norma mamlakatimizda erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimni barpo etishning huquqiy poydevori vazifasini bajaradi hamda mulkiy huquq va erkinliklarni konstitutsiya darajasida muhofaza etilishini belgilaydi. Konstitutsiyaviy norma mamlakatimizda xalqaro huquqning

umume'tirof etilgan norma va tamoyillariga hamda demokratik-huquqiy davlat barpo etish shartlariga monand bo'lgan mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni barpo etishda tamal toshi vazifasini bajarmoqda.

Ikkinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatib, uning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Jumladan, iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi Konstitutsiyaning 53-moddasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (1996-yil 26-aprel), "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi (1998-yil 24-dekabr) qonunlarning asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning ushbu moddasi iqtisodiy munosabatlar majmuini tartibga solishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekistonda xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sohasining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim huquq manbai bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining mustaqil iqtisodiy siyosat yuritishi, mulkiy huquqlarni kafolatlashida muhim ahamiyatga ega. Zero, Konstitutsiyaning ushbu moddasi mustaqil iqtisodiy siyosatni yuritishda asosiy huquqiy kafolat vazifasini bajaradi. Konstitutsiyaning 53-moddasi O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim barpo etish yo'lini tanlaganligini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma umume'tirof etilgan xalqaro normalarga hamohang bo'lib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatning e'tiborini qozonishida alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 53-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga, shu jumladan, 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 17-moddasi, 1966-yil 19-dekabrda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktida ko'zda tutilgan qoidalariga to'la mos keladi.

Oltinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normada ko'zda tutilgan qoidalar davlatimiz rahbari Islom Karimovning asarlarida alohida e'tirof etilgan. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" nomli ma'ruzasida 2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi ham mazkur masala Prezidentimizning doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelayotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, Yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasidagi olti ustuvor yo'nalishlardan oltinchisi "Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish"ga bag'ishlangan.

Jamiyat hayoti sohalarini rivojlantirish istiqbollarini belgilab bergan ushbu konsepsiyada mazkur sohada muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator muhim masalalar ko'rsatib o'tildi. Jumladan, davlatimiz rahbari bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunni, shuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib qoidalari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligini, shuningdek, biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yish vaqti kelganligini ta'kidlab o'tdi.

Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish.

Uchinchi bo'lim "Jamiyat va shaxs"ga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limi deganda, konstitutsiyaviy tuzumning iqtisodiy asoslari, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan jamoat birlashmalari, jamiyatning asosiy bo'g'ini – oila hamda muhim demokratik institutlardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari va ular faoliyatining kafolatlarni ko'zda tutuvchi Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi tushuniladi.

Ushbu bo'limda ilk marotaba jamiyatning iqtisodiy negizlari, xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorning mulkka nisbatan haqiqiy egaligining

kafolati belgilangan. Mazkur qoidalar mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun muhim huquqiy zamin hozirladi.

Mazkur bo'lim to'rt bobdan tashkil topgan: XII bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari; XIII bob. Jamoat birlashmalari; XIV bob. Oila; XV bob. Ommaviy axborot vositalari.

12-bob. Konstitutsiyaning "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" bobi deganda, barcha mulk shakllarini, xususiyl mulk daxlsizligini, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni, mulk huquqi va uning talablarini, tabiiyl resurslarga nisbatan mulkchilik va ularni muhojaza qilish talablarini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning o'n ikkinchi bobi tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish:

Ushbu normada belgilangan qoidani amaliyot bilan bog'lar ekanmiz, mamlakatimizda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ishlar amalga oshirilayotganini, mazkur sohalarni rivojlantirish bo'yicha qator qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, 2000-yil 25-mayda O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, 1996-yil 26-aprelda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010-yil 28-iyuldagi PF-4232-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrdaqi 311-sonli "2010-2012-yillarda Qo'qon shahrida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 24-avgustdaqi 246-sonli "2009-2012-yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 29-iyuldagi 216-sonli "Oilaviyl tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqalar qabul qilinganligini, bu sohani rivojlantirish, raqobatni qo'llab-quvvatlash va monopoliyani cheklash bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi va boshqalar tashkil etilganligini qayd etib o'tishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 53-moddasini misollar bilan to'ldiradigan bo'lsak, mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tizimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga keng e'tibor qaratilayotganligini, xususan, Prezidentimizning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida 2011-yilning mamlakatimizda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligini, 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 30 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010-yil yakuni bilan bu ko'rsatkich qariyb 53 foizga yetganligi ham yuqoridagi fikrimizning tasdig'idir.

Shuningdek, so'nggi yillarda xo'jalik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 2005-yildagi 13 foizdan 7 foizga tushirish yoki qariyb 2 barobar kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar tug'dirmoqda. Shu borada davlatimiz rahbari tomonidan yuqoridagi ma'ruzada 2011-yildan boshlab bu ko'rsatkich 7 foizdan 6 foizga tushirilishi qayd etilganligi ham mamlakatimizda tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotganligidan dalolat beradi.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Konstitutsiyamizning 53-moddasi huquq sohalaridan konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, soliq huquqi, korporativ huquq, fuqarolik huquqi, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi, mehnat huquqi, jinoyat huquqi va boshqa huquq sohalari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar asosiy o'rinni egallaydi. Xususan, Fuqarolik kodeksi birinchi qismining 2-bo'limi "Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar"ga bag'ishlangan. Ayni damda Fuqarolik kodeksida fuqarolik qonun hujjatlari mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligiga zarurligiga asoslanishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, jinoyat huquqining asosiy manbai bo'lmish Jinoyat kodeksi Maxsus qismining uchinchi bo'limida iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Uning 13-bobida xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadi-

ni ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish (186-modda), etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (186¹-modda), chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (186²-modda), sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish (186³-modda), savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish (188-modda), savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (189-modda), faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish (190-modda), qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (191-modda), raqobatchini obro'sizlantirish (192-modda) kabi jinoyatlar uchun jazo choralari belgilangan.

Tizimli sharhlash. Iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi Konstitutsiyamizning 53-moddasi mulkdor bo'lish huquqini kafolatlovchi 36-modda, mehnat qilish huquqini ta'minlovchi 37-modda, dam olish huquqini belgilovchi 38-modda, shuningdek, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab bergan 43-44-moddalar, mulkdorning mulk huquqi va undan foydalanish tartibini ko'zda tutuvchi 54-modda, tabiiy resurslarning umummilliy boylik ekanligini mustahkamlovchi 55-modda bilan chambarchas bog'liq.

Konstitutsiyamizning 53-moddasida mustahkamlangan qoida o'z navbatida milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida" (1990-yil 31-oktabr), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (1996-yil 26-aprel), "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi (24.12.1998) qonunlarning asosiy qoidalarini o'zida ifodalaydi.

Xususan, iste'molchilarning huquqlari kafolatlari "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda yanada kengaytirilgan. Xususan, uning 4-moddasida iste'molchilarning asosiy huquqlari belgilab berilgan.

Tarixiy sharhlash. Iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi Konstitutsiyamizning 53-moddasida belgilangan qoida-

larning tarixiy rivojlanishini o'rganish ushbu normaning aynan mustaqillik yillarida shakllangani va rivojlanganidan dalolat beradi.

Chunonchi, "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bizgacha yetib kelgan qismlari milodning III–VII asrlarida tahrir qilingan. Uning "Videvdat" qismida zardushtiylarning induvidual va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, odamlarning jamiyatdagi bir-biriga nisbatan tutgan o'rinlari o'z aksini topgan. Zardushtiylarda asosiy boylik jamoa boshliqlari, oqsoqollar, sarkardalarning qo'lida to'planib, "gayta" boylik yoki xususiy mulk degan ma'noni anglatgan.

Shariat huquqni alohida sohalarga bo'lishni nazarda tutmasada, unda fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan, mulk huquqi, shartnoma va delikt huquqlar nisbatan rivojlandi.

Musulmon huquqiga binoan shaxsning huquqiy holati uni dinni qabul qilishi bilan belgilangan. Xristian yoki iudaizm dinini qabul qilganlar qiyin ahvolga solingan va katta davlat soliqlarini to'lashga majbur etilganlar.

Ashyo huquqi bilan bog'liq bo'lgan, shariatning o'ziga xos institutlaridan biri "vaqf" bo'lib, u o'zida mulkni aks ettirgan. Odatda bu mulk mulkdor tomonidan qandaydir diniy va ilohiy maqsadlar yo'lida berilgan.

Rim huquqidan farqli o'laroq, shariatda majburiyatning umumiy konsepsiyasi aniq belgilanmagan, ammo tovar-pul munosabatlari-ga asoslangan amaliy shartnoma huquqi masalalari har tomonlama ishlab chiqilgan. Majburiyatlar bir tomonlama va ko'p tomonlama, tez bajariladigan va tez bajarilmaydigan turlarga bo'lingan.

O'rta asrlarda jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri bu "Temur tuzuklari"dir. "Temur tuzuklari" XIV asrning II yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'rganishga doir muhim tarixiy huquqiy manba – ma'muriy-harbiy kodeksdir. Unda ham fuqarolar va ularning mulkini muhofaza qilishga aloqador qoidalar belgilangan.

Bevosita o'zbek konstitutsionalizmi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasi 1920-yil 30-aprelda xalq vakillarining Butun Xorazm I qurultoyida qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiya VI bo'lim, XV bob va 87 moddadan iborat edi. Uning ikkinchi bo'limi XXSR Konstitutsiyasining Umumiy qoidalari deb atalib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, fuqarolar-ning huquq va burchlariga bag'ishlangan.

Bu davrda Konstitutsiya asosida XXSR xususiy mulk, sohibkorlik va savdo oboroti bilan shug'ullanishning to'la ozodligi saqlab qolinishi e'lon qilindi. "Shaxslarga erkin holda kommertsiya ishlari bilan shug'ullanish huquqi berildi", kommertsiya va savdo kompaniyalarini tashkil qilishga qarshilik qilinmadi (Konstitutsiyaning 16-moddasi). Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik saqlab qolindi. Xon va uning avlodlariga, amaldorlarga tegishli yerlar musodara etilib, yersiz dehqonlarga bo'lib berildi. Vaqf yerlari saqlab qolindi. XXSR iqtisodi davlat sektori, kooperativ sektor, yakka xo'jalik yurituvchi dehqon va hunarmandlar sektori, feodal kapitalistik (xususiy) sektorlardan iborat edi.

Mamlakatimizning sobiq SSSR tarkibida bo'lishi davrida uchta konstitutsiya qabul qilingan. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi 1927-yil 30-martda O'zbekiston SSR Sovetlarining II s'ezdida qabul qilingan. Konstitutsiya 8 bo'lim, 17 bob va 114 moddadan iborat.

1927-yilgi Konstitutsiya faqatgina respublika ta'minlashi mumkin bo'lgan huquq va erkinliklarni huquqiy mustahkamlagan. Ayni damda 1927-yilgi Konstitutsiya mehnatkashlarning bir qator huquqlarini e'tirof etmagan. Jumladan, mehnat qilish huquqi o'z aksini topmagan, chunki uni amalga oshirishning moddiy kafolatlari amalda ta'minlanmagan edi. Aksincha, mehnat qilish huquq emas, burch sifatida belgilangan, shuningdek, dam olishga bo'lgan huquqlar ham to'la-to'kis ta'minlanmagan.

Keyingi Konstitutsiya 1937-yilda qabul qilindi. 1937-yilgi Konstitutsiyada respublika hayotida ro'y bergan so'nggi o'zgarishlar — iqtisodiyot sohasida sotsializmning g'alaba qilishi, sotsializm qurishning yakunlanishi, mamlakatning rivojlangan sotsializmga o'tishi kabi voqealar o'z aksini topdi. Unda xususiy mulk bekor qilinib, mutlaq davlat mulkchiligi o'rnatilgan.

1978-yil 19-aprelda Oliy Kengashning navbatdan tashqari to'qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida O'zbekiston SSRning uchinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. U muqaddima, 11 bo'lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo'lib, uning 2-bobi "Iqtisodiy tizim" deb nomlangan. Unda ishlab chiqarish vositalarining davlat (umum-xalq) va kolxoz-kooperativ mulki shaklidagi sotsialistik mulkligi O'zSSR iqtisodiy tizimi negizi ekanligi mustahkamlangan (10-modda). Guvohi bo'lganimizdek, unda xususiy mulk iqtisodiy negiz tarkibiga kiritilmagan. Chunonchi, unda sotsialistik mulkdan shaxsiy boylik

orttirish va boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga hech kimning haqqi yo'qligi belgilangan. Shuningdek, mehnat bilan topilgan daromadlar fuqarolarning shaxsiy mulki negizi sifatida mustahkamlangan. Unda shaxsiy mulkda faqatgina cheklangan buyumlar – ro'zg'or ashyolari, shaxsiy iste'mol buyumlari, qulaylik va uydagi yordamchi xo'jalik buyumlari, turar-joy va mehnat jamg'armalari bo'lishi mumkinligi bevosita ko'rsatilgan.

Mustaqillikka erishishimiz bilan xususiy mulk barcha mulk shakllari singari teng himoya qilinishi belgilab berildi va bu, avvalo, Konstitutsiyamizning 53-moddasida o'z aksini topdi. Ayni damda ushbu qoida o'zbek taraqqiyot modelining ustuvor prinsiplaridan biri – iqtisodiyotning siyosatdan ustunligining negizini tashkil qiladi.

Mantiqiy sharhlash. Qomusimizning 53-moddasi jamiyat va davlat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu moddaning davlat hayotidagi ahamiyati uning tartibga soluvchi ahamiyati bilan belgilansa, jamiyat hayotidagi ahamiyati bozor munosabatlarini rivojlantirish va turli mulk shakllarini rivojlantirishda muhim omil vazifasini bajarishi bilan asoslanadi. Shubhasiz mazkur norma davlat hayotida uning iqtisodiyoti negizini belgilab berishga qaratilganligi bilan ulkan ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida esa, fuqarolarning iqtisodiy, mulkiy, mehnat va tadbirkorlik sohasidagi huquqlarini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Huquq normasining jamiyatga ijobiy ta'siri bilan bog'liq jihatlari uning yuqorida ko'rsatilgan davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Ushbu normani takomillashtirish nuqtai nazaridan uning **salbiy tomoni** haqida shuni aytish lozimki, ushbu norma asosida milliy qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruriyati tug'ilgan. Xususan, Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish fursati yetganligini ko'rsatib o'tganki, bu ushbu konstitutsiyaviy normani amalda tatbiq etish samaradorligini yanada oshiradi.

Nazariy sharhlash. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma mamlakatimizda xususiy mulk huquqi masalalarini o'rgangan

akademik H.R.Rahmonqulov, fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida davlat ishtiroki muammolarini tadqiq etgan M.X.Borotov, fuqarolarda hususiy mulk huquqi vujudga kelishi va bekor bo'lishi masalalarini o'rgangan V.Yo.Ergashev, iste'molchilarning huquqlari va ularni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolarini o'rgangan J.I.Babayev va boshqa huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Kengaytirib sharhlash.

birinchidan, Konstitutsiyamizning 53-moddasi mulkdor bo'lish huquqini kafolatlovchi 36-modda, mehnat qilish huquqini ta'minlovchi 37-modda, dam olish huquqini belgilovchi 38-modda, shuningdek, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab bergan 43–44-moddalar, mulkdorning mulk huquqi va undan foydalanish tartibini ko'zda tutuvchi 54-modda, tabiiy resurslarning umummilliy boylik ekanligini mustahkamlovchi 55-modda bilan chambarchas bog'liq;

ikkinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma umume'tirof etilgan xalqaro normalarga hamohang bo'lib, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat e'tiborini qozonishida alohida ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 53-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga, shu jumladan, 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 17-moddasi, 1966-yil 19-dekabrda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktida ko'zda tutilgan qoidalarga to'la mos keladi;

uchinchidan, iqtisodiy munosabatlarini tartibga oluvchi Konstitutsiyaning 53-moddasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (1996-yil 26-aprel), "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida" (1998-yil 24-dekabr), "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi (1990-yil 31-oktabr) qonunlarning asosiy qoidalarida o'z aksini topgan;

to'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2010-yil 28-iyuldagi PF-4232 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrda 311-sonli "2010–2012-yillarda Qo'qon shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ri-

vojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 24-avgustdagi 246-sonli "2009–2012-yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi, 2009-yil 29-iyuldagi 216-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqalar uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish:

Bozor — bu ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan iste'molchi (xaridor)ni bir-biri bilan bog'laydigan, ayirboshlash jarayoniga xizmat qiladigan tartiblar, mexanizmlar va muassasaviy tuzilmalardir.

Iqtisodiyot — turli-tuman iqtisodiy faoliyatlarni ishlab chiqarishning muayyan usulini hamda in'fratuzilmaviy muassasalarini yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim.

Mulk — shaxsga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan buyum, ashyolar. Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga binoan, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat.

Iste'molchi — "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq, foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs);

Tadbirkorlik — O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga binoan, tadbirkorlik — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

Mehnat qilish huquqi — shaxsning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga asosan erkin mehnat qilish, kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlashga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi.

Xususiy mulk huquqi — O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 207-moddasiga binoan, shaxsning qonun

hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Mulk daxlsizligi — Fuqarolik kodeksining 1-moddasida belgilangan fuqarolik-huquqiy prinsiplardan biri bo'lib, mulkdorning roziligisiz mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish mumkin emasligini kafolatlaydi.

Mulkdan mahrum etish — Fuqarolik kodeksining 197-moddasiga binoan, mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo'yish (sotib olish) yo'li bilan, shuningdek, mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan mulk huquqining bekor bo'lishi.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Vatanimiz mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalarida so'zlagan **“Bu aziz Vatanda azizdir inson”** ma'ruzasida “Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun, uning haq-huquqlari va manfaatlarini ta'minlash uchun, degan hayotiy tamoyil hayotimizda o'z ifodasini topmoqda. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo'yilgan”, deb ta'kidladi.

Haqiqatan ham barcha konstitutsiyaviy normalar singari Aso-siy Qomusimizning 53-moddasida o'z aksini topgan qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish ekanmiz, mazkur normaning insonlarning iqtisodiy mulkiy huquqlarini kafolatlashini qayd etish lozim.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida shaxsga iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik bilan erkin shug'ullanish hamda bunday faoliyat natijasida orttirilgan mulkning huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga bevosita ta'sir qiluvchi normalardan bo'lib, fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini ta'minlaydi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berishda qayd etganimizdek, tadbirkorlik, iste'molchi, xususiy mulk huquqi, mulk daxlsizligi singari tushunchalar huquqiy atamalar bo'lib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida o'z aksini topgan.

Ayni damda mulkdan mahrum etish masalasiga to'xtalar ekan-
miz, uning bir necha shakllarini farqlash maqsadga muvofiq.
Chunonchi:

Natsionalizatsiya – fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga
qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk
huquqini haq to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat
ixtiyoriga o'tkazishdan iborat (FKning 202-moddasi).

Rekvizitsiya – tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar,
epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tushadigan boshqa
vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat
hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdan unga mol-mulk-
ning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda
va shartlar asosida olib qo'yilishi (FKning 203-moddasi).

Musodara – qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk
sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik
uchun haq to'lamasdan mulkdan olib qo'yilishi mumkin (FKning
204-moddasi).

*Uchinchi misol. 66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga
layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik
qilishga majburlar.*

**Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati quyidagilar-
da namoyon bo'ladi:**

Ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston konstitutsionaliz-
midagi o'ziga xos boshqa mamlakatlar Konstitutsiyasida uchra-
maydigan jihatlardan biri hisoblanadi. Bu Asosiy Qomusimizning
muqaddimasida belgilanganidek, uni qabul qilishda o'zbek
davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganligidan dalolat
beradi. Zero, bu masala mamlakatimiz hududidagi ilk huquq
manbalaridanoq alohida e'tibor ostiga olingan.

Ushbu norma gipoteza va dispozitsiyadan iborat. Unga ko'ra,
ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyati (dispozitsiya)
voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar zimmasiga yuklatil-
gan (gipoteza). Demak, ushbu norma amal qilishi uchun farzand
voyaga yetgan va mehnatga layoqatli bo'lishi lozim.

Famxo'rlik qilish, o'z ichiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsa-
tishni qamrab oladi. Xususan, farzandlar ota-onalarning turmushidan
xabardor bo'lib, sihat-salomatligiga katta e'tibor qaratishlari kerak.

Huquqiy normaning ahamiyatini quyidagilar bilan ifodalash
mumkin:

birinchidan, o'zbek xalqining mentaliteti, milliy xususiyatlari, tarixiy qadriyatlari, urf-odatlaridan kelib chiqib, oilaviy munosabatlarda farzandlar majburiyatini konstitutsiyaviy darajada tartibga soladi;

ikkinchidan, qarib, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan keksalarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi, ularning farzandlari zimmasiga ota-onasiga g'amxo'rlik qilish majburiyatini yuklaydi;

uchinchidan, jamiyatda keksayganda nochor ahvolga tushib qolishi mumkin bo'lgan fuqarolar ulushini kamaytiradi hamda shu tariqa mamlakatda ijtimoiy vaziyat barqarorligiga muayyan darajada hissa qo'shadi;

to'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma oila qonunchiligining shakllanishida jiddiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ushbu norma 1998-yil 30-aprelda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining asosiy qoidalarini (109, 116-moddalari) shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etadi;

uchinchidan, yuqoridagi holatning mantiqiy davomi sifatida ushbu konstitutsiyaviy normaning O'zbekistonda oila huquqi sohasini shakllantirishda alohida o'rin egallashini, uning farzandlarning ota-onalar oldidiga majburiyatlarini tartibga soluvchi institutlarni shakllantirishini e'tirof etish lozim;

to'rtinchidan, konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ko'zda tutilgan o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganligining yorqin ifodasi bo'lib, boshqa mamlakatlar konstitutsiya va qonunlarida uchramaydigan o'ziga xos qoidalardan biridir. Ushbu norma O'zbekistonda nikoh va oila masalalariga tamoman yangicha yondashilganligini ko'rsatadi.

beshinchidan, konstitutsiyaviy norma milliy qadriyatlardan kelib chiqishi bois, xalqaro huquqiy hujjatlarda bu tarzdagi qoidalarni uchratmaymiz. Lekin, shunday bo'lsa-da, ushbu norma 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining oilaga oid 16-moddasi, onalik va bolalik, nikoh masalalariga bag'ishlangan 26-moddasiga, 1966-yil 19-dekabrda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning oilaga oid 10-moddasi va boshqa umume'tirof etilgan xalqaro normalarga zid emas, balki ushbu normalarni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, BMT Bosh

Assambleyasi qarori bilan 1994-yildan e'tiboran har yili 15-may kuni "Xalqaro Oila kuni" sifatida keng nishonlanadi.

oltinchidan, yuqoridagilar bilan bir qatorda ushbu konstitutsiyaviy norma davlatimiz rahbarining ma'ruza va chiqishlarida doimiy diqqat-e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1998-yil mamlakatimizda "Oila yili" deb e'lon qilingan hamda hozirgi kunga qadar mamlakatimizda Yurtboshimizning bevosita rahnamoligida oilani mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, "Aynan oila bag'rida, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati, g'amxo'rligi muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro.sifatida kamol topishi haqida uzoq gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman. Halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi, avvalo, oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi.

Shu sababli joriy yilda oila institutini qo'llab-quvvatlash bo'yicha avvalgi yillarda boshlagan ishlarimiz davom ettirilib, 2,5 ming yosh oilaga uy-joy qurish va uni jihozlash kabi masalalarni hal etish uchun tijorat banklari tomonidan 107 milliard 600 million so'mlik ipoteka va iste'mol kreditlari berildi".

Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish.

Uchinchi bo'lim "Jamiyat va shaxs"ga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limi deganda, konstitutsiyaviy tuzumning iqtisodiy asoslari, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan jamoat birlashmalari, jamiyatning asosiy bo'g'ini – oila hamda muhim demokratik institulardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari va ular faoliyatining kafolatlarini ko'zda tutuvchi Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi tushuniladi.

Ushbu bo'limda ilk marotaba jamiyatning iqtisodiy negizlari, xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorning mulkka nisbatan haqiqiy egaligining kafolati belgilangan. Mazkur qoidalar mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun muhim huquqiy zamin hozirladi.

14-bob. Konstitutsiyaning "Oila" bobi deganda, jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalgan oila, onalik va bolalik davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi, hech qaysi davlat konstitutsiyalarda uchramaydigan, o'zligimizga xos xususiyatlardan kelib chiqib, ota-onalar farzandlarining voyaga yetgunicha boqish va tarbiyalashga majburligi, o'z navbatida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishi majburiyatini belgilaydigan Konstitutsiyaning o'n to'rtinchi bobi tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish.

Ushbu normada belgilangan qoidani amaliyot bilan bog'lar ekanmiz, mamlakatimizda oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularni davlat tomonidan muhofaza qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini, mazkur sohalarini rivojlantirish bo'yicha qator qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 18-maydagi "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 1995-yil 20-noyabrdagi "Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida", 2009-yil 29-iyuldagi "Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1998-yil 2-fevraldagi "Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, 1999-yil 12-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida" nizomlar va boshqalar qabul qilinganligini, bu sohani rivojlantirish, oilaning mustahkamligini ta'minlash, farzandlar va oila o'rtasidagi nozik munosabatlarda barqarorlik, o'zaro tushunishni ta'minlash maqsadida qator davlat va nodavlat tuzilmalar, chunonchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bugungi kunda ushbu munosabatlarda davlat

boshqaruvini amalga oshiruvchi asosiy organ bo'lishi barobarida, yurtimizda Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi ta'sis etilganligini, vasiylik va homiylik organlari tashkil etilganligi, joylarda mahallalar oila tayanchi bo'lib faoliyat ko'rsatib kelayotganligi bu sohada nodavlat tuzilmalarining o'rni ham yuqoriligidan dalolat beradi.

Ushbu moddaning amaliy tatbig'i haqida so'z borganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 123-moddasida ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun javobgarlik belgilanganligini hamda unga ko'ra, voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamasligi jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatib o'tishimiz lozim. Ya'ni, ushbu konstitutsiyaviy norma jinoyat-huquqiy normalar vositasida qo'riqlanadi va amalda unga rioya etilmagan taqdirda tegishli ta'sir choralari qo'llaniladi.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Mazkur konstitutsiyaviy norma Konstitutsiyaviy huquq, Oila huquqi, Jinoyat huquqida keng qo'llaniladi. Xususan, Oila huquqida mazkur konstitutsiyaviy norma asosida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati yanada aniqlashtirilgan holda bayon etilgan. Muxtasar aytganda, ushbu konstitutsiyaviy norma oila huquqining asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim mezon vazifasini o'tagan.

Jinoyat huquqida esa, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyatlari jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadi hamda ushbu majburiyat buzilgan taqdirda, jinoiy javobgarlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Xususan, Jinoyat kodeksining 123-moddasida ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Unga ko'ra, voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanadi.

Tizimli sharhlash. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma-ni tizimli sharhlar ekanmiz, u Konstitutsiyaning boshqa normalari, xususan, uning "Oila" deb nomlangan bobiga mansub 63–65-moddalari bilan uzviy bog'liq.

Konstitutsiyamizning 65-moddasida mustahkamlangan qoida o'z navbatida milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi Oila hamda 1994-yil 22-sentabrdagi Jinoyat kodeksilarida ham rivojlantirilgan.

Ushbu moddani tizimli sharhlashda, shuningdek, uning Konstitutsiya, tegishli huquq instituti va huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyatini ham aniqlash zarur. Mazkur norma Konstitutsiyada tutgan o'rni ulkan. Zero, yuqorida guvohi bo'lganimizdek, ushbu moddadagi qoida Asosiy Qomusimizning bir qator boshqa normalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'zbek milliy qadriyatlarini konstitutsiyaviy mustahkamlaydi hamda jamiyat hayotidagi muhim masala – ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni normativ tartibga soladi.

Shuningdek, mazkur norma konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining oila institutiga taalluqli bo'lib, ushbu huquq tarmog'ida markaziy o'rinni egallaydi va uning asosiy qoidalari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy sharhlash. Ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilish o'zbek farzandlarining qon-qoniga singib ketgan xislatdir. Zotan, xalqimizning uzoq asrlik tarixi va ma'naviy qadriyatlari tizimida ota-onani hurmat qilish, ularning duosini olish, keksayganda ularni parvarishlash o'zbek millatining azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududidagi ilk manbalarda, jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham oila muqaddas hisoblangan. "Avesto"da jamiyat to'rtta asosiy qismga bo'linib, oilalarning birlashmasi "nmana", uy, oila jamoasi "dmana", katta oila jamoasi oqsoqoli "nmanapati" deb nomlangan. 15 ta nmana o'z navbatida "vis"ni tashkil etgan. "Vis" mutlaqo patriarxal oila bo'lib, unga qiz farzandlar kirmagan.

"Avesto"da oila a'zolaridan birining gunohi qarindoshlarga yoyilishi belgilangan. Uning "Vandidod" kitobida oila-nikoh munosabatlarini tartibga solish masalasiga katta o'rin ajratilgan. Er-xotinlik munosabatlari nikoh shartnomasi bilan rasmiylashtirilgan. Nikoh ikki tomonning – er va xotinning roziligi

bilan qayd qilingan. "Avesto"da vaqtincha nikoh – erning o'z xotiniga uning roziligisiz ma'lum muddatga boshqa erkak bilan nikohda bo'lishga ruxsat berishi haqidagi qoida bo'lgan. Xotinning vaqtincha nikohdan orttirgan bolalarini birinchi er o'zining qonuniy bolalari va merosxo'rlari deb tan olishga majbur bo'lgan. "Vandidod"da 16 yoshga (ayrim tadqiqotchilarning fikricha, 15 yosh) to'lgan yigit va qiz balog'atga yetgan hisoblanib, oila qurishga haqli ekanligi belgilangan. Agar balog'atga yetgan erkak kishi zurriyot qoldirishga qodir bo'la turib uylanmasa, uning tanasiga tamg'a bosish yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilish bilan jazolangan. Qasddan turmush qurmay yurgan qiz qopga solinib, 25 darra urish bilan jazolangan.

"Vandidod" bo'yicha qavm, urug' qonining sofligini saqlash maqsadida sog'lom avlodni yuzaga keltirish niyatida yaqin qarindoshlarning oila qurishi man etilgan. Shu bilan bir paytda serfarzandlik, bir ayolning bir yo'la 2–3 bola tug'ishi ijobiy hol deb qaralgan. Egizak tuqqan ayollar davlat xazinasini hisobidan mukofotlangan, ko'p bolali oilalarga nafaqa to'langan.

Bu masala, ayniqsa Islom huquqi manbalari, xususan, Qur'oni karimda, hadislar, ijmo', qiyos, "Hidoya", "Muxtasar" kabi manbalarda mukammal tarzda tartibga solingan. Ularga ko'ra, ota-onani hurmat qilish islom huquqidagi markaziy masalalardan bo'lib, oqpadar bo'lish, ota-ona qarg'ishini olish eng og'ir gunoh hisoblanadi. Qur'oni Karimning bir necha oyatlarida bevosita ota-onaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi asosida 1929-yilda nikoh ishlarini qozi sudlarida ko'rish ishlari tugatildi hamda Nikoh, oila, vasiylik va grajdanlik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeksi qabul qilindi. O'zbekiston SSRning 1937-yilgi Konstitutsiyasida ham oila masalalarida jiddiy o'zgarishlar bo'lmadi.

1978-yil 19-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning 64-moddasida bolalar ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishga va ularga yordam ko'rsatishga majbur ekanliklari ko'rsatilgan hamda tegishincha 1959-yilgi JKning 106-moddasi bilan javobgarlik belgilangan. Biroq bu norma nomukammal bo'lib, amaldagi Konstitutsiyamizning 66-moddasi bilan taqqoslaganda yangi Qomusimizdagi bir qator afzal jihatlarga ko'zimiz tushadi.

Xususan, 1978-yilgi Konstitutsiyada har qanday bola deganda, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz bolalar ham tushuniladi va bu, tabiiyki, ushbu toifadagi bolalar zimmasiga ham shunday majburiyat yuklaydi. Bu ijtimoiy adolat prinsipiga va umuman mantiqqa ziddir.

Mantiqiy sharhlash. Ushbu huquq normasi davlat va jamiyat hayotida oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, mazkur normaning davlat uchun ahamiyati uning tartibga solishga qaratilgan funksiyasi bilan izohlanadi. Davlat ushbu norma orqali oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlashga va shu yo'sinda ijtimoiy barqarorlikni kafolatlashga erishadi. Shuningdek, davlat rivojidagi ta'siri yana shunda namoyon bo'ladiki, bu davlatning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish uchun muhim huquqiy asos bo'ladi. Jamiyat hayotiga ta'siri shunda namoyon bo'ladiki, aholining keksaygan qatlamiga farzandlari tomonidan g'amxo'rlik ko'rsatilishi davlat tomonidan ta'minlanadi, aholining ushbu toifasini ijtimoiy jihatdan himoyalanihi kafolatlanadi va bu mamlakatdagi ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtiradi. Demak, normaning davlat va jamiyat hayotidagi ijobiy ta'siri yuqoridagi holatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu normaning salbiy ta'siri haqida to'xtalsak, u voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlarning ayrim iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini cheklashi bilan bog'liq bo'lib, bu ularning o'z huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga xalal berishi mumkin. Biroq, tabiiyki, aholining nisbatan g'amxo'rlikka muhtoj bo'lgan hamda farzandlari uchun ko'p mehnat va aziyat chekkan keksalar toifasini qo'shimcha himoya qilish yo'lida amalga oshiriladiki, bunday yo'qotish amalda o'zini to'laqonli oqlaydi.

Nazariy sharhlash. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining oila huquqi darsligining muallifi F.M.Otaxo'jayev, fuqarolik va oila huquqida vasiy va homiylarning huquq va majburiyatlarini o'rgangan Sh.R.Yuldasheva, ota-onalar va bolalarning huquqlarini oila huquqiy himoya qilish muammolarini tadqiq etgan G.S.Inamdjanova, otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlarini o'rgangan Z.N. Esanova va boshqa huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Kengaytirilgan sharh:

birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normaning boshqa normalar, xususan, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda

jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligini belgilovchi 63-modda, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklarini o'rnatuvchi 64-modda, farzandlarning qonun oldida tengligini hamda onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishini ta'minlovchi 65-modda bilan uzviy bog'liq.

ikkinchidan, ushbu norma 1948-yil 10-dekabrdagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining oilaga oid 16-moddasi, onalik va bolalik, nikoh masalalariga bag'ishlangan 26-moddasiga, 1966-yil 19-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning oilaga oid 10-moddasi va boshqa umume'tirof etilgan xalqaro normalarni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

uchinchidan, Konstitutsiyamizning ushbu normasi amaldagi qonunchilikda yanada kengaytirilgan holda o'z aksini topgan. Amalda ushbu normaning ijrosini ta'minlash uchun zarur qonunchilik bazasi yaratilgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi Oila hamda 1994-yil 22-sentabrdagi Jinoyat kodekslarida ham rivojlantirilgan. Xususan, Oila kodeksining 109–111, 113-moddalarida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati, ota-onaga beriladigan ta'minot miqdori va tartibi, ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar, bolalarni ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati kabi masalalar tartibga solingan. Chunonchi, Oila kodeksining 109-moddasi "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati" deb nomlanib, unda ko'rsatilishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalar qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-onasiga g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Shuningdek, Oila kodeksining 116-moddasida ota-onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mustahkamlangan. Shuningdek, yuqorida qayd etganimizdek, Jinoyat kodeksining 123-moddasida ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash

uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu norma mazkur konstitutsiyaviy qoida ijrosini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy kafolat vazifasini bajarmoqda.

to'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 18-maydagi "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 1995-yil 20-noyabrdagi "Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida", 2009-yil 29-iyuldagi "Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1998-yil 2-fevraldagi "Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish:

Voyaga yetganlik – bu shaxsning muomalaga layoqatliligi bilan bog'liq holat bo'lib, amaldagi fuqarolik va oila qonunchiligiga muvofiq, u shaxs 18 yoshga to'lgach, alohida hollarda esa, 16 yoshdan ham to'la hajmda yuzaga keladi.

Mehnatga layoqatlilik – jismoniy yoki aqliy jihatdan insonning mehnat faoliyatini amalga oshira olish qobiliyati bo'lib, uning muayyan ishni bajara olish qobiliyatiga ko'ra, umumiy (biror-bir malaka talab qilmaydigan ishni oddiy sharoitlarda bajara olish), kasbiy (muayyan kasb, malaka, mutaxassislik va lavozimdagi ishni tegishli bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan taqdirda bajarish) va maxsus (ish bajaradigan joyning (er osti, atmosfera bosimi yuqori) alohida xususiyati bilan bog'liq) kabi turlari ajratiladi.

Ota-ona va farzand – Oila kodeksining 57-moddasiga muvofiq, bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi qarindosh hisoblanadi. Farzand va farzandlikka olingan shaxslarning huquqiy holati bir hilda muhofaza qilinadi.

Famxo'rlik qilish – moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash bo'lib, farzandlarning ota-onalar turmushidan xabardor bo'lib, sihat-salomatligiga e'tibor qaratishlari kerakligini ko'zda tutadi.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vatanimiz mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalarida so'zlagan "Bu aziz Vatanda azizdir inson" ma'ruzasida qayd etilganidek, "Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun, uning haq-huquqlari va manfaatlarini ta'minlash uchun, degan hayotiy tamoyil hayotimizda o'z ifodasini topmoqda. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo'yilgan".

Ushbu konstitutsiyaviy normaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi o'ziga xos jihati shundaki, u o'zbekona milliy qadriyatlardan kelib chiqqan holda ota-onalarning huquq va manfaatlarini muhofaza qiladi, ularning moddiy va ma'naviy ta'minotini farzandlar tomonidan kafolatlanishini belgilab beradi. Boshqacha aytganda, aynan bizning milliy qonunchiligimizgagina xos bo'lgan ushbu norma jamiyatda ota-onalarning voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlari oldidagi huquqlarini kafolatlab qo'yadi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish.

Yuqorida qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berilganda qonunchilikdagi huquqiy atamalardan foydalanilganligini hisobga olib, bu o'rinda ushbu moddaga aloqador emansipatsiya huquqiy tushunchasiga ta'rif berib o'tish lozim. Chunki, emansipatsiya mehnatga layoqatlilik va voyaga yetganlik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muomalaga layoqatlilikni belgilab beradi.

Emansipatsiya – Fuqarolik kodeksining 28-moddasiga binoan, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxsning ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud, bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sudning qarori bilan to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi.

To'rtinchi misol. 67-modda. Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*Birinchi*dan, ushbu konstitutsiyaviy norma jamiyat va davlat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri – ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlaydi hamda ommaviy axborot vositalarining erkinligi va qonunga asosan faoliyat yuritishini, haqqoniyligi, axborot yetkazish mas'uliyatini axborotni ommaga eshittirish, chop etishdan oldin ko'zdan kechirish va nazorat qilish(senzura)ga yo'l qo'yilmasligini konstitutsiya darajasida kafolatlab, ushbu sohadagi munosabatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi;

*Ikkinchi*dan, konstitutsiyaviy norma shu sohadagi qonunchilik tizimining shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatib, uning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Ushbu norma ommaviy axborot vositalari faoliyatini tamoman yangidan demokratik-huquqiy davlat mezonlari asosida huquqiy tartibga soldi. Jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy ustuvor qoidalarini belgilab bergan Konstitutsiyaning 67-moddasi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri), 1996-yil 30-avgustdagi "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi, 2007-yil 15-yanvardagi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlarning asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etgan:

*Uchinchi*dan, yuqoridagi holatning mantiqiy davomi sifatida ushbu konstitutsiyaviy normaning konstitutsiyaviy huquqning ommaviy axborot vositalariga oid institutining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim huquq manbai bo'lib xizmat qilishini e'tirof etish lozim.

*To'rtinchi*dan, ushbu konstitutsiyaviy norma mohiyat e'tibori bilan O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari sohasida demokratik-huquqiy siyosat yuritishi hamda ushbu masalalarga tamoman yangicha yondashganligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

*Beshinchi*dan, Konstitutsiyaning 67-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga hamohang bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va uning asosida qabul qilingan ommaviy axborot vositalari faoliyati kafolatlarini belgilab beruvchi xalqaro-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan qoidalarga to'la mos keladi.

Oltinchidan, ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq masalalar davlatimiz rahbarining doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" deb nomlangan ma'ruzasida ko'rsatilgan olti ustuvor yo'nalishdan uchinchisi – **"Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash"** masalalariga bag'ishlangan. Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek, "Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritarkanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz"²⁴.

Shuningdek, davlatimiz rahbari "O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, "O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq choralarni amalga oshirishdir"²⁵.

Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish:

Uchinchi bo'lim "Jamiyat va shaxs"ga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" bo'limi deganda, konstitutsiyaviy tuzumning iqtisodiy asoslari, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan jamoat birlashmalari, jamiyatning asosiy bo'g'ini – oila hamda muhim demokratik institutlardan hisoblangan ommaviy axborot vositalari va ular faoliyatining kafolatlarini ko'zda tutuvchi Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi tushuniladi.

²⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.28.

²⁵ Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B.25.

15-bob. Konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” bobi deganda, “to‘rtinchi hokimiyat” sanalgan ommaviy axborot vositalari, ular faoliyatining prinsiplarini ta‘minlovchi, asosiy qoida sifatida senzuraqa yo‘l qo‘yilmasligini belgilovchi, ommaviy axborot vositalari chinakam erkin faoliyat yuritishining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilayotgan Konstitutsiyaning o‘n beshinchi bobi tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog‘lash va misollar bilan to‘ldirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” deb nomlangan ma‘ruzasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri – “Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlash”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu soha amaliyoti chuqur tahlil qilingan.

Unga ko‘ra, nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O‘z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda keyingi yillarda sun‘iy yo‘ldosh aloqa tarmog‘i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. Yurtimizdagi teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko‘rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog‘i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda. Dunyodagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa, 7 barobar ko‘payib,

²⁶ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B.28–31.

bugungi kunda ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa, 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko'rsatuvlar ingliz tilida ham tarqatilmoqda. Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materiallarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar soni jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 6 milliondan ortib ketgani ham buni tasdiqlab turibdi. Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarni tanqidiy baholar ekanmiz, muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz zarur²⁶.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Ushbu konstitutsiyaviy norma konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq, jinoyat huquqi va boshqa huquq sohalari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy huquqda ommaviy axborot vositalari instituti aynan shu norma zamirida shakllanadi va rivojlanadi.

Ma'muriy huquqda ommaviy axborot vositalari sohasida davlat boshqaruvi, bu sohadagi davlat organlarining maqomi kabi masalalar o'rganilganda, yuqoridagi konstitutsiyaviy norma talablariga rioya qilinadi. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 218-moddasida ommaviy axborot vositalari mahsulotlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash va tarqatish uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Xalqaro huquqda ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq xalqaro-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda ushbu konstitutsiyaviy norma ham hisobga olinadi.

Jinoyat huquqida ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanib jinoyat sodir etish bilan bog'liq holatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Tizimli sharhlash. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma-ni tizimli sharhlar ekanmiz, uning Konstitutsiyamizning O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini belgilovchi 12-moddasi, O'zbekiston Respublikasida

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishini mustahkamlovchi 15-moddasi, har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalanih huquqiga egaligini ko'zda tutuvchi 27-moddasi, fikrlash, so'z erkinligini, har kimning o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqini mustahkamlovchi 29-moddasi va boshqa moddalar bilan uzviy bog'liq, bir-birini mantiqan to'ldiradi.

Konstitutsiyamizning 67-moddasida mustahkamlangan qoida, o'z navbatida, milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham o'z ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri), 1996-yil 30-avgustdagi "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi, 2007-yil 15-yanvardagi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunlarda ham rivojlantirilgan.

Ushbu moddani tizimli sharhlashda, shuningdek, uning Konstitutsiya, tegishli huquq instituti va huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyatini ham aniqlash zarur. Mazkur normaning Konstitutsiyada tutgan o'rni kattadir. Zero, yuqorida guvohi bo'lganimizdek, ushbu moddadagi qoida Asosiy Qomusimizning bir qator boshqa normalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masala – fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo'lgan ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy kafolatlarini belgilab beradi.

Shuningdek, mazkur norma konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining ommaviy axborot vositalariga oid institutiga taalluqli bo'lib, ushbu huquq tarmog'ida markaziy o'rinni egallaydi. Bu avvalo, ushbu normaning konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining yuqoridagi institutlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatishi hamda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solishi bilan belgilanadi.

Tarixiy sharhlash. Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid konstitutsiyaviy norma rivojlanish tarixiga nazar solar ekanmiz, ushbu institut turli davrlarda turlicha rivojlanganligini, jamiyat va davlat hayotida turlicha o'rin egallaganini ko'rishimiz mumkin.

²⁷ Shodiyev J.M. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: prof. H.B.Boboyev. – Toshkent: TDYuF, 2005. – B.50-51.

Xususan, eng qadimgi davrda "Avesto" yodgorligida ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq masalalar yoritilmagan.

O'rta asrlarda shariat normalariga asoslangan islom huquqi hukmronlik qilgan davrda ommaviy axborot vositalari turli shaxslar tomonidan bajarilgan. Jumladan, Buxoro amirligida amir yonida doimiy ravishda uning shaxsiy yozishmalarini olib boruvchi ikki nafar kotibi bo'lgan. Ularning biri munshiy bo'lib, u barcha ishlar bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni yozib borgan va amirga kelgan axborotlarga, ma'lumotlarga hamda ma'muriy vakillardan va alohida shaxslardan kelgan iltimosnomalarga, shikoyatlarga javob berish bilan mashg'ul bo'lgan. Amir hududiy tuzilmalardan doimiy xabarnomalar olib turgan. Odatda bir marta amirlikdagi barcha bekliliklar beklari va qozilari chopar navkarlar orqali amir huzuriga yozma axborotnomalar yuborib turganlar. Ularga amir nomidan "muboraknoma"lar jo'natilgan²⁷.

Ushbu normaning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, O'zbekiston Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan vaqtda qabul qilingan 1927, 1937 va 1978-yilgi konstitutsiyalarda ommaviy axborot vositalariga, ular faoliyatining huquqiy kafolatlariga bag'ishlangan, senzurani taqiqlovchi normalar mavjud bo'lmagan. Bu avvalo, ushbu davrdagi tarixiy shart-sharoit, mavjud siyosiy tizimdagi xususiyatlar bilan belgilanadi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalari davlat mafkurasini targ'ib qilishga qaratilib, to'liq davlat monopoliyasida bo'lgan. Ommaviy axborot vositalarining erkinligi yoki senzuraga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi qoidalar va huquqiy kafolatlar mavjud bo'lmagan. Ommaviy axborot vositalari davlat g'oyasini targ'ib qilishga xizmat qilar edi.

Mustaqillikka erishishimiz bilan, ushbu tizimga barham berilib, ommaviy axborot vositalarini chinakam "to'rtinchi hokimiyat"ga – fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biriga aylantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Chunonchi, Prezidentimiz Islom Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida qayd etib o'tilganidek, "Mamlakatimizda o'tgan yillar davomida, ayniqsa, oxirgi 10 yilda ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish, so'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yurtimizda, avvalo, ommaviy axborot vositalari rivojini

ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu davrda ommaviy axborot vositalarini erkin va jadal rivojlantirishga, axborot sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

So'nggi yillarda yangi tahrirdagi “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonunga, shuningdek, “Telekommunikatsiyalar to'g'risida”, “Reklama to'g'risida”, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi va boshqa bir qator qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa yangi siyosiy shart-sharoitlarda ommaviy axborot vositalari sohasidagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minladi. Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ularning axborot sohasini demokratlashtirishda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli institutsional islohotlar amalga oshirildi”²⁸.

Mantiqiy sharhlash. Ushbu huquq normasi davlat va jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, u ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy kafolatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi. Ushbu normaning davlat hayotidagi ahamiyati uning tartibga soluvchi ahamiyati bilan belgilansa, jamiyat hayotidagi ahamiyati fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri, davlatni jamiyat tomonidan nazorat qilishning asosiy institutlaridan biri bo'lmish ommaviy axborot vositalari faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlab berishi bilan asoslanadi. Shubhasiz, mazkur norma davlatimizda erkin fuqarolik jamiyati va demokratik-huquqiy davlat barpo etishda ulkan ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida esa, fuqarolarning haqqoniy axborot olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga, ommaviy axborot vositalari fao-

²⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.28-29.

liyati erkin va qonuniy bo'lishini kafolatlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Huquq normasining jamiyatga ijobiy ta'siri bilan bog'liq jihatlari uning yuqorida ko'rsatilgan davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. Ushbu normani takomillashtirish nuqtai nazaridan uning salbiy tomoni haqida shuni aytish lozimki, Konstitutsiyamizdagi ushbu normani milliy qonunchiligimizda yanada rivojlantirish zarur.

Xususan, davlatimiz rahbari "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida ushbu sohani isloh qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Teleradioeshittirishlar to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish, shuningdek, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish o'ta dolzarb ahamiyat kasb etishini qayd etib o'tdi.

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so'z erkinligi va tanlash erkinligini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to'liq ruyobga chiqarishga yordam beradi²⁹.

Nazariy sharhlash. ommaviy axborot vositalari faoliyati huquqiy kafolatlariga oid ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma respublikamiz huquqshunos olimlaridan professor A.A.Azizxo'jayevning davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqni muhofaza qilishga oid faoliyatining nazariy muammolariga oid, professor R.Z.Jumayevning O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi va mustahkamlanishi muammolariga oid, Z.M.Islomovning siyosat – huquqiy islohot: huquq va jamoat birlashmalari qoida va normalarining xalqning o'zini o'zi boshqaruvidagi ishtiroki to'g'risidagi, S.M.Odilxo'jayevaning

²⁹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.31–34.

liberalizm siyosiy-huquqiy g'oyalarning taraqqiyoti ularni zamonaviy bosqichda amalga oshirish muammolariga oid. F.H.Rahimovning O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etishning nazariy-amaliy muammolariga, U.Z.Tojiyevning O'zbekistonda so'z erkinligi huquqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada o'rganilgan.

Kengaytirib sharhlash:

birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma Konstitutsiyamizning O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini belgilovchi 12-moddasi, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishini mustahkamlovchi 15-moddasi, har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqiga egaligini ko'zda tutuvchi 27-moddasi, fikrlash, so'z erkinligini, har kimning o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqini mustahkamlovchi 29-moddasi va boshqa moddalar bilan uzviy bog'liq, bir-birini mantiqan to'ldiradi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaning 67-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga hamohang bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Jurnalist etikasining xalqaro prinsiplari (1983), Jurnalistlar xulq-atvori prinsiplari Deklaratsiyasi (1986), Yohannesburg prinsiplari (1995), Reklama faoliyati Xalqaro kodeksi (Xalqaro savdo palatasi kodeksi), Professional jurnalistika sohasida kasbiy xulq-atvor to'g'risidagi Yevropa kodeksi (Lissabon kodeksi), YeXHTning Jurnalist etikasi to'g'risidagi rezolyutsiyasi, Transchegaraviy televideniya bo'yicha Yevropa konvensiyasi, MDH davlatlari o'rtasida imzolangan "Davriy nashr, kitob noshirligi, kitobni tarqatish va poligrafliya sohasida hamkorlik bo'yicha Davlatlararo kengash tuzish to'g'risida"gi kelishuv singari xalqaro-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan qoidalarga to'la mos keladi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligi belgilangan;

uchinchidan, Konstitutsiyamizning 67-moddasida mustahkamlangan qoida o'z navbatida milliy qonunchilik hujjatlarimizda ham ifodasini topgan. Chunonchi, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi "Ommaviy

axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri). 1996-yil 30-avgustdagi "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi, 2007-yil 15-yanvardagi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" (yangi tahriri) , 1997-yil 24-apreldagi "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, 1992-yil 13-yanvardagi "Aloqa to'g'risida"gi, 1993-yil 6-maydagi "Davlat sirini saqlash to'g'risida"gi, 2010-yil 15-iyundagi "Arxiv ishi to'g'risida"gi qonunlarida ham rivojlantirilgan.

Chunonchi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida yuqoridagi konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda axborot undan hamma erkin foydalanishi mumkinligi ta'minlangan va haqqoniy bo'lishi kerakligi belgilangan.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonunda esa, ushbu konstitutsiyaviy norma to'la-to'kis o'z aksini topgan. Xususan, ushbu Qonunda ommaviy axborot vositalarining erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligini suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmasligi, senzuraga yo'l qo'yilmasligi, ommaviy axborot vositalari mahsulotini tarqatish, ommaviy axborot vositalari bozorini monopollashtirishga yo'l qo'yilmasligi singari muhim masalalar o'z aksini topgan.

"Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ham nashrga tayyorlangan qo'lyozmalar va materiallarni senzuradan o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan (3-modda).

"Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda O'zbekiston Respublikasida senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Jurnalistdan xabarlar va materiallarni oldindan kelishib olishini, shuningdek, material yoxud xabarning matnini o'zgartirishni yoxud ularni butunlay nashrdan olib qolishni (efirga bermaslikni) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q (4-modda) deb belgilangan.

Shuningdek, 1993-yil 3-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Qonunga binoan, 27-iyun mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni etib belgilangan;

to'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida", 2005-yil 28-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida",

2005-yil 8-iyuldagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-apreldagi "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylash-tirish tartibi to'g'risida", 2005-yil 28-dekabrdagi "Ziyonet" axbo-rot tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida". 2006-yil 11-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida". 1996-yil 26-fevraldagi "Jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tay-yorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, 2006-yil 8-noyabrdagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish sohasida beg'araz ko'makni jalb etish tartibi to'g'risida"gi nizom kabi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar uchun huquqiy asos bo'lib kelmoqda.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish.

Ommaviy axborot vositasi – "Ommaviy axborot vositala-ri to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, ommaviy axbo-rotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bos-ma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio, video-, kinoxro-nikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoq-laridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllaridir.

Erkinlik – falsafiy va huquqiy kategoriya bo'lib, individ yoki tashkilot tomonidan o'z hayot tarzi, faoliyat yuritish tartibini hech bir qoida yoki normaga bog'lamasdan o'zlari tanlashlarini (belgilashlarini) bildiradi.

Qonuniylik – davlatning barcha organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va doimiy ijro etilish prinsipi.

Axborotning to'g'riligi – taqdim etilayotgan ma'lumotning haqqoniy holatga mosligi, real voqelikni aks ettirishi va ishonchli ekanligini anglatadi.

Senzura – (lot. "censeo" – "baholayman", "fikr bildiraman") hokimiyat tomonidan zararli deb topilgan g'oyalar va ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik yoki cheklab qo'yish

maqsadida bosma mahsulotlar, sahna asarlari va h.k. mazmun-mundariyasi ustidan nazorat o'rnatish.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

Ushbu konstitutsiyaviy norma fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy kafolatlarini belgilab beradi va shu orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat qilishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda fuqarolarning huquqlariga rioya etilishi, erkinliklarining hurmat qilinishini ta'minlovchi muhim mezon vazifasini bajaradi.

Mazkur konstitutsiyaviy norma, shuningdek, fuqarolarga senzurasiz ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish huquqini kafolatlab qo'yadi; fuqarolarning ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri va haqqoniy ma'lumot olishga bo'lgan huquqini e'tirof etadi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish.

Shu o'rinda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid bir necha huquqiy atamalarga e'tibor qaratib o'tish lozim.

Avvalambor, ommaviy axborot vositalarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1) davlat ommaviy axborot vositalari – davlat tomonidan ta'sis etilgan yoki muayyan davlat ulushi va davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalaridir;

2) mahalliy ommaviy axborot vositalari – mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ta'sis etilgan yoki ularning ulushi bo'lgan va mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalari demakdir;

3) nodavlat ommaviy axborot vositalari – nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, jismoniy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan va ularning mablag'lari hisobidan faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalaridir.

Shuningdek, jurnalist tushunchasiga ham ta'rif berib o'tish lozim. "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan, jurnalist – O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnoma asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni to'plash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir (3-modda).

Beshinchi misol. 74-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi – Qoraqalpog'iston Respublikasini o'z tarkibiga olgan unitar shakldagi davlat. Shu bilan birga, O'zbekistonning davlat tuzilishida federatizmning ba'zi jihatlari ham mavjud. Qoraqalpog'iston Respublikasining muayyan davlat suverenitetiga egaligi ana shular jumlasidandir.

Har ikki respublika o'rtasidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslari O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Konstitutsiyalarida o'z aksini topdi. Natijada ikki tomonlama hurmat asosida qoraqalpoq xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchiligini mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat'iy ishonch bilan qarashga, olis istiqbolni yaratishga kafolat beradigan huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Konstitutsiyaviy normaning ijtimoiy ahamiyatini yana quyidagilarda ifodalab berish mumkin:

birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma davlatning ma'muriy-hududiy va milliy-huquqiy davlat tuzilishiga oid munosabatlarni, xususan, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Ushbu norma mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga xizmat qiladi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining suveren huquqlarini O'zbekiston Respublikasi tomonidan tan olinganligini va konstitutsiyaviy kafolatlanganligini ko'rsatadi. Konstitutsiyaning 74-moddasi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy jihatini belgilab berib, shu soha munosabatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi;

ikkinchidan, ushbu norma mamlakatimiz huquqiy poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qiladi hamda tarmoq qonunchiligini shakllantirishga salmoqli ta'sir ko'rsatib, uning asosiy qoidalarini belgilab beradi. Konstitutsiyaning 74-moddasi 1993-yil 9-apreldagi Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya", Qoraqalpog'iston Respublikasining 1990-yil 14-dekabrda "O'zbekiston

Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiyasi" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim iudamental ahamiyat kasb etgan;

uchinchidan, yuqoridagi holatning mantiqiy davomi sifatida ushbu konstitutsiyaviy norma Konstitutsiyaviy huquqning O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishiga oid qoidalarining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim huquq manbai bo'lib xizmat qilishini e'tirof etish lozim;

to'rtinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlatchilik siyosatini yuritish, davlat suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan o'zaro munosabatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi hamda Qoraqalpog'istonning suveren davlat ekanligini belgilab beradi;

beshinchidan, Konstitutsiyaning 74-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga hamohang bo'lib, BMT nizomida ko'zda tutilgan qoidalarga hamda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini e'tirof etuvchi Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Pakt va boshqa xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga to'la mos keladi;

oltinchidan, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi do'stona, birodarlik ruhi, o'zaro hurmatga asoslangan uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lgan munosabatlar davlatimiz rahbarining doimiy diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimizning I.A. Karimov "Ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" nomli kitobida qayd etilganidek, "O'zbekistonning istiqboli – Qoraqalpog'istonning istiqboli, Qoraqalpog'istonning istiqboli – O'zbekistonning istiqboli, desak xato bo'lmaydi"³⁰. Yoki bo'lmasa, davlatimiz rahbari "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" kitoblarida aynan yuqoridagi konstitutsiyaviy norma mazmunidan kelib chiqib, "Asosiy Qonunimiz O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining maqomini tan oladi va uning suverenitetini muhofaza etadi"³¹, – deb ta'kidlaydi;

³⁰ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T., 2000. – B. 103.

³¹ Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T., 1996. – B. 98.

Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish.

To'rtinchi bo'lim "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" deb nomlanadi. Konstitutsiyaning "Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi" bo'limi deganda, O'zbekiston Respublikasining davlat va uning tarkibiga kiruvchi bo'laklar o'rtasidagi munosabat shakllari va huquqiy holatini anglatuvchi milliy-davlat hamda davlat-huquqiy maqomga ega bo'lgan birliklar bilan o'zaro boshqaruv va buysunish munosabatlari tizimini ifodalovchi ma'muriy-hududiy tuzilishini mustahkamlovchi Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limi tushuniladi.

Mazkur bo'lim ikki bobdan iborat: XVI bob. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi; XVII bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi.

17-bob. Konstitutsiyaning "Qoraqalpog'iston Respublikasi" bobi deganda, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi munosabatlarning va Qoraqalpog'iston Respublikasi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi Konstitutsiyaning o'n yettinchi bobi tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish.

Ushbu normada belgilangan qoidani amaliyot bilan bog'lar ekanmiz, Qoraqalpog'iston Respublikasining suveren maqomini belgilashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilganligini, ularning ko'pchiligi konstitutsiyaviy qonun maqomiga egaligini ta'kidlash lozim. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya", "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunlar aynan shu normaning amalda to'siqsiz tatbiq etilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining suveren maqomini ta'minlash maqsadida uning o'zining oliy davlat hokimiyat organlari (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud) ta'sis etilgan. Ushbu hokimiyat organlari Qoraqalpog'iston Respublikasi nomidan harakat qiladi, uning manfaatlarini ifodalaydi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi, uning Raisi va Prezidiumi (17-19-boblar), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

(20-bob), mahalliy davlat hokimiyati asoslari (21-bob), sud hokimiyati (22-bob), saylov tizimi (23-bob), konstitutsiyaviy nazorat (24-bob), prokuratura (25-bob), moliya va budjet (26-bob) sohasidagi davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining maqomi mustahkamlangan.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Ushbu modda O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq va boshqa huquq sohalari uchun mustahkam huquqiy zamin hozirlaydi. Jumladan, konstitutsiyaviy huquqda Konstitutsiyaning ushbu moddasi mazmuni-dan kelib chiqqan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqiy holati alohida tadqiq etiladi. Xalqaro huquqda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga oid normalarni ko'rishimiz mumkin. Ma'muriy huquqda esa, ikki davlat boshqaruv organlarining o'zaro munosabati bilan bog'liq munosabatlar o'rganiladi.

Tizimli sharhlash. Konstitutsiyamizning 74-moddasini tizimli sharhlar ekanmiz, uning Konstitutsiyamizning O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid 16-bobi, chunonchi, uning O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid 68-moddasi, ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil qilish va tugatishga oid 69-moddasi; "Qoraqalpog'iston Respublikasi" deb nomlangan 17-bobining 70–75-moddalari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasidan ham senatorlar saylanishini nazarda tutuvchi 77-moddasi, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligini belgilovchi 83-moddasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kirishini mustahkamlovchi 98-moddasi, O'zbekiston Respublikasida sud tizimini tashkil qilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimining o'rniga oid 107-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston qonunlari O'zbekiston qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa berish vakolatiga oid 109-moddasi; moliya va kreditga oid 25-bobining O'zbekistonning davlat budjetiga Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti kirishini qayd etuvchi

122-moddalari va boshqa moddalar bilan uzviy bog'liq hamda bir-birini mantiqan to'ldiradi.

Konstitutsiyaning 74-moddasi 1993-yil 9-apreldagi Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya", Qoraqalpog'iston Respublikasining 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risida"gi Deklaratsiya hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunlar bilan chambarchas bog'liq.

"O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligini va mustaqilligini e'tirof etadi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar teng huquqlilik asosida, ular o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar vositasida quriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan tegishli qonunlar asosida erkin chiqish huquqini saqlab qoladi".

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi Qonunida, Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralarini o'zgartirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy markazlarini belgilash va ko'chirish kabi masalalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonunida Senat tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy manfaatlarini ifodalovchi senatorlar bo'lishi ham ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda, ushbu konstitutsiyaviy norma yuqoridagi qonunlarning asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etgan.

Ushbu moddani tizimli sharhlashda, shuningdek, uning Konstitutsiya, tegishli huquq instituti va huquq tarmog'ida tutgan o'rni va ahamiyatini ham aniqlash zarur. Mazkur normaning Konstitutsiyada tutgan o'rni katta. Zero, yuqorida guvohi bo'lganimizdek, ushbu moddadagi qoida Asosiy Qomusimizning bir qator boshqa normalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, O'zbekiston

davlati va jamiyati hayotidagi muhim masala – O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur norma Konstitutsiyaning boshqa normalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ustuvor prinsip sifatida baholanadi.

Shuningdek, mazkur norma konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi institutiga taalluqli bo‘lib, ushbu huquq institutida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu, avvalo, ushbu normaning konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining boshqa institutlarini shakllantirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishi hamda davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tarixiy sharhlash. Boshqa har qanday xalq kabi, qoraqalpoq xalqi ham o‘ziga xos suverenitetga ega bo‘lib, bu suverenitet milliy davlatchilik to‘g‘risidagi masala yechimini hal qilish vazifasini ham nazarda tutadi. Oltmish yildan ziyod vaqt mobaynida Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston tarkibida bo‘lishi uning tarixiy taqdirida ham o‘chmas iz qoldirdi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqining birodarlarcha munosabatiga yagona tarixiy va etnik ildizlar, jo‘g‘rofiy yaqinlik, madaniyat va til birligi katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu xalqlardagi tarixiy mushtaraklik va umumiylik ularning yagona bir davlatda birga yashash istagini belgilab berdi. Sobiq Ittifoq tizimi davrida Qoraqalpog‘istonning huquqiy maqomi muxtor respublika doirasida ta’riflanardi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, Qoraqalpog‘istonning maqomi muxtor respublikadan suveren respublika darajasiga ko‘tarildi.

Ayni shu o‘rinda qoraqalpoqlar milliy davlatchiligining shakllanish tarixiga nazar tashlasak, biz birinchi navbatda qoraqalpoqlarning milliy davlatchiligi dastlab muxtor viloyat sifatida, so‘ngra avtonom respublika sifatida O‘zbekiston SSR tarkibiga kirganligi va keyinchalik O‘zbekiston tarkibida 1990-yil 14-dekabrda davlat suverenitetini e’lon qilganligini ko‘ramiz.

Shuni ta’kidlash kerakki, Qoraqalpog‘iston jamoatchiligining O‘zbekiston tarkibida davlat mustaqilligi va respublika maqomining huquqiy asosga ega bo‘lishiga intilishini o‘zbek xalqi va O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov qo‘llab-quvvatladi.

1990-yil 1-dekabrda I.A.Karimov Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq noiblari, jamoat va davlat organlari, urush va mehnat faxriylari bilan Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan anjumandagi nutqida ko‘pchilik ziyolilar, davlat va jamoat faollari Qoraqalpog‘iston

Avtonom Respublikasi Oliy Kengashining davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qilish to'g'risida murojaat qilayotganliklarini ta'kidladi. Prezident Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibida davlat suverenitetiga ega bo'lish to'g'risidagi bu istagini o'sha damlardayoq hech ikkilanmay astoydil qo'llab-quvvatlagan edi.

Nihoyat, bu masala "O'zbekiston Respublikasining Davlat suvereniteti to'g'risida"gi Deklaratsiyada, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda, shuningdek, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida"gi deklaratsiyada huquqiy ifodasini topdi.

Shunday qilib, 1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining IV sessiyasida "Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilindi.

Ushbu muhim hujjat suveren Qoraqalpog'iston davlatchiligining barpo etilishida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Qoraqalpog'iston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi keyinchalik suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi deb nomlana boshladi³².

SSSRning 1936-yil 5-dekabrda Konstitutsiyasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonning 1978-yil 19-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning 6-bo'limi (128–133-moddalar) Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda Qoraqalpog'iston Respublikasining bunday huquqi ko'zda tutilmagan. Uning 69-moddasida esa, O'zbekistonning sovetlar davlati tarkibidan chiqish huquqi ko'zda tutilgan edi. Demak, ushbu davrda bu haqda so'z borishi ham mumkin emas edi. Zotan, O'zbekiston ham, Qoraqalpog'iston ham amalda siyosiy mustaqillikka ega bo'lmagan mustamlaka davlatlar sifatida bunday huquqlarga ega emas edilar. Qoraqalpog'iston Respublikasining bunday muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan huquqi faqatgina O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Konstitutsiya darajasida tan olindi. Shuningdek, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti

³² Utemuratov M.A. O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topishining nazariy, tarixiy, siyosiy-g'oyaviy asoslari / Mas'ul muharrir: prof. H.B. Boboyev. – Toshkent: TDYul, 2005. – B.3–5.

to'g'risidagi Deklaratsiya" hamda Qoraqalpog'istonning 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiyasi"da ham uning suveren maqomi belgilab berilgan.

Mantiqiy sharhlash. Ushbu huquq normasi davlat va jamiyat hayotida xalqaro, shuningdek, konstitutsiyaviy tuzdagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, mazkur normaning davlat uchun ahamiyati uning tartibga solishga qaratilgan funksiyasi bilan izohlanadi. Mazkur norma O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qoraqalpoq xalqining erki va irodasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan hurmat qilinishi va tan olinishini anglatadi. Bu esa, demokratik-huquqiy davlatning muhim belgisidir. Bu norma xalqaro huquqning millatlarning o'z taqdirini o'zi mustaqil belgilash prinsipiga ham to'la hamohangdir. Shu ma'noda ushbu normaning davlat va jamiyat hayotiga ijobiy ta'siri uning siyosiy ahamiyati, qoraqalpoq xalqi irodasini hisobga olishi, ularning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini kafolatlashi kabilarda namoyon bo'ladi. Aytish o'rinliki, ushbu norma xalqaro huquqning umume'tirof etilgan norma va prinsiplariga mutlaqo mos bo'lib, u biror bir kamchilik jihatiga ega emas. Garchand, mazkur konstitutsiyaviy huquqning amalga oshirilishi O'zbekiston chegaralarining o'zgarishi, hududining bo'linib ketishi, Qoraqalpog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish qayta tashkil etilishi kabi bir qadar salbiy oqibatlariga sabab bo'lsa-da, har qanday sharoitda ham Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan umumiy referendum asosida ajralib chiqishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi so'zsiz tan olinadi.

Nazariy sharhlash. Ushbu konstitutsiyaviy-huquqiy norma mamlakatimizda davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqni muhofaza qilishga oid faoliyatining nazariy muammolarini o'rgangan A.A.Azizxo'jayev, O'zbekiston Respublikasining keng qamrovli milliy xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy jihatlarini tadqiq etgan A.R.Rahmonov, mustaqil O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etgan M.A.Utemuratov, Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi to'g'risidagi qonunchilik rivoji va uni takomillashtirish muammolarini tahlil qilgan G.Ye.Yerniyazova, O'zbekiston Respublikasida diplomatiya huquqi: nazariya va

amaliyot muammolarini o'rgangan L.A.Saidova va boshqa huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Kengaytirib sharhlash. 1993-yil 9-aprelda o'n ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi 1-moddasida belgilanishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Shuningdek, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiya", Qoraqalpog'iston Respublikasining 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti to'g'risidagi Deklaratsiyasi" hamda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunda ham uning suveren maqomi belgilab berilgan. Ushbu masalalar yuqorida batafsil tahlil qilib o'tildi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy norma shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlaridagi qoida va talablarga ham mos tushadi. Xususan, 1966-yil 19-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 1-moddalarida "Barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egadir. Ushbu asosida ular o'z siyosiy maqomini erkin belgilaydi va o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini erkin ta'minlaydilar", deb belgilangan.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish:

O'zbekiston Respublikasi — 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga binoan, O'zbekiston — suveren demokratik respublika hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi — 1993-yil 9-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradigan suveren demokratik respublikadir.

Respublika — (lotincha — "jamoat ishi", "umumxalq ishi") boshqaruv shakli bo'lib, unda davlat hokimiyatining barcha oliy organlari yo saylanadi yoki umummilliy vakillik muassasalari tomonidan shakllantiriladi.

Referendum — 2004-yil 3-dekabrda yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasiga binoan. O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

Ajralib chiqish huquqi — boshqa bir davlat tarkibida bo‘lgan xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi asosida kelib chiquvchi hamda uning ushbu davlat tarkibidan mustaqil suveren davlat sifatida ajralib chiqishga bo‘lgan huquqidir.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Vatanimiz mustaqilligining 19 yilligiga bag‘ishlangan bayram tantanalari so‘zlagan “Bu aziz Vatanda azizdir inson” ma‘ruzasida “Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun, uning haq-huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash uchun, degan hayotiy tamoyil hayotimizda o‘z ifodasini topmoqda. Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo‘yilgan”.

Chindan ham, Konstitutsiyamiz mohiyat e‘tibori bilan inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularning manfaatlarini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Aynan ushbu konstitutsiyaviy qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish ekanmiz, mazkur normaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va xalqi manfaatini ta‘minlashini ko‘zda tutishini qayd etish lozim.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqining o‘z xohish-irodasi bilan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini O‘zbekiston Respublikasi nomidan konstitutsiyaviy darajada kafolatlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqi huquqlarini himoya qilishga bevosita ta‘sir qiluvchi normalardan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston Respublikasi munosabatlari tizimida xalq taqdirini mustaqil belgilash borasidagi huquq va erkinliklarini belgilab beradi.

Huquqiy atamalardan o‘z o‘rnida va to‘g‘ri foydalanish.

Moddada qo‘llanilgan asosiy huquqiy atamalar yuqorida qoidada berilgan so‘zlarga ta‘rif berish talabi asosida sharhlab

berildi. Bu o'rinda faqat shunga e'tibor qaratish lozimki, garchand O'zbekiston Respublikasi unitar davlat hisoblansa-da, unda federativ davlatga xos alomatlar ham uchraydi. Bu avvalo, uning tarkibida alohida mustaqil tuzilma – Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjud ekanligi bilan belgilanadi.

Unitar (lot. "unus" – "bir, yagona") davlat – oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat hisoblanadi. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linishga ega, ya'ni tumanlar, viloyatlar, kantonlardan iborat bo'ladi. Mazkur ma'muriy-hududiy bo'linmalar davlat suvereniteti alomatiga ega emas. Unitar davlatlarda butun hudud bo'yicha yagona oliy organlar tizimi va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo'ladi³³.

Oltinchi misol. 85-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri: 1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi; 2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi; 3) Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi; 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; 5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq, Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi; 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi

³³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / Mas'ul muharrir: prof. A.A. Azizxo'jayev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 264–265.

nomidan ish ko'radi; 7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi; 8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi islohotlari natijasida 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan referendum asosida qonun chiqaruvchi hokimiyat monokameralizm tizimidan bikameralizmga o'tkazadi va bu 2002-yil 4-aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi bilan mustahkamlandi. Shu asosda 2003-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritildi va ushbu modda yuqoridagi tahrirda bayon etildi.

Konstitutsiyaning ushbu 85-moddasi ko'proq protsessual masalalarni tartibga soladi va shu bois, mazmuniga ko'ra, uni protsessual norma sifatida baholash mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy normalarning ijtimoiy ahamiyatini quyidagi yo'nalishlarda yoritib berish mumkin:

Birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan – davlat hokimiyatini tashkil etishga oid munosabatlarni, xususan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerini tayinlash, chaqirib olish, uning vakolatlari singari masalalarni huquqiy jihatdan tartibga soladi (konstitutsiyaviy normaning tartibga soluvchi ahamiyati).

Ikkinchidan, ushbu norma mamlakatimiz huquqiy poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qiladi hamda tarmoq qonunchilikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu konstitutsiyaviy norma 2002-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar qoidalarini shakllantirishda muhim fundamental ahamiyat kasb etgan (konstitutsiyaviy normaning qonunchilik tizimidagi ahamiyati).

Uchinchidan, yuqoridagi holatning mantiqiy davomi sifatida ushbu konstitutsiyaviy norma konstitutsiyaviy huquq tarmog'ini shakllantirishda ham ishtirok etadi, xususan uning Oliy Majlis bilan bog'liq institutining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim

huquq manbai bo'lib xizmat qiladi (konstitutsiyaviy normaning huquq sohasidagi ahamiyati).

To'rtinchidan, ushbu konstitutsiyaviy norma O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini yuritish, davlat boshqaruvi, jamiyatni idora etish masalalariga tamoman yangicha yondashilganligi hamda mamlakatda qonun ijodkorligi samaradorligini tubdan yaxshilaganligi, chunonchi sifatli qonunlar qabul qilish, qonunlar qabul qilishda hududlar manfaatlarini hisobga olinishini ta'minlashi bilan ham ahamiyatlidir.

Beshinchidan, mazkur konstitutsiyaviy norma umume'tirof etilgan xalqaro normalarga muvofiq bo'lib, xorijiy mamlakatlar qonun ijodkorligi tajribasida samarali qo'llanib kelinmoqda, bu o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatning e'tiborini qozonishida ham ahamiyatlidir.

Oltinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normadagi asosiy qoidalar mazmunan davlatimiz rahbari asarlaridagi davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, mamlakatni modernizatsiya qilish, yurtimizda demokratik-huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konseptual g'oyalarida ham o'z aksini topgan. Chunonchi, davlatimiz rahbari "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berganligini ta'kidlab o'tadi.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi 18-bobiga tegishli.

Beshinchi bo'lim "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" masalalariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" bo'limi deganda, davlat hokimiyatining tashkil etilishi hamda uning davlat va jamiyat hayotini tashkil etish yo'li bilan bog'liq vakolatlari huquqiy jihatdan mustahkamlangan, davlatning qonunchilik hokimiyati, davlat boshlig'i, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura hamda mudofaa va xavfsizlik tizimini, shuningdek, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov tizimini e'tirof etadigan Konstitutsiyaning beshinchi bo'limi tushuniladi.

Mazkur bo'lim to'qqiz bobdan iborat: XVIII bob – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi; XIX bob – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti; XX bob – Vazirlar Mahkamasi; XXI bob – Mahalliy davlat hokimiyati asoslari; XXII bob – O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati; XXIII bob – Saylov tizimi; XXIV bob – Prokuratura; XXV bob – Moliya va kredit; XXVI bob – Mudofaa va xavfsizlik.

Ushbu bo'limda huquqiy davlatning muhim sharti – hokimiyatlar taqsimlanish prinsipi o'z aksini topgan bo'lib, mamlakatimizda ushbu tamoyil qay tartibda amal qilishi aynan shu bo'lim qoidalariga asoslanadi. U davlat hokimiyati asoslarini yangicha va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda mustahkamlaydi.

Mazkur bo'limning 18, 19, 20, 23-boblariga 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum natijalariga ko'ra, 2003-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Shuningdek, 2011-yil 25-martda Oliy Majlis Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96, 98-moddalariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi ma'qullanganligini ham ta'kidlab o'tish zarur.

85-modda Konstitutsiyaning 18-bobidan o'rin olgan. Konstitutsiyaning “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi” bobi deganda, hokimiyatning muhim bo'g'ini – qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis palatalarining maqomi, tarkibiy tuzilishi va shakllanish prinsiplari, vakolatlari, qonun hujjatlarining ishlab chiqilish va qabul qilinish tartibi, rahbar organlarining saylanishi va faoliyatini muvofiqlashtirish asoslari kabi davlat huquqining asosiy masalalarini belgilab beradigan Konstitutsiyaning o'n sakkizinchi bobi (76–88-moddalar) tushuniladi.

Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish.

Konstitutsiyaning 85-moddasini amaliyot bilan bog'lash va misol keltirishda bugungi kunda Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri sifatida deputatlarning ko'pchilik ovozi bilan Dilorom Toshmuhammedova, uning o'rinbosari sifatida yangi tashkil qilingan Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasining raisi Boriy Botirovich Alixonov saylanganligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish.

Konstitutsiyamizning 85-moddasi konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, xalqaro huquq va boshqa huquq sohalari uchun asosiy huquqiy manba bo'lib hisoblanadi. Chunonchi, u konstitutsiyaviy huquqning parlament faoliyatiga oid institutlar shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'muriy huquqda ham davlat hokimiyatini tashkil etish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining xalqaro munosabatlardagi ishtiroki qisman xalqaro huquqqa ham taalluqli hisoblanadi.

Tizimli sharhlash. Konstitutsiyamizning 85-moddasida ko'zda tutilgan qoidalar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 13–15-moddalarida, 2003-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 4–5-moddalarida yanada rivojlantirilgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi Qonunchilik palatasi Spikeri, 14-moddasi Qonunchilik palatasi Spikerining vakolatlari, 15-moddasi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlariga; "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o'rinbosarlarini saylash; 5-moddasi Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o'rinbosarlarini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu munosabatlarni yanada kengroq tartibga soladi.

Tarixiy sharhlash. O'zbekiston huquqshunosligi tarixida davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalar eng qadimgi davrda "Avesto", o'rta asrlarda shariat – islom huquqi normalari, xususan, unga asoslangan Yasoq qonunlari, "Temur tuzuklari" singari hujjatlar, yangi davrda, dastavval, Buxoro va Xiva Konstitutsiyalari, keyinchalik sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida 1927, 1937 va 1978-yilgi konstitutsiyalar bilan tartibga solingan.

"**Avesto**" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, bizgacha yetib kelgan qismlari milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan, 21 ta kitobdan iborat. "Avesto"da qadimgi 16 mamlakatning hududiy-ma'muriy va siyosiy-huquqiy boshqaruv tizimi o'z aksini topgan. "Avesto"ga binoan, davlatni – podshoh "kavi" boshqargan, kavi

muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan. Qonun chiqaruvchi organ oqsoqollar kengashi "varzanapati" deb, Xalq Majlisi esa "vyaxa" deb atalgan. Oqsoqollar Kengashi uyushmasi kohini Oliy sudya vazifasini bajargan, uni "Za-raushtroyema" deb atashgan, uning hukmi qat'iy bo'lgan, unga hech kimning e'tiroz bildirishga xaqqi bo'lmagan. Oqsoqollar kengashi – varzanapati qo'lida diniy mafkura va hokimiyat birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo'jalik masalalarini hal etganlar.

Musulmon huquqi (shariat). VII asrdan boshlab mamlakatimiz hududida ijtimoiy munosabatlar musulmon huquqi (shariat) normalari asosida tartibga solingan. Musulmon huquqi (shariat) normalariga asosan qonun qabul qilishga ilohiy tus berilib, jamiyat a'zolariga bunday (qonun qabul qilish) vakolat berilmagan. Jamiyatda fiqhshunos olimlar muayyan masalalar yuzasidan fatvo – hukm chiqarishga haqli bo'lgan. Fatvo chiqarishda fiqhshunos olimlar Qur'on, sunna, ijmo' va qiyosga tayanishgan. Qur'on 6666 oyatga bo'lingan, 114 suradan iborat. Sunna – Muhammad (s.a.v.)ning fikr-mulohazalari va qilgan ishlari jamlangan ko'plab hodisalardan iborat. Ijmo' – musulmon jamoasining umumiy kelishuvi sifatida qaralgan. Qiyos (ilgarigi qarorga qarab qaror chiqarish) – Qur'onda, sunnada yoki ijmo'da o'rnatilgan qoidalar bu huquq manbalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan ishlarga ham qo'llanishi mumkin bo'lgan.

"Hidoya" bobokalonimiz Burxoniddin Marg'inoniy tomonidan yozilgan islom dunyosida e'tiborli kitoblardan bo'lib, qozilarning fatvo chiqarishi bilan bog'liq masalalar atroflicha tartibga solingan.

O'rta asrlarda jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri bu "Temur tuzuklari"dir. **"Temur tuzuklari"** XIV asrning II yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'rganishga doir Temur saltanati uning davlati tizimi, boshqarilishi, sud tuzilishiga oid juda muhim qoidalar va ma'lumotlarni o'zida aks yettirgan tarixiy huquqiy manbadir.

Buxoro amirligida Amir Shohmurodning bevosita tashabbusi bilan **qirq a'lamdan** (qonunshunoslardan) iborat tarkibda oliy sud (qozixona) palatasi tuzildi. Qonunshunoslikka va umuman shariatga doir muhim masalani yechish va hayotga tatbiq etish qirq a'lam zimmasida bo'lgan.

Bevosita o'zbek konstitutsionalizmi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasi** 1920-yilning 30-aprelida xalq vakillarining Butunxorazm I qurultoyida

qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiya VI bo'lim, XV bob va 87-moddadan iborat edi. Uning uchinchi qismi davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy va markaziy organlariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, oliy qonunchilik va hokimiyat organi – xalq vakillari Umumxorazm Qurultoyi hamda Umumxorazm Markaziy Ijroiya qo'mitasi va uning Prezidentidan iborat.

1920-yil 23-sentabrda Buxoro Sovetlarining qurultoyi **Buxoro Konstitutsiyasini** qabul qilgan. Konstitutsiyada Umumbuxoro Xalq deputatlari s'ezdi Oliy hokimiyat organi hisoblanib, 2 ming kishidan bir deputat miqdorida saylangan. Uning sessiyalari doimiy organ bo'lgan. Butun Buxoro Xalq Sovet Respublikasining hukumati Xalq Nozirlari Soveti ustidan nazorat organi hisoblanib, uning muhim qarorlarini tasdiqlagan.

Mamlakatimizning **sobiq SSSR tarkibida** bo'lishi davrida uchta konstitutsiya qabul qilingan. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi **1927-yil 30-martda** O'zbekiston SSR Sovetlari II s'ezdida qabul qilingan. Konstitutsiya 8 bo'lim, 17 bob va 114 moddadan iborat. Navbatdagi Konstitutsiya **1937-yil 14-fevralda** qabul qilingan. Ushbu konstitutsiyalarda sud hokimiyati mustaqilligi tan olingan bo'lsada, amalda ular hukmron sinf manfaatlarini ifodalashga xizmat qilgan. Konstitutsiyalarda belgilangan demokratik prinsiplar deklarativ tusda bo'lib, amalda tatbiq etilmas, sud hukmron sinf va mafkura qo'lidagi qurol vazifasini bajarar edi.

1978-yil 19-aprelda Oliy Kengashning navbatdan tashqari to'qqizinchi chaqiriq VI sessiyasida O'zbekiston SSRning uchinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. U muqaddima, 11 bo'lim, 21 bob va 183 moddadan iborat. Uning 5-bo'limi "O'zbekiston Respublikasida oliy davlat hokimiyat va boshqaruv organlari" (101–127-moddalar)ga bag'ishlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston SSR Oliy soveti davlat hokimiyatining oliy organi doimiy ishlaydigan O'zbekiston SSR Oliy Soveti bo'lib, u o'z faoliyatida qonun chiqarish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi (101-modda). Unga O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Raisi boshchilik qilgan (109-modda). O'zbekiston SSR Oliy Soveti Raisini saylash va chaqirib olish tartibi, uning vakolatlari Konstitutsiyaning 110-moddasida belgilangan. Xususan, 110-moddaga ko'ra, O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Raisi O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan O'zbekiston SSR xalq deputatlari orasidan besh yil muddatga va ko'pi bilan surunkasiga ikki muddatga yashirin ovoz berish yo'li

bilan saylanadi. U istalgan vaqda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan chaqirib olinishi mumkin. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Raisi O'zbekiston SSR Oliy Sovetiga hisob berib turadi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Raisi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyalarini chaqirish haqida qarorlar, boshqa masalalar yuzasidan esa, farmoyishlar chiqaradi.

1992-yil 8-dekabrda mustaqil O'zbekiston Respublikasining ilk Konstitutsiyasi qabul qilingach, uning dastlabki tahriri 85-moddasida Oliy Majlis Raisi va uning vakolatlari to'g'risida so'z borgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 2003-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir nechta moddalariga, shu jumladan, 85-moddasiga ham o'zgartirish kiritildi va ushbu modda yuqoridagi tahrirda bayon etildi.

Mantiqiy sharhlash. Ushbu normani takomillashtirish nuqtai nazaridan uning salbiy tomoni haqida shuni aytish lozimki, Konstitutsiyamizning 85-moddasida Spikerning farmoyish chiqarish huquqi ko'rsatilgan bo'lib, ushbu huquqni amalga oshirish tartibi, qaysi masalalar yuzasidan farmoyish chiqarishi mumkinligini, farmoyishning huquqiy maqomi, uning normativ-huquqiy hujjat hisoblanishi yoki hisoblanmasligi singari masalalarni tarmoq qonunchilikda aniq belgilab qo'yish, xususan, bu haqda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunda tegishli ko'rsatmalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Nazariy sharhlash. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis faoliyatiga, shuningdek, Konstitutsiyamizning 85-moddasida ko'zda tutilgan masalalar yuzasidan quyidagi huquqshunos olimlar ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borganligini ko'rsatib o'tish mumkin:

– Azizxo'jayev A.A. Davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqni muhofaza qilishga oid faoliyatining nazariy muammolari, 1992.

– Odilqoriyev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi jarayoni: nazariy va amaliy masalalar. 1995.

– Xalilov Ye.H. O'zbekiston Respublikasi oliy davlat qonunchilik hokimiyati organining shakllanishi va rivojlanishi, 2000.

– Muhammadjonov O.Z. O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish, 2004.

– Abbosxo'jayev S.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish, 2007.

– Zulfikarov Sh.X. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, 2008.

– Bekov I.R. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shakllanishi va faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining huquqiy asoslari, 2009.

Kengaytirib sharhlash. Konstitutsiyaning 85-moddasini quyidagicha ketma-ketlikda kengaytirib sharhlash mumkin:

birinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normaning Konstitutsiyaning boshqa normalari bilan bog'liqligi. Bu nuqtai nazardan Konstitutsiyaning 85-moddasi uning 18-bobidagi 76–88-moddalari bilan uzviy bog'liq;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy normaning amaldagi qonun hujjatlarida o'z aksini topganligi. Yuqorida tizimli sharhlashda to'xtalib o'tganimizdek, Konstitutsiyamizning 85-moddasida ko'zda tutilgan qoidalar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 13–15-moddalarida to'ldirilgan. Shuningdek, 2003-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 4–5-moddalarida yanada rivojlantirilgan. Uning 4-moddasida Qonunchilik palatasi Spikerini va uning o'rinbosarlarini saylash tartibi aniqlashtiriladi. Unga ko'ra, Qonunchilik palatasining birinchi majlisi Qonunchilik palatasi Spikerini saylashdan boshlanadi. Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylash uchun deputatlar orasidan ko'pi bilan o'n besh kishidan iborat Oqsoqollar kengashi tuziladi, mazkur kengash vakolatlari Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari saylangach tugaydi. Oqsoqollar kengashining tarkibi to'g'risidagi taklifni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi kiritadi.

Oqsoqollar kengashi tarkibiga: O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi; deputatlik faoliyatida katta tajribaga ega bo'lgan, yoshi eng ulug' deputatlar; nomzodlari Qonunchilik palatasiga saylangan siyosiy partiyalar deputatlarining vakillari; Qonunchilik palatasiga O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlarning vakillari kiritiladi.

Oqsoqollar kengashining tarkibi to'g'risidagi qaror Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Oqsoqollar kengashi Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni deputatlar orasidan ko'rsatadi.

Nomzod, agar u yashirin ovoz berish natijasida Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining yarmidan ko'p ovozi bo'lsa, Qonunchilik palatasining Spikeri etib saylangan hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlarining soni Oqsoqollar kengashining tavsiyasi bo'yicha Qonunchilik palatasi tomonidan belgilanadi. Bunda, Qonunchilik palatasida tuzilgan fraksiya o'z vakili Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari lavozimlaridan birini egallashida kafolatli huquqqa ega ekanligi inobatga olinadi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarini saylash uchun fraksiya, qoida tariqasida, o'z fraksiyasi rahbarining nomzodini kiritadi.

Fraksiyadan taqdim etilgan nomzod Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari lavozimiga saylanmagan taqdirda, fraksiya o'z fraksiyasi a'zolari orasidan boshqa nomzodni taqdim etish huquqiga ega.

Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari saylanganligi to'g'risida qarorlar qabul qilinadi, qarorlarni palata majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish.

Ushbu normadagi Spiker, Senat, farmoyish kabi tushunchalarga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiq. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasiga binoan, **Spiker** – (ing. notiq) anglo-sakson mamlakatlarida, shuningdek anglo-sakson davlat huquq tizimini u yoki bu darajada qabul qilgan mamlakatlarda (Hindiston, Nigeriya va b.) parlament quyi palatasining raisi.

Senat – (lot. qariya, oqsoqollar kengashi) bir qator mamlakatlarning (AQSh, Fransiya, Italiya, Qozog'iston va b.) parlamentlar yuqori palatalarining nomi. O'zR Oliy Majlisining yuqori palatasi hisoblanadi. O'zR Konstitutsiyasining 77-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

Farmoyish – prof. A.A. Azizxo'jayevning mas'ul muharrirlikida 2008-yilda chop etilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlarda keltirilishicha, kollegial muhokama qilinishi shart bo'lmagan masala yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat bo'lib, asosan kutib bo'lmaydigan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish uchun chiqariladi.

Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish.

Konstitutsiyaning 85-moddasi inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Spiker inson huquqlariga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi; aynan inson huquqlariga taalluqli qonunchilikka oid parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq, Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi va ushbu jarayonda inson huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi.

Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish.

Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berilganda ham aynan huquqiy atamalarga ta'rif berildi. Shuningdek, yuqoridagilar bilan bir qatorda yana ayrim tushunchalarga to'xtalib o'tish zarur. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-apreldagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga binoan mamlakatimizda **monokameralizmdan bikameralizmga** o'tildi. Bunda **monokameralizm** – bir palatali parlament, **bikameralizm** – ikki palatali parlament degan ma'nolarni anglatadi.

3-BOB. VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARIGA OID VAZIYATNI SHARHLASH

3.1. Huquqbuzarlikning obyektiv belgilari

Huquqbuzarlikning obyektiv belgilari deganda, uning obyektivi va obyektiv tomoniga oid belgilar majmui tushuniladi. Huquqbuzarlikning obyektiv belgilari tizimida dastlab uning obyektiga e'tibor qaratish zarur. Olimpiada ishtirokchilari uchun asosan ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyat bilan bog'liq vaziyatlar berilishi sababli quyida aynan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarning obyektiv belgilariga e'tibor qaratamiz.

Dastlab, jinoyat obyektivi tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Obyekt har qanday jinoyat tarkibining muqarrar va zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyat obyektini deganda – O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar (shaxsning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi) majmui tushuniladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida, ushbu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi (jinoyat tugallanganda) yoki shunday zarar yetkazish real xavfi ostida qoladi (jinoyatga suiqasd bo‘lganda).

Ijtimoiy munosabatlar bu – insonlar o‘rtasidagi ularning hayot faoliyati jarayonida vujudga keladigan ma‘lum aloqalardir.

Jinoyat obyektining bir qator turlari mavjud:

Jinoyatning umumiy obyektini – jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, bunday munosabatlar sirasiga shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi kiradi.

Jinoyatning maxsus obyektini – jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mohiyatlari jihatidan bir-biriga o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga oladigan ijtimoiy munosabatlar guruhi. Maxsus obyekt Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tuzilishini shakllantirish, bo‘limlarga ajratishning asosiy mezoni hisoblanadi, boshqacha aytganda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi bo‘limlarida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning maxsus obyektini tashkil etadi.

Jinoyatning turdosh obyektini – Jinoyat kodeksi Maxsus qismi boblarida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo‘lib, maxsus obyektning yanada tor doiradagi o‘xshash munosabatlar bo‘yicha guruhlanishini aks ettiradi.

Jinoyatning bevosita obyektini – ijtimoiy xavfli tajovuz sodir etilayotganda bevosita tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat tushuniladi. **Bevosita obyektini** jinoyat qilmish sodir etilishi natijasida bevosita zarar ko‘radi. Bevosita obyektini Jinoyat kodeksi Maxsus qismining har bir moddasida aks etadi.

Qo‘shimcha obyekt deb – asosiy obyekt bilan bir vaqtda tajovuzga uchraydigan jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan yana bir boshqa ijtimoiy munosabatlarga aytiladi. Masalan, Jinoyat kodeksi 164-moddasi “Bosqinchilik”da qo‘shimcha obyekt – shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘i hisoblanadi. Ya‘ni, aybdor mulkni talon-

toroj qilishda mulk egasining mulkiy huquqlariga tajovuz qilish bilan birga uning hayoti yoki sog'lig'iga ham zarar yetkazadi.

Fakultativ obyekt deganda – asosiy obyekt bilan bir vaqtda ijtimoiy xavfli tajovuzga uchrashi yoki uchramasligi ham mumkin bo'lgan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Fakultativ obyekt bu – shunday ijtimoiy munosabatlardirki, jinoyat sodir etilganda unga zarar yetkazilishi ham, yetkazilmasligi ham mumkin. Ushbu holat jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Masalan, Jinoyat kodeksi 277-moddasiga ko'ra, bezorilikda – o'zganing mulk huquqi fakultativ obyekt bo'lib kelishi mumkin. Ya'ni, aybdor asosiy obyekt hisoblangan jamoat tartibidan tashqari o'zga shaxslarning mulk huquqlariga ham zarar yetkazishi yoki zarar yetkazmasligi mumkin.

Jinoyat predmeti bu – ijtimoiy xavfli tajovuz natijasida to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan moddiy dunyo ne'matidir. Jinoyat predmetining ko'z bilan ko'riladigan, o'lchovi, sifati va o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan moddiy ashyo bo'lishi; shaxs predmetga ta'sir qilish orqali jinoyat obyektiga zarar yetkazishi (masalan, o'g'rilik jinoyatida: pulni o'g'irlash orqali shaxsning mulk huquqiga tajovuz qiladi. Ushbu holatda pul – jinoyat predmeti, mulk huquqi esa – jinoyat objekti hisoblanadi); jinoyat predmeti ayrim jinoyat tarkiblarida mavjud bo'lmasligi (masalan, qasddan odam o'ldirish jinoyatida, inson tana a'zolari – jinoyat predmeti sifatida qabul qilinmaydi) kabi belgilarini ko'rsatish mumkin.

O'quvchi jinoyat objekti va predmetini o'zaro farqlashi zarur.

Jinoyat objekti: faqat ijtimoiy munosabatlarni tashkil qilishi; ushbu ijtimoiy munosabatlarning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanganligi; hamma vaqt jinoyat tarkibining zaruriy belgisi ekanligi; obyektning yo'qligi, jinoyat mavjud emasligini anglatishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Jinoyat predmeti: ko'z bilan ko'riladigan, o'lchovi, sifati va o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan moddiy ashyo bo'lishi; ayrim hollarda ushbu ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi manba bo'lib kelishi; predmetga zarar yetkazilishi orqali jinoyat obyektiga tajovuz qilinishi; jinoyat qonunida nazarda tutilgan hollarda jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib kelishida ifodalinishi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

O'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun Jinoyat kodeksi 164-moddasida ko'zda tutilgan "bosqinchilik" jinoyatining obyektini sharhlab beramiz.

Bosqinchilik jinoyatining umumiy objekti – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar bo'lib, Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, bunday munosabatlar sirasiga shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi kiradi.

Bosqinchilik jinoyatining maxsus objekti – jinoyat qonuni uchinchi bo'limi asosida qo'riqlanadigan iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar.

Bosqinchilik jinoyatining turdosh objekti – Jinoyat kodeksi Maxsus qismi 10-bobida nazarda tutilgan mulkiy munosabatlar.

Bosqinchilik jinoyatining bevosita objekti – bosqinchilik sodir etilishi natijasida bevosita zarar ko'radigan o'zganing mol-mulki hisoblanadi.

Bosqinchilik jinoyatining qo'shimcha objekti – asosiy obyekt bilan bir vaqtda tajovuzga uchraydigan jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar.

Bosqinchilik jinoyatining predmeti – bosqinchilik jinoyati natijasida qo'lga kiritilgan moddiy dunyo buyumlari.

Quyida jinoyatning obyektiv tomoni tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

Jinoyatning obyektiv tomoni deb – sodir qilingan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni xususiyatlarini ifodalovchi qonun tomonidan o'rnatilgan belgilar majmuiga aytiladi. Ya'ni, jinoyat sodir qilishning usul va yo'llarini nazarda tutuvchi belgilar yig'indisi tushuniladi. Odatda ushbu belgilar Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida ko'rsatilgan bo'ladi.

Jinoyat obyektiv tomonining belgilari ikkita asosiy guruhga ajratiladi:

Zaruriy belgilar – o'zgarmas va har bir jinoyat tarkibi uchun xos bo'lgan va mazkur elementsiz jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydigan belgilar. Ular sirasiga, ijtimoiy xavfli qilmish; ijtimoiy xavfli oqibat hamda ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish kiradi.

Fakultativ belgilar – jinoyatning bevosita obyektiv tomoni tarkibida bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan fakultativ xarakterga

ega bo'lgan belgilar. Ushbu belgilarga jinoyat sodir etish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli kabilar kiradi. Fakultativ belgilar ayrim hollarda zaruriy belgi bo'lib kelishi ham mumkin.

Barcha jinoyat tarkibi turlari uchun jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida – **ijtimoiy xavfli qilmish** (harakat yoki harakatsizlik) olinadi.

Jinoyat tarkibiga ko'ra jinoyatlar moddiy, formal va kesik tarkibli jinoyatlarga bo'linadi:

Moddiy tarkibli jinoyat deb – ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini talab qiladigan va shu oqibat kelib chiqishi bilan jinoyat tugallangan jinoyat deb topiladigan jinoyat turlariga aytiladi (Jinoyat kodeksining 97-moddasi – “Qasddan odam o'ldirish”).

Formal tarkibli jinoyat deb – ijtimoiy xavfli qilmish (harakat) sodir etilishi bilan tugallanadigan jinoyat turlariga aytiladi (masalan, Jinoyat kodeksining 140-moddasi – “Tuhmat”). Formal tarkibli jinoyatlarda ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi; bunday jinoyatlar harakatsizlikdan sodir etilmaydi.

Kesik tarkibli jinoyat deb esa – jinoyatni oxiriga etish vaqtini jinoyat qonuni oldingi bosqichga (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish bosqichiga) ko'chirishiga va shu bosqichda jinoyat tugallangan deb topiladigan jinoyat turlariga aytiladi (Jinoyat kodeksining 165-moddasi – “Tovlamachilik”). Kesik tarkibli jinoyatlarda – jinoyat obyektiv tomoni belgilari (Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar) bo'lib-bo'lib bajariladi va ushbu harakatlardan biri bajarilishi bilan jinoyat tugallangan deb topiladi.

Agar sodir etilgan jinoyat **moddiy tarkibli** bo'lsa: **ijtimoiy xavfli oqibat, ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish** ham jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etiladi.

Qilmish deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini vujudga keltiradigan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy, aniq va murakkab, xususiyatiga ko'ra: faol (aktiv) va nofaol (passiv) xulq-atvor (harakat yoki harakatsizlik)ga aytiladi. Qilmish harakat yoki harakatsizlikdan iborat bo'ladi.

Harakat bu – shaxsning ijtimoiy faol (aktiv) xulq-atvori;

Harakatsizlik esa – shaxsning nofaol xulq-atvori – uning o'ziga qonun yoki boshqa qonunosti normativ hujjatlari asosida yuklatilgan vazifalarni bajarmaslikda ifodalanadigan passiv xulq-atvorida ifodalanadi.

Jinoiy oqibat deganda – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanayotgan ijtimoiy munosabatlarda yuz beradigan salbiy o'zgarishga aytiladi.

Sababiy bog'lanish – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi bog'liqlikdir. Sababiy bog'lanish moddiy tarkibli jinoyatlar uchun jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyat sodir etish joyi, vaqti, holati, usuli, quroli va vositasi jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilarini tashkil etadi.

Jinoyat sodir etilgan joy – bu jinoyat sodir etilgan va tamomlangan ma'lum chegaralangan hudud, joy, geografik nuqta hisoblanadi.

Jinoyat sodir etish vaqti – jinoyat sodir etilgan aniq paytni ifodalaydigan belgilar majmui.

Jinoyat sodir etish usuli – bu jinoyat sodir etilayotganda aybdor tomonidan jinoyatni sodir qilishda ishlatiladigan aniq usul va uslublar birligidir.

Jinoyat sodir etish quroli – shaxs jinoyat predmetiga yoki shaxsga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun foydalangan moddiy ashyo. Ya'ni, aybdor jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga zarar yetkazish maqsadida foydalangan moddiy ashyo tushuniladi.

Jinoyat sodir etish vositasi – shaxs jinoyat sodir etishni yoki jinoyat izlarini yo'qotishni osonlashtirish uchun ishlatadigan tashqi dunyo ne'mati.

Odatda, jinoyat sodir etish vositasi bilan jinoyat obyektiga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazilmaydi va ushbu belgi jinoyat sodir etish vositasini jinoyat sodir etish qurolidan farqlovchi asosiy xususiyat hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari muayyan jinoyat tarkibining zaruriy va zaruriy bo'lmagan belgilari bo'lishi mumkin.

Agarda Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddasi dispozitsiyasida ushbu belgilar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, ular zaruriy belgi sifatida e'tirof etiladi. Fakultativ belgi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaganda esa, jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir

etmasa-da, jazo tayinlanashda javobgarlikni og'irlashtiruvchi yoki yengilashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin.

Quyida o'quvchiga oson bo'lishi uchun Jinoyat kodeksi 267-moddasida ko'zda tutilgan transport vositasini olib qochish jinoyati **obyektiv tomonini** atrollicha tavsiflab o'tamiz.

Jinoyat kodeksi 267-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni transport vositasini olib qochishda ifodalanadi. Olib qochish transport vositasini qonunga xilof ravishda egallab olish, ya'ni o'g'irlash maqsadisiz qo'lga kiritish va boshqa joyga yetkazishdir³⁴. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda "Transport vositalarini olib qochish ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorida "transport vositalarini haydab qochish deganda o'ziga tegishli bo'lmagan transport vositasini o'zlashtirish maqsadisiz uni turgan joydan boshqa joyga olib qochishni tushunish kerak". deb ta'rif beriladi.

Jinoyat kodeksi 267-moddasida ko'zda tutilgan transport vositasini olib qochish jinoyati obyektiv tomoniga ko'ra, formal tarkibli jinoyatdir. **Formal tarkibli jinoyat deb** – ijtimoiy xavfli qilmish (harakat) sodir etilishi bilan tugallanadigan jinoyat turlariga aytiladi. Formal tarkibli jinoyatlarda ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi yoki kelib chiqmasligi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi; bunday jinoyatlar harakatsizlikdan sodir qilinmaydi. Jinoyat kodeksi 267-moddasidagi jinoyat transport vositasi joyidan jilishi bilan tugallangan deb hisoblanadi.

Transport vositasini olib qochish jinoyati obyektiv tomonining belgilari ikkita asosiy guruhga ajratiladi:

Zaruriy belgilar – o'zgarmas va har bir jinoyat tarkibi uchun xos bo'lgan va mazkur elementsiz jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydigan belgilar. Jinoyat kodeksi 267-moddasidagi jinoyat formal tarkibli bo'lib, uning zaruriy elementi ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish deb – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini vujudga keltiradigan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy, aniq va murakkab, xususiyatiga ko'ra: faol (aktiv) va nafaol (passiv) xulq-atvor (harakat

³⁴ Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. T.5.: Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011. – B.116.

yoki harakatsizlikka) aytiladi. Jinoyat kodeksi 267-moddasidagi jinoyiy qilmish faqat harakat orqali sodir etiladi. Harakat bu – shaxsning ijtimoiy faol (aktiv) xulq-atvori.

Fakultativ belgilar – jinoyatning bevosita obyektiv tomoni tarkibida bo'lmisligi ham mumkin bo'lgan fakultativ xarakterga ega bo'lgan belgilar. JK 267-moddasidagi jinoyatning bunday belgilariga jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli kabilar kiradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik obyekti – ma'muriy huquq normalari bilan o'rnatilgan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2-moddasida bunday munosabatlar sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulk, davlat va jamoat tartibi, tabiiy muhit ko'zda tutilgan. Guvohi bo'lganimizdek, ma'muriy huquqbuzarlik obyekti jinoyat obyektiga nisbatan torroq doiradagi munosabatlarni qamrab oladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik obyekti jinoyat obyektidan farqli ravishda umumiy, turdosh va bevosita turlarga bo'linadi. Chunki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismi tuzilishiga ko'ra, bob va moddalardan, Jinoyat kodeksi esa, bo'lim, bob va moddalardan iborat. Shunga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik obyekti turlariga to'xtalib o'tish lozim:

Ma'muriy huquqbuzarlikning umumiy obyekti – fuqarolarning Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2-moddasida ko'zda tutilgan Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan huquq va erkinliklari, mulk, davlat va jamoat tartibi, tabiiy muhit ma'muriy huquqbuzarliklarning umumiy obyektini tashkil qiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning turdosh obyekti – mazmuni va o'zaro yaqin xususiyatlariga qarab yagona tizimga keltirilgan obyektlar. Ushbu obyektlar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismida boblarga birlashtirilgan. Ushbu kodeks Maxsus qismi 12 ta bobdan iborat, ularda ko'zda tutilgan fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulk, tabiiy muhit, sanoatdagi, qurilishdagi va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi munosabatlar, qishloq xo'jaligi sohasidagi munosabatlar, transport, yo'l xo'jaligi va aloqa sohasidagi munosabatlar, fuqarolarning turar joy huquqlariga, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi munosabatlar, savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi munosabatlar, odil sudlov, jamoat tartibi,

boshqaruv tartibi ma'muriy huquqbuzarlikning turdosh obyektini tashkil etadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning bevosita obyekt – huquqbuzarlik oqibatida bevosita zarar yetkazilgan aniq obyekt bo'lib, u Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks Maxsus qismi 40–241¹-moddalarida o'z aksini topgan. Ma'muriy huquqbuzarlikning bevosita obyektini aniqlashda jinoyatning bevosita obyektini aniqlash bilan bog'liq yuqorida qayd etilgan qoidalardan to'la-to'kis foydalanish mumkin bo'lgani bois, bu haqda yana qaytadan takrorlab o'tishga hojat yo'q.

Ma'muriy huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – huquqqa xilof qilmish, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik obyektiga qaratilgan harakat yoki harakatsizlik, uning xususiyatlari, shuningdek, uni sodir etish (yoki sodir etmaslik) sharoitlari hisoblanadi³⁵.

Ma'muriy huquqbuzarliklar obyektiv tomonining zaruriy belgilari, harakat yoki harakatsizlik tariqasidagi ma'muriy qilmish (formal tarkibli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun shu belgining o'zi kifoya), oqibat va sababiy bog'lanish (moddiy tarkibli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun zaruriy belgi).

Ma'muriy huquqbuzarliklar obyektiv tomondan moddiy yoki formal tarkibli huquqbuzarliklarga bo'linadi. Moddiy tarkibli ma'muriy huquqbuzarliklar uchun moddiy ziyon (oqibat) kelib chiqishi talab etiladi. Formal tarkibli ma'muriy huquqbuzarliklar esa, moddiy ziyon (oqibat) kelib chiqishini nazarda tutmaydigan huquqbuzarliklardan iborat. Ularni yanada aniqroq farqlashda yuqorida bayon qilingan jinoyatning obyektiv tomoniga oid qoidalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar obyektiv tomonining fakultativ belgilari (huquqbuzarlikning sodir etilish usuli, vositasi, quroli, joyi, vaqti va b.) jinoyatdagi singari ta'riflanadi va shu bois, ushbu masalalarni yoritishda jinoyatdagi tahlildan foydalanish talab etiladi.

3.2. Huquqbuzarlikning subyektiv belgilari

Huquqbuzarlikning subyektiv belgilari deganda, uning subyektivi va subyektiv tomoniga oid belgilar majmui tushuniladi. Huquqbuzarlikning subyektiv belgilari asosan jinoyat va ma'muriy

³⁵ Ma'muriy huquq. Darslik / Prof. X.T. Odilqoriyev va B.E. Qosimovlarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2010. – B. 209.

huquqbuzarliklarda o'xshash bo'lgani bois, uni asosan jinoyatga tatbiquan ko'rib chiqamiz va ma'muriy huquqbuzarliklar subyektiv belgilarining jinoyatdan farqli jihatlarini yoritamiz.

Jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik subyekti deganda, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan va Jinoyat yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs tushuniladi.

Subyekt ham huquqbuzarlik tarkibining bir elementi sifatida o'zining zaruriy va fakultativ belgilariga ega.

Huquqbuzarlik subyektining zaruriy belgilari quyidagilar: jismoniy shaxs bo'lish; aqli rasolik; Jinoyat kodeksi yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan yoshga yetganlik.

3.2.1. Jinoyat subyektining yoshi

Jinoyat qonuni bo'yicha jinoyat sodir etgunga qadar jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan aqli raso jismoniy shaxsgina, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksining 17-moddasiga ko'ra, subyekt yoshining to'rtta darajasi ko'rsatiladi:

– 13 yosh – jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasd-dan odam o'ldirganliklari (97-moddaning ikkinchi qismi) uchungina javobgarlikka tortiladilar.

– 14 yosh – jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar Jinoyat kodeksi 97-moddasining birinchi qismi, 98, 104–106, 118, 119, 137, 164–166, 169-moddalari, 173-moddasi-ni-ning ikkinchi va uchinchi qismlari, 220, 222, 247, 252, 263, 267, 271-moddalari, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

– 16 yosh – jinoyatning umumiy subyekt yoshi bo'lib, Jinoyat kodeksining 17-moddasidagi istisnolardan tashqari barcha jinoyatlar uchun belgilangan yosh mezon.

– 18 yosh – Jinoyat kodeksi 122, 123, 127, 144, 146, 193–195, 205–210, 225, 226, 230–232, 234, 235, 279–302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat qonuni talabiga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsning yosh chegaralari aniq belgilanishi uchun shaxsning tug'ilgan yili, oyi, kuni aniqlanishi lozim. Shaxsni ma'lum bir yoshga to'lgan

deb topish uchun uning yoshi tug'ilgan kundan emas, balki keyingi kundan boshlab hisoblanadi.

Odatda, yosh tug'ilganlik to'g'risidagi ma'lumot (tug'ilganlik to'g'risidagi guvoohnoma yoki pasport)ga qarab aniqlanadi.

Agar shaxsning yoshi haqida aniq ma'lumot bo'lmasa, tug'ilgan vaqt sud tibbiyot ekspertizasi orqali aniqlanadi. Bunda ham xulosa aniq bir yoshni emas, balki yoshning minimal va maksimal chegarasini aytadi (masalan, shaxs 14–16 yoshlar orasida). Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qaroriga asosan sudlanuvchining yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tug'ilgan kuni deb, ekspertlar aniqlagan yilning oxirgi kuni (31-dekabr) hisoblanadi. Yosh eng kam va eng ko'p yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqishi lozim.

Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddalarida ushbu jinoyatlar uchun moddaning o'zida to'g'ridan-to'g'ri yosh chegarasi ko'rsatilmaydi. Har bir modda bo'yicha yosh chegarasi Jinoyat kodeksining 17-moddasi orqali aniqlanadi. Chunki ushbu moddada barcha jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshi chegarasi belgilangan.

Ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish yoshi esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13-moddasida belgilanishicha, o'n olti yoshdir.

Ma'muriy huquqbuzarliklarda subyektning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ayrim moddalarida fuqarolar bilan bir vaqtning o'zida mansabdor shaxslar javobgarligi ham belgilangan. Chunonchi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-moddasi mansabdor shaxslarning ma'muriy javobgarligiga bag'ishlangan. Unga ko'ra, mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim. Mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasa, tashkilotda muayyan mansabni egallab turgan shaxs, basharti unga rahbarlik, tashkiliy, farmoyish berish, tekshiruv-nazorat

vazifalari yoki moddiy boyliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuklatilgan bo'lsa, mansabdor shaxs deb hisoblanadi.

3.2.2. Aqli rasolik va aqli norasolik tushunchalari

Aqli rasolik deb, jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganlik va o'z harakatlarini boshqara olganlikka aytiladi.

Jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxsgina aqli raso shaxs deb topiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida o'z harakatlarini ahamiyatining anglay olmagan yoki o'z harakatlarini boshqara olmagan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bunday shaxslar aqli noraso shaxs deb topiladi.

Shaxsni aqli noraso deb topish uchun ikki xil mezonlar bo'lishi talab qilinadi: yuridik mezon hamda tibbiy mezon. Yuridik mezon ham o'z navbatida: tafakkuriy (shaxsning sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavflilik xususiyatini anglamasligi) va irodaviy (o'z harakatlarini boshqara olmaslik) kabi belgilaridan tashkil topadi.

Mana shu ikki belgidan birining mavjud bo'lishi yuridik mezon mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida o'z harakatlarini anglay olmagan bo'lsa yoki o'z harakatlarni boshqara olmagan bo'lsa, uni jinoiy javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

Aqli norasolikning yuridik mezoni deganda, shaxs o'zi sodir qilayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamasligi yoki o'z harakatlarini boshqara olmasligi natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishiga aytiladi.

Shaxsning bunday ko'rinishdagi harakatining sababi esa, tibbiy mezonda ko'rinadi. Tibbiy mezon – shaxs ruhiy holati buzilganligining belgilarini ifodalaydi. Ular quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: surunkali ruhiy kasallik; vaqtinchalik ruhiy kasallik; aqli zaiflik; kasallikning boshqa holatlari.

Aqli noraso holatda sodir qilingan qilmishlar uchun sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jazo chorasi deb e'tirof etilmaydi.

Jinoyat qonuni mastlik holatida sodir qilingan qilmish uchun jinoyiy javobgarlikdan ozod qilmaydi va shaxsni aqli noraso holatda deb topmaydi. Mastlik holatida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinadi (Jinoyat kodeksining 19-moddasi).

Mastlik – inson ongiga ta'sir qiladigan ma'lum bir vositalarni qabul qilish orqali vujudga keladigan holat. Ushbu vositalarga: alkogol ichimliklar; psixotrop moddalar; giyohvandlik vositalari; kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar (masalan, toksikomaniya) kiradi. Shu bilan birga, mastlikning fiziologik va patologik darajalari bo'ladiki, shaxs patologik mastlik holatida aqli noraso deb topilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham aqli norasolik e'tiborga olingan. Jumladan, uning 20-moddasi aqli norasolikka bag'ishlangan. Unga binoan, g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasolik holatida bo'lgan shaxs, ya'ni surunkali ruhiy kasallik, ruhiy faoliyati vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoxud boshqa xil kasallik oqibatida o'z harakatining (harakatsizligining) ahamiyatini idrok eta olmagan yoki boshqara olmagan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

3.2.3. Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi va uning jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati

Jinoyat qonuni, ayrim hollarda, subyektda umumiy belgilardan tashqari qo'shimcha belgilarning ham bo'lishini talab qiladi. Bu belgilarga ega bo'lgan shaxslar esa – **maxsus subyekt** deb yuritiladi.

Jinoyatning maxsus subyekt deb, shaxsda subyektning zaruriy belgilari bilan birga, jinoyat qonunida ko'rsatilgan boshqa bir belgilarning ham mavjud bo'lishi talab qilinadigan subyektga aytiladi. Ushbu belgilarga fuqarolik, demografik belgilar, mansab, lavozim, harbiy xizmatga aloqadorlik, bajarayotgan ishi, kasbiy majburiyatlar, shaxs majburiyati, subyektning asosiy holatlari va boshqalar kirishi mumkin.

Ushbu belgilar ayrim jinoyatlar tarkibining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ya'ni ushbu belgilarning mavjud emasligi, shaxsning harakatlarini o'sha modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinmasligini anglatadi.

Qoida tariqasida, ushbu belgilar Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida to'g'ri-dan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksining 157-moddasi – "Davlatga xoinlik qilish" jinoyatida "fuqarolik" jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida kelgan.

3.2.4. Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida ayb va uning shakllari

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni deganda, Jinoyat qonunida jinoyat deb belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati tushuniladi. Jinoyatning subyektiv tomonini to'g'ri aniqlash jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavlliligi darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Subyektiv tomon quyidagi zaruriy va fakultativ belgilardan tashkil topadi: ayb (zaruriy); motiv va maqsad (fakultativ).

Ayb – jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga bo'lgan ichki ruhiy munosabati tushuniladi.

Aybning ruhiy munosabat sifatidagi holatlari tafakkuriy va irodaviylik bo'lib, ular birgalikda aybni shakllantiradi.

Tafakkuriy holat bu – shaxs o'zi sodir etayotgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavllilik xususiyatini anglab yetayotganligini ifodalaydi.

Irodaviylik holati – shaxs o'z harakatlarini boshqara olish imkoniyatini anglatadi.

Aybsiz holda zarar yetkazishda – aybning tafakkuriy va irodaviy holatining mavjud bo'lmaganligi sababli jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmaydi.

Ayb shakllari Jinoyat kodeksining 20-moddasiga ko'ra, qasd va ehtiyotsizlik ko'rinishida bo'ladi.

Qasddan jinoyat sodir etish tushunchasiga tarif berishda jinoyat moddiy yoki formal tarkibli jinoyat ekanligini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Irodaviy holatiga qarab, qasdning to'g'ri va egri qasd kabi turlari mavjud.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sodir etish deb, ijtimoiy xavfli qilmishni o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasidan sodir etishga aytiladi.

Ehtiyotsizlikning ikki shakli mavjud: o'z-o'ziga ishonish va beparvolik.

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

O'quvchi o'z-o'ziga ishonishning egri qasddan farqlashi lozim. O'z-o'ziga ishonishning egri qasddan asosiy farqi – aybning irodaviy holatiga ko'ra aniqlanadi. Ya'ni, egri qasdda shaxs oqibat kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yib bersa; o'z-o'ziga ishonishda ushbu oqibatning kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladi.

Agarda shaxs o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasidan sodir etilgan deb aytiladi.

O'quvchi beparvolikni aybsiz holda zarar yetkazishdan farq-lay bilishi kerak. Beparvolikning aybsiz holda zarar yetkazishdan farqi esa – aybning tafakkuriy va irodaviy holatiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, tafakkuriy holat – beparvolikda shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini o'sha vaziyatga ko'ra bilishi yoki anglashi lozimligini ifodalasa; irodaviy holat – oqibatning oldini olishga harakat qilmaganligida ifodalanadi. Aybsiz holda zarar yetkazishda esa, shaxs o'z xulq-atvorining ijtimoiy xavfliligini anlamaganligi, anglashi ham lozim bo'lmaganligi – tafakkuriy holat; oqibatning oldini olish imkoniyatining haqiqatda mavjud emasligi esa, irodaviy holatni tashkil qiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir qilgan shaxsgina jinoyat sodir etishda aybli deb topilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlikning subyektiv tomoni – bu huquqbuzarlik subyekti (jismoniy shaxs)ning huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi – ayb bo'lib, uning qasd yoki ehtiyotsizlik singari turlari bor.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 11-moddasi ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etishga bag'ishlangan. Unga ko'ra, basharti, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 12-moddasi ma'muriy huquqbuzarlikni **ehtiyotsizlik orqasida** sodir etishga bag'ishlangan. Unga muvofiq, basharti ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

3.2.5. Jinoyatning motivi va maqsadi

Jinoyatning motivi va maqsadi qoida tariqasida uning fakultativ belgilari hisoblanadi.

Jinoyatning motivi deganda, inson faolligi manbasi, ichki yo'naltiruvchi hissiyot tushuniladi. Motiv subyektni o'z maqsadlari sari yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. U ma'lum inson ehtiyojlari va qiziqishlaridan yuzaga keladi va shaxsni jinoyat sodir qilishga yo'naltiradi. Masalan, "rashk motivi" orqali qasddan odam o'ldirish jinoyati Jinoyat kodeksining 97-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning maqsadi esa, ijtimoiy xavfli qilmishni bajarishdan ko'zlangan manfaat. Masalan, "tamagirlik maqsadida" qasddan odam o'ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasi ikkinchi qismining "i" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ushbu belgilar jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgisi sifatida jinoyatni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinmasada, jazo tayinlashda e'tiborga olinadi. Ayrim hollarda, ushbu belgilar Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri jinoyat tarkibining **zaruriy belgisi** sifatida ham nazarda tutilgan bo'lsa, ular jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib keladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 124-moddasi – “Bolani almashtirib qo'yish” jinoyati dispozitsiyasida maqsad jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ko'rsatilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlikning maqsadi va motivi ham uning subyektiv tomoni fakultativ belgilarini tashkil etadi. Ayrim hollarda esa, motiv va maqsad ham ma'muriy huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilishda zaruriy belgi sifatida inobatga olinishi mumkin. Jumladan, 141-moddaga binoan haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan shaxsiy bo'ylik orttirish *maqsadida* foydalanishi ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday maqsadning yo'qligi javobgarlikni istisno qiladi. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 56-moddasiga binoan, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish *maqsadini* ko'zlamay oz miqdorda g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, ta'shish yoki jo'natish – ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

3.3. Huquqbuzarlik belgilari va ularning yuridik tavsifi

Huquqbuzarlik – bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:

1. Jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli ekanligi;
2. Huquqqa qarshiligi;
3. Aybliligi;
4. Faqat kishilar tomonidan sodir qilinishi;
5. Kishilarning erki va ongiga bog'liq bo'lgan holda ular tomonidan ixtiyoriy amalga oshirilishi va h.k.

Jinoyat huquqbuzarlik turlaridan biri hisoblanadi. **Jinoyat deb** – jinoyat qonuni bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish

(harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi (Jinoyat kodeksining 14-moddasi birinchi qismi).

Demak, Jinoyat kodeksining 14-moddasida jinoyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, **jinoyatning belgilari** sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ijtimoiy xavflilik; huquqqa xiloflik; aybning mavjudligi; jazoga sazovorlik.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi bu – sodir qilingan qilmish jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini tug'dirishi mumkinligini anglatadi.

Qilmishning huquqqa xilofligi deganda – sodir qilingan qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligini anglatadi.

Qilmishda aybning mavjudligi deganda – sodir qilingan qilmish qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgandagina jinoyat deb topilishini anglatadi.

Qilmishning jazoga sazovorligi deganda esa – sodir qilingan qilmish uchun Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan jazo choralarining tayinlanishi mumkinligini anglatadi.

3.4. Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatning farqlovchi jihatlari

Huquqbuzarlik turli-tuman bo'lib, ular huquq sohasining turli tarmoqlari bilan ta'qib qilinadi. Huquqbuzarlikning asosan to'rt turi farqlanadi: intizomiy, fuqarolik, ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyat.

Shu huquqbuzarliklarning subyektlari asosan fuqarolar bo'lib, ular huquq buzishning xususiyati, javobgarlikning mohiyati va mazmuni huquqiy javobgarlikka tortishning subyektlari jihatidan farq qiladi. Ana shu huquqbuzarliklar ichida bir-biriga nisbatan o'xshashroq bo'lgani jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklardir. Jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklar bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularning tarkibini talqin qilishda ham deyarli farqlar yo'q.

Shu munosabat bilan, ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu

bilan bir qatorda yana bir holatga e'tibor berish lozimki, ayrim hollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etganlik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortilish Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109 (Qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 127 (Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish), 130 (Pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish), 132 (Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish), 139 (Tuhmat), 140 (Haqorat qilish), 143 (Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish), 148 (Mehnat qilish huquqini buzish), 156 (Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish), 177 (Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish), 182 (Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 183 (Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish), 184 (Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash), 184¹ (Budget intizomini buzish), 185¹ (Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish), 185² (Elektron, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish), 186¹ (Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish), 186³ (Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish), 188 (Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish), 189 (Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), 190 (Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish), 216¹ (G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash), 216² (Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 217 (Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish), 224 (O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish), 225 (Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash), 226 (Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish), 229¹ (Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish), 229² (Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish), 232 (Sud hujjatini ijro etmaslik), 244¹ (Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid

soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish), 244³ (Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish), 278 (Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish) moddalari birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish obyektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Obyektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy obyekti boshqa huquqbuzarlikning obyektiga nisbatan kengroq bo'lib, unga davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'lig'i va hokazolar kiradi va faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan obyektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish, o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi bilan ham farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 139-moddasining birinchi qismida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

to'rtinchidan, jazo miqdori va muddati ham jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi;

beshinchidan, javobgarlikka tortish subyektlariga ko'ra. Qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga asoslangan holda faqat sud hal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga

asoslangan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar hal qiladi; *oltinchidan*, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muhim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli ham jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi muhim mezondir. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyatga ega.

3.5. Voyaga yetmaganlik tushunchasi

Voyaga yetmaganlik tushunchasini aniqlash qilmishni kvalifikatsiya qilishda va ayniqsa, shaxsga nisbatan jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar javobgarligi, Jinoyat-protsessual kodeksida voyaga yetmaganlar ishlarini yuritish va Jinoyat-ijroiya kodekslarida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Ya'ni, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik voyaga yetgan va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash va jinoyat ishini yuritish qoidalarini o'zaro farqlaydi.

Shunday ekan, voyaga yetmaganlik mezonini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda "voyaga yetmagan" degan tushunchaga aniq ta'rif 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda³⁶ keltirilgan. Xususan, uning 3-moddasida "voyaga yetmagan – o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs", deb mustahkamlangan.

Shuningdek, voyaga yetmaganlik shaxsning 18 yoshga to'lishi bilan bog'liqligi Oila kodeksining 63, 67 va 71-moddalari mazmunidan anglashiladi. Chunonchi, uning 71-moddasi mazmunidan shaxsning o'n sakkiz yoshga to'lishi uning voyaga yetgan deb hisoblanishini anglatishi ma'lum bo'ladi.

Fuqarolik kodeksida ham voyaga yetmaganlik bilan bog'liq yosh chegarasi haqida qoidalar belgilangan. Xususan, uning 27, 118-moddasida o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar to'g'risida so'z boradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 3-bandida ham voyaga yetmaganlik 18 yoshga to'lmaganlik bilan bog'langan.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, 9-son, 342-modda.

Yuqoridagilar asosida voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxslar tushuniladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu yosh turli mamlakatlarda turlicha belgilangan. Rossiyada 16, Fransiyada 16, Angliyada 17, Germaniyada 17, AQShda ham 17 yosh deb belgilangan.

3.6. Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari va bu boradagi xalqaro talablar

Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritish o'ziga xos jihatlari bilan tavsiflanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 13-bo'limi "Alohida toifadagi ishlarni yuritish"ga bag'ishlangan bo'lib, uning 60-bobi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish" deb nomlanib, o'z ichiga 547-564-moddalarni qamrab oladi.

Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritish quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) umumiy qoidalar bilan bir qatorda JPKning "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish"ga oid 60-bobi qoidalari bilan tartibga solinadi;

2) isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar doirasi yanada kengroq qilib belgilangan. Chunonchi, JPKning 82-84-moddalaridan tashqari 548-moddasida ko'zda tutilgan holatlar ham albatta isbotlanishi lozim (bu haqda quyiroqda batafsil to'xtalamiz);

3) ishda voyaga yetmaganning qonuniy vakili qatnashishining shartligi (JPK, 549-modda);

4) voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishda himoyachi ishtirok etishining shartligi (JPK, 550-modda);

5) voyaga yetmagan shaxsga ayblov e'lon qilishning o'ziga xos xususiyatlari (JPK, 552-modda);

6) voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilishning xususiyatlari, xususan, uning muddati qisqartirilganligi, ya'ni olti soatdan oshmasligi lozimligi (JPK, 550-modda);

7) voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda pedagog yoki psixologning ishtiroki ko'zda tutilganligi (JPK, 554-modda);

8) voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Xususan, Voyaga yetmagan shaxs ota-onasining, homiylar, vasiylarning qaroviga yoki, basharti u

bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo'lsa, shu muassasa rahbarlarining qaroviga ham berilishi mumkinligi (JPK, 555-modda);

9) voyaga yetmagan ayblanuvchini qamoqqa olishning o'ziga xos xususiyatlari. Xususan, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxslar katta yoshdagilardan, shuningdek voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlanishi lozimligi (JPK, 558-modda);

10) voyaga yetmaganlarning jinoyatlari to'g'risidagi ishning yopiq sud majlisida ko'rilishi (JPK, 560-modda);

11) voyaga yetmagan sudlanuvchining sud majlisi zalidan chiqarib turilishi mumkinligi (JPK, 561-modda);

12) voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo'llanilishi. Xususan, Jinoyat kodeksining 88-moddasiga binoan, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo'llaniladi: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash; b) o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash. Ushbu chora, agar yetkazilgan zarar belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan oshib ketmagan bo'lsa, qo'llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida undiriladi; d) voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish. Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo'llanilishi ularning javobgarlik yoki jazodan ozod etilishiga asos bo'ladi.

13) voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud tomonidan hal etiladigan masalalar doirasining kengligi. Xususan, voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud, ushbu Kodeksning 457-moddasida ko'rsatilgan masalalardan tashqari, basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa, unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur (JPK, 563-modda).

Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritish bilan bog'liq quyidagi bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilganligini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga tegishli BMTning minimal standart qoidalari" (Pekin qoidalari). Bu qoidalar loyihasini ishlab chiqish 1984-yil

Pekinda BMTning VII Kongressida hududlararo tayyorlov yig'ilishida qabul qilingan "Pekin qoidalari" degan nomni olgan rezolyutsiyada, "... zarur hollarda o'z milliy qonun hujjatlarini, siyosatini va amaliyotini, ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq mutaxassislarni tayyorlashda Pekin qoidalariga moslashtirish va ushbu qoidalarni tegishli organlar va keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazish" tavsiya etiladi. Uning 37 "b"-moddasi erkinlikning har qanday cheklanishini nazarda tutuvchi qoidasi ixtiyoriy bo'lmasligi hamda qonunga muvofiq amalga oshirilishi va bu "so'nggi chora" sifatida "imkoni boricha qisqa vaqt mobaynida qo'llanishi" lozimligini mustahkamlaydi.

Uning 17.1-qoidasida esa, sud qarorini chiqarish va ta'sir ko'rsatish chorasini tanlash bo'yicha dasturiy prinsiplari belgilangan: a) ta'sir ko'rsatish choralari doim vaziyat va huquqbuzarlikning og'irligi bilangina emas, balki balog'atga yetmagan shaxsning holati va ehtiyojlari, shuningdek jamiyat ehtiyojlari bilan ham mutanosib bo'lishi zarur; b) balog'atga yetmagan huquqbuzarning shaxsiy erkinligini cheklash to'g'risidagi qaror masala puxta ko'rib chiqilganidan keyingina qabul qilinishi lozim va cheklashni imkoniyat doirasida eng kam belgilash kerak; d) balog'atga yetmagan huquqbuzarni, agar u boshqa shaxsga nisbatan kuch ishlatish bilan jiddiy qilmishni sodir etishda yoki boshqa jiddiy jinoyatlarni qayta-qayta sodir etishda ayblanmayotgan bo'lsa, shuningdek boshqa tegishli ta'sir ko'rsatish chorasi bo'lmasa, shaxsiy erkinlikdan mahrum etmaslik darkor; e) balog'atga yetmagan shaxsning ishini ko'rib chiqishda uning baxt-saodati to'g'risidagi masala belgilovchi omil bo'lishi zarur;

ikkinchidan, BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrda 45/110-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Turma qamog'i bilan bog'liq bo'lmagan choralarga tegishli BMTning minimal standart qoidalari" (Tokio qoidalari). Uning 1.4.-bandida ushbu qoidalar Pekin qoidalariga zid holda talqin etilishi mumkin emasligi belgilangan;

uchinchidan, 1990-yilgi BMTning "Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari" (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) Bosh Assambleyaning 45/112-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. Uning 40-moddasi "jinoyat qonunini buzgan deb hisoblanadigan, uni buzishda ayblanayotgan yoki aybdor deb tan olinayotgan" bola "unda o'z

qadr-qimmat hissini va ahamiyatini rivojlantirishga ko'maklashadigan, unda inson huquqlariga hamda boshqalarning asosiy erkinliklariga hurmatni mustahkamlaydigan va ayni mahalda bolaning yoshi hamda uni reintegratsiya qilishga va uning jamiyatda foydali rolni bajarishiga ko'maklashish maqsadga muvofiqligi hisobga olinadigan muomalaga haqlidir", degan talabni mustahkamlaydi:

to'rtinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-yilgi "Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalarini";

beshinchidan, "Yoshlar o'rtasida tinchlik, xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch g'oyalarini tarqatish to'g'risida"gi Deklaratsiyani ham alohida ta'kidlash lozim. Ushbu Deklaratsiya 1965-yil 7-dekabrda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan. Uning prinsiplardan biri – yoshlarni barchaning irqi, rangi, etnik kelib chiqishi va e'tiqodidan qat'i nazar, sha'ni va tengligini hurmat qilish asosida, shuningdek insonning asosiy huquqlari va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlariga ishonch ruhida tarbiyalash lozimligidir³⁷.

Pekin qoidalarida ham, Ar-Riyod dasturiy prinsiplarida ham Konvensiyaning bola shaxsini hurmat qilishga, ilk bolaligidan boshlab unga ko'maklashish hamda rivojlanishini rag'batlantirishga asoslangan umumiy g'oyasi aks ettirilgan. Ularda, yoshlar jamiyatda faol rol o'ynashlari va uning to'laqonli ishtirokchilari bo'lishlari lozimligi hamda jamiyatdagi hayotga tayyorlanishi yoki nazorat qilinishi darkor bo'lgan obyekt sifatidagina qaralmasligi lozimligi, chunki hayotining ayni shu davrida ular noto'g'ri xatti-harakatga juda moyil bo'lishi qayd etiladi. Bunda davlatning ijtimoiy siyosatida, balog'atga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish dasturi hamda odil sudlovni amalga oshirishda bola va uning oilasi baxt-saodatini ilk bolaligidan boshlab ta'minlash maqsadidan kelib chiqish kerak³⁸.

Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari va bu boradagi xalqaro talablar qisqacha yuqoridagilardan iborat bo'lib, o'quvchi vaziyatdan kelib chiqib, voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat bo'yicha jinoyat

³⁷ Inson huquqlari. Umuminsoniy va milliylikning birligi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari va qonunlari to'plami. T.4. – Toshkent, 1999. – B.337–339.

³⁸ Ganibayeva Sh.K. O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirilishining xalqaro-huquqiy masalalari (nazariya va amaliyot muammolari): Yurid. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2009. – B. 94–95.

ishini yuritishga oid masalalarni yoritishda ularni e'tiborga olishi maqsadga muvofiq.

3.7. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar

Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritishning o'ziga xos jihatlaridan biri bu voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardir.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarda isbotlash predmeti maxsus subyekt – voyaga yetmagan shaxsning shaxsini o'rganishga yo'naltirilgandir.

“Isbotlash predmeti” tushunchasi “isbotlash doirasi” tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Isbotlash doirasi isbotlash predmeti bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholashning to'liq, har tomonlama va obyektiv bo'lishini ta'minlaydigan chegaradir. Isbotlash doirasini to'g'ri belgilash ish bo'yicha haqiqatni aniqlash garovidir. Isbotlash chegarasini asossiz ravishda kengaytirib yuborish yoki uni qisqartirish tergov va sudni chalg'itish, aybdorlarning aniqlanmay qolishi, ishning barcha holatlarini aniqlashga imkon bermaslik kabi oqibatlarga olib keladi.

Isbot qilish predmeti JPKning 82-moddasidagi ayblash va hukm qilish uchun asoslar bilan belgilanadi. Ya'ni, ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeti) isbotlangan bo'lishi kerak:

- 1) jinoyat obyekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;
- 2) sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- 3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;
- 4) jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;

5) ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar-da isbotlash predmeti esa, JPKning 548-moddasiga binoan, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha, JPK 82–84-moddalarida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, quyidagilar isbotlanishi lozim:

- 1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni);
- 2) voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;
- 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- 4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori 5-bandida ham voyaga yetmaganning aniq yoshini belgilash zarurligi ta'kidlangan. Unga ko'ra, shaxs tug'ilgan kundan boshlab emas, balki tug'ilgan kuni o'tganidan so'ng, ya'ni ertangi kunning nol soatidan boshlab jinoyat uchun javobgarlik boshlanadigan yoshga to'lgan, deb hisoblanadi.

Sudlanuvchining yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tug'ilgan kuni deb, ekspertlar aniqlangan yilning oxirgi kuni hisoblanadi. Yosh eng kam va eng ko'p yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqishi lozim³⁹.

Voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holatini aniqlash (JPK 548-moddasi 2-bandi) shu bilan izohlanadiki, voyaga yetmaganlarning shaxsiy xususiyatlari endi shakllanib kelayotgan, ular hali to'la shakllanib ulgurmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'ladi. Shu sababli ham tergovchi va sud oldida voyaga yetmagan shaxs ruhiy rivojlanish darajasiga yetgan yoki yetmaganligini va o'z harakatlarini to'la anglay olish darajasini aniqlash vazifasi turadi.

Xullas, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar qisqacha yuqoridagilardan iborat bo'lib, o'quvchi vaziyatni yoritib berishda shu tartibda yondashishi maqsadga muvofiq.

3.8. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish tartibi

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish JPKning "Tergovning umumiy qoidalari" deb nomlangan 10-bobi (96-108-moddalar), "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini

³⁹ Kashket A.G. Pravovie i organizatsionnie problemi proizvodstva po delam nesovershennoletnix (po materialam Respubliki Uzbekistan): Avtoref. diss. kand. yurid. nauk. - Tashkent, 1993.

so'roq qilish" deb nomlangan 11-bobi (109–113-moddalar) hamda "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish" deb nomlangan 60-bobi (547–564-moddalar) qoidalariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

JPKning 10-bobida belgilangan so'roq qilish joyi, so'roq qilish uchun chaqiruv, so'roq qilinuvchining shaxsini aniqlash, so'roq qilinuvchining qaysi tilda ko'rsatuv bera olishini aniqlash, huquq va majburiyatlarini tushuntirish, ishning holatlari to'g'risida erkin so'zlab berish, ishora qiluvchi savollar berishga yo'l qo'yilmasligi, so'roq qilinuvchining hujjatlari va boshqa yozuvlaridan foydalanishi, so'roq qilinuvchining ilgarigi so'roqlarda bergan ko'rsatuvlarini o'qib eshittirish, so'roq qilinuvchiga narsalar va hujjatlarni ko'rsatish, so'roq jarayoni va natijalarini qayd qilish va qo'shimcha so'roq bilan bog'liq tartib, uning 11-bobida mustahkamlangan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish tartibi, so'roq qilish muddatlari, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini birinchi marta so'roq qilishdan oldingi harakatlari, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini ko'rsatuvlarini baholash, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz bilan bog'liq masalalarning huquqiy tartibi voyaga yetmaganlar uchun ham taalluqli bo'ladi.

Shuningdek, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri JPKning "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish" to'g'risidagi 60-bobining voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi (547-modda), voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar (548-modda), voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishda qatnashishi (549-modda), voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlash (550-modda), korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillarini voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasida ishtirok etishga jalb qilish (551-modda), voyaga yetmagan shaxsga ayblov e'lon qilish (552-modda), voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish (553-modda), voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda pedagog yoki psixologning ishtiroki (554-modda) haqidagi moddalari qoidalari ham qo'llaniladi.

Xususan, JPKning 553-moddasiga binoan, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokida so'roq qili-

nadi. So'roq qilish chog'ida tergovchining ruxsati bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishtirok etishi mumkin. Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So'roq oxirida himoyachi va qonuniy vakil bayonnoma bilan tanishish va u haqda o'z mulohazalarini bildirishga haqlidir.

JPKning 107-moddasiga binoan, voyaga yetganlar uchun so'roqning umumiy davom etish vaqti bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi. JPKning 553-moddasida esa, voyaga yetmaganlar uchun so'roq qilishning qisqartirilgan muddati belgilangan. Ya'ni, unga muvofiq, voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so'roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak.

Shuningdek, JPKning 550-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilishdan boshlab, ishda himoyachining ishtirok etishi shart hisoblanadi.

JPKning 554-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan ayblanuvchini so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog ishtirok etishi mumkinligi ham voyaga yetmaganlarni so'roq qilishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. U tergovchining ruxsati bilan ayblanuvchiga savollar berishga, so'roq tugaganidan so'ng esa, so'roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to'g'riligi va mukammalligi haqida o'z fikrlarini yozma ravishda berishga haqlidir. Bu huquqlar tergovchi tomonidan pedagog yoki psixologga voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishdan oldin tushuntiriladi va bu haqda so'roq bayonnomasida qayd qilinadi.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi so'roq qilishning umumiy qoidalarida belgilangan huquq va erkinliklardan ham to'liq foydalaniladi. Jumladan, JPKning 110-moddasiga ko'ra, sud tergovni ketayotganda sudlanuvchiga istagan vaqtda ko'rsatuv berish huquqi voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga ham tegishlidir.

Demak, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi so'roq qilish muddati, qatnashuvchi shaxslar doirasi, qo'shimcha huquqlardan foydalanishi kabi jihatlari bilan umumiy so'roq qilishdan farqlanadi.

3.9. Huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)

Huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish) – ma'muriy yoki jinoyat qonunchiligini tatbiq etishdagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni jinoyatga tatbiqan ko'rib chiqamiz.

Amaliyotda kvalifikatsiya jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlarini olib borish, uni sudda ko'rish va jazo turi hamda muddatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat huquqida "jinoyatning kvalifikatsiyasi" deganda, sodir etilgan jinoyat belgilari va uning jinoyat-huquqiy norma asosida ko'rib chiqilgan belgilari orasida muvofiqlikni aniqlash hamda huquqiy mustahkamlash tushuniladi¹⁰.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish, qilmish qanday moddaga mos kelishini aniqlash ekanligini anglatadi. Boshqa so'z bilan aytganda, jinoyatning kvalifikatsiyasi hayotdagi muayyan voqeaning jinoyat normasida jinoyatlar tarkibiga kiritilishi tushuniladi¹¹.

Jinoyat tarkibi – kvalifikatsiyaning huquqiy asosi bo'lib, jinoyat kvalifikatsiyasi jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, sodir etilgan qilmishning obyektiv va subyektiv belgilarini Jinoyat kodeksi Umumiy qismi qoidalari asosida tahlil qilish asosida uning Jinoyat kodeksi Maxsus qismining qaysi moddasiga mos tushishini aniqlash talab etiladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, masalan, qilmishning qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligini, hayotga yoki sog'liqqa qarshi qaratilganligini, ixtiyoriy qaytish yoki suiqasd bo'lganligini va vaziyatdan kelib chiqqan holda shu kabi ko'plab masalalarni hal qilish lozim bo'ladi.

Jinoyatlarni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)da Oliy sud Plenumi qarorlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan Oliy sud Plenumi qarorlari ko'pgina jinoyat ishlaridagi o'ziga xoslikni, murakkablikni hisobga olib, muayyan vaziyatda qanday yo'l tutish kerakligini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, quyida Oliy sud Plenumi qarorlari ro'yxatini keltiramiz. O'quvchi aniq vaziyatdagi

¹⁰ Musayev M. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot muammolari. – Toshkent: Sharq, 2011. – B.132.

¹¹ Irkaxodjayev A.K., Xolikulov U.Sh. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYul, 2007. – B.4–5.

huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilishda Oliy sud Plenumi qarorlaridan foydalanishni tavsiya qilib o'tsa, yozma ishning ilmiy saviyasi ancha oshadi.

Oliy sud Plenumi qarorlari:

– “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida” (2008-yil 15-may);

– “Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”, (2009-yil 24-noyabr)

– “Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (2009-yil 24-iyul);

– “Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida” (2009-yil 10-aprel);

– “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (2007-yil 27-iyun);

– “Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (2004-yil 24-sentabr);

– “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari haqida” (2002-yil 25-oktabr);

– “Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida” (2002-yil 25-oktabr);

– “Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida” (2002-yil 14-iyun);

– “Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida” (2000-yil 22-dekabr);

– “Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (2000-yil 15-sentabr);

– “Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (2000-yil 15-sentabr);

– “Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida” (2000-yil 28-aprel);

– “Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (1999-yil 24-sentabr);

– “O'zgarlar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” (1999-yil 30-aprel);

- "O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" (1998-yil 11-sentabr);
- "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida" (1998-yil 17-aprel);
- "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" (1996-yil 20-dekabr);
- "Transport vositalarini olib qochish ishlari bo'yicha sud amaliyoti" (1996-yil 20-dekabr);
- "Respublika sudlari tomonidan ommaviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq ayrim masalalar to'g'risida" (1996-yil 20-dekabr);
- "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanishi haqida" (1996-yil 20-dekabr);
- "Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" (1996-yil 15-mart);
- "Kontrabanda va bojxona qonunlarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" (1996-yil 27-fevral);
- "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" (1996-yil 27-fevral);
- "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida" (1995-yil 27-oktabr);
- "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" (2007-yil 14-noyabr);
- "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida" (2004-yil 21-may);
- "Ruxiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" (2008-yil 12-dekabr);
- "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida" (2006-yil 3-fevral) va boshqalar.

Huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)da yana bir muhim jihat o'quvchi qilmishni ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat ekanligini farqlash lozimligidadir. Chunki, ayrim huquqbuzarliklarni (tuhmat, haqorat, qasddan badanga yengil shikast

yetkazish va b.q.⁴²) birinchi marotaba sodir etganlik uchun shaxs birinchi marotaba ma'muriy javobgarlikka, bir yil ichida qayta sodir etilganda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Shuningdek, olimpiada ishtirokchisidan berilgan vaziyatdagi huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)da berilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra, JK 15-moddasiga binoan turini aniqlashi talab qilinadi. Ya'ni, aniq vaziyatda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat ekanligini aniqlash lozim bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 15-moddasiga ko'ra, jinoyatlar o'zining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan; uncha og'ir bo'lmagan; og'ir; o'ta og'ir jinoyatlar.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga – faqat qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga – faqat qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Agarda sodir etilgan jinoyat uchun Jinoyat kodeksining Maxsus qism moddasida ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolardan boshqa turdagi jazolar nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra – **ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar** turkumiga kiradi.

⁴² Ushbu huquqbuzarliklarning to'liq ro'yxati kitobning "Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatning farqlovchi jihatlari" deb nomlangan 3.5.-paragrafidada keltirilgan.

Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar – ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilmaydi.

Sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi – Jinoyat kodeksining Maxsus qism moddasida yoki modda qismida nazarda tutilgan eng og'ir jazo turining maksimal miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi⁴³.

Jinoyatlarning yuqoridagi tarzda tasniflanishi unga nisbatan jazo tayinlash, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilishda e'tiborga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)da o'quvchining berilgan vaziyatning qanday jinoyat (o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik yoxud qasddan yoki ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish, sog'liqqa og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish) ekanligini hamda ushbu jinoyat turini (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat) to'g'ri aniqlashi talab etiladi.

3.10. Vaziyatni O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan bog'lash

Har qanday jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarliklarning sodir etilishi Jinoyat kodeksi yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks normalari bilan bir qatorda bir qancha amaldagi qonun hujjatlari normalari buzilishiga ham sabab bo'ladi.

Bu, ayniqsa, Jinoyat kodeksi yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning havolaki normalarini qo'llashda yana ham yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, ekologiya sohasidagi jinoyatlar sodir etilganda, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Yer osti boyliklari to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi va boshqa qonunlar talablari ham buziladi va ushbu toifa jinoyatlarni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish) uchun mazkur qonunlar talablari hisobga olinishi darkor.

Ayni damda shuni ham hisobga olishimiz lozimki, Jinoyat kodeksi yoki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning havolaki xususiyatga ega bo'lmagan oddiy yoki tasvirlov dispozitsiyalaridan iborat normalariga rioya etilmagan taqdirda ham

⁴³ Kitobning 1-ilovasida Jinoyat kodeksidagi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflab chiqilgan.

boshqa qonun hujjatlaridagi talablar buziladi. Masalan, fuqarolarning turar joyi daxlsizligi buzilganda (Jinoyat kodeksining 142-moddasi) ularning Konstitutsiya bilan kafolatlangan turar-joy daxlsizlik huquqi (27-modda) ham buziladi. Yoki odam o'ldirish jinoyati sodir etilganda, shaxsning Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida (3-modda) va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (24-modda) kafolatlangan yashash huquqi ham buziladi. Yoki bo'lmasa, o'g'rilik jinoyati sodir etilganda. Konstitutsiyada (mulk huquqiga oid 36 va 53-moddalar), Fuqarolik kodeksi (mulk huquqiga oid 164, mulk daxlsizligiga oid 166-moddalar). "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonun (mulkiy huquqqa oid 1-moddasi) bilan kafolatlangan shaxsning iqtisodiy huquqlari ham buziladi. Yana bir misol, transport vositalarini olib qochish (Jinoyat kodeksining 267-moddasi) jinoyati sodir etilganda, yuridik yoki jismoniy shaxslarning Konstitutsiya (mulk huquqiga oid 36 va 53-moddalar), Fuqarolik kodeksi (mulk huquqiga oid 164, mulk daxlsizligiga oid 166-moddalar), "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonun (mulkiy huquqqa oid 1-moddasi) bilan kafolatlangan mulkka bo'lgan huquqlari buziladi. Bezorilik (Jinoyat kodeksining 277-moddasi) jinoyati sodir etilganda esa, Konstitutsiyada (mulk huquqiga oid 36 va 53-moddalar, inson huquqlariga oid 13, 24–26-moddalari), Fuqarolik kodeksi (mulk huquqiga oid 164, mulk daxlsizligiga oid 166-moddalar), "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonun (mulkiy huquqqa oid 1-moddasi) normalari, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi (29.08.1996-y.), "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi (26.05.2000-y.) qonunlarning, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamoat tartibini mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (01.03.1999-y.) talablari buziladi.

Muxtasar aytganda, o'quvchi vaziyatni O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan bog'lashda tegishli jinoyat (yoki ma'muriy huquqbuzarlik) qaysi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishini aniqlab, shu munosabatlarni qo'riqlashga xizmat qiladigan qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida to'xtalib o'tishi lozim.

3.11. Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashda jinoyat huquqi va protsessiga oid asosiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish talab qilinadi.

Bunda vaziyatni sharhlashda jinoyatni kvalifikatsiya qilish, ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat turi (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyat), jinoyatning obyektiv belgilari (obyekti, obyektiv tomoni), jinoyat obyektining turlari (umumiy, maxsus, turdosh va bevosita), jinoyat predmeti, obyektiv tomonining fakultativ belgilari (jinoyat sodir etish joyi, quroli, vositasi, usuli va b.q.), subyektiv belgilari (subyekti va subyektiv tomoni), ayb, uning turlari – qasd (to'g'ri, egri va yeventual qasd), ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish va jinoiy beparvolik), maxsus subyekt, subyektiv tomonining fakultativ belgilari (motiv va maqsad), suiqasd (tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan), ishtirokchilik, uning turlari (bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi) va shakllari (oddiy, murakkab, uyushgan guruh va jinoiy uyushma), aybsiz holda zarar yetkazish singari jinoyat huquqining maxsus atamalaridan, shuningdek, voyaga yetmaganlar jinoyat ishlari, so'roq qilish, tergov harakatlari, jinoyat ishini qo'zg'atish, ayblov e'lon qilish, ehtiyot chorasi, majburlov chorasi, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi, voyaga yetmagan shaxsni qarovga topshirish, sud majlisi, isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar, isbotlash predmeti, isbotlash chegarasi, qonuniy vakil, tergovchi, prokuror, sud singari jinoyat-protsessual huquqining maxsus atamalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Xullas, o'quvchi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashda jinoyat huquqi va protsessiga oid yuqorida keltirilgan asosiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishi yozma ishning ilmiy saviyasini oshiradi va belgilangan talab darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

3.12. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashga misollar

Birinchi misol

Do'stining uyidan qaytayotgan 15 yoshli A. yo'lakning ikkinchi qavatida spirtli ichimlik iste'mol qilgan, mast holatdagi noma'lum shaxsga duch keldi.

Mast kishi undan suv so'rab yo'lini to'sadi. Bunga javoban A. uni tinch qo'yishini so'raydi va mushti bilan uning yuziga uradi. Noma'lum shaxs uning zarbasidan muvozanatni yo'qotib, zinadan pastga yiqildi va miyasi chayqalib, umurtqa

pog'onasi sinishi natijasida falaj bo'lib qoldi. A.ning o'zi ushbu holat yuzasidan HMQO ga xabar berdi.

Huquqbuzarlik bu huquq subyektining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik vaziyatida egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

1) ijtimoiy xavflilik – qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning sog'lig'iga og'ir shikast yetishi);

2) huquqqa zidlik – huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik (vaziyatda A.ning harakati oqibatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va shaxs sog'lig'ini muhofaza qiluvchi boshqa qonun normalari buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi – huquqbuzarlik sodir etgani uchun faqat kishilar javobgar bo'lishi (hayvonlar yoki qurilmalar emas) (vaziyatda 15 yoshli A.);

4) ayblilik – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik – qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi – jinoyat. Jinoyat – JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmish – JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-moddasi).

Ushbu vaziyat JKning 104-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat obyekti deganda, JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Mazkur vaziyatda jinoyat obyektini quyidagicha tasniflash mumkin:

Umumiy obyekt – JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy obyekti JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus obyekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarning JKda bir bo'limga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning

maxsus obyekt shaxsning hayoti va sog'lig'ining daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatlardir.

Turdosh obyekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh obyekt noma'lum shaxsning sog'lig'iga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita obyekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita obyekt noma'lum shaxsning sog'lig'iga, sog'lig'ining daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir.

Ushbu vaziyatda fakultativ va qo'shimcha obyektlar mavjud emas.

Jinoyat predmeti – bu ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan yoki shunday zarar ko'rish real xavfi ostiga qo'yiladigan moddiy dunyo ne'mati. Ushbu vaziyatda jinoyat predmeti mavjud emas. Umuman olganda, shaxs jinoyat predmeti bo'la olmaydi. Chunki, jinoyat predmeti deganda, asosan inson mehnati bilan yaratilgan moddiy dunyo ne'matlari, jonsiz buyum (ayrim hollarda hayvon va o'simliklar) tushuniladi, inson esa, bunday xususiyatga ega emas, u ongli biologik mavjudotdir. Inson huquqbuzarlik sodir etilganda, jabrlanuvchi deb nomlanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi holatlar yig'indisi tushuniladi. Uning zaruriy (qilmish, oqibat, sababiy bog'lanish) va fakultativ (jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, vositasi, quroli va b.) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyatning obyektiv tomoni noma'lum shaxsning sog'lig'iga og'ir shikast yetkazilganda va uning nati-jasida sog'liqqa og'ir shikast yetishi tarzidagi oqibat kelib chiqishida ifodalanadi.

Jinoyatlar obyektiv tomoniga ko'ra, moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmishdir. Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi subyekt bir bosqich ortga qaytadi (masalan, JKning 164-moddasi).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi. Moddiy tarkibli jinoyatlarning obyektiv tomoni zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmish (A.ning JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazishga qaratilgan faol xatti-harakati),

ijtimoiy xavfli oqibat (noma'lum shaxsning falaj bo'lib qolishi) va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi va noma'lum shaxsning falaj bo'lib qolishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish, ya'ni sog'liqqa og'ir shikast yetishi tarzidagi oqibatning A.ning harakatlari natijasida kelib chiqishi).

JKning 104-moddasiga ko'ra, sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish deganda, badanga shikast yetkazish natijasida ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishiga, ruhiy kasallikka chalinishga yoki umuman sog'lig'i buzilib, umumiy mehnat qobiliyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzal-maydigan darajada xunuklashishiga sabab bo'lishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-iyundagi "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli Qarorida qayd etilishicha, badanga shikast yetkazish deganda, inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik to'kisligi yoki ular fiziologik funksiyasining tashqi ta'sir oqibatida buzilishi tushunilishi lozim. Badanga yetkazilgan shikastning xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash, odatda, tibbiyot organlari vakolatiga taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 1992-yil 21-oktabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan, badanga yetkazilgan shikast og'irligini sud-tibbiy yo'sinda belgilash qoidalariga muvofiq o'tkaziladi. Shu sababli, badanga shikast yetkazilgan har bir holda JPKning 173-moddasi birinchi qismining 1-bandi talabiga ko'ra, sud-tibbiy ekspertizasi tayinlanishi va o'tkazilishi shart bo'lib, uning hulosasi sud tomonidan qayd etilgan qoidalar va ishning boshqa materiallari asosida (JPKning 187-moddasi) baholanishi lozim.

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ beligisiga jinoyat sodir etilgan joy (ikkinchi qavat zinasi), vaqt (vaziyatda A. do'stining uyidan qaytgan vaqt), usul (A.ning jinoyat sodir etishda qo'llagan usuli – musht tushirishi), qurol (vaziyatda qurol mavjud emas) va vosita (vaziyatda vosita ham yo'q)lar kiradi.

Yuqoridagi Plenum qarorida qayd etilganidek, badanga shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ayb shakli, badanga shikast yetkazish motivi, maqsadi va usuli, aybdorning qilmishi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida

sababiy bog'lanish mavjudligi, shuningdek, ishning to'g'ri hal etilishi va aybdorga adolatli jazo belgilanishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlar batafsil aniqlanishi lozim.

Jinoyat subyekti deb, qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso (JKning 18-moddasi) jismoniy shaxsga aytiladi.

Jinoyat subyektining yosh mezoniga ko'ra to'rtta guruhga ajratamiz: 13, 14, 16 va 18 yosh (JKning 17-moddasi). JKning 104-moddasi uchun JKning 17-moddasida 14 yosh belgilangan. Ya'ni vaziyatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A. qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan subyekt bo'ladi va jinoyat subyekti hisoblanadi.

Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi ham bor. Maxsus subyekt deganda, jinoyat subyekti bo'lish uchun talab etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishidan tashqari shaxsning qo'shimcha belgilarga mansabdor shaxs bo'lishi, retsidivist bo'lishi, harbiy xizmatchi bo'lishi va boshqa belgilarga ega bo'lishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda maxsus subyekt belgilari mavjud emas.

Jinoyatning subyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijti-moiy xavfli qilmishning ichki holatlarini tavsiflovchi holatlar tushunilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyatning subyektiv tomoni zaruriy belgisi – aybdir (ehtiyotsizlik, qasd) (JKning 21–22-moddalari); fakultativ belgilari – motiv va maqsaddir.

Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyat subyektiv tomondan egri qasddan sodir etilgan.

Egri qasd – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglagan, uning xavfli oqibatida ko'zi yetgan va ular yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa bunday qasd egri qasd deb topiladi. (JKning 21-moddasi)

Jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi motiv va maqsaddir. Motiv – jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u. Maqsad – jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab o'tsak. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJtKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJtKning 10-moddasi).

Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda yana bir holatga e'tibor berish lozimki, ayrim hollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etganlik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortilish JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalari birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish obyektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Obyektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy obyekti boshqa huquqbuzarlikning obyektiga nisbatan kengroq bo'lib, bunga

davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'lig'i va hokazolar kiradi va faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan obyektlarni qamrab oladi:

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi bilan ham farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-modasining birinchi qismida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

to'rtinchidan, jazo miqdori va muddati ham jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi:

beshinchidan, javobgarlikka tortish subyektlariga ko'ra. Qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga asoslangan holda faqat sud hal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga asoslangan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar hal qiladi;

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muhim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli ham jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi muhim mezondir. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilab qo'yilib, shuningdek, Oila kodeksining 71, Fuqarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'llanilishiga

sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida 60-bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy, asosli, adolatli hal qilishda ahamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baholashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish subyektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bo'ladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat himoyachisi ishtirok etishi mumkin.

Isbot qilishga, shuningdek, guvohlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq to'planadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeti) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1) jinoyat obyektini, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (shikast darajasi, xususiyati, mast holatdagi jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar);

2) jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa holatlar; ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish, qilmish obyektiv tomonining fakultativ belgilari);

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan);

4) jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda egri qasddan); sabab va maqsadlar;

5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid holatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid holatlar).

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baholashda haqiqatni aniqlash maqsadida ahamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli hal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar ham isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmaganning aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni) (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori. 15.09.2000-y.);

2) voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi holatlar;

3) voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni so'roq qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni so'roq qilish JPKning 96-111-moddalariga asosan va 553-moddasiga binoan amalga oshiriladi.

JPKning 51 va 553-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi ishtirokida so'roq qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil ham ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va himoyachi so'roq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga haqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va himoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqish va u haqida o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soatdan oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak).

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog ham ishtirok etishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganda surishtiruv organlari tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonida jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib prokurorga yuboriladi. Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muhokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi.

JKning 15-moddasiga binoan, jinoyatlar xususiyati va xavfilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yilgacha, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yildan 5 yilgacha muddatga, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 5 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 10 yildan ortiq va umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Vaziyatda JKning 104-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat uncha o'gir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi subyekt 2004-yil 22-iyundagi "Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazorati to'g'risida"gi Bosh prokuror buyrug'ining 13; 13,1; 13,2; 13,3; 13,4-bandlariga qat'iy rioya etish lozimligi bilan birga xalqaro hujjatlardan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1985-yil 10-dekabrda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning minimal standartlari" (Pekin qoidalari)ga, "Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha dasturiy prinsiplar" (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) qoidalari rioya etishi lozim.

Ikkinchi misol.

15 yoshli A. ismli shaxs qo'shnisi D.ning turar joyiga kirib televizorni olib chiqib ketayotgan vaqtda D. tomonidan ushlandi.

Huquqbuzarlik bu huquq subyektining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, vaziyatda egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

1) ijtimoiy xavfilik – qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning mulkka egalik qilish huquqi buzilishi);

2) huquqqa zidlik – huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik (vaziyatda A.ning harakati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va mulk huquqini muhofaza qiluvchi boshqa qonun normalari buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi. – huquqbuzarlik sodir etgani uchun faqat kishilar javobgar bo'lishi (hayvonlar yoki qurilmalar emas) (vaziyatda 15 yoshli A.);

4) ayblilik – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik – qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi – jinoyat. Jinoyat – JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmish – JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-moddasi).

Ushbu vaziyat JKning 25-moddasi, 169-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning obyektini deganda, JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi

Mazkur vaziyatda jinoyatning obyektini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Umumiy obyekt – JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy obyektini JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus obyekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarining JKda bir bo'limga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning maxsus obyektini iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Turdosh obyekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh obyektini o'zgalar mulki muhofazasiga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita obyekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita obyektini D.ning televizorga egalik qilishiga bo'lgan mulkiy munosabatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotining negizini turli shakldagi mulk

tashkil etadi. Mulk mutlaq daxlsiz hisoblanadi va davlat tomonidan qo'riqlanadai, unga nisbatan har qanday tajovuz qonunga zid deb topiladi.

Jinoyat predmeti – sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli zarar ko'radigan yoki zarar ko'rishning real xavfi ostida qoladigan moddiy dunyo ne'matidir. Mazkur vaziyatda jinoyat predmeti – televizor.

Ushbu vaziyatning fakultativ obyekti D.ning turar joyi daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir. Chunki vaziyatda huquqbuzar D.ning turar joyiga qonunga zid tarzda kiradi va shu tariqa jabrlanuvchining turar joy daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy huquqini (Konstitutsiyaning 27-moddasi) buzadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi holatlar yig'indisi tushuniladi. Talon-taroj jinoyatlari bir-biridan obyektiv tomoni fakultataiv belgisi – sodir etilish usuliga qarab farqlanadi. Ushbu vaziyatda jinoyatning obyektiv tomoni o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda ifodalanadi.

Jinoyatlar obyektiv tomoniga ko'ra, moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmishdir. Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi subyekt bir bosqich ortga qaytadi (masalan, JKning 164-moddasi – bosqinchilik, 242-moddasi – jinoiy uyushma tashkil etish va b.).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi. Moddiy tarkibli jinoyatlarning obyektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmish (A.ning JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan harakati), ijtimoiy xavfli oqibat (D.ning mulki o'g'rilikka suiqasd qilishi tufayli real zarar ko'rish xavfi ostida qolishi) va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi va kelib chiqishi mumkin bo'lgan mulkiy zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish). Moddiy tarkibli jinoyatlarda oqibat kelib chiqmasa, qilmish jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

O'g'irlik – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999-yil 30-apreldagi “O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud maliyoti to'g'risida”gi 6-sonli Qarorida qayd etilishicha, jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo'qligida yoki ular bor bo'lsa-

da, ularga bildirmasdan o'zganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish o'g'rilik hisoblanadi. Bordiyu, jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkning olinayotganligini ko'rgan bo'lsa-da, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o'ylagan bo'lsa, bunday qilmishni ham o'g'rilik deb tavsiflash lozim.

O'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan, aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib qilingan harakatlari talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog'lig'i uchun havfli bo'lgan zo'rlik ishlatganda yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganda esa, bosqinchilik deb tavsiflanadi.

Zo'rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishi tugagandan keyin qo'lga tushishdan qutilish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo'rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlarga qarab qilmishni o'g'rilik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo'lganda jinoyatlar majmui bo'yicha tavsiflash lozim.

Aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'irlash o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb tavsiflanishi kerak.

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ beligisiga jinoyat sodir etilgan joy (D.ning uyi), vaqt (vaziyatda A. D.ning televizorini o'g'irlashga suiqasd qilgan vaqt), usul (vaziyatda yashirin ravishda), qurol (vaziyatda qurol mavjud emas) va vosita (vaziyatda vosita ham yo'q)lar kiradi. Ayrim hollarda obyektiv tomonning fakultativ belgilari ham qilmishni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinishi mumkin. Jumladan, vaziyatda jinoyat sodir etilgan joy (D.ning uyi) va usul (g'ayriqonuniy kirish), ya'ni o'g'irlikning qilmishni birovning uy-joyiga g'ayriqonuniy kirib sodir etilishi qilmishni JKning 169-moddasi 2-qismining "uy-joy, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy kirib sodir etilgan bo'lsa" degan "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi Plenum qarorida ta'kidlanishicha, g'ayriqonuniy kirish deganda o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik qilish maqsadida uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binoga kirish tushuniladi. Fayriqonuniy kirish nafaqat yashirin, balki ochiqdan-ochiq, to'siqlarni, odamlarning, shuningdek, qo'riqlovchi hodimlarning qarshiligini yengib sodir etilishi mumkin. Aldash yo'li bilan, shuningdek, qalbaki ruhsatnomalardan foydalanib, masalan, santexnika, aloqa bo'limi xodimi, gaz, elektr energiyasi va yong'indan nazorat qiluvchi hodimlar va boshqalar tariqasida binoda paydo bo'lish g'ayriqonuniy kirish deb baholanishi kerak.

G'ayriqonuniy kirish birdan-bir maqsad bo'lib qolmasdan, aybdor o'g'rilab ketmoqchi bo'lgan boyliklar saqlanayotgan joyga kirib borishning uslubi hisoblanadi. Shu sababli uy-joydan, binodan yoki boshqa omborxonadan o'zganing mulkini talon-taroj qilish niyati g'ayriqonuniy kirishdan oldin yuzaga keladi.

Agar aybdor xonaga boshqa sabablar bilan kirgan bo'lib, moddiy boyliklarni yashirin yoki ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish maqsadi keyin paydo bo'lsa va bu niyatini u amalga oshirsa, qilmishda talon-tarojning tushuntirilayotgan belgisi mavjud bo'lmaydi.

Uy-joy deganda, kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga mo'ljallangan bino (shaxsiy uy, xonadon, mehmonxonadagi, sanatoriyadagi xona, dala hovli, bog' hovli va boshqalar), shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi, dam olish uchun, mulkni saqlash uchun yohud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan joylar (balkonlar, oynavand ayvonlar, omborlar va boshqalar) tushuniladi.

Jinoyatning subyekti deb, qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso (JKning 18-modda) jismoniy shaxsga aytiladi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A. o'g'rilik (JKning 169-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan subyekt bo'ladi va jinoyat subyekti hisoblanadi.

Maxsus subyekt deganda, jinoyat subyekti bo'lish uchun talab etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishidan tashqari shaxsning qo'shimcha belgilarga mansabdor shaxs bo'lishi, retsidivist bo'lishi, harbiy xizmatchi bo'lishi va boshqa belgilarga ega bo'lishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda maxsus subyekt belgilari mavjud emas.

Jinoyatning subyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning ichki holatlarini tavsiflovchi holatlar tushunilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi – aybdir (ehtiyotsizlikdan, qasddan) (JKning 21–22-moddolari). Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari ham mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyat subyektiv tomondan faqat to'g'ri qasddan sodir etilgani bilan ajralib turadi. To'g'ri qasd – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglagan, uning xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ular yuz berishini istagan bo'lsa, bunday qasd to'g'ri qasd deb topiladi (JKning 21-moddasi).

Jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi motiv va maqsaddir. Motiv – jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u. Maqsad – jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish. Ushbu vaziyatda maqsad – tamagirlik.

Huquqbuzarlik bu huquq subyektivining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan vaziyatda to'g'ri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab o'tsak. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJtKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJtK, 10-modda).

Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda yana bir holatga e'tibor berish lozim-ki, ayrim hollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba

sodir etganlik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortilish JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalarida birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish obyektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Obyektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy obyekti boshqa huquqbuzarlikning obyektiga nisbatan kengroq bo'lib, bunga davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'lig'i va hokazolar kiradi va faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan obyektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish, o'zlarining ijtimoiy xavflilik darajasi bilan ham farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-modasining birinchi qismida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

to'rtinchidan, jazo miqdori va muddati ham jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi;

beshinchidan, javobgarlikka tortish subyektlariga ko'ra. Qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga

asoslangan holda faqat sud hal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga asoslangan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar hal qiladi;

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muhim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli ham jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi muhim mezonidir. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilangan bo'lib, shuningdek, Oila kodeksining 71, Fuqarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida 60-bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy, asosli, adolatli hal qilishda ahamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baholashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish subyektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bo'ladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat himoyachisi ishtirok etishi mumkin.

Isbot qilishga, shuningdek, guvohlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq to'planadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeti) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1) jinoyat obyekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (shikast darajasi, xususiyati, mast holatdagi jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar);

2) jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa holatlar; ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish, qilmish obyektiv tomonining fakultativ belgilari);

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan);

4) jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda egri qasddan); sabab va maqsadlar;

5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid holatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid holatlar).

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baholashda haqiqatni aniqlash maqsadida ahamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli hal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar ham isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmaganning aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni) ("Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"ga Qarori, 15.09.2000-y.);

2) voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi holatlar;

3) voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni so'roq qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni so'roq qilish JPKning 96–111-moddalariga asosan va 553-moddasiga binoan amalga oshiriladi.

JPKning 51 va 553-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi ishtirokida so'roq qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil ham ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va himoyachi so'roq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga haqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va himoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqishi va u haqida o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga

yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soatdan oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak).

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog ham ishtirok etishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganda surishtiruv organlari tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonida jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib, prokurorga yuboriladi. Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muhokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi.

JKning 15-moddasiga binoan, jinoyatlar xususiyati va xavlilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yilgacha, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yildan 5 yilgacha muddatga, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 5 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 10 yildan ortiq va umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Vaziyatda JKning 104-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat uncha o'gir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi subyekt 2004-yil 22-iyundagi "Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazorati to'g'risida"gi Bosh prokuror buyrug'ining 13; 13,1; 13,2; 13,3; 13,4-bandlariga qat'iy rioya etishi lozimligi bilan birga xalqaro hujjatlardan, 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1985-yil 10-dekabrda "Voyaga yetmaganlarga

nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning minimal standartlari" (Pekin qoidalari)ga, "Voyaga yetmaganlar orasida huquq-buzarlikni bartaraf etish bo'yicha dasturiy prinsiplar" (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) qoidalariga rioya etishi lozim.

Uchinchi misol.

16 yoshli A. maktabda maktabdoshi D. bilan urishib ketdi. Maktab ma'muriyati urishni bartaraf qilib ularni darsga qaytarib yubordi. A. masalani bu yerda hal qilib bo'lmasligini o'ylab D.ni uyiga qaytishda yo'lda kutib turdi. A. janjal chiqarib D.ning boshining orqa qismiga uchi qirrali tosh bilan urdi, natijada D. hodisa joyida vafot etdi.

Huquqbuzarlik bu huquq subyekting (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, vaziyatda egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

1) ijtimoiy xavflilik – qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning sog'lig'iga og'ir shikast yetishi);

2) huquqqa zidlik – huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik (vaziyatda A.ning harakati oqibatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va shaxs sog'lig'ini muhofaza qiluvchi boshqa qonun normalarining buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi – huquqbuzarlik sodir etganligi uchun faqat kishilarning javobgar bo'lishi (hayvonlar yoki qurilmalar emas) (vaziyatda 15 yoshli A.);

4) ayblilik – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik – qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi – jinoyat. Jinoyat – JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmish – JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-moddasi).

Ushbu vaziyat JKning 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat obyektini deganda JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Mazkur vaziyatda jinoyat obyektini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Umumiy obyekt – JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy obyektini JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus obyekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarining JKda bir bo'limga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning maxsus obyektini shaxsning (A.ning) daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir.

Turdosh obyekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh obyektini (D.ning) hayotini muhofaza qilishga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita obyekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita obyektini A.ning hayotining daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir.

Ushbu vaziyatda fakultativ va qo'shimcha obyektlar mavjud emas.

Jinoyat predmeti – bu ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan yoki shunday zarar ko'rish real xavfli ostiga qo'yiladigan moddiy dunyo ne'mati. Ushbu vaziyatda jinoyat predmeti mavjud emas. Umuman olganda, shaxs jinoyat predmeti bo'la olmaydi. Chunki, jinoyat predmeti deganda, asosan inson mehnati bilan yaratilgan moddiy dunyo ne'matlari, jonsiz buyum (ayrim hollarda hayvon va o'simliklar) tushuniladi, inson esa, bunday xususiyatga ega emas, u ongli biologik mavjudotdir. Inson (vaziyatda A.) huquqbuzarlik sodir etilganda, jabrlanuvchi deb nomlanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi holatlar yig'indisi tushuniladi. Uning zaruriy (qilmish, oqibat, sababiy bog'lanish) va fakultativ (jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, vositasi, quroli va b.) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyatning obyektiv tomoni D.ni hayotdan mahrum qilishda ifodalanadi.

Jinoyatlar obyektiv tomoniga ko'ra, moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi. Moddiy tarkibli jinoyatlar

obyektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmish (A.ning JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan harakati), ijtimoiy xavfli oqibat (D.ning vafot etishi) va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi va D.ning o'limi o'rtasidagi sababiy bog'lanish).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar obyektiv tomoni zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi subyekt bir bosqich ortga qaytadi (masalan, JKning 164-moddasi – bosqinchilik, 242-moddasi – jinoiy uyushma tashkil etish va b.).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorida qayd etilishicha, qasddan odam o'ldirish jinoyati ham to'g'ri, ham egri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish qasdi bilan harakat qiladi, qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi, o'lim yuz berishini istaydi (to'g'ri qasd) yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi (egri qasd).

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisiga jinoyat sodir etilgan joy (D.ning uyiga qaytayotgan yo'li), vaqt (vaziyatda A.ning bosh qismiga tosh bilan urgan vaqt), usul (huquqbuzarning jinoyat sodir etish usuli), qurol (vaziyatda uchi qirrali tosh) va vosita (vaziyatda vosita yo'q)lar kiradi.

Jinoyat subyekti deb, qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso (JKning 18-moddasi) jismoniy shaxsga aytiladi.

Jinoyat subyektining yosh mezoniga ko'ra to'rtta guruhga ajratamiz: 13, 14, 16 va 18 yosh (JKning 17-moddasi). JKning 104-moddasi uchun JKning 17-moddasida 14 yosh belgilangan. Ya'ni vaziyatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A. qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan subyekt bo'ladi va jinoyat subyekti hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan 16 yoshli A. qasddan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan subyekt bo'ladi va jinoyat subyekti hisoblanadi.

Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi ham bor. Maxsus subyekt deganda, jinoyat subyekti bo'lish uchun talab

etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishidan tashqari shaxsning qo'shimcha belgilarga mansabdor shaxs bo'lishi, retsivist bo'lishi, harbiy xizmatchi bo'lishi va boshqa belgilarga ega bo'lishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda maxsus subyekt belgilari mavjud emas. Ushbu vaziyatda maxsus subyekt belgilari mavjud emas.

Jinoyatning subyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning ichki holatlarini tavsiflovchi holatlar tushunilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyatning subyektiv tomoni zaruriy belgisi – aybdir (ehtiyotsizlik, qasd) (JKning 21–22-moddalari); fakultativ belgilari – motiv va maqsaddir.

Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyat subyektiv tomondan egri qasddan sodir etilgan.

Egri qasd – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglagan, uning xavfli oqibatida ko'zi yetgan va ular yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday qasd egri qasd deb topiladi (JKning 21-moddasi)

Jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi motiv va maqsaddir. Motiv – jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u. Maqsad – jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab o'tsak. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJtKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJtK, 10-modda).

Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy

huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda, yana bir holatga e'tibor berish lozimki, ayrim hollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etganlik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalari birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish obyektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Obyektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy obyekti boshqa huquqbuzarlikning obyektiga nisbatan kengroq. U davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'lig'i va hokazolar bo'lib, faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan obyektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish, o'zlarining ijtimoiy xavflilik darajasi bilan ham farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-moddasining birinchi qismida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

to'rtinchidan, jazo miqdori va muddati ham jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi;

beshinchidan, javobgarlikka tortish subyektlariga ko'ra. Qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga asoslangan holda faqat sud hal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga asoslangan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar hal qiladi;

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muhim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli ham jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi muhim mezondir. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Oila kodeksining 71, Fuqarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyat'ari haqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida 60-bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy asosli, adolatli hal qilishda ahamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baholashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish subyektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bo'ladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat himoyachisi ishtirok etishi mumkin.

Isbot qilishga, shuningdek, guvohlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq to'planadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeti) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1) jinoyat obyekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (shikast darajasi, xususiyati, mast holatdagi jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar);

2) jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa holatlar; ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish, qilmish obyektiv tomonining fakultativ belgilari);

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan);

4) jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda egri qasddan); sabab va maqsadlar;

5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid holatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid holatlar).

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baholashda haqiqatni aniqlash maqsadida ahamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli hal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar ham isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmaganning aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni) ("Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida", 15.09.2000 y.);

2) voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi holatlar;

3) voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni so'roq qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni so'roq qilish JPKning 96-111-moddalariga asosan va 553-moddasiga binoan so'roq qilinadi.

JPKning 51 va 553-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi ishtirokida so'roq

qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil ham ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va himoyachi so'roq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga haqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va himoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqishi va u haqida o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va ayblanuvchini so'roq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soatdan oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak).

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog ham ishtirok etishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganda surishtiruv organlari tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonida jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib, prokurorga yuboriladi. Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muhokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi.

JKning 15-moddasiga binoan, jinoyatlar xususiyati va xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yilgacha, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yildan 5 yilgacha muddatga, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 5 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 10 yildan ortiq va umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Vaziyatda JKning 104-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat uncha o'gir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi subyekt 2004-yil 22-iyundagi "Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazorati to'g'risida"gi Bosh

prokuror buyrug'ining 13; 13,1; 13,2; 13,3; 13,4; bandlariga qat'iy rioya etish lozimligi bilan birga xalqaro hujjatlardan, 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1985-yil 10-dekabrda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalgam oshirishning minimal standartlari" (Pekin qoidalariga), "Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha dasturiy prinsiplar" (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) qoidalariga rioya etishi lozim.

To'rtinchi misol.

15 yoshli A. va 16 yoshli B.lar poezd kelayotgan vaqtda uning yo'nalishini yo'nalish almashtiruvchi moslama yordamida hali qurib, oxiriga yetkazilmagan yo'lga burib yuborishdi. Poezdning kutilmagan to'xtashi natijasida haydovchi D.ning sog'lig'iga o'rtacha og'irlikda shikast etdi. Haydovchi D. 1 oy davomida sog'lig'ini tiklash uchun kasalxonada davolandi.

Huquqbuzarlik bu huquq subyektining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, vaziyatda egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

1) ijtimoiy xavflilik – qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning sog'lig'iga og'ir shikast yetishi);

2) huquqqa zidlik – huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik (vaziyatda A.ning harakati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va shaxs sog'lig'ini muhofaza qiluvchi boshqa qonun normalari buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi – huquqbuzarlik sodir etgani uchun faqat kishilar javobgar bo'lishi (hayvonlar yoki qurilmalar emas), (vaziyatda 15 yoshli A.);

4) ayblilik – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik – qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi – jinoyat. Jinoyat – JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)

jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmish – JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-moddasi).

Ushbu vaziyat JKning 263-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi (JKning 105-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaganligining sababi JKning 263-moddasi dispozitsiyasida badanga o'rtacha og'irlikdagi yoki og'ir shikast yetkazilishi ham belgilab qo'yilgan).

Jinoyatning obyekti deganda, JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Mazkur vaziyatda jinoyatning obyektni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Umumiy obyekt – JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy obyekti JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus obyekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarning JKda bir bo'linga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning maxsus obyekti iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Turdosh obyekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh obyekti o'zgalar mulki muhofazasiga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita obyekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita obyekti temir yo'lining normal faoliyatini muhofaza qilishga oid ijtimoiy munosabatdir.

Ushbu vaziyatning fakultativ obyekti D.ning sog'lig'ini muhofaza qilishga oid ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyatning obyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi holatlar yig'indisi tushuniladi. Uning zaruriy (qilmish, oqibat, sababiy bog'lanish) va fakultativ (jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, vositasi, quroli va b.) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyatning obyektiv tomoni temir yo'lining normal faoliyatini izdan chiqarishga qaratilgan faol xatti-harakatlarda ifodalanadi.

Jinoyatlar obyektiv tomoniga ko'ra moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi.

Moddiy tarkibli jinoyatlar obyektiv tomoning zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmish (A va B.larning JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan harakati), ijtimoiy xavfli oqibat (temir yo'lining normal faoliyati buzilishi) va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A. B.ning qilmishi va temir yo'l normal faoliyatning buzilishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar obyektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy xavfli qilmishdir. Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi subyekt bir bosqich ortga qaytadi (masalan, JKning 164-moddasi – bosqinchilik, JKning 242-moddasi – jinoiy uyushma tashkil etish va b.).

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ beligisiga jinoyat sodir etilgan joy (temir yo'l), vaqt (vaziyatda A. va B.lar yo'nalishni o'zgartirgan vaqt), usul (vaziyatda huquqbuzarlar jinoyat sodir etgan usul), qurol (vaziyatda qurol mavjud emas) va vosita (vaziyatda vosita ham yo'q)lar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 22-dekabrda 32-sonli "Transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorida qayd etilishicha, Jinoyat kodeksining 260–263, 266, 268–269-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning muqarrar alomati, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarining buzilishi natijasida badanga o'ta og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi, odamlarning halok bo'lishi, halokatlar yuz berishi yoxud boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishidir.

Jinoyat subyektini yosh mezoniga ko'ra to'rtta guruhga ajratamiz: 13, 14, 16 va 18 yosh (JKning 17-moddasi). JKning 104-moddasi uchun JKning 17-moddasida 14 yosh belgilangan. Ya'ni vaziyatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A. va 16 yoshli B. temir yo'l dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish (JKning 263-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan subyekt bo'ladi va shunga muvofiq jinoyat subyektini hisoblanadilar.

Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi ham bor. Maxsus subyekt deganda, jinoyat subyektini bo'lish uchun talab etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishidan tashqari shaxsning

qo'shimcha belgilarga – mansabdor shaxs bo'lishi, residivist bo'lishi, harbiy xizmatchi bo'lishi va boshqa belgilarga ega bo'lishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda maxsus subyekt belgilari mavjud emas.

Jinoyatning subyektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning ichki holatlarini tavsiflovchi holatlar tushunilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi – aybdir (ehtiyotsizlik, qasd) (JKning 21–22-moddalari); fakultativ belgilari – motiv va maqsaddir.

Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari mavjud.

Ushbu vaziyatda jinoyat subyektiv tomondan egri qasddan sodir etilgan.

Egri qasd – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatlarini anglagan, uning xavfli oqibatiga ko'zi yetgan va yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday qasd egri qasd deb topiladi (JK 21-modda).

Jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi motiv va maqsaddir. Motiv – jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u. Maqsad – jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab ko'rsatamiz. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJtKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun, basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJtK, 10-modda).

Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra. Jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda yana bir holatga e'tibor berish lozim-ki, ayrim hollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba

sodir etganlik uchun ham ma'muriy javobgarlikka tortish JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalari birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi lozim;

ikkinchidan, tajovuz qilish obyektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Obyektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy obyekti boshqa huquqbuzarlikning obyektiga nisbatan kengroq bo'lib, bunga davlat xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'lig'i va hokazolar kiradi va faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan obyektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoyiy qilmish, o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi bilan ham farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-moddasining birinchi qismida tuhmat qilganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan.

to'rtinchidan, jazo miqdori va muddati ham jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi.

beshinchidan, javobgarlikka tortish subyektlariga ko'ra. Qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga

asoslangan holda faqat sud hal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga asoslangan holda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar hal qiladi.

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muhim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli ham jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi muhim mezonidir. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilangan bo'lib, shuningdek, Oila kodeksining 71, Fuqarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida 60-bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy, asosli, adolatli hal qilishda ahamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baholashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish subyektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bo'ladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat himoyachisi ishtirok etishi mumkin.

Isbot qilishga, shuningdek, guvohlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq to'planadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeti) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1) jinoyat obyekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (shikast darajasi, xususiyati, mast holatdagi jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar);

2) jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa holatlar: ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish – qilmish obyektiv tomonining fakultativ belgilari);

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan);

4) jinoyatning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda egri qasddan): sabab va maqsadlar;

5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid holatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid holatlar)

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baholashda haqiqatni aniqlash maqsadida ahamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli hal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar ham isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmaganning aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni) ("Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida", 15.09.2000 y.);

2) voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi holatlar;

3) voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni so'roq qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni so'roq qilish JPKning 96–111 va 553-moddalariga asosan amalga oshiriladi.

JPKning 51 va 553-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi ishtirokida so'roq qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil ham ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va himoyachi so'roq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga haqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va himoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib

chiqish va u haqida o'z mulohazalarini bildirishga haqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini so'roq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soatdan oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak).

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra, pedagog yoki psixolog ham ishtirok etishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atilganda surishtiruv organlari tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonidan jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib, prokurorga yuboriladi. Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq, 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish haqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muhokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi.

JKning 15-moddasiga binoan, jinoyatlar xususiyati va xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yilgacha, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yil-gacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 3 yildan 5 yilgacha muddatga, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 5 yildan 10 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan;

o'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, 10 yildan ortiq va umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Vaziyatda JKning 104-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat uncha o'gir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi subyekt 2004-yil 22-iyundagi "Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati to'g'risida"gi Bosh prokuror buyrug'ining 13; 13.1; 13.2; 13.3; 13.4-bandlariga qat'iy rioya etish lozimligi bilan birga xalqaro hujjatlardan, 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1985-yil 10-dekabrda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan

odil sudlovni amalga oshirishning minimal standartlari” (Pekin qoidalari), “Voyaga yetmaganlar orasida huquq-buzarlikni bartaraf etish bo‘yicha dasturiy prinsiplar” (Ar-Riyod dasturiy prinsiplari) qoidalariga rioya etishi lozim.

4-BOB. “O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI” O‘QUV FANIGA OID MASALALARNI SHARHLASH

4.1. Nazariy qoidaga ta’rif berish

“O‘zbekiston davlati va huquqi” o‘quv fani davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, harakatda bo‘lishi (faoliyat ko‘rsatishi) va istiqboli to‘g‘risidagi eng umumiy qonuniyatlarni o‘rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi – nazariy, ya’ni davlat va huquq taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ochib beradigan hamda huquqshunoslik fanining barcha sohalarini uchun umumiy bo‘lgan huquqiy masalalarni o‘rganadigan fandır.

Boshqacha aytganda, huquqshunoslikka kirish davlat va huquq nazariyasini o‘rganishdan boshlanadi. Unda egallangan bilimlar keyinchalik barcha huquq sohalariga kirib borishda asqotadi. Shu bois, olimpiada ishtirokchilaridan davlat va huquq nazariyasiga oid bilimlarni chuqur egallash va uning nazariy qoidalariga ta’rif berish talab qilinadi.

O‘quvchi davlat va huquq nazariyasiga oid quyidagi umumiy tushunchalardan xabardor bo‘lishi lozim (vaziyatda ushbu tushunchalar kengaytirilgan holda sharhlanadi):

Davlat nazariyasi.

Davlat – bu muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruʻ va majburlov apparatiga ega bo‘lgan; jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va kelishtirib turadigan siyosiy tashkilotdir. Davlatning vujudga kelishi haqidagi asosiy nazariyalar: tabiiy huquq (shartnoma) nazariyasi; materialistik (marksistik) nazariya; zo‘ravonlik nazariyasi; teologik (ilohiy) nazariya; patriarxal nazariya; Davlat mohiyati deganda, uning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining kimga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilish tushuniladi.

Davlat hokimiyati – bu davlat majburlov kuchiga tayandigan, subyektlar o'rtasida hukmronlik va tobelikka asoslanadigan ommaviy-siyosiy munosabatlardir.

Davlatning asosiy belgilari – aholining hududiy asosga ko'ra birlashganligi; maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga egaligi; huquq tizimining mavjudligi; soliq tizimiga egaligi; suverenitetga egaligi (ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi mustaqillik).

Siyosiy tizim – mamlakatning davlat va ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etuvchi davlat, ijtimoiy tashkilotlar va institutlarning yig'indisidir. U davlat va jamoat tashkilotlaridan tashkil topadi.

Davlat shakli – bu o'z ichiga davlat boshqaruvi, davlat tuzilishi va siyosiy (davlat) rejimini qamrab oluvchi siyosiy hokimiyatni tashkil etish usullari yig'indisidir. **Davlatning boshqaruv shakli** monarxiya: mutlaq va cheklangan (konstitutsiyaviy va parlamentar monarxiya); respublika (prezidentlik, parlamentar va aralash). Davlatning tuzilish shakli: unitar, federativ va konfederativ; siyosiy (davlat) rejim: demokratik va nodemokratik.

Davlat boshqaruv shakli – bu davlat hokimiyatining oliy organlarini tashkil etish va tuzilishini, shuningdek, bu organlarning bir-biri bilan va aholi bilan bo'lgan munosabatlarini belgilovchi davlat shaklining elementidir. Davlat boshqaruv shakliga ko'ra, ikkiga bo'linadi: monarxiya va respublika.

Monarxiya (lotincha: “monos” – “yakka”, “arxe” – “hokimiyat”) davlat boshqaruvining shunday shakli-ki, bunda oliy davlat hokimiyati yakka shaxs tomonidan amalga oshiriladi va odatda bu hokimiyat unga meros orqali o'tadi. Monarxiyaning belgilari: hokimiyat meros orqali o'tadi; o'z hokimiyatidan umrbod foydalanadigan davlat boshlig'ining (podsho, qirol, imperator, shoh, xon, knyaz, gersog va boshqalar) mavjudligi; monarxning o'z hatti-harakatlari yuzasidan huquqiy javobgar emasligi; monarx shaxsining daxlsizligi; ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda bevosita o'z nomidan ish ko'rishi.

Monarxiya quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin; mutlaq (davlat suverenitetining birdan-bir egasi monarx va uning hokimiyati birorta organ yoki halq tomonidan cheklanmagan bo'ladi), cheklangan (konstitutsiyaviy, parlamentar – bunda monarx hokimiyati vakillik organi tomonidan birmuncha cheklangan va

monarxning huquqiy maqomi Konstitutsiya bilan chegaralab qo'yilgan bo'ladi. Angliya, Daniya, Ispaniya, Norvegiya, Yaponiyada), dualistik (yoki aralash monarxiyada hokimiyat monarx tomonidan shakllantiriladigan hukumat va parlament o'rtasida taqsimlangan bo'ladi) monarxiyalar.

Respublika – davlat boshqaruvining shunday shakli-ki, bunda davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo'yiladigan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruvning respublika shakliga quyidagi belgilar hos bo'ladi: davlat boshlig'i va boshqa davlat hokimiyati organlarining muayyan muddatga saylab qo'yilishi; davlat boshlig'i va boshqa saylab qo'yiladigan organlarning saylovchilar oldida hisobdorligi va ularning almashib turishi; davlat boshlig'ining qonunda belgilab qo'yilgan holatlarda yuridik jihatdan javobgarligi; davlat hokimiyatini o'z nomidan emas, balki xalq nomidan amalga oshirilishi; fuqarolar huquqlarining va manfaatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi hamda davlat va shaxs o'rtasida o'zaro mas'ullikning mavjudligi.

Respublikaning quyidagi turlari mavjud: **1) parlamentar** – hozirgi zamon davlat boshqaruvining bir turi bo'lib, bunday respublikada hukumat parlamentga bo'lgan saylovlarda ko'pchilik ovozga ega bo'lgan partiyalarga tegishli bo'lgan deputatlar orasidan shakllantiriladi (Italiya, Isroil, Islandiya, Germaniya va boshqalar); **2) prezidentlik** – hozirgi zamon davlat boshqaruvining shunday shakli-ki, bunda parlamentarizm bilan bir qatorda davlat boshlig'i ham, hukumat boshlig'i prezident hisoblanadi. Prezident hukumatni o'zi shakllantiradi va hukumat uning oldida javobgar bo'ladi (AQSh, Rossiya); **3) aralash** – bunday boshqaruv shaklida davlat boshlig'i prezident tomonidan saylanadi. U hukumat boshlig'ini tayinlashda rasman ishtirok etadi, lekin hukumat boshlig'i va a'zolari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan shakllantiriladi (Fransiya, O'zbekiston, Finlyandiya).

Davlatning tuzilish shakli – bu davlatning siyosiy va ma'muriy-hududiy tuzilishi, uning markaziy organlari bilan mahalliy organlari o'rtasida o'zaro aloqalarni xarakterlaydi.

Davlatning tuzilish shakliga ko'ra quyidagi ikkita turini ko'rsatish mumkin: **oddiy** (unitar) va **murakkab** (federativ va konfederativ).

Unitar tuzilishga ega bo'lgan davlat yagona davlat bo'lib, uning tarkibiy qismlari ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi va

ular davlat suverenitetining belgilari bo'lmaydi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan davlatning belgilari: qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyati organlarining yagona tizimi mavjudligi; yagona konstitutsiya, qonunchilik, soliq, moliya tizimlarining mavjudligi; yagona fuqarolik joriy etilganligi; barcha tashqi munosabatlar markaziy organlar tomonidan amalga oshirilishi.

Federativ davlat – bu oldin mustaqil bo'lgan bir necha davlat tuzilmalarining ixtiyoriy asosda birlashgan yagona ittifoq davlatidir. Federativ davlatning milliy va hududiy shakllari mavjud. Federativ davlatning quyidagi umumiy belgilarini ko'rsatish mumkin: federatsiya hududi uning alohida subyektlari: shtatlar, kantonlar, respublikalar, o'lkalar va boshqalarning hududlaridan iborat bo'ladi; federatsiya va uning subyektlarining vakolatlari doirasi ittifoq shartnomasi, Konstitutsiyasi va o'zaro vakolatlarni chegaralash to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomalarda belgilab qo'yilgan bo'ladi; federatsiya subyektlari o'zlarining konstitutsiyalari qonunchilik tizimiga, oliy qonunchilik, ijro, sud hokimiyatlari tizimiga ega bo'ladilar; federativ davlatda fuqarolik bilan bir qatorda subyektlarning ham fuqaroligi mavjud bo'ladi; federal parlament ikki palatali bo'lib, yuqori palata federatsiya subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi; federal davlatning tashqi siyosatini, qurolli kuchlarga yagona qo'mondonligini, mudofaa, moliya, federal soliq tizimlariga rahbarlikni asosan ittifoq davlat organlari amalga oshiradi.

Konfederatsiya – bu siyosiy, harbiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish uchun tashkil qilinadigan davlatlarning muvaqqat ittifoqidir. Konfederatsiyaning quyidagi belgilarini ko'rsatish mumkin: konfederatsiya suverenitetga ega bo'lmaydi, chunki bu tuzilma to'la ichki va tashqi suverenitetga ega bo'lgan mustaqil davlatlarning ittifoqidir; konfederatsiyada markaziy davlat apparati va yagona qonunchilik tizimi mavjud bo'lmaydi; konfederatsiya doirasida u yoki bu muammolarni hal qilish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ittifoq organlari tashkil etilishi mumkin; konfederatsiyaga birlashgan davlatlarning fuqarolik tizimi saqlanib qolinadi, lekin bu davlatlarning fuqarolari konfederatsiya hududida erkin harakatlanish (viza va boshqa rasmiyatchiliklarsiz) huquqiga ega bo'ladilar; konfederatsiyada yagona soliq tizimi, yagona budjet va yagona armiya mavjud bo'lmaydi, lekin konfederatsiya subyektlari muayyan muddatga yagona pul tizimi, bojxona qoidalari, davlatlararo kredit siyosati, konfederatsiya

maqsadlari uchun budjet tizimini tashkil qilishlari mumkin. Konfederativ davlatlar uzoq muddat saqlanib qolmaydi, bunda u yo federatsiyaga aylanishi, yoki umuman tarqalib ketishi mumkin. Masalan, Shvetsariya ittifoqi, AQSh va b.

Siyosiy (davlat) rejim – bu davlat hokimiyatini amalga oshirishda qo'llaniladigan usul, uslub va vositalar yig'indisidir. Demokratik va nodemokratik siyosiy rejim farqlanadi.

Demokratik davlat rejimi xususiyatlari: iqtisodiy faoliyat sohasida shaxsning erkinligi; shaxsiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi; davlat hokimiyati xarakteriga xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishning samarali mexanizmi mavjudligi; shaxsning qonunsizlik va hokimiyatning har xil suiiste'mol qilishlardan himoyalanganligi; jamiyat hayotiga oid bo'lgan eng muhim masalalar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning ko'pchilik tomonidan ozchilikning manfaatlari maksimal darajada e'tiborga olingan holda qabul qilinishi; siyosiy tizimning boshqa elementlari bilan bo'lgan munosabatlarda ko'pfikrlilikka amal qilish; barcha davlat organlari faoliyatining huquqiylik tamoyiliga bo'ysinishi; hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi.

Nodemokratik davlat rejimi xususiyatlari: ijtimoiy hayotining barcha sohalari ustidan davlatning to'la nazorati o'rnatilganligi; jamoat tashkilotlarining davlat tomonidan nazorat qilinishi; fuqarolar huquq va erkinliklarining amalda tatbiq etilmasligi; ommaviy axborot vositalari ustidan to'la nazoratning o'rnatilishi, senzuraning mavjudligi; rasmiy mafkuraga mos kelmaydigan diniy, siyosiy va boshqa qarashlar uchun ta'qib ostiga olinishi; davlat hokimiyatini amalga oshirishda huquqiylik tamoyiliga amal qilinmasligi; hokimiyatning qat'iy markazlashganligi hamda davlat boshlig'i shaxsining ilohiylashtirilishi.

Davlat mexanizmi – bu davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tizimidir. Davlat mezanizmi – bu davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tizimidan iborat bo'lib, ular vositasida davlat hokimiyati amalga oshiriladi va jamiyat ustidan davlatning rahbarligi ta'minlanadi.

Davlat mexanizmi davlat muassasalari, davlat apparati, davlat korxonalaridan tashkil topadi. **Davlat apparati** – bu davlat mexanizmining bir qismi bo'lib, u davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun berilgan vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari

majmuidan iboratdir. Davlat apparati – davlat hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir. **Davlat organi** – bu qonuniy asosda tashkil etiladigan, davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi muayyan vakolatlarga ega bo'ladigan, davlat apparatining mustaqil bir bo'g'inidir. **Davlat organlari** – bu davlat hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan, davlat tomonidan belgilangan tartibda va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida kompetensiyani amalga oshiradigan davlat apparatining bir qismidir. **Davlat organi** – bu davlat apparatining alohida tuzilmaga ega bo'lgan, nisbatan mustaqil qismi. Davlat organlari tasnifi: shakllanish usuliga ko'ra, birlamchi va hosilaviy (ikkilamchi); faoliyatiga kiradigan hududga ko'ra, markaziy va mahalliy; vakolatiga ko'ra, umumiy va maxsus; hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud; qaror qabul qilish tartibiga ko'ra, kollegial va yakka tartibda.

Davlat funksiyalari – bu davlatning maqsad va vazifalari-ni amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo'nalishlaridir. **Davlat funksiyalari quyidagicha tasniflanadi**: faoliyat doirasiga ko'ra (ichki va tashqi); faoliyat muddatiga ko'ra (doimiy va vaqtinchalik); ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (asosiy va asosiy bo'lmagan); amalga oshirishning huquqiy shakllariga ko'ra (huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish va sud).

Davlatning asosiy ichki funksiyalariga iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy nazorat, huquq tartibotni ta'minlash va ekologik funksiyalarni, **tashqi funksiyalariga** boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnik, ekologik va harbiy hamkorlikni hamda mudofaa, ya'ni mamlakatni tashqi tajovuzdan (agressiyadan) mudofaa qilish va davlat chegaralarini qo'riqlashni kiritish mumkin.

Davlatning tipi – bir xil ijtimoiy, iqtisodiy formatsiyadagi davlatlarga xos bo'lgan muhim, umumiy belgilar yig'indisidir. Davlatni tiplarga ajratishda formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. **Formatsion yondashuv** – davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darajasi, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko'ra tiplarga ajratishdir. **Sivilizatsion yondashuv** – davlatlarni ijtimoiy iqtisodiy tuzumi bilan bir qatorda ko'proq ularning ma'naviy, axloqiy, va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir.

Huquqiy davlat – bu davlat huquqiy asosda tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorlik qiladigan davlatdir. Huquqiy davlatning belgilari: qonunning ustuvorligi; davlat va davlat organlarining huquq bilan aloqadorligi; barcha demokratik huquq va erkinliklar institutlarining mavjudligi; inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining davlat tomonidan e'lon qilinganligi, himoya qilinishi va kafolatlanishi; rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi; davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanganligi; davlat va shaxsning o'zaro mas'ulligi; davlatdagi mavjud ichki huquq normalarining xalqaro huquq normalariga mos kelishi va xalqaro huquq normalarining ustuvorligi.

Davlat hokimiyatining taqsimlanish tamoyili – bu davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga taqsimlanishi (bo'linishi)dir. Davlat hokimiyati vakolatining taqsimlanishi – bu uchala hokimiyatning muvozanatini, tengligini hamda ularning o'zaro bir-birini tiyib turishini va qarama-qarshi ta'sir etishini ta'minlovchi tizimdir.

Fuqarolik jamiyati – bu axloqiy, diniy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlar va institutlar yig'indisi bo'lib, ular yordamida individlar va guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlarini qondiruvchi va ta'minlovchi jamiyatdir. **Fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari:** ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (mulk, mehnat, tadbirkorlik); jamoat va boshqa nodavlat tashkilotlar; siyosiy partiyalar va harakatlar; nodavlat ta'lim va tarbiya tizimi; nodavlat ommaviy axborot vositalari tizimi; oila; din, cherkov va boshqalar⁴⁴.

Huquq nazariyasi.

Huquq – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullandigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo'lgan yurish-turish qoidalari yig'indisi.

Huquqni obyektiv yoki subyektiv ma'noda tushunishimiz mumkin. **Obyektiv** ma'nodagi huquq deganda, biz ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqni (jinoyat huquqi, ekologiya

⁴⁴ Najimov M., Saburov N. Davlat: asosiy tushunchalar va atamalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuI, 2002. – 21 b.

huquqi, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq va h.k.) tushunamiz. **Subyektiv** ma'nodagi huquq deganda esa, muayyan shaxsga tegishli bo'lgan erkinlik va manfaatlarni tushunamiz (yashash huquqi, erkinlik, daxlsizlik, mulk huquqi, vijdon erkinligi, axborot olish huquqi).

Huquqning mohiyati deganda, uning mazmuni va maqsadi tushuniladi. Huquq mohiyati haqidagi nazariyalar quyidagilardan iborat: tabiiy huquq nazariyasi, realistik huquq maktabi, psixologik huquq maktabi, huquqni tushunishga tarixiy yondashuv, huquqni tushunishda normativizm nazariyasi, materialistik (sinfiy) huquq nazariyasi.

Huquqning asosiy belgilari: umummajburiy-normativ xarakterga ega; davlat bilan uzviy bog'liq va davlatning majburlov kuchiga tayanadi; shaklan aniqlikka ega.

Huquq tamoyillari — bu huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida mohiyatini ifodalovchi eng asosiy qarashlar, g'oyalar va qoidalardir.

Huquq tamoyillari ta'sir etish doirasiga ko'ra, **umumhuquqiy, sohalararo** va **sohaviy** tamoyillarga bo'linadi. **Umumhuquqiy tamoyillar:** adolatlilik, fuqarolarning qonun oldida huquqiy jihatdan tengligi, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, huquq va majburiyatlar birligi va boshqalar. **Sohalararo tamoyillar:** javobgarlikning muqarrarligi, oshkoralik va boshqalar. **Sohaviy tamoyillar:** Masalan: fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi; jinoyat jarayoni huquqida aybsizlik prezumpsiyasi va boshqalar.

Huquqning funksiyalari — bu jamiyatda ijtimoiy munosabatlarga va kishilarning yurish-turishlariga huquqiy ta'sir qilishning asosiy yo'nalishlaridir.

Huquq funksiyalarini ikki xil nuqtai nazardan, ya'ni **maxsus yuridik** (tor ma'noda) va **umumijtimoiy** (keng ma'noda) tasniflash mumkin.

1. Maxsus yuridik funksiyalar: a) **tartibga solish funksiyasi** — bu shunday huquqiy ta'sir qilish yo'nalishi bo'lib, unda jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos keladigan ijtimoiy munosabatlar amalda bo'lishi ta'minlanadi va rivojlantiriladi; b) **qo'riqlovchi funksiyasi** — bu huquqiy ta'sir qilishning yo'nalishi bo'lib, unda jamiyat uchun ijobiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlar qo'riqlanadi, jamiyat uchun zararli ijtimoiy munosabatlar esa cheklanadi.

2. Umumijtimoiy funksiyalar orqali jamiyat hayotining turli xil yo'nalishlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir o'tkaziladi. Umumijtimoiy funksiyalarga quyidagilar kiradi: **iqtisodiy, siyosiy, tarbiyaviy, ekologik** va boshqa funksiyalar.

Huquqning shakllari (manbalari) deganda, huquqni tashqi ifoda etilish shakli tushuniladi.

Huquqning quyidagi shakllari (manbalari) mavjud: huquqiy odat; huquqiy (sud yoki ma'muriy) pretsedent; normativ-huquqiy aktlar; normativ shartnomalar.

a) huquqiy odat – uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir;

b) huquqiy pretsedent – sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki qarori bo'lib, bu qaror kelgusida barcha shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna, etalon normadir;

d) normativ-huquqiy aktlar davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xarakterdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi huquq ijodkorligi aktlari tushuniladi;

e) normativ shartnomalar – ikki va undan ortiq mustaqil huquq ijodkorlari o'rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitimlardir.

Huquq normasi – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan va ma'qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yurish turish qoidasidir.

Huquq normasining tuzilishi: gipoteza, dispozitsiya va sanksiya. **Gipotezada** huquq normasida belgilanadigan qoida qanday sharoitda va holatda kim tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Gipoteza huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidaning kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan aniq hayotiy holatlar (voqea, harakat, holatlar) o'zining ifodasini topadi. **Dispozitsiya** huquqiy normaning bir qismi bo'lib, unda gipotezada ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganida huquq subyektlari rioya etishlari lozim bo'lgan xatti-harakat qoidasi ifodalangan bo'ladi. **Sanksiya** dispozitsiyada ko'rsatilgan qoidani

buzgan shaxsga nisbatan davlat organi qo'llashi mumkin bo'lgan ta'sir chorasini belgilaydi. Sanksiya huquq normasining bir qismi bo'lib, unda dispozitsiyada ko'rsatilgan talablarni bajarmaganlik uchun berilishi mumkin bo'lgan jazoning yoki tavsiya etilgan harakatni sodir etganlik uchun rag'batlantirishning turi va o'lchovi ifodalangan bo'ladi.

Huquq tizimi — bu ijtimoiy munosabatlarning xarakteri bilan bog'liq bo'lgan huquqning ichki tuzilishi bo'lib, u huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat'iy ilmiy izchillikda joylashgan tartibidir. **Huquq tizimining tarkibiy qismlari:** huquq normasi, huquq instituti, huquq sohasi.

Huquq instituti — bu o'zaro o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning muayyan turi yoki tomonlarini tartibga soluvchi huquq normalarining yig'indisidir.

Huquq sohasi — bu huquq tizimining alohida mustaqil qismi bo'lib, o'zaro o'xshash (bir turdagi) ijtimoiy munosabatlarning ma'lum sohalarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

Huquqiy munosabatlar — shaxslar o'rtasidagi yuridik aloqa bo'lib, bu ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. O'zaro huquq va burchlarsiz huquqiy munosabat vujudga kelmaydi. Huquqiy munosabatlar — bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari subyektiv huquq va subyektiv yuridik majburiyatlarga ega bo'lishadi.

Huquq subyekt — bu qonunga binoan huquqqa ega bo'lish va zimmasiga yuridik majburiyatlarni olish layoqatiga ega bo'lgan **jismoniy** yoki **yuridik shaxslardir**.

Jismoniy shaxslar — bular muayyan davlat fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir.

Yuridik shaxslar — qonun bo'yicha fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining subyekt bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasa. Yuridik shaxslar — o'z mulkida, xo'jalik yuritishida va operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot hisoblanadi.

Huquq layoqati — jismoniy shaxs (fuqaro) yoki yuridik shaxsning qonunda nazarda tutilgan va yo'l qo'yilgan huquqlarga

ega bo'lishi hamda majburiyatlarni bajarish layoqati (davlat tomonidan e'tirof etiladi). Huquq layoqati kishi tug'ilganidan boshlab, yuridik shaxsda esa uning Nizomi tasdiqlangan paytdan boshlab paydo bo'ladi. **Huquq layoqati** — bu subyektning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish huquqining qonunda belgilangan (tan olingan) layoqatidir va subyektiv huquq mavjudligining huquqiy zaminidir. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqarolarning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Muomala layoqati — fuqaro yoki yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan huquqqa ega bo'lish va o'zi uchun majburiyatlar yaratish qobiliyati. Muomala layoqati — bu shaxsning o'z hatti-harakati orqali huquq va majburiyatlarga ega bo'lishining qonunda belgilangan (tan olingan) imkoniyatidir. Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Subyektiv huquq — bu subyektning sodir etishi mumkin bo'lgan hatti-harakati turi va o'lchovidir.

Subyektiv yuridik majburiyat — subyektning sodir etishi lozim bo'lgan xatti-harakati turi va o'lchovidir.

Yuridik faktlar deb huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi faktlar (holatlarga) aytiladi. Yuridik faktlar: hodisa, voqealar va qilmish.

Normativ huquqiy aktlarni tizimlashtirish — bu normativ-huquqiy aktlarni tartibga solish yo'li bilan muayyan tizimga keltirishdir.

Normativ huquqiy aktlarni tizimlashtirishning turlari: **inkorporatsiya, kodifikatsiya va konsolidatsiya.**

Inkorporatsiya — qonunlar, farmonlar, hukumat qarorlari, farmoyishlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniga hech qanday o'zgarish kiritmasdan alfavit, xronologik, tematik va boshqa tartibda tizimga solib nashr etishdir.

Inkorporatsiyaning quyidagi turlari mavjud: **rasmiy va norasmiy: 1) rasmiy inkorporatsiya** qonunchilik aktlarini ularni chiqargan va vakolat berilgan organlar tomonidan to'plam va majmualarda tizimlashtirishdir; 2) **norasmiy inkorporatsiya** —

bunda to'plamlar unga maxsus vakolati bo'lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Kodifikatsiya — qonunlar va boshqa normativ huquqiy aktlarni kodekslar chiqarish yo'li bilan tizimga solishdir.

Kodifikatsiya — bu normativ aktlarni ularning mazmuniga o'zgartirish kiritish orqali mantiqiy asosda yagona normativ aktga tizimlashtirishdir. Kodifikatsiya qilish jarayonida eskirgan normalar tugatiladi, butun normalardagi qarama-qarshilik bartaraf etiladi, huquqiy bo'shliqlar to'ldiriladi.

Konsolidatsiya — bu tizimlashning shunday shaklidirki, bunda normativ-huquqiy aktlarning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilmaydi, lekin bu normalar mustaqil yuridik akt sifatida o'zining kuchini yo'qotadi.

Huquqiy ong — bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka va huquq tartibotga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir. Huquqiy ong ikki asosiy elementdan tashkil topgan: **huquqiy ruhiyat** (psixologiya) va **huquqiy mafkura (ideologiya)**. **Huquqiy ruhiyat** — alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iboratdir. **Huquqiy mafkura** — bu sinfning, jamiyatning huquqiy qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir.

Huquqiy madaniyat — bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir.

Huquqiy tarbiya — bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda hamda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir.

Huquq ijodkorligi — bu vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarni yaratish, ularga o'zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyatidir.

Qonun ijodkorligi jarayonining bosqichlari:
a) qonunchilik tashabbusi; b) qonun loyihasini muhokama qilish;
d) qonunni qabul qilish; e) qonunni e'lon qilish.

Huquqni tatbiq etish — bu yuridik jihatdan davlat tomonidan mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarning

amalga oshirilishi bo'lib, huquq normalarining kishilar va ularning tashkilotlari faoliyati hamda hayotiga tatbiq etilishidir.

Huquq normalarini amalga oshirish shakllarini quyidagicha tasniflash mumkin: huquq normasiga rioya qilish; huquq normasini bajarish; huquq normasidan foydalanish; huquq normasini qo'llash.

Huquqni qo'llash akti — bu muayyan yuridik ish bo'yicha muayyan shaxs(lar)ning huquqlarini, majburiyatlarini va ularning yuridik javobgarlik darajasini belgilovchi, yuridik faktlar va huquq normalariga asoslanib vakolatli yoki mansabdor shaxs tomonidan chiqariladigan huquqiy aktdir. Huquqni qo'llash aktlarining turlari: parlament aktlari; davlat boshlig'i aktlari; ijro hokimiyati organlarining aktlari; sud hokimiyati organlarining aktlari; mahalliy vakillik hokimiyati (o'z-o'zini boshqarish) organlarining aktlari; korxonalar, tashkilot, muassasa rahbarlarining aktlari.

Huquqiy xulq-atvor — bu huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan, huquq subyektlarining ongli ravishdagi xulqidir.

Huquqbuzarlik — bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari: jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy xavfli xarakterga ega; huquqqa qarshi xarakterga ega; bu aybli qilmishdir; faqat kishilar tomonidan sodir qilinadi; kishilarning erki va ongiga bog'liq bo'lgan holda ular tomonidan ixtiyoriy amalga oshiriladi va hokazo. Huquqbuzarlikning quyidagi turlari mavjud: **jinoiyat** va **nojo'ya ish**.

Yuridik javobgarlik — bu huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko'zda tutilgan sanksiyalar asosida davlat majburlov choralarining qo'llanilishi bo'lib, bunda aybdor shaxs muayyan huquqlardan (shaxsiy, mulkiy, tashkiliy va h.) mahrum etiladi. Huquq buzilishining turlariga muvofiq yuridik javobgarlik quyidagi turlarga bo'linadi: jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, intizomiy-huquqiy.

Yuridik javobgarlikning tamoyillari: qonuniylik, maqsadga muvofiqlilik, huquq buzilgan holda javobgarlikning muqarrarligi, individuallik va boshqalar.

Aybsizlik prezumpsiyasi — gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda ayibdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Qonuniylik — bu huquq subyektlari tomonidan qonunlar va qonun osti aktlariga to'la va aniq amal qilinishidir. Qonuniylik tamoyillari: konstitutsiya va qonunlarning boshqa huquqiy aktlarga nisbatan ustuvorligi; huquq subyektlarining qonun va sud oldidagi tengligi; hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi; inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlanganligi; normativ-huquqiy aktlarni mamlakatning butun hududida bir xil qo'llanilishi va talqin etilishi; maqsadga muvofiqlikning qonuniylikka qarshi qo'yilmasligi; qonuniylikning madaniyat bilan uzviy bog'liqligi va boshqalar.

Huquqiy-tartibot — bu huquq subyektlarining huquq normalarida belgilangan qoidalarga to'la va aniq rioya qilishlari natijasida o'rnatiladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. **Huquqiy-tartibotning xususiyatlari:** u huquq normalarida ko'zda tutilgan bo'ladi; muayyan huquq normalarini hayotga tatbiq etish natijasida yuzaga keladi; davlat tomonidan ta'minlanadi; kishilarning hayotini yengillashtirib, ularning yanada erkin bo'lishlari hamda ijtimoiy munosabatlarni tashkiliy jihatdan yuzaga kelishi va amalda bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga keladi.

Huquq normalarini sharhlash — bu huquqiy normalarning mazmuni va mohiyatini aniqlash va tushuntirish borasidagi faoliyatdir. Huquq normalari ularning mohiyati va mazmunini aniqlash, tushuntirishga hamda huquq normasining xajmiga ko'ra tasniflanadi. Huquq normalarini sharhlash turlari: aniqlash (uslubga ko'ra): gramatik, mantiqiy, tizimli, tarixiy-siyosiy, maxsus yuridik va funksional; tushuntirish (subyektga ko'ra): rasmiy — normativ (legal va autentik, kazual va sud) hamda norasmiy — ilmiy (doktrinal), professional va oddiy.

Huquqiy bo'shliq — bu huquq normalari bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan ishlar bo'yicha amaldagi qonunchilikda huquq normalarining qisman yoki to'liq mavjud emasligidir. Huquqiy bo'shliqni to'ldirish usullari: yangi normativ huquqiy aktlarni yaratish; huquq yoki qonun analogiyasini qo'llash.

Huquq analogiyasi — bu muayyan ishni huquqning umumiy tamoyillari va mohiyatiga asoslanib ko'rib chiqish va hal qilishdir.

Qonun analogiyasi – qonun chiqaruvchi organ tomonidan ayrim hodisalarni qonunda bevosita ko'rsatilganligi, lekin u hodisa o'zining alomatlari bilan qonunda ko'rsatilgan harakatlarga analogik (o'xshash) bo'lganligi tufayli qonunning mazkur hodisaga ham taalluqliligidan iboratdir.

Huquqdagi ziddiyat (kolliziya) – bu bir xil yoki o'xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi turli huquqiy aktlar o'rtasidagi ziddiyatdir.

Huquqiy nigilizm – bu huquq subyektlari tomonidan amaldagi huquq normalarini mensimaslik yoki inkor qilishdir. Huquqiy nigilizm quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: nazariy shakli (olimlar, mutafakkirlar, siyosatshunoslar tomonidan muayyan manbalarda huquqning inkor qilinishi); amaliy shakli (faol va sust (passiv)). Faol huquqiy nigilizm – ijtimoiy munosabatlarda huquqni ochiqdan ochiq inkor qilish; sust huquqiy nigilizm – jamiyatdagi kishilar tomonidan amaldagi huquq normalarini mensimaslik.

Huquqiy tizim – jamiyatda amalda bo'lgan huquq tizimini, yuridik fanni, huquq tushunchalarini, huquqiy munosabatlarni, huquqiy madaniyatni, huquqiy amaliyotni va yuridik texnikani o'z ichiga qamrab oluvchi, u yoki bu mamlakatning huquqiy jihatdan qay darajada rivojlanganligini bildiruvchi tizimdir.

Hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizimlari va oilalari: umumiy (anglo-sakson) huquq oilasi; qit'a – kontinental (romano-german) huquq oilasi; sotsialistik huquq oilasi; musulmon huquq oilasi; xind huquq oilasi; skandinaviya huquqiy tizimlari; uzoq sharq huquqiy tizimlari; aralash huquqiy tizimlar.

Yuridik amaliyot – bu vakolatli huquq subyektlarining ijtimoiy-huquqiy tajribaga tayangan holda, huquqni qabul qilish, uni sharhlash va qo'llashga qaratilgan faoliyatdir.

Yuridik texnika – bu normativ-huquqiy aktlarni ishlab chiqish, rasmiylashtirish, e'lon qilish va tizimlash bilan bog'liq qoidalar yig'indisidir.

Huquqiy dunyoqarash – bu jamiyatda kishilar tomonidan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda bosh rolni huquq bajaradi deb tan olinishidir⁴⁵.

⁴⁵ Najimov M., Saburov H. Huquq: asosiy tushunchalar va atamalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYul. 2002. – 25-b.

Demak, o'quvchi nazariy qoidalarni sharhlash uchun davlat va huquqqa oid yuqoridagi asosiy atamalarning ta'rifini bilishi lozim. Olimpiada uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi aniq vaziyatda muayyan qoidani faqatgina yuqoridagicha ta'rifi, xususiyatlari va turlarini keltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki uning mazmun va mohiyatini kengroq yoritishi uchun davlat va huquq nazariyasiga oid maxsus adabiyotlarni⁴⁶ chuqurroq mutolaa qilishi maqsadga muvofiq. Yuqoridagi davlat va huquqqa oid asosiy tushunchalar esa, bu har bir olimpiadaga tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchi bilishi lozim bo'lgan eng umumiy qoidalar hisoblanadi.

4.2. Javobni amaliyot bilan bog'lash va aniq misollar keltirish

Javobni amaliyot bilan bog'lash va aniq misollar keltirish konstitutsiyaviy normani sharhlashda ham, davlat va huquq nazariyasi qoidasini sharhlashda ham ko'zda tutilgan talablardan biridir. Ta'kidlash lozimki, aynan shu talab ko'p hollarda o'quvchi e'tiboridan chetda qoladi yoki o'quvchi mezonning aynan shu talabi asosida qoidani sharhlashda qiynalib qoladi.

Davlat va huquq nazariyasi qoidasini sharhlashda qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish uchun o'quvchi 2.3-paragrafda berilgan tavsiyalardan foydalanishi mumkin.

Shuningdek, davlat va huquq nazariyasi qoidasini sharhlashda javobni amaliyot bilan bog'lash va aniq misollar keltirishda o'quvchi kundalik hayotda bo'layotgan voqea va hodisalardan, tergov-sud amaliyotidan, xalqaro tajribadan misollar keltirishi mumkin.

Jumladan, huquq shakllari to'g'risidagi nazariy qoidani sharhlab, javobni amaliyot bilan bog'lash va aniq misollar keltirishda amaliyotda huquq shakllari sifatida mustaqillik yillarida qabul qilingan aniq qonunlar, qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va b.q.), xalqaro shartnomalar, huquqiy odatlardan misollar keltirish mumkin. Jumladan, rieltorlik faoliyati bilan bog'liq huquq normasining tashqi ifodalanish shakli O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-dekabrda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunidan iborat va h.k.

⁴⁶ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009.; Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. – Toshkent: TDYul, 2004. – 138 b.; Husanov O., Azizov X. Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

4.3. Qoidani Konstitutsiya yoki boshqa qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lash

Davlat va huquq nazariyasi qoidasini sharhlashda qoidani Konstitutsiya yoki boshqa qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lash mezon talablaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, barcha huquq sohalari o'zining manbalariga ega bo'lib, huquq manbaisiz biror bir soha mustaqil mavjud bo'la olmaydi. Shunday ekan, davlat va huquq nazariyasiga oid barcha qoidalar Konstitutsiya hamda boshqa qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Jumladan, huquq shakllari to'g'risidagi nazariy qoidani Konstitutsiya yoki boshqa qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lashga harakat qilib ko'raylik. Ushbu nazariy qoida, avvalambor, Konstitutsiyaning Konstitutsiya va qonunning ustunligiga oid 15-moddasi, qonun qabul qilish bilan bog'liq Oliy Majlis vakolatlarini belgilaydigan 78-moddasi, qonunchilik tashabbusi to'g'risidagi 83-moddasi, qonunni qabul qilish jarayoni xususidagi 84-moddasi va boshqa moddalar bilan uzviy bog'liq.

Huquq shakllari to'g'risidagi nazariy qoida amaldagi qonun hujjatlaridan, avvalambor, O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni bilan uzviy bog'liq. Ushbu Qonunda normativ-huquqiy hujjat tushunchasi, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar yoki mansabdor shaxslar, normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va o'zaro nisbati, normativ-huquqiy hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablar, normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish, ularning kuchga kirishi va amal qilishi kabi masalalar tartibga solingan.

Huquq shakllari to'g'risidagi nazariy qoida qonunosti normativ-huquqiy hujjatlardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi ustidan monitoring qilish markazini tashkil qilish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 14-fevralda ro'yxatga olingan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish Qoidalari", O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 10-sentabrda ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining davlat hisobi to'g'risida"gi Nizom bilan ham chambarchas bog'liq. Maz-

kur qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash, qabul qilish va hisobini yuritish bilan bog'liq masalalar atroflicha tartibga solingan.

Demak, qoidani Konstitutsiya yoki boshqa qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lashda qoidani imkon qadar ketma-ketlikda, ya'ni dastlab Konstitutsiyaning tegishli moddalari, undan keyin amaldagi qonunlar va so'ngra qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lash tavsifa etiladi.

4.4. Huquqiy atamalarga ta'rif berish hamda ulardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish

Huquqiy atamalarni sharhlashda davlat va huquq nazariyasiga oid asosiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish talab etiladi. Bunda o'quvchi yuqorida keltirilgan davlat nazariyasi va huquq nazariyasiga oid atamalarni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llashi lozim.

Davlat nazariyasiga oid atamalar sifatida davlat, davlat hokimiyati, siyosiy tizim, davlat shakli, monarxiya, respublika, davlatning tuzilish shakli, unitar davlat, federatsiya, konfederatsiya, siyosiy (davlat) rejim, nodemokratik davlat, davlat mexanizmi, davlat apparati, davlat organi, davlat funksiyalari, ichki funktsiya, tashqi funktsiya, huquqiy davlat, davlat hokimiyatining taqsimlanish tamoyili, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat singari tushunchalarni ko'rsatish mumkin.

Huquq nazariyasiga oid atamalar sifatida esa, huquq, obyektiv huquq, subyektiv huquq, huquq tamoyillari, funksiyalari, shakllari (manbalari), huquqiy odat, huquqiy pretsedent, normativ-huquqiy aktlar, normativ shartnomalar, huquq normasi, gipoteza, dispozitsiya, sanksiya, huquq tizimi, huquq instituti, huquq sohasi, huquqiy munosabatlar, huquq subyeksi, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, huquq layoqati, muomala layoqati, yuridik fakt, tizimlashtirish, inkorporatsiya, kodifikatsiya va konsolidatsiya, huquqiy ong, huquqiy mafkura, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquq ijodkorligi, huquqni tatbiq etish, huquqni qo'llash akti, huquqiy xulq-atvor, huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, aybsizlik prezumpsiyasi, qonuniylik, huquqiy-tartibot, huquq normalarini sharhlash, huquqiy bo'shliq, huquq analogiyasi, qonun analogiyasi, huquqdagi ziddiyat (kolliziya), huquqiy nigilizm,

huquqiy tizim, yuridik texnika, huquqiy dunyoqarash kabi atamalarni qayd etib o'tishimiz mumkin.

O'quvchi nazariy qoidani sharhlashda yuqoridagi atamalardan mantiqan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanishi lozim.

4.5. "O'zbekiston davlati va huquqi" o'quv faniga oid masalalarni sharhlashga misollar

Birinchi misol

Davlatning funksiyalari.

Davlat funksiyalari – bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo'nalishlaridir.

Funksiya – vakolat doirasidan kelib chiquvchi faoliyatdir. Chunki "funksiya" lotin tilidan olingan bo'lib, "faoliyat" degan ma'noni anglatadi.

Davlatning funksiyalari – bu faoliyat yo'nalishi, biroq yo'nalishning aynan o'zi emas. Funksiyalarni amalga oshirish faoliyati ma'lum tarixiy mazmun bilan to'ldiriladi, binobarin, amalga oshirish jarayonida ularning o'zaro nisbati (solishtirma vazni, har bir funksiyaning boshqa tizimdagi ahamiyati) orqali yuzaga keladi.

Davlatning har bir funksiyasi siyosiy – predmet ta'rifi-ga ega bo'ladi. Chunki uning mazmuni, faoliyat predmeti nimadan iborat ekani, u yoki bu maqsadlarga erishish yo'lida qanday vositalar qo'llanishini ko'rsatadi.

Davlat funksiyalari uning maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun u ma'lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa o'z navbatida, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Davlat funksiyalari quyidagicha tasniflanadi: faoliyat doirasiga ko'ra (ichki va tashqi); faoliyat muddatiga ko'ra (doimiy va vaqtinchalik); ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (asosiy va asosiy bo'lmagan); amalga oshirishning huquqiy shakllariga ko'ra (huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish va sud).

Davlat funksiyalari faoliyat sohalari bo'yicha ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi.

Ichki funksiyalar davlatning ichki vazifalarini yechishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, davlatning jamiyatga ta'sirining faollik darajasini ko'rsatadi.

Tashqi funksiyalar esa, xalqaro-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida ishtirok etayotgan davlat, davlatlararo miqyosdagi vazifalarni hal qilish bilan bog'liqdir.

Davlatning asosiy ichki funksiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiy fuksiyasi; ijtimoiy funksiyasi; siyosiy funksiyasi; huquq tartibotni ta'minlash funksiyasi; tinchlik va totuvlikni ta'minlash funksiyasi; ekologik funksiyasi va boshqa funksiyalar.

Iqtisodiy funksiya — bu davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida asosiy yo'nalishlarni ishlab chiqish, boshqarib turish hamda tartibga solib turishdan iboratdir. Bundan tashqari davlat budjetini shakllantirish, jamiyatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli xil mulk shakllarini tenglik sharoitida amal qilinishini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Ijtimoiy funksiya — bu aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib hayot faoliyatini ta'minlab berish, ta'lim sohasini, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirish va b.

Siyosiy funksiya — davlatning siyosiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan bo'lib, bu davlatning (jamiyatning) siyosiy hayotini boshqarishdan, davlat organlarini shakllantirishdan hamda ularning faoliyatini tashkil etishdan iborat.

Huquq tartibotni muhofaza qilish funksiyasi — bu davlat faoliyati bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning hamma qatnashchilari tomonidan qonuniy bo'yruqlarni aniq va to'liq amalga oshirishdan iborat.

Tinchlik va totuvlikni ta'minlash funksiyasi — bu davlat tomonidan aholining tinch-totuv yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, turli millatlarni va ijtimoiy guruhlarni murosai-madorada saqlab turishdan, ularning orasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish hamda bartaraf etishdan iborat.

Ekologik funksiya. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi ko'proq darajada ekologik xavfsizlik muammosi sifatida tushunilmoqda. Shundan kelib chiqib, aytish kerakki, biz davlat ekologik funksiyasining quyidagi ta'rifini taklif qilishni lozim topdik: bu jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash, amalga oshiriluvchi, obyektiv jihatdan zarur, izchil, qonuniy belgilangan yo'nalishdir.

Davlatning asosiy tashqi funksiyalariga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: boshqa davlatlar bilan hamkorlik funksiyasi va mudofaa funksiyasi.

Boshqa davlatlar bilan hamkorlik – bu ushbu davlatning manfaatlarini barcha davlatlarning alohida va umumiy manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan teng huquqli iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan davlatning xilma-xil faoliyatidir.

Davlatlararo iqtisodiy hamkorlikda xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni kooperatsiyalashtirish va ixtisoslashtirish, eng yangi texnologiyalarni almashish, tovar aylanishini muvofiqlashtirish, moliya-kredit aloqalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni umumiy muvofiqlashtirishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari amalga oshiradi. Hududiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan davlatlar hamjamiyati doirasida iqtisodiy hamkorlik samarali amalga oshirilmoqda. Bunga Yevropa hamjamiyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu davlatlar savdo-sotiq sohasida mavjud bo'lgan barcha o'zaro cheklovlarni olib tashlash, uchinchi mamlakatlar bilan savdo-sotiqda umumiy bojxona tarifini joriy qilish, odamlar, sarmoyalar va xizmatlar erkin harakat qilishi uchun to'siqlarni olib tashlash, transport, energetika va xo'jalik sohaslarida umumiy siyosat olib borish, umumiy raqobat qoidalarini o'rnatish va boshqa masalalar bo'yicha kelishib oldilar. Yevropa hamjamiyati o'zi yaqin hamkorlik qiladigan boshqa qit'alarda mavjud mamlakatlar bilan qator konvensiyalar tuzdi. So'nggi vaqtda Yevropa hamjamiyati a'zolari iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoqlar tuzish haqidagi yangi shartnomalarni ma'qulladilar.

Davlatlarning siyosiy sohadagi hamkorligi, eng avvalo, urush va tinchlik masalalarida ko'zga tashlanadi. Davlatlar jahon hamjamiyatining zamonaviy rivojlanish darajasi global qurolli to'qnashuvlarga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Davlatlar o'rtasida siyosiy hamkorlik davlat hokimiyatining barcha pog'onalarida: parlamentlararo, hukumatlararo miqyosda hamda mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari miqyosida amalga oshiriladi.

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik sayyorada normal ekologik vaziyatni saqlash bo'yicha ko'pgina davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtiradi. Bu faoliyat qamrovli

xususiyatga ega bo'lib, insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ekologik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Mudofaa funksiyasi. Davlatning mamlakatni tashqi hujumdan mudofaa qilish funksiyasi davlat faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakat ozodligi va erkinligi, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tashqi agressorlardan himoya qilish zarurati davlat va jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida mavjud bo'lganini tarix tasdiqlaydi.

Davlat funksiyalarining Konstitutsiya va amaldagi qonunchilik bilan bog'laydigan bo'lsak, Asosiy Qomusimizning 17-moddasida davlatning tashqi funksiyasi asosiy prinsiplari o'z aksini topgan. Davlatning tashqi funksiyasi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi (22.12.1995 y.), yangi tahrirdagi "Mudofaa to'g'risida"gi (11.05.2001 y.), yangi tahrirdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi (26.05.2000 y.), "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi (26.12.1996 y.) qonunlarida ham o'z aksini topgan. Ushbu qonun hujjatlarida davlatning tashqi funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq asosiy holatlar, davlat funksiyalarini amalga oshirish tartibi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Davlatning ekologik funksiyasi esa, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlarida o'z aksini topgan.

Davlatning funksiyalariga misol keltiradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik sohasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan muassasalar (YuNESKO), BMTning atrof muhit bo'yicha dasturi (YuNEP) va boshqa tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishini qayd etib o'tishimiz mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2011-yil yanvarda Yevropa Ittifoqi komissiyasi Prezidenti J.M. Barrozo, NATO Bosh kotibi A.F. Rasmussen bilan Bryusselda uchrashib, O'zbekistonning ushbu xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilishdi.

Muxtasar aytganda, amaliyotda davlat funksiyasini uning nomidan turli hokimiyat tuzilmalari (qonun ijodkorligini – parlament; ijro etishni – hukumat va h.k.) amalga oshiradi va bunga kundalik hayotimizda har kun guvoh bo‘lamiz. Chunki, odiygina yo‘l harakati qoidasini buzgan haydovchining YPX xodimi tomonidan to‘xtatilib, ma‘muriy jarimaga tortilishi ham davlatning ichki funksiyasiga misol bo‘la oladi.

Ikkinchi misol

Huquqiy ong va madaniyat.

Huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo‘lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka va huquq-tartibotga nisbatan bo‘lgan g‘oyalar, his-tuyg‘ular, tasavvurlar yig‘indisidir.

Huquqiy ong ikki asosiy elementdan tashkil topgan: **huquqiy ruhiyat** (psixologiya) va **huquqiy mafkura** (ideologiya).

Huquqiy ruhiyat – alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg‘ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig‘indisidan iboratdir.

Huquqiy mafkura – bu sinfning, jamiyatning huquqiy qarashlari, g‘oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlash-tirilgan ifodasidir.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir.

“Huquqiy madaniyat” iborasi kelib chiqishi nuqtai nazardan “huquq” va “madaniyat” tushunchalaridan tashkil topgan bo‘lib, uning mazmuni huquq orqali aniqlanadi.

Huquqiy madaniyat ijtimoiy ong bilan bog‘liq voqelikdir. U hamisha jamiyat va shaxsning huquqiy ongi, huquqiy dunyoqarashi kabi subyektiv omillar ta‘sirida yuzaga keladi. Demak, jamiyatda yetakchilik qilayotgan g‘oya bilan huquqiy madaniyat o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi tabiiy holdir. O‘zbekiston Respublikasida yetakchilik qilayotgan milliy g‘oyaning huquqiy madaniyatga ta‘siri biz uchun ilmiy metodologik ahamiyatga ega masaladir.

“Keng falsafiy ma‘noda aytganda, – deb yozadi yuridik fanlar doktori, professor H. B. Boboyev, – odam o‘z erkini boshqa odam erkidan farqlagan, boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishgan va bu munosabatlarning ma‘lum bir yuridik qonunlarga

qurilishi zarurligini yoki qurilganini anglagan zahoti uning huquqiy madaniyati namoyon bo'ladi"⁴⁷.

Huquqning jamiyat va inson faoliyatidagi o'rni "huquqiy madaniyat" tushunchasining mohiyatini belgilaydi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda huquqiy madaniyatning mohiyati huquqning kelib chiqishi va xususiyatlari bilan bog'lab tadqiq etiladi.

Umumiy yo'nalish huquqiy madaniyatga jamiyat va ijtimoiy institutlar hayoti bilan, davlat va jamiyat oldida turgan vazifalar bilan chambarchas bog'liqlikda qarashni taqozo etadi. Xo'sh, O'zbekiston Respublikasi oldida turgan ushbu ijtimoiy vazifalar nimalardan iborat va ular huquqiy madaniyat oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?

*Birinchi*dan, jamiyatning bir huquqiy-madaniy qadriyatlardan boshqa huquqiy-madaniy qadriyatlarga o'tishi hech qachon oson bo'lmagani uchun ilg'or kuchlar, subyektlar taraqqiyotning yangi modellarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etadilar.

Huquqiy madaniyat milliy g'oya va mafkuradagi quyidagi yo'nalishlarni o'ziga ilmiy-metodologik vazifa qilib oladi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanish;
- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanish;
- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettirish;
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilish;
- jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish;
- millati, tili va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptirish;
- ushbu tuyg'ularni jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilmakilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda, ma'rifiy yo'l bilan singdirish.

Ya'ni, huquqiy madaniyat tizimiga: 1) yuridik normalar tizimi bo'lgan huquq; 2) huquqiy, ya'ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar; 3) huquqni muhofaza qilish va ta'minlash

⁴⁷ Boboyev H. B., Hamrayev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2001. - B. 178.

faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo'lgan yuridik muassasalar; 4) huquqiy ong, ya'ni huquqiy voqelikni ma'naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim; 5) huquqiy (ham qonuniy, ham qonunga xilof) xatti-harakatni kiritadilar.

Subyektlari nuqtai nazaridan, huquqiy madaniyat quyidagi turlarga bo'linadi: shaxs (fuqaro)ning huquqiy madaniyati; ijtimoiy guruhlarining (iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ijodiy, etnik, transmilliy, diniy va b.) huquqiy madaniyati; jamiyatning huquqiy madaniyati; davlat xizmatchilari va boshqaruv organlari xodimlarining huquqiy madaniyati; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy madaniyati; parlament deputatlarining huquqiy madaniyati.

Yoshlar huquqiy madaniyatning funksiyalarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin: adaptiv funksiya; ma'rifiy funksiya; tarbiyaviy funksiya; regulativ-normativ funksiya; integrativ funksiya; kommunikativ funksiyasi; ijtimoiylashuv funksiyasi; akseologik yoki huquqiy-madaniy qadriyatlar yaratish funksiyasi.

Adaptatsiya – (lotincha – “moslashish, muvofiqlashish”) insonning yon-atrofga, muhitga moslashuvini anglatadi. Inson qadimdan yo tabiiy olamga, yoki odamlar yaratgan ijtimoiy-sun'iy muhitga moslashib, yashab keladi.

Ma'rifiy funksiya fuqarolarning siyosiy-huquqiy hayot va bilimlarga oid ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Tarbiyalash – huquqiy madaniyatning yana bir funksiyasi. Uning barcha funksiyalari tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, u yoki bu darajada, ko'lamda tarbiyalash jarayoni bilan bog'langan.

Regulativ-normativ funksiya huquqiy va ijtimoiy normalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu funksiya odamlarni ularning faoliyatida belgilangan qoidalarga ijtimoiy intilish va orzulari, ehtiyojlari va manfaatlarining, huquqiy munosabatlarda o'zaro huquq va majburiyatlarning amalga oshirishini ta'minlaydi, bu munosabatlarni yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Integrativ funksiya huquqiy madaniyatdagi milliy va umuminsoniy, tarixiy-an'anaviy va zamonaviy, hududiy va mintaqaviy belgilarni uyg'unlashtirib, birlashtirib kelganida aks etadi.

Kommunikativ funksiya huquqiy madaniyatning subyekt bilan obyekt, zamonaviy huquqning – an'anaviy huquq, milliy huquqning esa xalqaro huquq bilan muloqotini, og'zaki, yozma, kompyuter texnologiyasi orqali aloqalarini ifoda etadi.

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyat yaratgan bilim va normalarni o'rganishi hamda xulq-atvorni o'zlashtirishi orqali ijtimoiy munosabatlarda qatnashishidir.

Mamlakatimizda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish masalasi bir qator qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni, 2001-yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2005-yil 23-iyundagi "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi 107-sonli Qarori, 2006-yil 7-iyuldagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 404-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 13-iyundagi "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to'g'risida"gi Qarori shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi "Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi haqida"gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bo'yicha komissiyasining 2002-yil 8-noyabrdagi majlisida tasdiqlangan "Sud-huquq islohotlarini yanada chuqurlashtirish Konsepsiyasi"ning tegishli bandlari ham ushbu masalaga qaratilgan.

Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish bo'yicha mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligini e'tirof etish lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir. Shu munosabat bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi"⁴⁸.

Shunday ekan, mamlakatimizda demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyotganligini e'tirof etish zarur. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi asosida joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarida, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida Konstitutsiyani o'qitish kurslari tashkil qilindi va bu huquqiy ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Uchinchi misol

Fuqarolik jamiyati.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdek strategik maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu

⁴⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.27.

demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir"⁴⁹.

So'nggi yillarda MDHdagi bir qator huquqshunos olimlarda fuqarolik jamiyatini barpo etish muammosi katta qiziqish uyg'otmoqda. Ular qatorida Ye.V. Agranovskaya, S.S. Alekseyev, M.Ch. Bayxanov, V.M. Baranov, Ye.J. Beyshimbiyev, A.B. Vengerov, A.S. Ibrayeva, A.A. Matyuxin, V.S. Nersesyans, V.N. Kudryavsev, D.A. Kazimirchuk, D.A. Kerimov, N.I. Matuzov, V.V. Oksamitniy, A.Sh. Shershanaliyev va boshqalarni keltirish mumkin.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish jamiyatning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini, rivojlangan demokratik va demokratiyaga o'tish holatida bo'lgan davlatlarning tajribalarini o'rganishni taqozo qildi hamda o'z navbatida qator o'zbekistonlik huquqshunos olimlarning diqqatini jalb etdi.

Jumladan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nazariy-huquqiy asoslari A.A. Azizxo'jayev, X.B. Boboyev, Z.M. Islomov, G.A. Matkarimova, X.T. Odilqoriyev, F.X. Rahimov, A.X. Saidov, N. Saburov, U. Tadjixanov, R. Turdiboyeva, Z.S. Zaripov, X.A. Zakirov, Sh. O'razayev, S.A. Xodjayeva, O.T. Xusanov, M. Sharifxo'jayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁵⁰.

Fuqarolik jamiyati ijtimoiy taraqqiyotning asrlar sinovlaridan o'tgan bugungi madaniy (sivilizatsiyalashgan) shakli sifatida tan olingan.

Qadimgi tabiiy va odat huquqlariga asoslangan "qabilaviy demokratizm" an'analariidan tortib ko'hna Bobilning "Xammurapi qonunlari"yu ""Avesto"" qoidalari hamda ularga asoslangan zardushtiylik ta'limotigacha va Qur'oni Karimda ifodalangan siyosiy-huquqiy g'oyalarda fuqarolik jamiyatining ibtidoiy ko'rinishlari haqida ilk ma'lumotlar beriladi.

⁴⁹ Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003. – B. 120.

⁵⁰ Azizxo'jayev A. A. Davlatchilik va ma'naviyat. – T.: Adolat, 1997; –112 b; Odilqoriyev H. T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002; Saidov A. O'zbekistonda adolatli demokratik huquqiy davlat arqonining bosh asosiy tamoyili, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. – T.: Adolat, 1995; Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Sharq, 2001; O'razayev Sh. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 1995; Husanov O. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari. – T.: Adolat, 1996. – 181 b.

Insoniyatning Zardusht, Arastu, Aflotun, Konfutsiy singari mutafakkirlari, shuningdek, Sharqning Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa buyuk allomalari qoldirgan siyosiy-falsafiy ta'limotlarda fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bog'liq qator siyosiy-huquqiy, nazariy g'oyalar ifodasini topgan.

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasini ilk bor nemis mutafakkiri G.F. Gegel izohlab bergan va fuqarolik jamiyatining uch qonuniy asosi (iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asosi) haqida ta'limot yaratgan.

Fuqarolik jamiyati quyidagi muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi:

1) qonunchilik asosida shaxs va fuqaroning shaxsiy hayoti sohalarini davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asossiz qattiqqo'llik bilan tartibga solishidan himoya qiladi;

2) fuqarolik jamiyati tashkilotlari negizida jamiyatning o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini vujudga keltiradi va rivojlantiradi;

3) siyosiy hokimiyatning mutlaq hukmronlikka intilishiga monelik qiluvchi muhim va kuchli vositalarni yaratadi;

4) fuqarolik jamiyatining institut va tashkilotlari shaxsning huquq va manfaatlarini chinakamiga kafolatlaydi, barchaga davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishda teng imkoniyatlar beradi;

5) demokratik institutlar va fuqarolar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy aloqalar o'rnatib, ularning o'zaro munosabatlarini adolatli tartibga solish uchun imkoniyat yaratadi;

6) jamiyatdagi mehnatga layoqatsiz toifalar (nogironlar, keksalar, bemorlar va shu kabilar)ning kun kechirishi uchun zarur mablag' bilan ta'minlanishini tashkil etadi va hokazo.

Iqtisodiy asos – fuqarolik jamiyati barpo etishning hal qiluvchi shartidir. O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir.

"Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur, – deb yozadi ma'rifatparvar bobomiz A. Avloniy, – mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganida so'mni ayamas, saxovatning ziddi baxillik bo'lgani kabi, iqtisodning ziddi isrofidir. Oллоh taolo isrof qiluvchilarni suymas. Hozirgi zamonda maqsadga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmak, xalqqa maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila

o'lganur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosub xo'ja o'lganidek, faqirlari yengil kelub, qul va asir bo'lib, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakatli yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarchilikdur. Bularning har biriga ham bu zamona-mizda bilim lozimdur"⁵¹. Demak, bilim, iqtisodiy tafakkur va madaniyat millatni boy-badavlat qiladi, uni ortiqcha sarf-xarajatlardan asraydi, insonni zamonaviy texnologiya bilan qurollanishga, pirovard natijada ma'naviy barkamollikka yetaklaydi.

Fuqarolik jamiyatida xususiy mulk undan to'liq foydalanish, mulkka ega bo'lish huquqini va mulkni qonun bilan himoya qilish majburiyatini ko'zda tutadi.

Mulkdan to'liq foydalanish huquqi shaxsda, mulk egasida o'z faoliyati, mavjud resurslardan oqilona va tejab-tergab foydalanish ko'nikmasini talab etadi. Iqtisodiy madaniyatning bu ko'rinishi mulk egasidan xususiy mulkdan foydalanish huquqini – huquqiy madaniyatni ham talab qiladi. Demak, xususiy mulk va undan to'liq foydalanish huquqi huquqiy madaniyat bilan bog'liq voqelikdir. Agar shaxs o'z mulkidan qonun talablariga mos ravishda foydalanishni bilmasa, yo raqobatda inqirozga uchraydi, yo o'z ishini yo'lga qo'ya olmaydi.

Siyosiy-huquqiy asos – fuqarolik jamiyatining siyosiy madaniyatga taalluqli subyektiv (siyosiy-huquqiy ong, siyosiy-huquqiy dunyoqarash, siyosiy-huquqiy an'ana kabilar) va obyektiv (siyosiy partiyalar, fuqarolar uyushmalari, o'zini o'zi boshqarish organlari va h.k.) tomonlarni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunida ta'kidlanganidek, "siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir".

Fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan nodavlat jamoat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini muhofaza qilish uzoq yillarga mo'ljallangan strategik vazifadir. Nodavlat jamoat tashkilotlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari

⁵¹ Abdulla Ayloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 33.

to'g'risida"gi (1991- yil), "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi (1994-yil), "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi (1995-yil), "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yi-cha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi (1991- yil), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (1993 -yil; 1997 va 1999- yillarda qo'shimchalar kiritilib, yangi tahriri 1999 -yilda qabul qilingan) qonunlari fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligiga institutsional mazmun berish va ularni ijtimoiy hayotda muhim mavqega ega bo'lgan kuchga, davlat ishlariga o'z ta'sirini ko'rsata oladigan harakatga aylantirishni nazarda tutadi.

Ma'naviy asos – eng avvalo, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasining ifodasidir. Komil inson g'oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Ijtimoiy asos – fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy soha munosabatlari (shaxs va oila, shaxs va mahalla, shaxs va diniy tashkilotlar kabilar), fuqarolarning qonun oldida tengligi, ijtimoiy himoyaning davlat muassasalari tasarrufida ekanligi bilan belgilanadi⁵².

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish istiqbollari davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida batafsil belgilab berildi. Uning 5-ustuvor yo'nalishi aynan fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan⁵³.

So'nggi yillarda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'ri-

⁵² Nasiriddinova O.T. Huquqiy madaniyat – fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil (yoshlar misolida): Yurid. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. – B. 12–42.

⁵³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. –Toshkent: O'zbekiston, 2010.– B. 41–47.

sida”gi, “Homiylilik to’g’risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori va boshqa qator hujjatlar fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qo‘shma qarori ham alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan Konsepsiyada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaldagi qonunchilikka bir qator tavsiyalar taklif etildi:

birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining yanada rivojlanishiga erishish amalga oshirilayotgan islohotlarimizning ochiq, oshkorligi va samaradorligini ta‘minlashda, ularning rolini kuchaytirishda “Ijtimoiy sheriklik to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy-iqgisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolaoni hal etish. Mamlakatimizning davlat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish kabi masalalar bo‘yicha huquqiy normalar ko‘zda tutilishi darkor;

ikkinchidan, bu vazifani hal qilishda “**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to’g’risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirishga jiddiy e‘tibor qaratish lozim;

uchinchidan, shu bilan birga “**Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to’g’risida**”-gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha oqsoqollar va ularning maslahatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini, fuqarolar ijtimoiy

faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi;

to'rtinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan **"O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"**gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va subyektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan Qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozim;

oltinchidan, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tazimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rnini belgilashga qaratilgan **"Ekologik nazorat to'g'risida"**gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi.

Fuqarolik jamiyati qurish borasida mamlakatimizda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilganligini faxr bilan e'tirof etishimiz mumkin. Bu haqda Yurtboshimiz tomonidan taklif etilgan **"Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"**da erishilgan yutuqlarimiz aniq-ravshan bayon etib berilgan. Unda qayd etilishicha, O'zbekistonimiz bosib o'tgan keyingi o'n yillik davr aholimizning keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan

turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi va rivojlanishi davri bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000-yilga qaraganda 2,5 barobar ko'pdir. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniylar" jamg'armalari, "Ijod" fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

XULOSA

Ushbu o'quv qo'llanma davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun o'z bilimi va mahoratini oshirish uchun dasturilamal bo'lib, unda o'quvchi egallashi lozim bo'lgan asosiy va zaruriy bilimlar aks ettirilgan. Mazkur o'quv qo'llanma davlat va huquq asoslari fanidan olimpiadalarda ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlarni huquqshunoslik yo'nalishidagi bilimlarini oshirish, ular e'tibor qaratmagan ayrim jihatlarni qamrab olish, fan olimpiadasiga chuqur va puxta tayyorgarlik ko'rishlari uchun zamin hozirlaydi.

Davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma uning yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan malakali huquqshunos olimlar bilan bevosita muloqot natijasida olingan bilim va tajribaning mahsulidir. Unda huquqshunoslikdagi so'nggi yangiliklar, huquqshunos olimlarning qarashlari, yangi adabiyotlardan unumli foydalanilgan, shuningdek, o'quvchiga qulay bo'lishi uchun asosiy huquqiy atamalarning izohli lug'ati (glossariy) keltirilgan. Fan olimpiadasi ishtirokchilari o'z bilimlarini sinab ko'rishlari uchun test savollari tayyorlangan bo'lib, ayrim zaruriy hujjatlar bevosita tanishib chiqish uchun ilova qilingan.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu kitob ma'lumotlari uning mualliflaridan biriga davlat va huquq asoslari fanidan olimpiadada g'oliblikni qo'lga kiritishga yaqindan yordam bergan bo'lib, endilikda biz mazkur bilimlarni O'zbekiston yoshlari o'rtasida ommalashtirishni maqsad qildik.

Muxtasar aytganda, mazkur o'quv qo'llanma yoshlarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirishga hamda davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari orasidan chuqur bilimli va iqtidorli yoshlarni kashf etishga imkon beradi, degan umiddamiz.

GLOSSARIY

Agressiya – (lot. “agressio” – “bosib olmoq”, “bosqinchilik”) xalqaro huquqda BMT Ustavini buzgan holda harbiy kuchlarning ishlatilishi. Jinoyat huquqida esa, agressiya atrofdagi shaxslarga jismoniy zarar yoki ruhiy shikast yetkazuvchi harakatlardir.

Advokat – (lot. “advocatus”, “advocare” – “yordamga chiqirish”) – huquqiy maslahatlar, tushuntirishlar berish, tergov va sudning barcha bosqichlarida, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarda, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi va boshqa vositalar orqali malakali huquqiy yordam ko'rsatuvchi alohida maqomga ega bo'lgan yurist.

Aksept – oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi. Aksept to'liq va pisandasiz bo'lishi kerak. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo'yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo'lmaydi (FKning 370-moddasi).

Aksiyadorlar jamiyati – ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlar jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlar jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Aksiyadorlar jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak. Aksiyadorlar jamiyatining huquqiy mavqei hamda aksiyadorlarning huquq va burchlari ushbu Kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi (FKning 64-moddasi).

Alibi – (lot. “alibi” – “muayyan joyda bo'lmaganlik”) – jinoyat sodir bo'lgan vaqtda shaxsning u yerda bo'lmaganligini isbotlovchi dalil. Alibi boshqa dalillar va taxminlar kabi, albatta, tekshirilishi shart. Alibi tasdiqlansa, gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs jinoyatda ishtirok-etmagan hisoblanadi. Lekin jinoyatga dalolatchilik, yordamchilik qilgan shaxsga nisbatan bu qoida qo'llanilmaydi, chunki u jinoyatni bevosita o'zi ijro etmaydi.

Aliment miqdori – agar voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish haqida ota-ona o’rtasida kelishuv bo’lmasa, ularning ta’minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to’rt dan bir qismi, ikki bola uchun – uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to’lovlarining miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e’tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko’paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo’lmasligi kerak (OKning 99-moddasi).

Amparo (proceso amparo) – (isp. “himoya”) Lotin Amerikasi mamlakatlarida amal qiluvchi Xabeas korpus institutiga o’xshash institut. Bu holatda sudga darhol yuborishni talab qilish nafaqat ushlangan, balki boshqa shaxslarga, shuningdek, voyaga yetmaganlarga ham kafolatlanadi. Boz ustiga, amparo nafaqat ushlab turishga taalluqlidir, balki, boshqa shaxsiy huquqlarning ham kafilidir.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlari – mehnat qonunchiligida jami 9 ta bayram kuni belgilangan: 1 yanvar – Yangi yil; 8-mart – Xotin-qizlar kuni; 21-mart – Navro’z bayrami; 9-may – Xotira va qadrlash kuni; 1-sentabr – Mustaqillik kuni; 1-oktabr – O’qituvchi va murabbiylar kuni; 8-dekabr – Konstitutsiya kuni; Ro’za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni; Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni (MKning 131-moddasi).

Bayram kuni – bu mamlakat hayoti uchun, uning tarixi uchun yoki xalqi uchun muhim ahamiyatga molik voqea – hodisaga bag’ishlab belgilangan tartibda e’lon qilingan kalendar sanadir. Mehnat kodeksining 131-moddasida quyidagi kunlar bayram (ishlanmaydigan) kunlaridir: 1-yanvar – Yangi yil; 8-mart – Xotin-qizlar kuni; 21-mart – Navro’z bayrami; 9-may – Xotira va qadrlash kuni; 1-sentabr – Mustaqillik kuni; 1-oktabr – O’qituvchi va murabbiylar kuni; 8-dekabr – Konstitutsiya kuni; Ro’za hayiti (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni; Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni.

Birodarlik ruhi – insonlarning o’zaro munosabatida odamgarchilik, mehru muhabbat, do’stlik, birodarlik, ahillik asosida yashashi va faoliyat ko’rsatishi. Birodarlik g’oyasi muayyan hududda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning hamjihat turmush kechirishlarini ko’zda tutadi.

Bitimlar – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari (FKning 101-moddasi).

Boshqaruv shakli – huquqiy institut bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va mahalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o'zaro munosabatlari tartibini o'z ichiga oladi. Boshqaruv shakllari hokimiyat bir shaxs tomonidan yoki saylab qo'yiladigan jamoaviy organ tomonidan amalga oshirilishiga qarab jiddiy farq qiladi. Birinchi holda boshqaruvning monarxik shakli, ikkinchi holda esa, respublika shakli namoyon bo'ladi. Monarxik boshqaruv shaklida, amaldagi qonunlarga muvofiq, monarx, respublika boshqaruv shaklida esa, saylab qo'yiladigan davlat organi davlat hokimiyatini boshqaradi. Monarxiyalar va respublikalarning har xil turlari mavjud. Ular davlatlarning tiplariga, shuningdek, ularning yuzaga kelishi va faoliyat ko'rsatishi shart-sharoitiga ko'p jihatdan bog'liq. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi bosqichida monarxiyaning ikki turi: dualistik va parlamentar monarxiyalar farqlanadi. Dualistik monarxiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iborat-ki, unda davlat hokimiyati monarx bilan parlament o'rtasida rasmiy – yuridik tarzda taqsimlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat bevosita monarx qo'lida, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa – parlament ixtiyorida bo'ladi. Ammo parlament amalda monarxga bo'ysunadi. Parlamentar monarxiya shu bilan farq qiladiki, monarxning maqomi davlat hokimiyatini amalga oshirishning barcha sohalarida rasman va amalda cheklab qo'yiladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat to'la parlamentga, ijro etuvchi hokimiyat esa – hukumatga tegishli bo'ladi. Hukumat o'z faoliyati uchun parlament oldida javobgar bo'ladi. Hukumatni shakllantirishda monarxning ishtiroki ramziydir. Angliya, Gollandiya va Shvetsiya parlamentar monarxiyaga misol bo'ladi. Hozirda respublikalarning ikki turi: hukumat va davlat boshlig'i vakolatlari prezident qo'lida jamlanadigan prezident respublikasi hamda parlament respublikasi farqlanadi. Parlament respublikasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda prezident hokimiyati nisbatan kuchsiz bo'ladi, bosh vazir esa, bir vaqtning o'zida ham hukumat boshlig'i, ham hukmron partiya yoki partiyalar ittifoqining rahbari vazifalarini bajaradi. Prezident respublikalariga Argentina, Braziliya, Rossiya, AQSh, O'zbekiston va b., parlament respublikalariga esa – Gretsiya, Germaniya va b.

kiradi. O'zbekistonda Prezident respublikasi Prezident hokimiyatining kuchliligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, Prezident davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi, mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun Bosh vazir nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi, qonunlarni imzolaydi va e'lon qiladi, farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi va h.k.

Burch – fuqarolik huquqi subyektlari zimmasiga qonun hujjatlari, shartnoma, ish muomalasi odatlari bo'yicha yuklangan majburiyat. Burchning mazmuni subyekt tomonidan ma'lum xatti-harakatlar sodir etish (masalan, pul to'lash, ashyoni topshirish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish) yoki ma'lum qat'iy harakatlarni sodir etishdan tiyilib turish (masalan, shartnoma bo'yicha yoki boshqa qonuniy asoslarda o'ziga ma'lum bo'lgan boshqa subyektlarning tijorat sirini boshqalarga oshkor qilmaslik, sir saqlash)dan iborat. Burch – bu har bir shaxsning o'z vazifalarini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishidir, yoki boshqacha aytganda, burch – bu ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifadir.

Votum (lot. votum — xohish, iroda) — saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko'pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov Votumi — prezident, parlament, munitsipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kompaniyasining natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida Votum — qoidaga ko'ra, quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo'li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma'qullashi (**ishonch Votumi**) yoki ma'qullamasligidir (**ishonchsizlik Votumi**). Iшонch Votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbuskori hukumatning

o'zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo'lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste'fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatdan oldin saylovlar o'tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po'pisa qilish va shu orqali noma'qul qonun loyihalarini parlamentdan o'tkazish imkonini beradi. **Ko'plik (plyural) Votum** – ayrim mamlakatlarda bunday Votumga ko'ra saylovchilarning ayrim toifasi saylovda ikki yoki undan ortiq ovozga ega bo'ladi. **Bilvosita (eventual) Votum** – mutanosib saylovlar tizimida ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi, unga ko'ra ma'lum nomzodga berilgan va saylov kvotasidan ortiqcha bo'lgan ovozlar shu partiya ro'yxatidagi boshqa nomzod hisobiga o'tkaziladi. **Majburiy Votum** ayrim mamlakatlarda barcha yuridik salohiyatli fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ishtirok etish bo'yicha yuridik majburiyati, bu tartibni buzganlarga jarima solinishi mumkin.

Vazir (arabcha. yuk ko'taruvchi) – o'rta asrlarda O'rta va Yaqin Sharq davlatlarida, shu jumladan O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i. Yuqori mansabdor shaxs. Vazir hukumat a'zosi hamda ma'lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxsdir

Vazirlar Mahkamasi – Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston

Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o'z faoliyatini oshkoralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi. Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar. Vazirlar Mahkamasining tarkibini tuzish borasida mamlakat Prezidentiga juda katta vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-, 93-, 98-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. 2003-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonunni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan belgilab qo'yildi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari — butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi. Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari Vazirlar Mahkamasining qarorlari shaklida qabul qilinadi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanaadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasi o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plamida e'lon qilinadi, keng

ommaga darhol yetkazish zarur bo'lgan taqdirda esa, ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari – Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlik – ko'pchilik davlatlarda davlatning markaziy idora organi, sotsial-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyatning ayrim tarmoqlarini boshqaradi. Yangi vazirliklar tuzish, mavjudlarini tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash O'zbekistonda Prezident vakolatiga kiradi va davlatning oliy vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

Vakillik – ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi (FKning 129-moddasi).

Vakolatxona va filial – vakolatxona yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo'linmasi; filial yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan, vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir. Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi (FKning 47-moddasi).

Vaqtincha ushlab turish izolyatorlari – jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi qo'lga olingan shaxslarni ushlab turish uchun mo'ljallangan joy. Qonunda nazarda tutilgan hollarda vaqtincha ushlab turish izolyatorlarida ayblanuvchi va gumon qilinuvchilar ular sodir etish lari mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardan saqlanish va ularning oldini olish uchun chora sifatida qamoqqa olinishlari mumkin. Vaqtincha ushlab turish

izolyatorlari ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligi militsiya bo'limlari hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi smetasi bo'yicha davlat budjeti hisobidan moliyaviy ta'minlanadi.

Vasiylik – 14 yoshga to'lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga belgilanadi.

Veto (lot. "veto" taqiqlayman) – hozirgi zamon davlatlarida qandaydir bir organning qarorini to'xtatib qo'yadigan yoki kuchga kirishga yo'l qo'ymaydigan harakat. Davlat boshlig'iga parlament qabul qilgan qonunlarga Veto qo'yish (qarorlarni taqiqlash) huquqining berilishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Vetoning **mutlaq** (yoki **rezolyutiv**), bunda davlat boshlig'i parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil qaytarish huquqiga ega bo'ladi va **nisbatan** (**kechiktiradigan** yoki **suspensiv**) turlari farqlanadi, bunda davlat boshlig'ining qonunni tasdiqlashni rad etishi uning kuchga kirishini to'xtatadi xolos, chunki parlamentga bu qonunni ikkinchi marta ovoz berish bilan qabul qilish huquqini beradi. Bunda qonun loyihasini ikkinchi (yakuniy) ovoz berish bilan qabul qilishda qator parlamentlarda ovozlarning alohida ko'pchiligi (masalan, AQSh va RFda har bir palataning 2/3 ovozi) talab qilinadi. Shuningdek, umumiy va qisman (tanlov) Vetolari ham bor. Umumiy Veto faqat hujjatning hammasi butunlay rad etilishini, ikkinchisi esa, biror hujjatning alohida qismi yoki moddasi rad etilganligini anglatadi.

Vijdon erkinligi – har bir inson o'zi xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi va dinga nisbatan betaraf bo'lishi, shuningdek, dinga qarshi bo'lishi bilan ifodalanadi. Vijdon erkinligi insonning dinga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi va vijdon erkinligini huquqiy jihatdan kafolatlanishi, albatta, inson va fuqarolarga katta imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston Respublikasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi hamda diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (3-modda)ga binoan vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Vitse-prezident – boshqaruvning respublika shaklidagi ayrim mamlakatlarida (AQSh, Braziliya, Hindiston, Qozog'iston va boshqalar) prezidentning doimiy o'rinbosari. Vitse-prezident qoidaga ko'ra prezident bilan bir xil muddatga va o'sha usulda saylanadi. Vitse-prezident nomzodiga qo'yiladigan talab, odatda prezident nomzodiga qo'yiladigan talab bilan bir xil bo'ladi. Qator davlatlar (AQSh, Hindiston, Argentina) konstitutsiyasiga muvofiq vitse-prezident lavozimi bo'yicha parlament yuqori palatasining raisi hisoblanadi. Qator holatlar (prezidentning vafoti, iste'foga chiqishi, chetlatilishi, kasal bo'lishi, yo'q bo'lishi) sodir bo'lganda vitse-prezident o'z-o'zidan prezident lavozimini egallaydi (masalan, AQSh, Argentina) yoki faqat shu holatlar amalda bo'lgan vaqtda uning vazifasini bajarib turadi.

Voyaga yetmaganlar mehnati – MKning XIV bobi ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan qo'shimcha kafolat va imtiyozlarga bag'ishlangan bo'lib, uning 2-§ yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar (239–247-moddalar) deb nomlanadi. Voyaga yetmaganlar mehnati ushbu qoidalar asosida tartibga solinadi. Unga binoan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan mehnat sharoiti noqulay ishlarda, yer osti ishlarida va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun esa, haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga kamida o'ttiz kalendar kundan iborat yillik ta'til beriladi va ular bu ta'tildan yoz vaqtida yoki yilning o'zlari uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtida foydalanishlari mumkin. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

G'ayriinsoniy muomala yoki jazo – intensivlik nuqtai nazaridan qiynoq paytida yetkazilgan azobga nisbatan zaif bo'lgan kuchli jismoniy yoxud ruhiy azob berish. Shafqatsiz yoki g'ayriinsoniy muomala turlari jabrlanuvchining uzluksiz vaqt mobaynida yomon sanitariya sharoitida bo'lishi va unga tibbiy yordam zarur bo'lgan sharoitda tibbiy yordamsiz qolishi, uzoq

vaqt mobaynida oziq-ovqat, suv va boshqalardan mahrum etish orqali jiddiy ma'naviy azob berishdan iborat bo'lishi mumkin.

Garov tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda, kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha o'z talabi garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga, qonunda belgilab qo'yilgan chegirishlardan keyin, haqli bo'ladi. Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin. Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi. Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi (FKning 264-moddasi).

Grant – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk (SKning 22-moddasi).

Gumon qilinuvchi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 47-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, tergovchi yoki prokurorning qarori asosida gumon qilinuvchi sifatida tan olingan jismoniy shaxs.

Davlat apparati – davlat organlari tizimi bo'lib, ular faoliyati orqali davlat hokimiyati va uning funksiyalari amalga oshiriladi. D.a. yaxlit davlat mexanizmining tarikibiy qismi hisoblanadi. D.a.ining faoliyati mazmuni, uning faoliyatini tashkil etishning prinsiplari, xodimlar tarkibi, ish yuritish shakli va uslublari davlatning tegishli funksiyalarini maromida amalga oshirish ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Davlat boshqaruvi – davlat organlarini tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo'lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta'minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo'ladi. Davlat boshqaruvi xalq deputatlari kengashining rahbarligi va nazorati ostida tashkil etiladi. Bu faoliyat ijtimoiy turmushning barcha tarmoqlari – xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy sohalar va sohalararo tashkil etiladi hamda hamma vaqt qonunga asoslangan bo'ladi.

Davlat boshqaruvi usullari – davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi tushuniladi. Ular boshqaruv faoliyatining sifat tomonini belgilab beradi. Shuning uchun ham boshqaruv sifatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan boshqaruv usullarini takomillashtirishga bog'liqdir. Davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida hamda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Keng tarqalgani ma'muriy usullari bo'lib, ular ishontirish va majburlash usullaridir.

Davlat boshlig'i – inglizcha “head of the state” – oliy davlat lavozimi bo'lib, u ijro hokimiyati sohibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda – Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiyada – **d.b.** monarx (korol, imperator, emir) bo'lib, uning hokimiyati qoidaga ko'ra hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o'tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Fransiya, GFR, AQSh, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) **d.b.** prezident bo'lib, u bevosita aholi tomonidan saylanadi (Meksika, Panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSh, Argentina) yoxud ko'p bosqichli saylovlar (Italiya, GFR, Hindiston) natijasida saylanadi. Ko'pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi. (AQSh, Meksika, Argentina. Afrikaning ayrim davlatlarida).

Davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etish huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda saylov va referendumlarda bevosita qatnashishlari va o'z ovozlari berishlari. Xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning usullari bir necha xil bo'lib,

siyosiy va boshqa masalalar bo'yicha xalqning fikrini xalq so'rovlari asosida bilish va o'rganish xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning bir ko'rinishidir.

Davlat qo'mitalari – (O'zRda) umumdavlat vazifalarini bajaradigan sohalararo davlat boshqaruvi markaziy idoralari. **D.q.** tegishli tarmoq muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. **D.q.** tegishli tarmoqdagi ahvol uchun mas'ul hisoblanadi. «O'zR Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonun (1993-yil 6-may) va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari **D.q.**ning huquqiy holatini belgilab bergan.

Davlat nazorati – davlat organlari chiqaradigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatda nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to'plangan, ammo keyingi o'n yillikda ko'pgina mamlakatlarda parlamentdan tashqari, biroq parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instansiyalari keng tarqaldi (masalan, ombudsman, hisob palatasi), ma'muriy yustitsiya organlarining soni va roli o'sdi. Barcha davlatlarda moliya vazirligi keng nazorat huquqiga ega. Hozirgi kunda har bir mamlakatlarda o'z Davlat nazorati tizimi shakllangan. Masalan, AQShda Davlat nazoratini Prezident ijro etuvchi apparatiga kiruvchi organlar, AQSh kongressining qo'mita va komissiyalari amalga oshiradi, konstitutsiyaviy nazorat AQSh Oliy sudi zimmasiga yuklangan, nazoratchi boshchilik qiluvchi hisobdorlik bosh boshqarmasi moliyaviy nazoratning maxsus idoralararo nazorat vazifasi ko'pgina tarmoqli idoralar: MRB, FTB, Mudofaa vazirligi va boshqalar zimmasiga yuklangan.

Davlat organi – davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, u davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarning muayyan aniq bir qismini, yo'nalishini amalga oshiradi va shu maqsadda tegishli davlat-huquqiy vakolatlarga, zaruriy kompetensiyaga ega bo'ladi. **D.o.** bitta mansabdor shaxsdan yoki muayyan yo'sinda tashkillashgan mansabdor shaxslar guruhidan iborat bo'lishi mumkin.

Davlat xizmati – bu fuqarolarning xalq manfaatlarini ko'zlab, davlat mansabi vazifalarini bajarish orqali davlat funksiyasi va maqsadlarini amalga oshirishdagi amaliy ishtiroki. Davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlari holati qonun bilan

belgilanadi va ularning huquqiy maqomi kafolatlanadi. Ularning hokimiyat vakolatlaridan foydalanish ko'lamini va tartibi qonunlarda belgilanadi hamda mansab yo'riqnomalari va ko'rsatmalarida aniqlashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining turli me'yoriy hujjatlari bilan davlat xizmatiga qabul qilishning, sinov muddatini o'tashning tartibi, davlat xizmati sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari, xizmatchilarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi, davlat lavozimlarini egallash va boshqalar belgilab berilgandir. Davlat xizmatini o'tash tartibi asosan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat kodekslari hamda davlat organlarining Nizom va Ustavlari bilan tartibga solinadi.

Dam olish vaqti – xodim mehnat vazifalarini bajarishdan holi bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir (MKning 126-moddasi).

Da'vo muddati tushunchasi – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Umumiy da'vo muddati – uch yil. (FKning 149–150-moddalari).

Deportatsiya (lot. “deportatio” – “haydash, surgun qilish”) – huquq fanida “deportatsiya” atamasi orqali XVIII–XIX asrlarda Fransiya jinoyat qonunlari bo'yicha qo'llanilgan surgunlarning alohida turi ifodalangan. Birinchi bor ishonchsiz kishilarni Gvianaga deportatsiya qilish 1791-yilda chiqarilgan “Gumon qilinganlar to'g'risida”gi Qonun bilan belgilangan. Deportatsiya, jumladan, umrbod deportatsiya, Fransiyaning 1813-yilgi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan. Qit'a hududidan tashqariga, shuningdek, Nu oroliga deportatsiya qilish markaziy lageri va Dyuko (Yangi Kaledoniya) yarim oroliga deportatsiya qilish uchun mustahkamlangan joylar (qal'alar) yaratishni nazarda tutuvchi 1872-yil 23-mart qonunida belgilangan. Deportatsiya maxsus joylarga surgun qilish va bir umr u yerda qolib ketishni anglatadi. Deportatsiyadan nafaqat og'ir retsidivist jinoyatchilarni jazolash uchun, balki tarixda inqilobchilarni jazolash uchun ham keng qo'llanilgan.

Deputat (lot. deputatus – vakil) — qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organiga saylangan shaxs, aholining ma'lum qismi – o'z saylov organi (sotsialistik mamlakatlarda) saylovchilarning yoki butun

millatning (demokratiya davlatlarida) vakili. Deputat muvofiq keluvchi vakillik organida professional asosda (ko'pchilik demokratiya davlatlarida) yoki noprofessional asosda, ya'ni asosiy faoliyatini to'xtatmay (sotsialistik mamlakatlarda) ishlaydi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) saylangan va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi.

Deputat (parlament) etikasi (gr. Yethika, yethoc – odat, xulq so'zidan) — deputatlar ichki parlament muloqoti axloqiy va ma'naviy normalari yig'indisi. Deputat etikasiga rioya qilish majburiyati har bir deputatning faqat axloqiy emas, balki yuridik majburiyati ham bo'lib, ham ijtimoiy, ham ijtimoiy ta'sir vositalari bilan ta'minlanadi. Bunday vositalarni qo'llash uchun parlamentlarda odatda Deputat etikasi bo'yicha komissiyalar tuziladi. Deputat etikasini buzganlik uchun aniq javobgarlik qoidaga ko'ra parlament yoki uning palatasi reglamentida belgilanadi.

Deputat maqomi — vakillik davlat hokimiyati organlari deputatlarining huquqiy holati bo'lib, u deputatlik mandatining siyosiy-huquqiy tabiati, uning yuzaga kelishi, to'xtatilishi, amalda bo'lish muddati, deputatlar vakolati, ular faoliyatining kafolatlanganligi, shuningdek, deputatlarning hisobdorligi, nazorat qilinishi va javobgarligi bilan bog'langan ijtimoiy munosabatlarni boshqaradigan huquqiy normalar majmui bilan aniqlanadi. Deputat maqomini mustahkamlovchi huquqiy normalar konstitutsiyalarda, maxsus qonunlar, palatalar reglamentlarida beriladi. 2004-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida" va "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Deputatning rasmiy (so'rovi) talabi — vakillik muassasasi deputatining davlat boshqaruv organiga yoki mansabdor shaxsga mazkur vakillik muassasasi vakolatiga kiradigan masala bo'yicha axborot va tushuntirishlar berish talabi bilan murojaati.

Vakillik organining o'ziga hisobot beruvchi organlar faoliyatini nazorat qilish shakllaridan biri. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra Oliy Majlis palatalari a'zolari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga haqli.

Dividendlar – aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissali bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydani va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydani bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari (SKning 22-moddasi).

Yopiq aksiyadorlar jamiyati – aksiyalari faqat o'zining muassislari orasida yoki oldindan belgilab qo'yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan aksiyadorlar jamiyati. Bunday jamiyat o'zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli emas. Yopiq aksiyadorlar jamiyati ishtirokchilarining soni qonun bilan belgilab qo'yilgan miqdordan oshmasligi kerak. Bu son belgilangan miqdordan oshib ketgan holda u bir yil ichida ochiq aksiyadorlar jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tamom bo'lganidan keyin esa, agar aksiyadorlar soni belgilangan darajagacha kamaymasa, sud tartibida tugatilishi lozim. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yopiq aksiyadorlar jamiyati ushbu Kodeks 65-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan hujjatlarni barchaning tanishib chiqishi uchun e'lon qilishi shart. (FKning 66-moddasi).

Jabrlanuvchi — jinoyat oqibatida yoxud aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rgan shaxs. Jabrlanuvchi — jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rgan va bu haqda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa, ajrim chiqargan shaxs.

Jazo — jinoyat qonunchiligiga asosan, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasi.

Jazo turlari — a) jarima, b) muayyan huquqdan mahrum qilish, v) axloq tuzatish ishlari, g) xizmat bo'yicha cheklash, d) qamoq, ye) intizomiy qismga jo'natish, j) ozodlikdan mahrum qilish, z) o'lim jazosi. Quyidagilar asosiy j. turlari sifatida qo'llaniladi: a) jarima, b) muayyan huquqdan mahrum qilish, v) axloq tuzatish ishlari, g) xizmat bo'yicha cheklash, d) qamoq, ye) intizomiy qismga jo'natish, j) ozodlikdan mahrum qilish, z) o'lim j.si. Xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish j.lari faqat harbiy xizmatchilarga qo'llaniladi. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish faqat qo'shimcha jazo sifatida, muayyan huquqdan mahrum qilish esa ham asosiy jazo sifatida, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin. Jinoiy jazo chorasi faqat sud tomonidan tayinlanishi mumkin. Jazo tayinlash uchun jinoiy qilmishning sodir etilganligi asos bo'ladi va boshqa har qanday qilmish jinoiy javobgarlik uchun asos bo'la olmaydi. Jazo faqat jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan tayinlanadi; Maxsus huquq va erkinlikdan mahrum qilish faqat jinoyat qonunida ko'rsatilgan bo'lsa, qo'llanilishi mumkin.

Jazolovchi sanksiya — bu choralar “jazolovchi” xarakterda bo'lib, ular yordamida huquqbuzarni jazolash, tarbiyalash va o'zgartirish amalga oshiriladi (jinoiy-huquqiy choralar, ma'muriy va intizomiy choralar).

Jazoni ijro etish koloniyalari — (lotincha “colonia” — “manzilgoh”) O'zbekiston Respublikasida jazoni ijro etuvchi muassasa turlaridan biri. Jazoni ijro etish koloniyalari JIKga muvofiq voyaga yetgan sudlanganlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashlari uchun mo'ljallangan. Ular manzil-koloniyalarga, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi. Manzil-

koloniyalar quyidagilarga bo'linadi: ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalar; umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek, tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar. Umumiy tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi: qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan koloniyalar; og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan koloniyalar; ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar saqlanadigan koloniyalar (JIKning 48-moddasida ko'rsatilgan ayollar bundan mustasno). Qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi: o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan koloniyalar; ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar; ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek, o'ta xavfli retsdivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar. Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan, o'ta xavfli retsdivist deb topilgan erkaklarni saqlash uchun mo'ljallangan. Maxsus tartibli koloniyalarda o'lim jazosi afv etish tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan erkaklar ham saqlanadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridagi ichki tartib qoidalari — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ular ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarni, jumladan: jazoni ijro etish muassasalarini tashkil etish va tugatish; tekshirish; jiozlash; mahkumlar limiti; mahkumlarni qabul qilish va jo'natish; ularni ovqatlantirish va mehnatga jalb etish, rag'batlantirish va jazolash choralarini hisobga olish tartibi va h.k.ni aniqlashtirib beradi.

Jazoni ijro etuvchi muassasalar — O'zbekiston Respublikasi JIKning 45-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish

tariqasidagi jazo ijrosini jazoni ijro etish muassasalari amalga oshiradi. Jazoni ijro etuvchi muassasalarga quyidagilar kiradi: jazoni ijro etish koloniyalari; tarbiya koloniyalari; turmalar. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish tergov hibsxonalari uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini hibsxona ma'muriyati bajaradi. Jazoni ijro etish koloniyalari manzil-koloniyalarga, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi. Voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan tarbiya koloniyalari mavjud.

Jamoa kelishuvi – muayyan kasb, tarmoq, hudud xodimlari uchun mehnat shartlari, ish bilan ta'minlash va ijtimoiy kafolatlar belgilash borasidagi majburiyatlarni o'z ichiga oluvchi normativ hujjatdir (MKning 29-moddasi). Uning quyidagi turlari bor: 1) bosh kelishuv – O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi (xodimlarning boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilarning respublika miqyosidagi birlashmalari o'rtasida, taraflarning taklifiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan ham tuziladi. Bosh kelishuv ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xususida kelishib siyosat olib borishning umumiy prinsiplarini belgilab beradi (MKning 48-moddasi); 2) tarmoq kelishuvlari tegishli kasaba uyushmalari (xodimlarning boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtasida, taraflarning taklifiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan ham tuziladi. Tarmoq kelishuvlari tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, mehnat shartlari va unga haq to'lashni, tarmoq xodimlarining (kasbdoshlar guruhlarining) ijtimoiy kafolatlarini belgilab beradi (MKning 49-moddasi). Hududiy kelishuvlar tegishli kasaba uyushmalari (xodimlarning boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtasida, taraflarning taklifiga ko'ra esa, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan ham tuziladi. Hududiy kelishuvlar hududlarning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish shartlarini belgilaydi (MKning 50-moddasi).

Jamoa shartnomasi – korxonada ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatdir (MKning 29-moddasi).

Jamoat birlashmalari – siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari. Mamlakatimizda jamoat birlashmalarini faoliyat ko'lamiga qarab, quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) Mahalliy jamoat birlashmalari – viloyat, tuman, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari miqyosida faoliyat yurituvchi mahalliy jamoat birlashmalari. Faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa, butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi. 2) Respublika jamoat birlashmalari – ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari. Jumladan, siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak. 3) Xalqaro jamoat birlashmasi – faoliyati ustaviga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ko'proq xorijiy davlat hududida amal qiluvchi jamoat birlashmalari. Basharti, chet elda tuzilgan xalqaro jamoat birlashmasi tarkibiga respublika jamoat birlashmasi a'zo sifatida kirsa, respublika jamoat birlashmasining ustavi ham O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ro'yxatga olinishi kerak.

Jinoiy-protsessual majburlov choralari – jinoyat protsessida ishtirokchilari xulqiga ta'sir etuvchi vosita sifatida shaxsning roziligi va irodasidan qat'i nazar qo'llanadigan jinoiy protsessual xarakterdagi choralarni jinoiy protsessual majburlov choralari deb atash qabul qilingan. Ular boshqa davlat majburlov choralaridan jinoyat ish yurituvchi jarayonida qo'llanishi hamda protsessual xarakterda ekanligi; davlatning vakolatli organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qo'llanilishi; ishda ishtirok etuvchi shaxs nomunosib xulqi yoki shunday xulq ehtimoli jinoyat sud ish yurituvchi muvaffaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qilsa yoki to'sqinlik qilishi mumkin bo'lsa, ularga nisbatan qo'llanilishi; jinoyat sud ish yurituvchi umumiy vazifalaridan kelib chiqib aniq maqsadlarga egaligi; qonunda ko'zda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, ularning asoslanganligi va qonuniyligi kafolatlanuvchi sharoit va tartibda

qo'llanilishi; o'ziga xos mazmun va xarakterga egaligi bilan farqlanadi.

Jinoyat – JKning 14-moddasiga muvofiq, jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat qonunida taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Uning quyidagi belgilari bor: 1) ijtimoiy xavflilik; 2) ayblilik; 3) jazoga sazovorlik; 4) huquqqa xiloflik. Ijtimoiy xavfli qilmishda o'z ifodasini topmagan fikrlar, niyatlar, xohish-istaklar jinoyat deb topilishi mumkin emas. Qilmish ikki shaklda: harakat (subyektning faol xulq-atvori)da yoki harakatsizlik (shaxsning sodir etishi shart bo'lgan va sodir etishi mumkin bo'lgan harakatni sodir etmaganligidan iborat passiv xulq-atvor)da namoyon bo'lishi mumkin. Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan; 2) uncha og'ir bo'lmagan; 3) og'ir; 4) o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi. Tajovuz obyektiga ko'ra shaxsga qarshi jinoyatlar, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyatlar, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar farqlanadi. Aybning shakliga ko'ra qasddan sodir etilgan jinoyatlar va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar tafovut etiladi. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida qabul qilingan jinoyat tushunchasining rasmiy-moddiy ta'rifi aksariyat chet mamlakatlarga xos emas. Masalan, Angliya va Fransiya jinoyat huquqida jinoy qilmishga qonuniy ta'rif umuman berilmagan. Jinoyat tushunchasi yo sud qarorlarida (Angliya), jinoyatlarning muayyan turlariga nisbatan, yo jinoyat huquqi bo'yicha adabiyotlarda (Angliya va Fransiya) beriladi. Jinoyat tushunchasining normativ ta'riflari AQShning ayrim shtatlarida va GFRda mavjud, ammo ular ham mohiyat-e'tibori bilan rasmiy xususiyatga ega.

Jinsiy qullik – hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan birovning jinsiy ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan ayollar, bolalar, ayrim holatlarda erkaklarning qaramligidir.

Jinsiy ekspluatatsiya – bir shaxsning boshqa bir shaxs bilan jinsiy ehtiyojini qondirishi davomida uning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga va boshqa turli huquqlarining poymol qilinishiga olib keluvchi faoliyat hisoblanadi. Jinsiy ekspluatatsiya o'z ichiga tazyiq o'tkazish, nomusga tegish, kaltaklash, pornografiyani oladi.

Jismoniy zo'rlik – jabrlanuvchiga har qanday darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining

qarindoshlarini, yaqinlarini o'ldirish, nomusiga tegish va hokazolar bo'lishi mumkin.

Jismoniy tazyiq – jabrlanuvchini urish, do'pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish.

Zakat tushunchasi – shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasi. Zakat to'g'risidagi kelishuv zakatning summasidan qat'i nazar, yozma ravishda tuzilishi kerak. Shartnomadagi taraf amalga oshirishi kerak bo'lgan to'lovlar hisobidan to'langan summa zakat ekanligiga, xususan, ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan qoidaga rioya qilinmasligi oqibatida, shubha tug'ilgan taqdirda, bu summa, agar boshqa hol isbotlangan bo'lmasa, bo'nak sifatida to'langan deb hisoblanadi (FKning 311-moddasi).

Zo'rlik – bu shaxs tomonidan boshqa inson (bir guruh shaxslar) xohish-irodasiga qarshi holda organik, jismoniy yoki ruhiy jarohat yetkazishi mumkin bo'lgan hamda uning erki yoki harakatlarini yoxud uning xohish-irodasini cheklaydigan g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishdir. Zo'rlik o'zboshimchalik bilan sodir etiladigan xo'rovchi, azoblovchi, qonunga xilof harakatlarda namoyon bo'ladi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan zo'rlik boshqa kishiga nisbatan jismoniy kuchdan (mushaklari, qurol, boshqa predmet va ashyolar, hayvonlar yordamida) qasddan foydalanishi bo'lib, shaxsning jismoniy daxlsizligini buzishga, sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetkazishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy ta'tillar – xodimlar quyidagi ijtimoiy ta'tillar olish huquqidan foydalanadilar: homiladorlik va tug'ish ta'tillari (233-modda); bolalarni parvarishlash ta'tillari (232, 234, 235-moddalar); o'qish bilan bog'liq ta'tillar (252, 254 va 256-moddalar); ijodiy ta'tillar (258-modda).

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan qilmish – qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar bo'lib, jazo chorasi sifatida ozodlikdan mahrum etishdan boshqa turdagi jazolar nazarda tutilgan jinoyatlar ham ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan qilmish deb hisoblanishi zarur.

Ikki fuqarolik (bipatrizm) – bu shaxsning bir vaqtning o'zida ikki davlat bilan siyosiy-huquqiy aloqada bo'lishidir. Bunday shaxsda ikkita pasport bo'lishi mumkin, masalan Kolumbiya va Boliviya pasportlari, Argentina va Braziliya pasportlari. Bu o'rinda ushbu mamlakatlarni misol sifatida qayd etishimiz bejiz emas, zotah, aynan Lotin Amerikasi mamlakatlarida bunday hol ko'p uchraydi. Ikki fuqarolik dunyoning ko'pgina mamlakatlari tomonidan tan olinmaydi. Ba'zan ikki fuqarolik davlatlar o'rtasida kelishuvga muvofiq ta'sis etilishi mumkin: masalan fuqaro bir davlat hududida bo'lsa, u ushbu davlatning fuqarolarga bergan huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, ikkinchi davlat hududiga o'tishi bilanoq unga mazkur davlatning qonunchiligi qo'llanadi.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari – insonga bekamu-ko'st yashash imkonini beradigan hamda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maqom. Inson huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar qonunlarning mazmuni va qo'llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi O'zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mansabi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, huquq va erkinliklari buzilmasligini, ularning sud yo'li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi.

Inson qadr-qimmat – bu avvalo, inson sha'ning tashqi ifodasi bo'lib, uning jamiyat tomonidan tan olingan qismini aks ettiradi. Sha'n va qadr-qimmat o'zligini yo'qotmasligi, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq me'yorlariga amal qilishi, komillik sari intilishi va hayot kechirishi uchun insonlarga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Qadr-qimmat xalq turmush tarzi ma'naviy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarni mohiyat jihatidan teng ekanligini namoyon etuvchi his-tuyg'ularni ifoda etadi.

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish usullari – inson huquq va erkinliklarini himoya qilish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) umumiy yurisdiksiya sudlarida sud yo'li bilan himoya qilish; b) ijro etuvchi hokimiyat organlarining ma'muriy harakatlari; v) inson o'z huquqlarini shaxsan o'zi yoki jamoat

birlashmalari orqali, normativ hujjatlarda belgilangan chegarada himoya etish; g) xalqaro huquqiy mexanizm – huquqiy himoyaning mavjud barcha choralari qo'llanilgan va kutilgan natijaga erishilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga yoki huquqni himoya qiluvchi boshqa xalqaro tashkilotlarga murojaat etish imkoniyati.

Inson huquqi – ma'lum bir davlatda yashayotgan insonning davlatga nisbatan belgilangan mavqei, ya'ni ma'lum huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanganligi. Masalan, insonning yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, mulk huquqi kabilar. Inson ma'lum bir davlatda qanday mavqega egaligi davlat tomonidan belgilanishi zarur. O'zbekistonda davlat tomonidan inson huquqlari kafolatlanganligining asosiy manbai Konstitutsiyadir. Xususan, Asosiy Qomusimizning II bo'limida inson huquq va erkinliklari kafolatlanishi belgilangan.

Inson huquqlari – bu azal-azaldan insonlarga tegishli bo'lib kelgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar majmui bo'lib, milliy va xalqaro miqyosda himoya qilinadi hamda kafolatlanadi. Inson huquqlari bu har bir insonga tegishli bo'lgan va uning sha'ni, qadr-qimmatini himoyalaydigan huquqlar tizimidir. Inson huquqlari umumiy xarakter kasb etadi, ya'ni har qanday vaziyatda ham har bir insonga tegishli bo'ladi. Inson huquqlari: 1) tabiiy huquq – ular insonga tug'ilishi bilanoq tegishli bo'ladi; 2) ajralmas huquq – ulardan hech kim o'zboshimchalik bilan va asossiz ravishda mahrum qilinmaydi; 3) shaxs huquqi – ular individuallashgan bo'lib, insonning qadr-qimmatini va sha'nini himoyalashga qaratilgandir. Inson huquqlari bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi, davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Inson huquqlari faqatgina qonunda ko'rsatilgan hollarda hamda jamiyat xavfsizligi, axloq va ma'naviyatni, boshqa shaxslarning sog'lig'i va huquqlarini muhofaza qilish maqsadida cheklanishi mumkin. Shunday huquqlar borki, ularni har qanday sharoitda ham cheklab bo'lmaydi: qiynoq, shafqatsiz va qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaning taqiqlanishi, qullikning man etilishi, vijdon erkinligi, hayotga bo'lgan huquq shular jumlasidandir.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi – inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (19-moddasi)

tashkil etgan ikki organdan (Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi bilan bir qatorda) biri bo'lib, ushbu konvensiyadan kelib chiquvchi majburiyatlarning unga a'zo bo'lgan hamda Konvensiyani talqin etish va qo'llashga doir barcha masalalar bo'yicha Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi yurisdiksiyasini o'zlari uchun bajarilishi shart deb tan olgan va maxsus bayonot bergan davlatlar tomonidan hurmat qilinishini ta'minlash maqsadida 1959-yil 21-yanvarda ta'sis etilgan.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mita – 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro Paktning IV qismiga tashkil etilgan shartnomaviy organ. Mazkur organning asosiy maqsadi Pakt qoidalariga qatnashchi – davlatlar tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishdan iborat. Inson huquqlari bo'yicha qo'mita 1976-yil 20-sentabrda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro Pakt qatnashchisi bo'lgan davlatlar yig'ilishida tashkil topgan. Inson huquqlari bo'yicha qo'mita 18 ta a'zoga ega bo'lib, ular Pakt qatnashchisi bo'lgan davlatlar vakillari hisoblanadi. Komissiya a'zolarining vakolat muddati to'rt yil. Inson huquqlari bo'yicha qo'mita o'z funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tegishli qoidalarni yaratadi.

Inson huquqlari yuridik kafolatlari – har bir shaxsga uning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, himoya qilish va ular buzilgan taqdirda, ularni tiklash uchun teng huquqiy imkoniyatlarni ta'minlovchi shart, vosita va usullar tizimi.

Inson huquqlarini sud yo'li bilan himoya qilish – har qanday jismoniy shaxsning (shaxsning qaysi davlat, ijtimoiy tabaqa, jins, irq, millat yoki siyosiy guruhga mansub ekanligidan, uning kelib chiqishi, mulkiy va mansab mavqeidan, yashash joyi, tug'ilgan joyi, dinga munosabati, e'tiqodlari, jamoat birlashmalariga a'zoligi, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar) buzilgan huquqlarni tiklash yoki huquqiy normalar qonunga xilof tarzda qo'llanilishining oldini olishni sudlarga murojaat etish orqali ta'minlaydigan moddiy va protsessual huquqlari majmuidan iborat.

Inson huquqlarining va erkinliklarining kafolati – bu umumxalq muhokamasidan o'tkazilgan, davlat tomonidan o'rnatilgan yoki tasdiqlangan, shaxslar va fuqarolarga belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarni amalda ta'minlashga yordam beradigan huquqiy vositalar, yuridik usullar va shart-sharoitlar majmuidir. Inson huquq va erkinliklarini kafolatlash birinchidan, turli davlat organlari,

mansabdor shaxslar va alohida shaxslar tomonidan qonunda belgilangan huquq va erkinliklarga to'sqinlikka yo'l qo'ymaslik, agarda bunga ma'lum bir sabablar oqibatida yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni qonun normalarida o'rnatilgan tartib va vositalar orqali bartaraf etish; ikkinchidan, shu huquqlar bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash vazifalarini ko'zlaydi.

Insonning huquq va erkinliklarini himoyalash – o'z ichiga huquq normasini, sud himoyasini, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa harakatlarni qamrab oluvchi, inson huquqlarini ruyobga chiqarishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Inson huquqlarini himoya qilishning sud va suddan tashqari shakllari farqlanadi.

Intellektual mulk obyektlari – intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot va san'at asarlari; ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau); 2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar: firma nomlari; tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari); tovarlar chiqarilgan joy nomi; 3) ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Mualliflik huquqi quyidagi biron-bir obyektiv shaklda bo'lgan oshkor qilingan asarlarga ham, oshkor qilinmagan asarlarga ham tatbiq etiladi: yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo); og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo); ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo); tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino, tele-, video- yoki fotokadrlar va hokazo); hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo); boshqa shakllardagi (FKning 1041-moddasi).

Intizomiy jazolar – xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi tomonidan qo'llaniladigan choralar. MK 181-moddasiga binoan, ularning quyidagi turlari mavjud: 1) hayfsan; 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. 3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari). Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas (MKning 183-moddasi).

Intizomiy-huquqiy sanksiya – (mansabini pasaytirish, ishdan bo'shatish) mansabdor shaxslar va ma'muriyat tomonidan qo'llanadigan sanksiya.

Ish vaqti – xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt hisoblanadi (MKning 114-moddasi). Xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati – ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog'lig'i holati, mehnatning shartlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zga holatlarni inobatga olib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek, mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi. Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi: o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar (242-modda); I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar (220-moddaning uchinchi qismi); noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar (117-modda); alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar (118-modda); uch yoshga to'lmagan bolalari bor, budjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar (228'-modda).

Ishdagi tanaffuslar – bu ichki mehnat tartibi qoidalari yoki boshqa lokal normativ hujjatlarda, agar ular bo'lmasa, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan, muayyan hollarda esa, bevosita qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan ish kuni mobaynidagi

shunday davrki, unda xodim mehnat vazifalarini bajarishdan ozod etib qo'yiladi.

Ishlab chiqarish kooperativlari – fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarining (ishtirokchilarning) mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin. Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatlari bo'yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar. Kooperativning firma nomi kooperativning nomini, shuningdek «ishlab chiqarish kooperativi» degan so'zlarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish kooperativlarining huquqiy mavqei va ular a'zolarining huquq hamda burchlari ushbu Kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi (FKning 69-moddasi).

Ishonchnoma – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning Ustavida (Nizomida) ko'rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FKning 134-moddasi).

Ishsiz – O'n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash yoki qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxs (MKning 60-moddasi).

Yig'ilish – yopiq imoratda yoki biror xonada o'tkaziladigan, ma'lum yig'ilgan shaxslarning majlisidir. Majlis shaklidagi yig'ilishlar majlis tashkilotchilari tomonidan ishtirokchilar sonini chegaralash uchun tanlanishi mumkin, lekin bu yig'ilishning asosiy mohiyatini belgilamaydi.

Qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo – bu jabrlanuvchini haqoratlash, kamsitish yoki jismoniy va ma'naviy qarshiligini sindirish uchun qo'rquv, tushkunlik va nomukammal-

lik hissini uyg'otishga qaratilgan muomala. Qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga misol tariqasida jabrlanuvchining qonuniy harakatini ta'minlash uchun zarur hisoblanmagan jismoniy kuch yoki ruhiy ta'sir o'tkazishni ko'rsatish mumkin.

Kam ahamiyatli qilmish – rasman Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatliliigi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik.

Kameral nazorat – soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir. Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi (SKning 70-moddasi).

Qamoq – jinoiy jazo turlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 48-moddasiga muvofiq, shaxsni batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, bir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi.

Qamoq uyi – qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarning jazoni o'taydigan maxsus muassasa. Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar hukm chiqarilgan joydagi qamoq uyiga joylashtiriladilar. Mahkumlar jazoning butun muddatini, odatda, bitta qamoq uyida o'taydilar.

Qaram xo'jalik jamiyati – xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan jamiyat. Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi. Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat qaram jamiyat ustav fondining tegishli qismini qo'lga kiritib olganligi haqidagi ma'lumotlarni qonunda nazarda tutilgan tartibda darhol e'lon qilishi shart. Xo'jalik jamiyatlari bir-birlarining ustav fondlarida o'zaro qatnashishining chegarasi va bunday jamiyatlardan biri boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida foydalanishi mumkin bo'lgan ovozlar soni qonunda belgilab qo'yiladi (FKning 68-moddasi).

Qarindoshlik – bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi

qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan – uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Karser – lotincha “carcer” so'zidan olingan bo'lib, “qorong'u joy”, “turma” degan ma'nolarni anglatadi. Turmalar, armiyalar va harbiylashtirilgan o'quv muassasalarda belgilangan tartibni buzuvchilar uchun mo'ljallangan maxsus xona. Qamoqqa olinganlar uchun karserda alohida qattiq o'rnatilgan bo'ladi.

Kasaba uyushmasi – ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

Qattiq tartibli koloniya – JIKning 48-moddasiga ko'ra, uning quyidagi ko'rinishlari bor: 1) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan koloniyalar; 2) ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar; 3) ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek, o'ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

Kafillik shartnomasi – kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin. (FKning 292-moddasi).

Kafolat tushunchasi – kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FKning 299-moddasi).

Klonlashtirish – inson hujayrasidan aynan shu inson nusxasini yaratish xususida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Bu inson hayotining tugallanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyat. Bir qator mamlakatlarda bu faoliyat rasman taqiqlangan.

Kommandit shirkat – shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lgan shirkat. Kommandit shirkatda qatnashayotgan to'liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi ushbu Kodeksning qoidalari bilan belgilanadi. Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to'liq sherik bo'lishi mumkin. To'liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to'liq sherik bo'la olmaydi. Kommandit shirkatdagi to'liq sherik o'sha shirkatning o'zida hissa qo'shuvchi va boshqa to'liq shirkatda ishtirokchi bo'lishi mumkin emas. Kommandit shirkatning firma nomi barcha to'liq sheriklarning nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek, «kommandit shirkat» degan so'zlarni yoki kamida bitta to'liq sherikning «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek, «kommandit shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Agar kommandit shirkatning firma nomiga hissa qo'shuvchining nomi kiritilgan bo'lsa, bunday hissa qo'shuvchi to'liq sherikka aylanadi. Kommandit shirkatga to'liq shirkat haqidagi qoidalar qo'llaniladi, agar bu hol ushbu Kodeksning qoidalariga zid bo'lmasa. (FKning 61-moddasi).

Konklyudent bitimlar – sukut saqlash asosida tuziladigan bitimlar. Sukut saqlash qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi (FKning 105-moddasi).

Qonun – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish-irodasiga ko'ra (masalan, referendum o'tkazish yo'li bilan), qabul qilingan va qoida tariqasida, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat. Q. davlat huquq tizimining negizini tashkil etadi, davlatning boshqa organlari normativ hujjatlariga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'ladi. Q. o'zi qabul qilish tartibiga, maxsus qonun ijodkorligi taomiliga ega. Ushbu taomil bir necha bosqichdan, chunonchi:

qonunchilik tashabbusi, q. loyihasining muhokamasi, q.ni qabul qilish va uni e'lon qilish bosqichlaridan iborat. Shakllanish usuli, davlatning huquqiy tizimidagi o'rni va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roliga ko'ra yagona bo'lgan qonunlar ma'lum turlarga bo'linadi. Xususan, qonunda ifodalangan normalar ahamiyatiga ko'ra, konstitutsiyaviy, organik va oddiy qonunlar farqlanadi (qarang: Konstitutsiyaviy qonun, Organik qonun). Oddiy q.lar kodifikatsion va joriy q.larga bo'linadi. Federativ davlatlarda federal q.lar va federatsiya subyektlarining q.lari ham farqlanadi. Favqulodda q.lar alohida toifani tashkil etadi.

Qonun loyihasi – qonun chiqaruvchi organga qabul qilish uchun taklif qilinayotgan yoki referendumda ko'rishga kiritish uchun tayyorlangan qonunning matni. Qonunni tayyorlash jarayoni loyihani tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilish, uning matnini ishlash, dastlabki loyihani muhokama qilish va qayta ishlash, uning barcha manfaatdor idoralar va tashkilotlar bilan kelishilishini qamrab oladi. Q.l.ni tayyorlash yakunlangandan keyin, u Q.l.sifatida qonunchilik organiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi. Q.l. mazmuni bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: ommaviy, u yurish-turishning umumiy normalarini o'rnatadi; moliyaviy, u moliyaviy masalalarga tegishli (ajratmalar, soliqlar, qarzlar va boshqa); xususiy, u yuridik va jismoniy shaxslarga taalluqli va ma'muriy xarakterga ega (hukumatga mulkiy talabnoma, korporatsiyaning huquqiy maqomi va boshqalar). Q.l.ni tuzishda hukumat, deputatlar va boshqa subyektlar qonunchilik tashabbuskori bo'lishi mumkin. Fransiyada qonunchilik tashabbuskori va fransuzcha konstitutsiyaviy-huquqiy tizimni qabul qilgan mamlakatlarda Q.l. (parlamentga asosan hukumat tomonidan kiritiladi) va qonunchilik takliflari (deputatlar tomonidan kiritiladi) farqlanadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat – hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga muvofiq, davlatning o'zaro muvozanatlashtirilgan hokimiyat shoxobchalaridan biri bo'lib, davlat oliy vakillik organi tomonidan qonunlar qabul qilish vakolatining ro'yobga chiqarilishidir. U oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy aktlar – qonunlar chiqarish bo'yicha vakolatlar yig'indisini mujassamlashtiradi hamda ushbu vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Qonun chiqarish – davlatning o'ta muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u saylab qo'yiladigan oliy vakillik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir. Q.ch.h. – bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliy davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o'zgartirish va bekor qilish bo'yicha alohida vakolatlari hisoblanadi.

Qonunni e'lon qilish — qonunni ma'lum nashrda bosib chiqarish yo'li bilan hammaga ma'lum qilish. Qonunni e'lon qilishning rasmiy va norasmiy turlari farqlanadi. Qonunning rasmiy e'lon qilinishi – qonun chiqarish jarayonining mustaqil bosqichi bo'lib, u qabul qilingan qonunning rasmiy matni dublikatlarini yaratish va uning kuchga kirish muddatini aniqlash uchun zarurdir. U rasmiy – yuridik ma'noga ega bo'lib, qabul qilingan qonunning to'la va aniq matnini uni qonunlar majmua va to'plamlarida, huquq normalarini qo'llash hujjatlarida, bosma ishlarda va boshqalarda dalil qilib keltirish mumkin bo'lishi uchun qonunda nazarda tutilgan rasmiy nashrda berish yo'li bilan hammaga ma'lum qilish maqsadidagi qonun chiqaruvchi organ nomidan normativ tartibga solingan e'lon qilinishidir. Qonunni bunday e'lon qilishda qonunning rasmiy e'lon qilinishi uning aniq matni tasdiqlanishi bilan birikadi. Qonun norasmiy e'lon qilinganda normativ hujjatning e'lon qilinishi yoki uning mazmunining bayoni to'g'risidagi xabar no-shirlar, mahkama organlari, ilmiy muassasalar, xususiy tuzuvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunosti akti – davlat hokimiyati organlarining qonunga nisbatan pastroq yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy akti. Q.a. qonunga asosan va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan chiqariladi. Q.a. lari umummajburiy tUSDagi (normativ) va umummajburiy tusga ega bo'lmagan (normativ bo'lmagan) huquqiy hujjatlarga bo'linadi. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida normativ tUSDagi qonunosti aktlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining umummajburiy tUSDagi huquqiy aktlari kiradi, normativ bo'lmagan qonunosti aktlariga esa, umumyurisdiksiya va xo'jalik sudlari qarorlarini misol keltirish mumkin.

Qonunchilik – 1) davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi; 2) ijtimoiy

munosabatlarni to'la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir sohasi (fuqarolik Q., jinoyat Q., ma'muriy Q. va b.) "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida q. hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deyiladi va normativ-huquqiy hujjatlar q.hujjatlari hisoblanadi. Keng ma'noda O'zbekiston Respublikasi-ning q. hujjatlari majmuiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Qonunchilik tashabbusi – belgilangan tartibga muvofiq, (vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan) qonunchilik muassasasiga qonun loyihasini rasmiy kiritish. Q.t.– qonunchilik jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. U tegishli qonunchilik organiga qonun loyihasini o'zining yig'ilishida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish majburiyatini yuklaydi. Q.t. shunday bir harakatlar yig'indisidirki, buning natijasida qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi yoki qonunchilik taklifi kiritiladi va parlament yangi qonun chiqarish, amaldagisini o'zgartirish yoki bekor qilish masalasini ko'rib chiqish uchun qabul qiladi. Boshqacha aytganda, q.t. qonun loyihasi yoki qonunchilik xarakteridagi taklifni kiritish bilan bog'liq faoliyatdir. O'zbekiston Respublikasida – Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik tashabbusining subyektlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bo'lib, ular bu huquqni qonun loyihasini Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiradilar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-moddasi).

Qonunchilikni tizimlashtirish – normativ-huquqiy aktlarni tartibga solish va takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, ularni belgilangan va o'zaro ichki bog'langan tizim

holiga keltirishni anglatadi. Q.t. qonuniy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikni eskirgan aktlar va o'zaro qarama-qarshi normalardan xalos qilish, normativ hujjatlardan foydalanishni yengillashtirish va soddalashtirish, jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasi darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Q.t.ning maqsadi huquqiy hujjatlarni tartibga solish, bir tizimga keltirish, ularni foydalanish uchun qulay qilib (muayyan bo'lim, ruknlar asosida tasniflab) joylashtirishdan iborat.

Qullik – insonning huquqini olib qo'yishda va faqatgina majburiyat yuklashda ifodalangan ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Qullik illatidan qutildik, deb erkin nafas ola boshlagan bir vaqtda dunyoda yana qullikning har xil ko'rinishlari hozirda ham saqlanib qolinganligini bilish ayanchlidir. Qullikning hozirda bir necha turlari va ko'rinishlari mavjuddir.

Kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyalari – ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkak jinsiga mansub voyaga yetmagan shaxslarni saqlab turishga mo'ljallangan tarbiya koloniyasi.

Ko'ppartiyaviylik – hozirgi demokratiya davlatlarida siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm (xilma-xillik)ni ancha umumiyroq bo'lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o'z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi. Ko'p partiyaviylik prinsipi vakolatli davlat organlarining milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy murosasizligini, qonuniy davlat hokimiyat organlarini kuch ishlatib ag'darishni targ'ib qiladigan yoki boshqa yo'sinda amalda bo'lib turgan qonunchilikni buzadigan siyosiy partiyalarni qonunda belgilangan tartibda taqiqlashi va tarqatib yuborishini mustasno qilmaydi. Yuridik (rasmiy) haqiqiy ko'ppartiyaviylik aniq bir davlatda ijtimoiy va siyosiy manfaatlarining barcha spektrni qamrab olgan rivojlangan va samarali partiyalar tizimi mavjudligida ifodalanadi.

Ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlash huquqi – ayblanuvchining qarindoshlariga, diniy xizmatchilarga, himoyachilarga – o'z vazifasini bajarishi munosabati bilan ishning o'ziga ma'lum bo'lgan holatlari to'g'risida; fuqarolik protsessida – fuqarolik ishi

tarafklarining vakillariga ish uchun ahamiyatli holatlar yuzasidan ko'rsatuv berishni rad etish huquqi.

Ko'cha yurishlari – qo'yilayotgan talablarga hokimiyat organlari e'tiborini jalb qilish maqsadida odamlarning ma'lum hudud bo'ylab ommaviy harakat qilishi.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat. Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek, «qo'shimcha mas'uliyatli» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Ushbu Kodeksning mas'uliyati cheklangan jamiyat haqidagi qoidalari, agar ushbu moddada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatga nisbatan qo'llaniladi. (FKning 63-moddasi).

Lobbizm – ingliz tilidan olingan bo'lib, “lobby” – kular, ya'ni kolidor ma'nosini anglatib, siyosiy-huquqiy jarayonlarda asosiy voqea kechayotgan xonadan tashqaridagi xonada rasmiy vakillar bilan norasmiy shaxslarning o'zaro uchrashib, rasmiy qarorlar qabul qilishdagi siyosiy ta'sirning o'ziga xos turi. Boshqacha aytganda, rasmiy muhit yoki rasmiy davradagi norasmiy uchrashuv. Ushbu tushuncha norasmiy shaxslarning, guruhlarining parlament a'zolari bilan o'zaro siyosiy muloqot turi bo'lib, qonunlarni muayyan shaxs yoki guruhlar manfaatiga moslab qabul qilish yo'lidagi faoliyat turi sifatida tushunish ustunlik mavqe kasb etadi. Lobbizm mazmun mohiyati jihatidan betaraf tushuncha bo'lib, ham ijobiy ham salbiy ma'noga ega. Uning ijobiy mohiyati shundan iboratki, demokratik jamiyat sharoitida sog'lom, hayotiy zarur siyosiy jarayon sifatida qonun va qarorlar qabul qilish jarayonida demokratik institutning tarkibiy qismi sifatida shaxs yoki guruhlar o'z taklif va mulohazalarini parlament a'zolari yoki hokimiyat organlari vakillari o'rtasiga tashlaydi.

Madaniyatga bo'lgan huquqlar – inson ilmiy va madaniy hayot sohasidagi o'zi amalga oshiradigan konstitutsiya va qonun tomonidan kafolatlanadigan huquq va erkinliklarining alohida majmui. Insonning madaniyatga bo'lgan huquqlari sirasiga ta'lim olish, o'qish erkinligi (akademik erkinlik), ijod qilish erkinligi, madaniy qimmatliklarga ega bo'lish kabi huquqlari kiradi. Bu huquqlar o'z konstitutsiyaviy asoslarini yangi avlod Konstitutsiyalarida topdilar, desak xato bo'lmaydi. Zero, ularning ikkinchi avlod huquqlari deb nomlanishi ham bejiz emas. Bu huquqlar asosan totalitar mamlakatlarda insonning ichki ruhiy dunyosini ham bo'ysundirishga intilish va urinishlar hamda buning natijasida madaniy yodgorliklarga bo'lgan shafqatsiz munosabat shakllanishiga qarshi kurashish maqsadida konstitutsiyaviy darajada mustahkamlana boshlandi.

Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari – fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulknini topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa – qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.(FKning 234-moddasi).

Mandat (vakillik, deputatlik) (lot. mandatum – topshiriq) – birorta vakillik muassasasi deputati vakolatlarining qonuniyligini, deputat vakolatlari, huquq va majburiyatlari hajmini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek, parlament yoki boshqa vakillik hokimiyati organi deputati zimmasiga yuklatiladigan ommaviy vazifa, uning mazmuni (mandat xarakteri) Konstitutsiya va boshqa konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Hozirgi demokratiya davlatlarida Mandatning huquqdorligi deputatning daxlsizligi (immunitet) va deputatlik faoliyati uchun taqdirlov puli olish (imdemnitet)ni o'z ichiga oladi. Mandat deputatning o'z saylovchilari bilan o'zaro munosabat shaklini ham belgilaydi. Hozirgi demokratiya davlatlarida umummilliy Mandat deb atalgan mandat bor, unga ko'ra deputat qandaydir aniq bir saylov okrugining emas, balki butun millat vakili hisoblanadi. Deputat o'z faoliyatida hech qanday nakaz bilan bog'lanib qolishi mumkin emas (imperativ

Mandat bilan) va o'z Mandati muddati tugamaguncha chaqirib olinishi mumkin emas. Ko'pgina davlatlar (Italiya, RFR, Fransiya va boshqalar) Konstitutsiyalarida imperativ Mandatni bevosita taqiqlovchi ko'rsatma bor. Sovetlar tipidagi Konstitutsiyalar impertiv Mandatni, ya'ni deputatlarning o'z saylovchilari oldidagi javobgarligini qaror toptiradi, unga ko'ra saylovchilar o'z deputatlariga nakazlar berish va ularni qonunda belgilangan tartibda chaqirib olish huquqiga ega.

Mandat komissiyasi – qator mamlakatlar davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakillik organlarida shu organ birinchi sessiyasi ishining boshida deputatlardan saylanadigan doimiy komissiyalardan biri. Deputatlar vakolatlarini tekshiradi va vakillik organiga saylangan deputatlar vakolatlarini tan olish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish uchun kiritadi, saylovlar to'g'risidagi qonunchilik buzilgan hollarda esa – ayrim deputatlar saylovlarini qonuniy kuchga ega emas deb tan olish to'g'risida taklif kiritadi. Mandat komissiyasi o'z majburiyatini muddatidan oldin to'xtatgan deputatga bog'liq barcha savollar bo'yicha ham xulosa beradi.

Manzil koloniyalar – O'zbekiston Respublikasi JIKning 46-moddasiga muvofiq, manzil koloniyalarning ikki turini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek, qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalar; 2) umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek, tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniyalar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. (FKning 62-moddasi). Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek «mas'uliyati cheklangan» degan so'zlarni o'z ichiga olishi

kerak. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning huquqiy mavqei, uning ishtirokchilarining huquq va burchlari ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi. (FKning 61-moddasi).

Mahkama (Vazirlar Mahkamasi) – ayrim davlatlarda hukumat yoki uning muayyan qismi (vazirlar jami)ning nomi. Ba'zi bir mamlakatlar (masalan, Buyuk Britaniya)da “hukumat” atamasi markaziy ijroiya idoralari (vazirliklar, departamentlar) barcha boshliqlari va ayrim oliy davlat amaldorlari jamini anglatadi, mahkama deganda esa, muhim vazirliklarning rahbarlaridan iborat hay'at tushuniladi. M.ga hukumat boshlig'i (Buyuk Britaniya, GFR, Italiya va boshqa parlamentlar davlatlarda) yoki davlat boshlig'i (AQShda boshqa prezidentlik respublikalarida) rahbarlik qiladi. Buyuk Britaniyada m. tarkibiga vazirlarning bir qismigina kiradi. M. odatda Konstitutsiyalarda tilga olinmaydigan organ hisoblanadi. Uning tarkibini bosh vazir belgilaydi. Bosh vazir mahkama tarkibiga muayyan vazirlarni kiritish bilan bir qatorda, ularning sonini ham belgilashi mumkin. M. davlat hokimiyatini to'laligicha o'z qo'lida jamlaydi. Ayrim mamlakatlarda o'z tarkibiga ko'ra m.dan ham torroq bo'lgan organ ta'sis etiladi. Buyuk Britaniya va AQShning “ichki mahkama”lari shular jumlasidandir. Ular hukumat boshlig'iga eng yaqin shaxslardan tashkil topadi va tegishincha bosh vazir yoki prezident tomonidan boshqariladi. Ushbu organlar faoliyati oshkor etilmaydi. Ayrim mamlakatlarda hukumat unda prezident ishtirok etmagan holda m. deb, uning majlislarida prezident raislik qilgan hollarda esa – vazirlar kengashi deb ataladi.

Mahkumlarni saqlash sharoitlari – ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan shaxslarning jazoni o'tash mobaynidagi muassasada yaratilgan shart-sharoitlar majmui bo'lib, JIKga muvofiq, qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar ikki kishilik, to'rt kishilik yoki umumiy kameralarda saqlanadilar. Birinchi marta qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar ilgari qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan shaxslardan alohida saqlanadi. Mahkumlar fuqarolik namunasidagi kiyimda yuradilar. Mahkumlarga har kuni muddati bir soatlik, voyaga yetmaganlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollarga esa – bir yarim soatlik sayr qilish imkoniyati beriladi. Mahkumlarga uchrashuvlar, telefon orqali so'zlashuvlar, posilkalar olish, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish ruxsat etilmaydi, JIKda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Mahkumlarning shaxsiy xavfsizlik huquqi – mahkumlarning jazoni ijro etish koloniyasida sog'lig'i va hayotini muhofaza etilishini ta'minlanishiga bo'lgan huquqi. Qamoq jazosiga, intizomiy qismga jo'natish yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning xavfsizligiga tahdid yuzaga kelgan taqdirda u o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash haqida iltimos bilan jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organing har qanday mansabdor shaxsiga murojaat etishga haqli. Mahkum murojaat etgan mansabdor shaxs darhol uning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishga majbur. Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ boshlig'i mahkumning shaxsiy xavfsizligiga bo'lgan tahdidni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarini ko'radi.

Maxsus tartibli koloniya – JIK 49-moddasiga ko'ra, maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, o'ta xavfli retsivist deb topilgan erkaklarni yoxud o'lim jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan erkaklarni saqlash uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish koloniyasi.

Ma'muriy ushlab turish – ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni amalga oshirishni ta'minlash choralaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining MJtK 29-moddasi bilan tartibga solinadi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ma'muriy ushlab turish uch soatgacha, ba'zi hollarda esa, sud, ichki ishlar organlari boshlig'i yoki boshliq o'rinbosarlari tomonidan ishni ko'rib chiqqunga qadar davom etishi mumkin. Chegara tartibini buzuvchilar shaxsi va huquqbuzarlik sharoiti aniqlanguncha uch sutkagacha ushlab turilishi mumkin.

Ma'muriy-huquqiy sanksiya – (jarima, ma'muriy qamoq) militsiya, davlat inspeksiyasi va shu kabilar tomonidan qo'llanadigan sanksiya.

"Merlini qonuni" – Italiyada 1958-yildagi 75-sonli "Merlini qonuni" deb nomlangan hujjat odam savdosi bilan shug'ullanadigan shaxsning xulq-atvorida aldash yoki majburlash holatlarining mavjudligi yoki yo'qligi fakti bo'yicha jinoiy javobgarlikka jalb qilishda har qanday cheklashni man etadi. Biroq, bu qonun ayrim tadqiqotchilarning fikricha, aslida fohishabozlik maqsadida amalga oshiriladigan ixtiyoriy migratsiyani taqiqlaydi va odam yollovchilarni tegishli darajada ta'qib etishga olib kelmaydi.

Mehnat haqi – mehnat shartnomasida ishbay yoki vaqtbay haq to'lanishi, xodimning razryadi va boshqa ish haqi to'lashga oid talablar ko'rsatib qo'yilishi lozim.

Mehnat shartnomasi – xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuv (MKning 72-moddasi).

Mehnat yuzasidan qullik – bu ma'lum bir mehnat turiga birlashtirilgan va asosiy vazifa mehnat qilish natijasida ish beruvchiga foyda keltirish mo'ljallangan qullik turidir. Mazkur qullik turiga ish uchun chet davlatlarga borib, pasporti yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini yo'qotib, shu davlatdan chiqib ketish uchun majburlikdan ma'lum bir kishiga ishlab berishdir. Mehnat yuzasidan qullik kundalik ehtiyojlarga yetar-yetmas daromad yoki yemak olish uchun ishlash ko'rinishida bo'ladi.

Mikronutriyentlar – inson organizmining normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, o'rnini boshqa narsa bosa olmaydigan oziq-ovqat moddalari, vitaminlar va mineral moddalar (O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 7-iyundagi "Aholi o'rtasida mikronutriyent yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi).

Mikronutriyentlar samentatsiyasi – aholining muayyan guruhlarida o'rtasida mikronutriyentlarning dori vositalari tarzida profilaktik dozalarda qo'llanilishi (O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 7-iyundagi "Aholi o'rtasida mikronutriyent yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi).

Misdiminor – anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlar jinoyat qonunlari sanksiyasida 1 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoxud (va) jarima ko'zda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat.

Miting (ingl. "meeting") – siyosiy va boshqa dolzarb masalalarni hal etish uchun yig'ilish va namoyish o'tkazish talabi hamda fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini o'tkazishning bir ko'rinishi. Miting – siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

Mulk huquqi – o'z navbatida ikki ma'nodagi: obyektiv va subyektiv ma'nodagi mulk huquqiga bo'linadi. Obyektiv ma'nodagi mulk huquqi deganda, tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning

mavjud zahiralari, usullarini belgilash, tartibga solish va mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ko'zlab belgilangan tadbirlarni ifodalovchi huquq normalari yig'indisi nazarda tutiladi. Chunonchi, mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq normalari hisoblanadi. Subyektiv ma'nodagi mulk huquqi deb, ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning) obyektiv huquq normalari asosida kelib chiqadigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytiladi. Mulknı o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatini ko'zlab egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, mulk huquqini har qanday buzilishlardan bartaraf etishni talab qilish huquqi tushunchalari mulk huquqining mazmunini tashkil etadi. Subyektiv mulk huquqining mazmunini tashkil etadigan bu elementlar mulk egasiga qonun bilan belgilangan doiralarda beriladi.

Mulk huquqi tushunchasi – mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.(FKning 164-moddasi).

Mulk shakllari – O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'ladi.(FKning 167-moddasi).

Mulkdan foydalanish huquqi – mulkning foydali xususiyatlarini o'zlashtirish, mulkdan iqtisodiy ma'noda foyda ko'rish. Mulkdan qonunga muvofiq ravishda foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Mulkdan foydalanish huquqi shu mulkni egallash huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Mulknı egallamay, qo'lda saqlamay turib undan foydalanib ham bo'lmaydi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasiga muvofiq, ijaraga beruvchi dastavval mulkni ijaraga oluvchiga qonun yoki shartnomada ko'zda tutilgan tartibda topshiradi. Topshirish bilan bir vaqtda ijaraga oluvchida mulkka nisbatan egalik qilish huquqi ham vujudga keladi va u shundan so'ng ijaraga berilgan mol-mulkdan foydalanishi mumkin. Mulkdan ishlab chiqarishda yoki kundalik hayotda foydalanishda bu mulk butunlay iste'mol qilinadi yoki muayyan vaqt davomida asta-sekin eskiradi.

Mulkiy sanksiya – (masalan, bitimni haqiqiy emas deb topish, huquqbuzar tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning qoplanishi yoki uning foydasiga mulk undirilishi, neustoyka

to'lash va h.k.) sud tomonidan mustaqil yoxud boshqa choralar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Mulkka egalik qilish huquqi – mulkni qo'lda yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turish. Mulkni qonunga muvofiq ravishda o'z qo'lida yoki o'z erki-irodasi ta'siri ostida saqlab turgan shaxs mulkni egallash huquqiga ega. Bunday huquq, avvalo, mulk egasiga tegishli bo'ladi. Avvalo deganimizning boisi shundaki, mulkni egallash huquqi qonun yoki shartnomaga asosan boshqa shaxsda ham bo'lishi mumkin. Masalan, mulk shartnoma bo'yicha ijaraga berilganida, vaqtincha tekin foydalanish uchun topshirilishida, omonat qo'yilishida yoki ma'muriy dalolatnomalarga binoan vaqtincha saqlash uchun biron tashkilot yoki fuqarolarga o'tkazilishida egalik huquqi mulk egasi hisoblanmagan shaxsda ham bo'lishi mumkin.

Mulkni tasarruf etish huquqi – mulkning yuridik taqdirini belgilash, ya'ni mulk yuzasidan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan huquq. Mulk egasi tasarruf etish huquqiga binoan mulk yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, chunonchi, ashyoni sotish, hadya qilish, ijaraga qo'yish to'g'risida shartnomalar tuza oladi. Agar ashyo butunlay keraksiz bo'lib qolsa, mulk egasi bunday ashyoni tashlab yuborishi, o'zidan biron-bir usul bilan soqit qilishi mumkin. Bu huquq mulkdorga o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan, mol-mulkdan garov narsasi sifatida foydalanishi yoki unga boshqacha yo'llar bilan vazifa yuklash, uni begonalashtirish yoki mol-mulkni boshqacha usul bilan tasarruf etishga imkon beradi.

Muomala layoqati – fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati. U voyaga yetgach, ya'ni, o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Musodara – qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin (musodara). (FKning 204-moddasi).

Mutlaq qullik – qullikning eng og‘ir ko‘rinishi bo‘lib, huquqning umuman yo‘qligi va “xo‘jayin”ning aytgan gaplari qonun darajasiga ko‘tarilganligidir. Ya‘ni, inson uchun eng muqaddas bo‘lgan huquqlardan biri – yashash huquqi ham uning vakolati doirasidan tashqarida, ya‘ni “xo‘jayin”ning qo‘lida bo‘lishidir.

Namoyish – ijtimoiy-siyosiy norozilikning ochiq ko‘rinishi bo‘lib, namoyishchilarning u yoki bu masala bo‘yicha namoyish a‘zolarining ommaviy tarzidagi ochiq munosabatlaridir. Namoyish asosan miting bilan boshlanadi va tamom bo‘ladi. Namoyish lavha, shior, transporantlar va hokazolar vositasida o‘z talablarini oshkor etayotgan odamlar yurishidir.

Naturalizatsiya asosidagi fuqarolik (lug‘aviy ma‘nosi “ildiz otish”) – manfaatdor shaxsning iltimosiga muvofiq, yakka tartibda fuqarolikni qabul qilish. Bu usulda har qanday ongli va muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxs o‘z xohish va istagiga ko‘ra, boshqa mamlakat fuqaroligini qabul qilishni so‘rab ma‘lum bir mamlakatning tegishli organiga murojaat qiladi. Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yoki rad etish davlatning mutlaq huquqidir. Naturalizatsiya asosida fuqarolik berish yakka tartibda yoki manfaatdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Barcha mamlakatlarda qonunchilik bir qator cheklanishlarga ega bo‘lib, ular asosida shaxslarga siyosiy, ijtimoiy, diniy, milliy va boshqa sabablardan kelib chiqqan holda naturalizatsiya rad etilishi mumkin. Naturalizatsiyalanish orqali fuqarolikni qabul qilgan shaxsning huquqiy maqomi tug‘ilganidan fuqarolikni egallagan shaxsga qaraganda o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Naturalizatsiya asosida fuqarolikni qo‘lga kiritgan shaxslar ma‘lum bir huquqlardan foydalana olishmaydi. Masalan, AQShda prezidentlikka nomzodini qo‘yish uchun nomzod ushbu davlatda tug‘ilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, naturalizatsiya orqali fuqarolikni olishda ma‘lum shartlar (ma‘lum muddat yashaganlik, davlat tilini bilish va sh.k.) bajarilishi talab qilinadi.

Natsionalizatsiya – fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to‘lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o‘tkazishdan iborat. Mazkur mol-mulk keyinchalik denatsionalizatsiya qilingan taqdirda, agar qonunlarda o‘zgacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, sobiq mulkdorlar ushbu mol-mulkning qaytarib berilishini talab qilishga haqlidirlar. (FKning 202-moddasi).

Negativ sanksiya – ijtimoiy me'yorlardan og'ishga qarshi qaratilgan sanksiya.

Neustoyka tushunchasi – qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka to'lash haqidagi talab bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta'minlanadi. Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmasa, kreditor neustoyka to'lashni talab qilishga haqli emas. (FKning 260-moddasi).

Neustoyka shakllari – neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi. Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi. Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi. (FKning 261-moddasi).

Nikoh yoshi – nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirish mumkin.

Nikoh shartnomasi – nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda, ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi.

Norasmiy sanksiya – guruh, tashkilot a'zolari va h.k. harakati bo'lib, o'z subyektiv tarkibi bilan ajralib turadi, ya'ni uni amalga oshiruvchi subyektlar rasmiy davlat hokimiyati vakolatga ega bo'lmaydilar.

Og'ir jinoyat – qasddan sodir etilib, Jinoyat kodeksida og'ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar.

Odam savdosi – ekspluatatsiya maqsadlarida, zo'rlik ishlatish yoki uni ishlatish bilan qo'rqitish, shuningdek majbur qilish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni yoxud vaziyatning qal-

tisligini suiiste'mol qilish yo'li orqali yoki boshqa bir shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoxud imtiyozlar berish vositasida o'z tomoniga og'dirib olish yo'li bilan amalga oshiriladigan odamlarni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilib olishda ifodalanadi.

Odami savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs – mustaqil tarzda yoki bir guruh shaxslar tarkibida, odami savdosi bilan bog'liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek, o'z harakatlari bilan odami savdosiga yordam beruvchi hamda o'z mansab vakolatlari doirasiga kirishiga qaramay, unga to'sqinlik va qarshilik qilmaydigan mansabdor shaxsdir.

Odamlardan foydalanish – boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishdir.

Odil sudlov – davlat boshqaruvini tashkil etishning bir shakli. Odil sudlov davlatda sodir etilgan jinoyatlar va fuqarolik ishlariga oid masalalarni odilona, qonun asosida ko'rib chiqib hal etadilar. Odil sudlov jinoyat-protsessual qonun talablari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobida sud hokimiyatining amalga oshirilishi bayon etilgan bo'lib, 106-moddada "O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi". O'zbekiston Respublikasida sud tizimi o'ziga xos tarzda ishlab chiqilgan. Sud ishlari besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo'jalik sudlaridan iborat.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, shuningdek, boshqa fuqarolar tomondan surishtiruv, dastlabki tergov, sud ish yurituvi va jazoni ijro etishni tartibga soluvchi qonunlarni buzish yo'li bilan odil sudlov va shaxs manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda shu bilan sudga jinoyat yoki fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish vazifalariga to'sqinlik qiluvchi qasddan sodir etiladigan harakatlar.

Ozodlikdan mahrum etish – mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iborat bo'lgan jinoiy jazo turlaridan biri. Ozodlikdan mahrum qilish olti oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi. Ozodlikdan mahrum qilish JKning 60-moddasida nazarda tutilgan bir necha jazolarni qo'shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

Oila – bola-chaqa, xonadon, urug' avlod degani bo'lib, er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuasi. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i.

Ombudsman – (shved. “Hombudsman” – “kimningdir qiziqishi”, “taraflarning vakili”) – parlamentning inson huquqlari bo'yicha vakili. Ombudsman birinchi marotaba XIX asrda Shvetsiyada vujudga kelgan va ilk bora yakka tartibda faoliyat olib borgan. Ombudsman – ishonchga loyiq mustaqil shaxs, ayrim fuqarolarning huquqini himoya qilish uchun parlament tomonidan vakolatli hisoblanadi, barcha davlat organlari va ularning vakillari ustidan kengroq formada nazorat etish tushuniladi. Ombudsman boshqa davlat organlariga (ijroiya hokimiyat) nisbatan parlamentning odatdagi funksiyasining nazoratini kengaytiradi hamda qo'shimchalar kiritadi va yordam beradi. Shuning uchun dunyoning ko'p mamlakatlarida nazoratning amaldagi shakllariga qo'shimcha qilib, yana bir nazorat shakli “ombudsman” kiritiladi. Respublikamizda ombudsman faoliyati 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida”gi Qonun bilan tartibga solingan.

Optatsiya – (lot. “optatia” – “xohish”, “tanlov”) – bir davlatdan boshqa davlatga o'tuvchi hudud aholisiga berilgan fuqarolikni tanlash huquqi. Bunday holat amaliyotda juda kamdankam hollarda uchraydi. Masalan, 1957-yil Saar viloyatida o'tkazilgan referendum natijasida ushbu viloyat Germaniya tarkibiga kiritilganidan so'ng fuqarolarga optatsiya huquqi taklif etildi: istagan shaxs Germaniya fuqaroligiga o'tishi yoxud Fransiya fuqaroligida qolishi mumkin edi.

Oferta – bir yoki bir necha muayyan shaxsга yuborilgan, yetarli darajada aniq bo'lgan va taklifni kiritgan shaxsning o'zini

taklif yo'llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif. Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo'lishi kerak. (FKning 367-moddasi). Oferta uni yo'llagan shaxsni oferta yo'llangan shaxs bilan u ofertani olgan paytdan boshlab bog'laydi. Agar ofertani chaqirib olish to'g'risidagi bildirish ofertaning o'zidan oldin yoki u bilan bir vaqtda kelgan bo'lsa, oferta olinmagan hisoblanadi.

Ochiq aksiyadorlar jamiyati – ishtirokchilari o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz o'zga shaxslarga berishlari mumkin bo'lgan aksiyadorlar jamiyati ochiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi. Bunday aksiyadorlar jamiyati o'zi chiqaradigan aksiyalarga qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan shartlar asosida ochiq obuna o'tkazishga va ularni erkin sotishga haqli. Ochiq aksiyadorlar jamiyati har yili yillik hisobot, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobvarag'ini barchaning tanishib chiqishi uchun e'lon qilishi shart. (FKning 65-moddasi).

Palatalarning qo'shma majlisi – ikki palatali tuzilmaga ega bo'lgan parlamentlar ish shakllaridan biri. Mamlakatlarning birlarida parlamentning qo'shma majlisi parlament vakolatiga kiradigan eng muhim masalalarni: urush holati yoki safarbarlikni e'lon qilish, davlat budjetini tasdiqlash, respublika prezidentini saylash va shu kabilarni hal qilish maqsadida, boshqalarida esa faqat davlat boshlig'i maktubini tinglash va boshqa tantanali holatlar uchun nazarda tutiladi.

Panashirlash (panashaj) – (fr. panachage – aralashma, saylov ro'yxatlarini birlashtirish) – mutanosib tizim bo'yicha vakillik saylovlarida saylovchiga turli partiya ro'yxatlaridagi nomzodlarga bir yo'la ovoz berishiga qonunda belgilangan ruxsat. Shveysariya, Shvetsiya, Norvegiyada qo'llanadi.

Parlament (deputatlar) fraksiyasi – parlament yoki uning palatasida bir partiyaga mansub deputatlar birlashmasi. Odatda Parlament fraksiyasi tarkibiga partiyaning yetakchilari va ko'zga ko'ringan arboblari kiradi. Parlament fraksiyasi partiyaviy intizom bilan bog'langan bo'ladi. Partiya fraksiyasiga maxsus organlar boshchilik qiladi. Alohida muhim ovoz berishlardan oldin Parlament fraksiyalari kengashib oladi. Parlament fraksiyalarini tashkil etish va ular faoliyati masalalarini parlament va uning palatalari reglamentlari, shuningdek, konstitutsiyaviy odatlar boshqarib turadi. O'zbekiston Respublikasida 2002-yil 12-dekabrda

“O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq deputatlar fraksiyasi quyidagi tartibda tuziladi: Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlarini shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin. Fraksiya siyosiy partiyadan ko‘rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Qonunning 24-moddasiga muvofiq Qonunchilik palatasining kamida to‘qqiz nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Fraksiyalar va deputatlar guruhlarini ro‘yxatdan o‘tishi kerak. Qonunchilik palatasining majlisida fraksiya va deputatlar guruhining rahbari yoki boshqa vakili tegishincha fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida palataga axborot beradi, bu Qonunchilik palatasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

Parlament (ingl. “parlament”, frans. “rarler” – gapirmoq, so‘zlamog) – demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiya, Moldova, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi “parlament” deb yuritiladi; AQShda va Lotin Amerikasining ko‘pgina mamlakatlarida p. kongress deb, Rossiya Federatsiyasida — Federal Majlis — Rossiya Federatsiyasi P. deb, Litva va Latviyada — seym deb ataladi. Tuzilishiga ko‘ra, p. bir palatali yoki ikki palatali bo‘ladi (qarang: Ikki palatali tizim, Bir palatali tizim). Tarixda uch palatali p. ham bo‘lgan (masalan, JARda 1984–1994-yillarda). P. birinchi marta XIII asrda Angliyada tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi;

Parlament indemniteti – (ingl. “indemnity” lot. “indemnitat” – zararsizlik) parlament deputatlarining javobgar emasliklaridan iborat bo‘lgan imtiyozlari. Deputatlarining javobgar emasliklari deputatni u deputatlik majburiyatlarini bajarish vaqtida sodir etgan barcha xatti-harakatlari (parlamentda nutq so‘zlash, ovoz berish, komissiyalarda ishtirok etish va boshqalar) uchun ta‘qib etilmasligini anglatadi. Hech kim, shuningdek, parlamentning o‘zi ham bunday xatti-harakat uchun, hatto u parlament a‘zolidan chiqqanidan keyin ham deputatni javobgarlikka jalb etolmaydi. Parlamentdagi faoliyati uchun (deputatlarni) taqdirlash, bunga qarorgoh, yozishmalar, safarlar va shu kabilar xarajatlarini qoplash ham kiradi.

Parlament komissiyalari – parlament tashkil qiladigan (palatalarning har biri yoki ikkala palata birgalikda – birlashgan Parlament komissiyalari) yordamchi organlar. Qonunchilik Parlament komissiyalari muhim rolni o'ynaydi, chunki, parlament qabul qiladigan qonunlar loyihalari qaror va boshqa hujjatlar loyihalarining katta qismi ko'rib chiqish uchun shu komissiyalarga beriladi. Parlament komissiyalari vakolat muddati, ixtiyordagi mavzu va huquq hajmiga ko'ra doimiy (parlament vakolatining butun muddati tashkil etiladi), muvaqqat, ixtisoslashganlarga bo'linadi. Ko'pchilik davlatlar (AQSh, Fransiya, Italiya, GFR, Finlyandiya va boshqalar)da parlamentlar doimiy qonunchilik komissiyalarini tashkil qiladi, bunda qoidaga ko'ra, bu Parlament komissiyalari ixtisoslashadi (iqtisodiy, moliyaviy, qishloq xo'jaligi, harbiy va boshqalar). Muvaqqat komissiyalar (ko'pincha ixtisoslashmagan) birorta aniq masalani ko'rib chiqish uchun tashkil etiladi.

Parlament muzokaralari – parlament faoliyati shakllaridan biri bo'lib, deputatlarning qonun loyihasi yoki qarorlar loyihalarini parlament yoki uning alohida palatasi umumiy majlisda muhokama qilinishidan iboratdir. Parlament reglamenti belgilagan tartibda o'tkaziladi. 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respubikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga muvofiq qonun loyihasini Qonunchilik palatasining qo'mitalarida muhokama qilish ochiq, qonun loyihasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining vakili taklif etilgan holda o'tkaziladi.

Parlament muxolafati – hukumatni tashkil qilishda ishtirok etmaydigan, qator prinsipial masalalarda hukumat siyosatiga qarshi chiqadigan birorta partiyaning parlamentdagi deputatlari guruhi yoki parlament fraksiyasi. Qator mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniyada) parlament reglamentlari yoki odatiy huquq normalari Parlament muxolafati maqomi va huquqlarini mustahkamlaydi, jumladan, parlament muxolafati a'zolarining parlament (yoki uning palatasi) organlaridagi vakillik kvotasini belgilaydi, uning yetakchisiga maxsus maosh tayinlaydi.

Parlament nazorati – davlat nazorati shakllaridan biri. Asosan umuman siyosiy, ba'zi holda ma'muriy tusda bo'ladi. Parlamentar davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday nazoratning asosiy metod va shakli ishonch to'g'risidagi masala, tanbeh rezolyutsiyasi, interpellyatsiya, hukumatga og'zaki va yozma savollar (parlament savollari) parlament tekshirishidir. Prezidentlik respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazoratining ahamiyati kamroq: uning asosiy vositasi parlament tekshiruvi hisoblanadi, u istisno hollardagina impichment taomilini qo'llashga olib kelishi mumkin. Keyingi o'n yillikda inson huquqlariga rioya qilinishi ustidan Parlament nazorati borgan sari ko'proq ahamiyat kasb etmoqda, bu turli mamlakatlarda inson huquqlari bo'yicha parlament vakili (q. Ombudsman) instituti (tartiboti)ning keng yoyilishida o'z ifodasini topmoqda. Parlamentning maxsus organlari: hisob palatasi, hisob sudlari va boshqalar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy va moliyaviy-iqtisodiy nazorat Parlament nazoratining alohida turi hisoblanadi. Parlament nazoratining bu turi endi siyosiy emas, balki ma'muriy tusga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida parlament nazorati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan amalga oshiriladi. 2003-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi Qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu nazorat parlament so'rovi, qonunchilik palatasi deputati so'rovi va xar yilgi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilining, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Raisining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi raisinig hisobotlarini eshitish orqali amalga oshiriladi.

Parlament sessiyasi (lot. "sessio" – yig'ilish) – parlament (parlament palatalari) va uning komissiyalari yalpi majlisi bo'lib o'tadigan davr. Har bir yil mobaynida navbatdagi Parlament sessiyasining necha marta bo'lishi qonun yoki odat bo'yicha belgilanadi. Ko'rsatilgan son dan ortiqcha hamda noodatiy vaqtda chaqiriladigan Parlament sessiyalari favqulodda (navbatdan tashqari, yekstraordinar) sessiyalar deb ataladi. O'zbekiston Respublikasida Qonunchilik palatasi majlislari Konstitutsiyamizning 81-moddasiga binoan sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

Parlament so'rovi – parlamentar davlatlarda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratining shakllaridan biri. Parlament savollarini deputatlar og'zaki va yozma berishlari mumkin. Parlament reglamenti Parlament savollari berilishi mumkin bo'lgan qoidalarni, ularni kiritish tartibini, shuningdek, hukumat yoki alohida vazir javobni taqdim etishi lozim bo'lgan muddatni belgilaydi. Umumiy qoidaga ko'ra, Parlament savoliga javob Parlament savoli qanday shaklda (og'zaki yoki yozma) berilgan bo'lsa, shunday shaklda qaytariladi. Parlament savollari va hukumatning ularga javoblari (interpellyatsiyadan farq qilib) hukumatga ishonchsizlik bildirish masalasini qo'yish uchun mustaqil sabab bo'lolmaydi. 2002-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga haqli. Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

Parlament ta'tillari – parlament sessiyalari o'rtasidagi davr, bundan deputatlar dam olish va o'z okruglarida saylovchilar bilan ishlash maqsadida foydalanishadi.

Parlament tekshiruvi – parlamentning nazorat vakolatlarini amalga oshirish usullaridan biri. Qoidaga ko'ra vaqtinchalik xarakterdagi maxsus tashkil etiladigan parlament (tergov) komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Parlament tekshiruvi, agar yo'l qo'yilgan qonun buzilishi siyosiy tusda, shuningdek, boshqa siyosiy insedentlarga ega bo'lsa, odatda parlamentga hisobdor bo'lgan ijro etuvchi hokimiyat organlari munosabatida o'tkaziladi.

Parlamentar monarxiya – konstitutsiyaviy monarxiyaning ikki turidan biri (dualistik bilan birga). Monarx o'z vazifalarini faqat nomigagina bajarishi bilan ifodalanadi. Hatto konstitutsiya unga katta vakolatlar bergan taqdirda ham (Niderlandiya, Daniyadagi kabi), konstitutsiyaviy-huquqiy odat tufayli u bu vakolatlardan mustaqil foydalana olmaydi. Monarx chiqaradigan barcha hujjatlar vazirlar tomonidan rasmiy ma'qullanishi kerak (kontrassignatura). Qator Parlamentar monarxiyalarda (Yaponiya, Shvetsiya) monarx konstitutsiyaga ko'ra hatto rasman ham birorta

jiddiy vakolatga ega emas. Parlamentar monarxiyada hukumat rasman va haqiqatda parlament oldida hisobdor. Konstitutsiyaga ko'ra davlatning boshqa organlari orasida rasmiy ustuvorlik parlamentga tegishlidir.

Parlamentar respublika – boshqaruvni respublika shaklining turi (q. Respublika), parlamenning rasman to'la hokimiyatli organ hisoblanishi, u o'ziga siyosiy hisobdor bo'ladigan hukumatni tuzadi va ijro etuvchi hokimiyatni emas, balki faqat davlat boshlig'i hisoblanuvchi prezidentni saylaydi (bevosita yoki saylashga vakil qilinganlar maxsus hay'ati tarkibida). Prezident o'z vakolatlarini qoidaga ko'ra bosh vazir boshchilik qiladigan hukumat taklifiga binoangina amalga oshiradi. Parlament hukumatni agar u parlament ko'pchiligi qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lsa, ishonchsizlik bildirib, iste'foga chiqarishi mumkin. Bu holatda prezident hukumat taklifiga ko'ra parlamentni tarqatib yuborish va muddatidan oldin saylovlarni e'lon qilish huquqiga ega. Parlamentar respublikaning klassik modeli GFR, Italiya, Vengriya, Chexiya, Latviya, Estoniyada mavjud.

Parlamentni tarqatib yuborish — parlamentar davlatlarda, shuningdek, aralash turdagi respublikalarda davlat hokimiyatini amalga oshirish konstitutsiyaviy mexanizmining asosiy elementlaridan biri. Parlamentni tarqatib yuborish (muddatidan oldin parlamentga saylovlarni e'lon qilish) huquqiy davlat boshlig'iga tegishli (garchi bundan u, qoidaga ko'ra faqat hukumat «iltimosiga» binoan foydalansa-da) hamda u hukumatning parlament oldidagi javobgarligi tartibotiga (institutiga) qarshi qo'yiladigan tartib hisoblanadi. Muvofiq davlatlar konstitutsiyalarida odatda Parlamentni tarqatib yuborish mumkin bo'ladigan holat va shart-sharoitlar ro'yxati aniq belgilanadi.

Patronat – bolalarni oilaga tarbiyaga olish (OK 22-bobi). Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan, tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Pekin qoidalari – xalqaro huquqda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat huquqi va jinoyat protsessida yengillashtirilgan tartibga amal qilishi lozimligi haqidagi qoidalar majmui bo'lib, u voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish

tariqasidagi jazo choralari qo'llamaslikka harakat qilish, ularni so'roq qilishda psixolog yoki pedagoglar ishtirok etishi zarurligi haqidagi qoidalar ham shular sirasiga kiradi.

Peonaj – bu xo'jayinning kuchli tazyiqi bilan belgilanuvchi tobelikka xos bo'lgan shaxsdan foydalanish shaklidir.

Piketlar – bu muayyan guruh shaxslarning ko'chadagi namoyishlari bo'lib, ular plakatlari, transparentlar va boshqalar orqali hukumatdan o'zlarining qiziqish, talab va ehtiyojlariga ko'proq e'tibor berishni talab qiladilar.

Plebissit – (lot. "plebs" – "oddiy xalq", "scitum" – "qarori, farmoni") – referendumning o'ziga xos shakli bo'lib, u aholi yashaydigan hududdagi siyosiy taqdirini belgilashdan iborat. Uning huquqiy maqomi turli davlatlarda turlicha belgilangan. Jumladan, AQShda referendum plebissitdan farq qilmaydi; Fransiyada ushbu atama referendumga sinonim sifatida qo'llanilgan; Italiya, Ispaniya, Rossiya va O'zbekiston qonunchiligida plebissit tushunchasi; aksincha, Kosta Rika va Chili qonunchiligida esa, referendum tushunchalaridan foydalanilmagan. O'tkazilishi ko'lami va doirasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, plebissit o'tkazish jarayoni unda qanday masala muhokama qilinishidan qat'i nazar, referendum jarayonidan farq qilmaydi.

Prokuror – bu prokuratura organlarining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs.

Prokuror (sud) sanksiyasi – qonun bilan belgilangan holatlarda majburlov xarakterdagi harakatlarni qo'llashning qonun bilan o'rnatilgan majburiy tartibi. Prokuror (sud) sanksiyasi ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish, tintuv o'tkazish majburlov chorasini qo'llash uchun zarur bo'lib hisoblanadi.

Rezident – O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar e'tirof etiladi: O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs; O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Reintegratsiya (lot. "dastlabki fuqarolikni tiklash") – fuqarolikni tiklash usulidir, ya'ni yo'qotilgan fuqarolikni qaytarib

olish. Fuqarolikni tiklash revolyutsiya, oilaviy yoki boshqa sabablarga ko'ra, ma'lum ehtiyoj va zaruriyat tufayli muhojir bo'lgan shaxslarning o'z vataniga qaytib, uning fuqaroligini qayta qo'lga kiritishini nazarda tutadi. Ko'pincha fuqarolikni qayta tiklash individual, ya'ni yakka, ba'zan esa, bir guruh shaxslarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Rekvizitsiya – tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tUSDagi boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin (rekvizitsiya). Rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkn o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli. (FKning 203-moddasi).

Repatriatsiya (lot. "vatanni tiklash") – fuqarolikni olishning bu usuli reintegratsiya bilan juda o'xshash: mazmunan ularning har ikkalasi ham fuqarolikni qayta tiklashni nazarda tutadi. Faqatgina repatriatsiyada mazmunan ma'lum millat yoki elatning fuqaroligini tiklash nazarda tutiladi. Bu usul doimo shaxsning o'zi yashab turgan mamlakatning fuqaroligini olish istagini faol va huquqiy ifodalashi bilan bog'liq. Repatriatsiya usuli ma'lum bir muhim tarixiy voqea sababli fuqarolarning katta qismi o'z fuqaroligini yo'qotgan taqdirda, ayniqsa, keng qo'llaniladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushidan so'ng sobiq SSSR tomonidan arman xalqiga o'z mamlakatlariga qaytish imkoniyati berildi.

Referendum – (lot. "referendum" – "nima qilish kerak bo'lsa qilish") bevosita demokratiyaning muhim instituti bo'lib, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni ovoz berish yo'li bilan amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Referendumlarning saylovlardan farqi, u mansabdor shaxsni ma'lum mansabga saylashni emas, balki davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni – qonun, qonun loyihasi, konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish muammolarini hamda ichki siyosiy muammolarni hal qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Referendum u yoki bu masala yuzasidan ovoz berish bo'lib, referendumda qabul qilingan qaror o'z-o'zidan yuridik kuchga kiradi, ya'ni maxsus tasdiqqa muhtoj emas. Referendum xalqning irodasini ifodolovchi

demokratiyaning oliy shakli ekanligi ko'p davlatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlab qo'yilgan.

Rieltorlik faoliyati – yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir (O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-dekabrda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi).

Royalti – quyidagilar uchun har qanday turdagi to'lovlar: fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan, ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; sanoat mulki obyektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun (SKning 22-moddasi).

Ruhiy tazyiq – sog'liqqa shikast yetkazish yoki mol-mulkni nobud qilish bilan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimonni, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlarini qo'rqitib, yolg'on guvohlik yoki xulosa berishni, yohud noto'g'ri tarjima qilishni talab etish.

Saylov huquqi – bu huquqning kompleks sohasi bo'lib, konstitutsiyaviy huquq normalaridan tashqari, ma'muriy, jinoiy va boshqa huquq sohalari normalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqlari O'zbekiston saylov qonunchiligi, xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida", "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida", "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar bilan kafolatlanadi. Saylovlar to'g'risidagi jahon andozalari (standartlari) Fuqarolarning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro Pakt, YeXHTning insoniylik mezonlariga oid hujjatlarida, xususan, 1990-yilgi Kopengagen anjumani hujjatlarida, Parlamentlararo Ittifoq hujjatlarida, ayniqsa, uning 1994-yilgi Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida Deklaratsiyasiga asoslanadi.

Sanksiya – (lotincha “sanction” – qat’iy qaror) 1) Huquqbuzarga nisbatan qo’llanadigan hamda unga nisbatan muayyan salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi chora; 2) Huquqiy me’yor tarkibiy qismi bo’lib, unda mazkur me’yor buzilganda qo’llanilishi mumkin bo’lgan choralar ko’rsatiladi. Sanksiya me’yor tarkibiy qismi sifatida ingliz adabiyotlarida “sanctions” deb emas, balki “vindicatory part” deb yuritiladi. 3) Prokuror (sud) hujjati bo’lib, jinoyatda gumon qilinayotgan shaxsga majburlov chorasini (qamoqqa olish, tintuv va b.q.) qo’llashga ruxsat beradi; 4) Xalqaro huquqda ushbu huquq me’yorlarini (delikt) yohud o’z xalqaro majburiyatlarini buzgan davlatga ta’sir etish chorasini.

Siyosiy boshpana huquqi – siyosiy, milliy ozodlik va ilmiy faoliyati uchun quvg’inga uchragan ajnabiy fuqarolarga biror-bir mamlakatga kelish va unda yashash uchun davlat tomonidan ruxsat berish, quvg’inga uchragan qochoqlarni qidirayotgan davlatga tutib bermaslik huquqi. Qoida tariqasida, aynan siyosiy boshpana so’ralayotgan davlat boshlig’i siyosiy boshpana berishga haqli hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida Qochoqlar ishi buyicha Bosh Komissariat Boshqarmasi tashkil qilingan bo’lib, u jahon miqyosida mazkur masalani tartibga solishga vakolatli bo’lgan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Siyosiy partiya – bu ma’lum aholi qatlamlarining yoki ijtimoiy birlikning manfaatlarini, qiziqishlarini, siyosiy intilish va talablarini ifodalovchi hamda ularni real hayotda amalga oshirish uchun saylovlarda qatnashish orqali davlat hokimiyatini egallash va undan foydalanish maqsadini ko’zlovchi, ixtiyoriy ravishda uyushgan kishilarning nodavlat tashkiloti.

Soliq agentlari – zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to’lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg’armalariga o’tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir (SKning 13-moddasi).

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar – soliqlar deganda SKda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg’araz xususiyatga ega bo’lgan, budjetga yo’naltiriladigan majburiy pul to’lovlari tushuniladi. Boshqa majburiy to’lovlar deganda SKda belgilangan davlat maqsadli jamg’armalariga majburiy pul to’lovlari, bojxona to’lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to’lovchilarga

nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi (SKning 12-moddasi). Soliq turlari: 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; 3) qo'shilgan qiymat solig'i; 4) aksiz solig'i; 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 7) mol-mulk solig'i; 8) yer solig'i; 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. Boshqa majburiy to'lovlar turlari: 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar: yagona ijtimoiy to'lov; fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar; 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar; 3) davlat boji; 4) bojxona to'lovlari; 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im (SKning 23-moddasi).

Subsidiar javobgarlik – qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishda javobgar bo'lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo'yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo'yishi kerak. Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo'yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, bu talab subsidiar javobgar bo'lgan shaxsga qo'yilishi mumkin. (FKning 329-moddasi).

Sud hokimiyati – bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarning, ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatlidir. Sud hokimiyati Konstitutsiya, davlat hokimiyatining bo'linish prinsipiga asosan hokimiyat tarmog'i bo'lib, u sud organlari orqali amalga oshiriladi, ular O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudidan tashkil topadi.

Surishtiruv – bu jinoyatning oldini olish, uni ochish maqsadida jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng kechiktirib bo'lmaydigan barcha tergov harakatlarini amalga oshiradigan va faqat jinoyat-

protsessual qonun bilan tartibga solinadigan davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatidir. Surishtiruvchi esa – surishtiruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi, surishtiruv organining boshlig'i yoki shunday organlarning mansabdor shaxsiga surishtiruv organi boshlig'ining topshirig'iga binoan: jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik; dalillarni to'plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yurituvchi shaxs.

Tabaalik – feodal davrga oid atama bo'lib, u shaxsning feodal boshliq (iozeren)ga tegishli ekanligini, shu sababli unga o'lpon to'lashi lozimligini anglatadi. Hozirda ushbu atama rasmiy doiralarda deyarli qo'llanilmaydi.

Tarbiya koloniyalari – voyaga yetmay turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga mo'ljallangan koloniyalar. Ularning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi JIKning 50-moddasida belgilangan.

Tarif tizimi – xodimlarning ish haqi darajasini ularning malakasi, mehnatining unumdorligi, xususiyati va sharoitga, ular bajaradigan ishning mas'uliyatlilikiga, ishlab chiqarish tarmog'i, korxonalarining hududiy joylashishi, qo'llaniladigan ish haqining shakllariga ko'ra tabaqalashtirish va tartibga solishga asos bo'ladigan normativlar majmuasidir. Tarif tizimi yordamida davlat mehnatga haq to'lashning differensiyasini amalga oshiradi.

Ta'lim – o'rganish, o'qitish, ilm berish, malaka ko'nikmalar hosil qilish bo'lib, u ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil hisoblanadi.

Tergov hibsonalari – gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar sudga qadar ushlab turiladigan joy bo'lib, ular yuridik shaxs maqomiga ega.

Tergovchi – vazifasi dastlabki tergovni olib borish bo'lgan, qonunda belgilangan tartibda prokuror, Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan tayinlangan shaxs.

Tintuv – surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda amalga oshirishga haqli bo'lgan protsessual harakatlardan biri bo'lib, u qidirilayotgan

shaxsni, shuningdek, murdani topish uchun ham o'tkazilishi mumkin.

Topilma – yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart. Basharti, topilma to'g'risida militsiyaga yoki tegishli davlat organiga xabar qilingan paytdan e'tiboran olti oy mobaynida yo'qolgan ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxs aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsga yoxud militsiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ana shu ashyoga bo'lgan o'z huquqi to'g'risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi.(FKning 192-moddasi).

Transfert – (frans. “olib o'tish”) – xalqaro shartnoma asosida davlatlar o'rtasida aholi almashish, fuqarolikni avtomat ravishda o'zgartirish. Transfert vaqtida bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud aholisining, xohishidan qat'i nazar, bir davlatdan ikkinchisiga o'tadi. Transfert kam uchraydi, uning optatsiyadan asosiy farqi majburiy tus kasb etishidir.

Tug'ilish asosidagi fuqarolik – (lot. “filiatia” - “tug'ilish”). Tug'ilish asosida fuqarolikka ega bo'lish usuli bo'lib, uning uch xildagi ko'rinishi mavjud: 1) jus soli – qadimgi Rim huquqshunoslari tomonidan o'rnatilgan “tuproq huquqi asosida”. Yer huquqi asosida fuqarolikni qabul qilish shuni anglatadi-ki, tug'ilgan bola qaysi davlatning hududida joylashgan bulsa, shu davlat fuqaroligini qabul qilishi lozim. 2) jus sanguinis – qon huquqi asosida. Qon huquqi asosida fuqarolikni qabul qilishda esa tug'ilgan bola qoni bo'yicha tegishli bo'lgan ota-onasi qaysi davlat fuqaroligiga mansub bo'lsa bola ham shu davlat fuqaroligini olishi kerak. 3) Ko'pgina davlatlarda esa fuqarolikni qabul qilishning “aralash tamoyili” qabul qilingan bo'lib, fuqarolikni egallash uchun ayni vaqtning o'zida ikkala holatning biror-birining mavjud bo'lishi fakti kifoya qiladi. Aralash tamoyil asosni AQSh, Angliya, Fransiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar keng qo'llanadi. Mamlakatimizda ham aralash tamoyil amal qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolik to'g'risida”gi Qonunini 13-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan tug'ilgan bolalar, O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Turdosh huquqlar obyektlari – turdosh huquqlar obyektlari jumlasiga ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi (FKning 1074-moddasi).

Turma – axloq tuzatish muassasalaridan biri. O'zbekiston Respublikasining JIK 122-moddasiga muvofiq, turmalarda jazoni mazkur muassasaga sud hukmiga binoan keltirilgan mahkumlar, sud tomonidan jazoni ijro etish koloniyalarida o'rnatilgan jazo o'tash tartibini ashaddiy buzuvchilar o'taydilar.

Tuhmat qilish – bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bo'lib, mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi JKning 139-moddasida belgilangan.

To'liq shirkat – ishtirokchilari o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat. Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. To'liq shirkatning firma nomi uning barcha ishtirokchilarining nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni, yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak (FKning 60-moddasi).

Uydirma ma'lumot berish – amalda bo'lmagan narsalar haqida ma'lumot berish bo'lib, yolg'on guvohlik berishning eng oshkora shakli hisoblanadi.

Umumiy tartibli koloniya – JIKning 47-moddasida belgilanishicha, umumiy tartibli koloniyaning quyidagi turlari mavjud: 1) og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan Kengaytiribaklar saqlanadigan koloniyalar; 2) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etish ga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar; 3) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish ga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar, JIKning 48-moddasida ko'rsatilgan ayollar bundan mustasno.

Unitar korxonona – o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot. Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan

hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan, korxonalar xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas. Unitar korxonaning ustavida ushbu Kodeks 43-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan ma'lumotlardan tashqari korxonalar ustav fondining miqdori to'g'risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak. Unitar korxonaning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir. Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkinging egasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Unitar korxonani boshqarish organi uning rahbari bo'lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi. Unitar korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Unitar korxonalar o'z mol-mulki egasining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Unitar korxonalarning huquqiy mavqei ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi. Unitar korxonalar mol-mulkinging egasi korxonalar majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, ushbu Kodeks 48-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bu qoida shu bilan korxonalar ta'asis etgan unitar korxonaning shu bilan korxonalar majburiyatlari bo'yicha javobgarligiga nisbatan ham qo'llaniladi (FKning 70-moddasi).

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyat – JKning 15-moddasiga muvofiq, qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar.

Ushlab turish – jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilish. Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ish qo'zg'atilganidan keyin ushlab turishga faqat tergovchi, surishtiruvchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga muvofiq yo'l qo'yiladi. Jinoyatni sodir etish da gumon qilingan shaxs JPKning 221-moddasiga asosan quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin: 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni

sodir etganidan keyin qo'lga tushsa; 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan, jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar; 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa; 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi – ko'chmas mulk (er uchastkasi, boshqa ko'chmas mulk) egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa – boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqlidir (FKning 173-moddasi).

O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati – o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlardan tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishi mumkin. Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar: 1) mayda maishiy bitimlar; 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar; 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar. Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo'yicha, shu jumladan, o'zi mustaqil tuzgan bitimlar bo'yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiyi, agar ular majburiyatning buzilishida o'zlarining ayblari yo'qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo'ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo'ladilar.

O'ta og'ir jinoyat – qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi (2008-yil 1-yanvardan boshlab umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosi) nazarda tutilgan jinoyatlar.

Feloniya – anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlar jinoyat qonunlarida sanksiyasida 1 yildan ko'p muddatga qamoq yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan og'ir jinoyatlar. Ular asosan davlatga xiyonat va misdiminor orasida turuvchi og'ir jinoyatlar bo'ladi.

Femida (grek. Themis) – yunon mifologiyasidagi Zevsning rafiqasi, afsonaviy ma'buda. Femida so'zi "odil sudlov", "qonun" degan ma'nolarni anglatadi. Uning kohinlari sifatida huquqshunoslarni ko'rsatishadi. U doimo ko'zi bog'liq (xolislik ramzi), bir qo'lida qilich, ikkinchisida tarozi tutgan ayol sifatida tasvirlanadi. Femida bugungi kunga qadar odil sudlov va adolat ramzi sifatida talqin etiladi. Femida – qadimgi Yunonistonda huquq va qonuniy tartibot ma'budasi, Urana va Geining qizi hisoblanadi. U Zevsning birinchi xotini bo'lib, uning qizi – Dike adolat ma'budasi sifatida e'tirof etiladi. Zevs odil sudlovni faqatgina Femida va Dike ishtirokida amalga oshirgan. Femida Zevs qarorlarini e'lon qilgan va unga dono maslahatlar bergan.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) – O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (FKning 16-moddasi).

Fuqaroligi yo'q shaxslar – yoki apatridlar (vatani bo'lmagan kishlar), apolidlar – muayyan davlat hududida yashayotgan bo'lsada, ushbu davlat yoki boshqa chet el davlati fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslardir. Ularning chet el fuqarolaridan farqi ular biror-bir davlatning diplomatik himoyasidan foydalana olmaydilar. Fuqaroligi yo'q shaxslarning maqomi fuqarolar va chet el fuqarolarining maqomidan keskin farq qiladi, chunki ularda siyosiy huquqlar mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik – bu shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligidir. Ma'lum bir davlat fuqaroligini qabul qiluvchi shaxs o'z zimmasiga mazkur davlat qonunlarini bajarish hamda unda belgilangan tartib-taomillarga rioya etish majburiyatini oladi. Davlat esa, o'z navbatida, fuqarolarga inson huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarishni, shuningdek, o'z fuqarolarini xorijda himoyalashni kafolatlaydi. Fuqarolik shaxsning muayyan davlat bilan barqaror, doimiy siyosiy-huquqiy aloqasidir. Bu aloqa ularning o'zaro huquq va burchlarida ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari – fuqarolar hayotidagi tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir (OKning 201-moddasi).

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish – agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq

sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin (FKning 33-moddasi).

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish – agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavfi solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida, olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin. Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida ikki yil o'tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin (FKning 36-moddasi).

Xabeas korpus akt – 1679-yil 27-mayda ingliz parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun. "Habeas corpus" lotincha so'z bo'lib, "shaxsni (sudga) keltirish" degan ma'noni anglatadi. U o'z davrida inson huquqlarini himoya qiluvchi eng ilg'or qonunlardan biri bo'lgan. U agar ozodlikdan mahrum etish joyi sud muassasasidan uzoqroqda joylashgan bo'lsa, qamoqqa olingan shaxsning kechi bilan 20 kun ichida sudga keltirilishi lozimligini belgilaydi.

Xazina – egasi aniqlanishi mumkin bo'lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo'qotgan xazina, ya'ni yerga ko'milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoxud qimmatbaho buyumlar xazina yashirib qo'yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va shu kabilar) mulkdori bo'lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, teng ulushlarda o'tadi. Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat mulkiga topshirilishi kerak. Bunda xazina yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulkning egasi va xazinani topgan shaxs birgalikda xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olish huquqiga egadirlar. Agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mukofot bu shaxslar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi (FKning 196-moddasi).

Hisob palatasi – davlatdagi oliy moliyaviy (moliyaviy-iqtisodiy) nazorat organining dunyoda eng keng tarqalgan nomi. Xuddi shu nomda Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, Germaniya, Rossiya va qator boshqa mamlakatlarda ishlatiladi.

AQShda Bosh hisobot boshqarmasi, Braziliya, Jazoir, Fransiya, Ruminiyada – hisob sudi deb ataladi. Ko'pgina mamlakatlarda ular parlamentning yordamchi organi sifatida faoliyat ko'rsatib, uning nazorat vazifalarining bajarilishini ta'minlaydi. Ammo, masalan, Italiyada Hisob palatasi hukumatning ijro etuvchi organi sifatida konstitutsiyaviy jihatdan ajratilgan. Hisob palatasining aniq vakolatlari va u nazorat qilishi mumkin bo'lgan obyektlar hajmi ham bir xil emas. Qator mamlakatlar (Bolgariya, Gretsiya, Portugaliya, Fransiya, Yaponiya)da bu organga sud organlari vakolatlari beriladi. Shunga ko'ra Hisob palatasi a'zolarining huquqiy holati ham farqlanadi. Ayrim mamlakatlarda ular davlat xizmati to'g'risidagi ko'rsatmalar joriy etiladigan mansabdor shaxslar hisoblanadi. Boshqalarida ular sudya maqomiga ega bo'ladi va o'z lavozimida almashtirilmaydi. Hisob palatasi barcha mamlakatlarda kollegial organ hisoblanadi, unga Rais boshchilik qiladi. Ko'pgina mamlakatlarda Hisob palatasi Raisi va uning a'zolari vazifani bajarishga kirishishda qasamyod qilishlari kerak. Ingliz-sakson huquq tizimini qabul qilgan mamlakatlarda Hisob palatasi vazifasini, qoidaga ko'ra maxsus mansabdor shaxs – Bosh auditor va unga bo'ysunuvchi apparat bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27-iyunda "Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu farmonga ko'ra, Hisob palatasi o'zining faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobot beradi. Hisob palatasining asosiy vazifasi davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, davlat aktiv va passivlarni holati va harakatini nazorat qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.

Hokimiyat vakili – davlatning biror-bir organining nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

Hokimiyatlar bo'linishi – davlat nazariyasining asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, unga ko'ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir-biriga bo'ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi (ular bilan bir qatorda ba'zan ta'sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi). Ushbu prinsipning vazifasi davlat hokimiyati to'laligicha bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Zero,

hokimiyatning to'liq bir shaxs yoki organ qo'lida jamlanishi demokratiyaga inson huquq va erkinliklariga bevosita xavf tug'diradi, avtoritar tuzum o'rnatilishiga olib keladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi birinchi marta 1787-yil AQSh Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu yerda uch hokimiyat nafaqat ajratilgan, balki "o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimi" orqali bir-birini nazorat qiladi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi parlamentar davlatlarda kamroq darajada amal qiladi, chunki ularda parlament ijro etuvchi hokimiyat organlaridan ustun turadi. Hokimiyatlar bo'linishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida konstitutsiyaviy tuzumning asoslaridan biri sifatida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi". Ushbu prinsip mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Homiylik – 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga va sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi hollarda belgilanadi: ota-onasi vafot etgan bo'lsa; ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda; ota-onasi kasal bo'lganda; ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda; ota-onasi 6 oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa; ota-onasi bedarak yo'qolganda; ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan, ota-ona tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, boshqa zarur hollarda (1999-yil 12-aprelda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Nizomning 2-qismi, 1–2-bandlari).

Huquq layoqati – shaxslarning ularning huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati, muomala layoqati, qobiliyati bo'lib, u barcha uchun teng hamda uning mazmuni pozitiv huquq bilan belgilab qo'yiladi.

Huquq layoqati – barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati. Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Huquq subyekti – huquq va majburiyatlarga bevosita yoki vakil orqali ega bo'lish va amalga oshirish qobiliyatiga qonuniy ravishda ega bo'lgan shaxs. Huquq subyekt

huquqning barcha sohalaridagi huquqiy munosabatlarning zaruriy elementi bo'lib, ularning har birida subyektning holati muayyan o'ziga xoslikka ega. Masalan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladilar; tijorat va notijorat tashkilotlari – yuridik shaxs hisoblanadi, fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyektlarining uchinchi turini davlat, davlat va munisipal tuzilmalar tashkil etadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda asosan davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ayrim hollardagina tashkilotlar (yuridik shaxslar) huquq subyektlari bo'la oladilar. Qonun biror shaxs yoki tuzilmani huquq subyekt

sifatida tan olar ekan, uning davlat organlari va boshqa shaxslarga nisbatan tutgan o'rnini tavsiflovchi huquqiy maqomini belgilab beradi.

Huquqiy tenglik – avvalo, har bir insonga davlat va jamiyat tomonidan bir xil imkoniyat yaratilishi, ular huquqlarini muhofaza qilish huquqiy mexanizmining yagonaligi, barchaning qonun va sud oldida barobarligi hamda bir xil huquqiy mavqega egaligidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanliklari o'z aksini topgan. Huquqiy nuqtai-nazardan barcha insonlarning teng bo'lib tug'ilishi ularning bir xilda huquq layoqatiga ega ekanliklarini anglatadi.

Hukumat – davlatning oliy kollegial ijro etuvchi organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin: vazirlar kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O'zbekiston), Davlat kengashi (XXR) va boshqalar. Hukumat partiyasiz, bir partiyali va koalitsion bo'lishi mumkin. Hukumatni tuzish tartibi boshqaruv shakliga bog'liq bo'ladi. Parlamentar mamlakatlarda Hukumatni davlat boshlig'ining topshirig'iga binoan bir palatali parlamentda yoki ikki palatali parlamentning quyi palatasida ko'pchilik o'ringa ega bo'lgan partiya yetakchisi (koalitsion Hukumatda – partiyalar yetakchilaridan biri) tuzadi. Prezidentlik respublikalarida (shunday organ konstitutsiyada nazarda tutilgan bo'lsa) Hukumatni prezident tuzadi, bunda u tayinlagan Hukumat a'zolaridan har biri qator mamlakatlarda

(Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston) parlament tomonidan tasdiqlanishi kerak. Hukumat a'zolari (vazirlar, lavozimsiz vazirlar, davlat vazirlari, davlat kotiblari va boshqalar) davlat boshqaruvining aniq markaziy idoralariga boshchilik qilishadi, parlamentar respublikalarda ular odatda parlament a'zolari bo'lishlari kerak, qachonki prezidentlik va qoidaga ko'ra, yarim prezidentlik respublikalarida vazirlik lavozimini va deputatlik mandatini qo'shib olib bormaslik prinsipi amalda bo'ladi. Parlamentar davlatlarda Hukumat parlamentga (ikki palatali parlamentda quyi palataga) kollegial hisobdor bo'ladi. Bu parlamentdagi ko'pchilikning qo'llab-quvvatlashi yo'qotilganda (Hukumat koalitsiyasi bo'linib ketganda) Hukumat iste'foga chiqishga majbur (bu hukumat tanqisligi boshlanganligidan darak beradi, u yangi Hukumatning tuzilishi va parlamentning unga ishonch bildirishi bilan tugallanadi) yoki parlament tarqatib yuborilib, muddatidan oldin parlamentga saylovlar tayinlanadi. Federal davlatlarda markaziy (federal) Hukumat va federatsiya tarkibiga kiruvchi davlat tuzilmalari (shtatlar, muzofotlar) Hukumatlari bo'ladi. Hukumat to'la tarkibda ishlashi mumkin yoki Hukumat boshlig'i torroq hay'atni (mahkama — Buyuk Britaniya, Hindiston va boshqalarda) tuzadi. Hukumat o'z tarkibidan yordamchi hukumat qo'mitalarini tuzishi mumkin. Hukumat qarorlari yoki siyosiy ko'rsatmalar tusida bo'ladi yoki normativ hujjatlar yoki qonun loyihalari ko'rinishida (odatda alohida vazirliklar tomonidan ishlab chiqiladi) rasmiylashtiriladi va so'ngra ular parlamentga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Hukumat boshlig'i — davlatdagi ijro etuvchi hokimiyatning oliy kollegial organi rahbari. Hukumat boshlig'i turli mamlakatlarda turlicha atalishi mumkin: bosh vazir, vazirlar kengashining raisi, vazir-raisi, davlat vaziri, federal kansler va boshqalar. Hukumat boshlig'ini lavozimga davlat boshlig'i tayinlaydi; parlamentar davlatlarda, shuningdek, aralash turdagi respublikalarda qoidaga ko'ra, parlament saylovlarida g'alabaga erishgan partiya-

ning yetakchisi yoki hukumat koalitsiyasini tashkil etgan partiyalar yetakchilaridan biri hukumat boshlig'i lavozimini egallaydi. Ayrim prezidentlik respublikalarida (masalan, Turkmaniston) prezident rasmiy hukumat boshlig'i hisoblanadi.

Xususiy mulk huquqi – xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir (FKning 207-moddasi).

Senz - bu fuqarolarning ma'lum huquqlarini qonun asosida cheklovchi maxsus shartlar yoki fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlari uchun konstitutsiya va qonunlarda belgilangan shartlar hisoblanadi. Senzlar asosan siyosiy huquqlarga xos tushunchalardir.

Tsessiya – xalqaro huquqda bir davlatning hududini boshqa davlatga o'zaro kelishuv asosida berishi. Tsessiya tegishli kompensatsiyani nazarda tutadi hamda turli shakllarda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tegishli davlatlar o'rtasida tsessiya tuzish xalqaro shartnomalarda ham ko'zda tutilishi mumkin. Bu shartnoma xalqaro huquqning barcha talablariga javob berishi lozim.

Chet el fuqarolari – yashab turgan davlatning fuqarosi bo'lmagan va boshqa davlatning fuqarosi ekanligi to'g'risida tegishli dalillari bo'lgan shaxslar. Chet el fuqarolarining huquqiy holati o'z davlatining milliy qonunchiligi va ikki davlat o'rtasida o'zaro tuzilgan xalqaro shartnoma hamda kelishuvlar bilan belgilanadi. Milliy qonunchilik chet el fuqarolarining bir necha toifalarini (davlatning hududida doimiy yashovchi, davlatda vaqtincha bo'luvchi, diplomatik daxlsizlikka ega bo'lgan, qochoq) ajratadi, ularning har birining huquqiy holati alohida bo'ladi. Chet el fuqarolari qoidaga ko'ra ko'pgina siyosiy huquqlardan foydalanmaydilar.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi – hech kimning asossiz va qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emasligini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy huquq bo'lib, insonning tug'ilishi bilan qo'lga kiritiladi. Shaxsiy daxlsizlik huquqi shuni anglatadiki, shaxsni vaqtincha ozodlikdan mahrum etish (hibsda saqlash yoki ushlab turish) faqatgina ma'lum bir muddatga amalga oshirilishi mumkin va albatta, qonunchilikda belgilangan tartib-taomillarga qat'iy amal qilinishi lozim.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar – subyektiv huquqlarning bir turi bo'lib, mulkiy mazmunga ega bo'lmagan ne'matlardan

foydalanish huquqini ifodalaydi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo'lgan huquqi, tasvirga bo'lgan huquqi, mualliflik huquqi yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo'lgan boshqa nomoddiy ne'matlar. Ushbu huquqlar ularning tortib olinmasligi; ularning vindikatsion da'vo bilan himoyalansmasligi; ularning boshqa shaxsga o'tkazib bo'lmasligi, ya'ni ularni tashuvchidan begonalashtirilmassligi va ajralmasligi kabi xususiyatlari bilan farqlanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar – ijtimoiy va huquqiy maqomidan qat'iy nazar, insonga tug'ilgandan mansub bo'ladigan asosiy huquqlar. Shaxsiy huquqlarga quyidagilar kiradi: hayotga bo'lgan huquq; erkinlikka bo'lgan huquq; shaxsiy daxlsizlik huquqi; diskriminatsiyaning taqiqlanishi; qiynoqning taqiqlanishi; shafqatsiz va sha'n, qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarining man etilishi; qullikning taqiqlanishi; majburiy mehnatning taqiqlanishi; qonunga xilof qamoqqa olishning man etilishi; boshpanaga bo'lgan huquq; shaxsiy hayotga bo'lgan huquq (telefon, xat-xabar va so'zlashuvlarning maxfiyligi huquqi; birovlar shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni ular rozilgisiz saqlash, foydalanish va tarqatishning taqiqlanishi); uy-joy daxlsizligi huquqi; sha'n va qadr-qimmatni muhofaza qilishga bo'lgan huquq; fikrlash erkinligi; vijdon va e'tiqod erkinligi; axborot erkinligi (axborot olish, yaratish va tarqatish erkinligi); harakatlanish erkinligi; ko'chish erkinligi; mehnat erkinligi; mulkdor bo'lish huquqi; nikohga kirish huquqi.

Shaxsning yashash huquqi – bu insonning tug'ilishi bilan vujudga keluvchi, uning biologik mavjudligini ta'minlovchi hamda davlat tomonidan muhofaza etiluvchi huquq. Inson hayoti bu bebaho va hech bir narsa bilan taqqoslash mumkin bo'lmagan eng oliy ne'matdir. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (24-moddasi) yashash huquqi kafolatlanadi. Bu davlat tomonidan uni qo'riqlash va himoya qilishning kuchli mexanizmi yaratilishini talab qiladi. Ushbu tadbirlar nafaqat jinoyatchilikning oldini olish yoki jinoyatga qarshi kurashish natijasida huquqni muhofaza qilish faoliyatini, balki, ijtimoiy sohada ham inson hayotining ta'minlanishini o'z ichiga olmog'i lozim. Hozirgi kunda juda ko'p davlatlarda (jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo

davlatlarning deyarli barchasida) o'lim jazosi taqiqlangan yoki moratoriy e'lon qilingan.

Sho''ba xo'jalik jamiyati – agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqega ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho''ba xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi. Sho''ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati (shirkati)ning qarzlari bo'yicha javob bermaydi. Asosiy jamiyat (shirkat) aybi bilan sho''ba xo'jalik jamiyati nochor (bankrot) bo'lib qolgan taqdirda, asosiy jamiyat (shirkat) uning qarzlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Sho''ba xo'jalik jamiyati ishtirokchilari (aksiyadorlari) asosiy jamiyatdan (shirkatdan) uning aybi bilan sho''ba jamiyatga yetkazilgan zararni to'lashni, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, talab qilishga haqli (FKning 67-modda).

Evtanaziya – yashash uchun muhim bo'lgan organlarisiz tug'ilgan, yashashga qobiliyatsiz bo'lgan bolalarning hayotdan mahrum qilinishi, shuningdek, tuzalib bo'lmas kasallikka chalingan va yashash faqatgina og'ir holatlarni taqdim qiladigan shaxslarni ularning roziligi bilan hayotdan mahrum qilinishini nazarda tutadi.

Ekstraditsiya (lot. "bir davlatdan boshqa bir davlatga o'z fuqarosini berishi") - xalqaro miqyosda taqiqlangan jinoyatlar sodir etgan jinoyatchilarni ushlab berishdir. Hozirgi konstitutsiyalar qoida tariqasida o'z fuqarosini xorijiy davlatlarga berish so'zsiz man qilingan. Xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni berishga, xalqaro shartnomalarda ko'rsatilganidek, faqat tegishli davlatlar o'rtasida shartnoma tuzilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga asosan, fuqarolarga nisbatan, o'lim jazosi yoki qiynoqqa solish xavfi va ehtimoli mavjud davlatlarga ekstraditsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Emansipatsiya – o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, uning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi.

Erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqi – mazkur huquq quyidagilardan tashkil topgan: har bir fuqaro o'z mamlakati hududida erkin harakatlanishga haqli; har bir fuqaro mamlakati hududida turar joy va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega; har bir inson istalgan mamlakatni, shu jumladan, o'z davlatini ham tark etishga haqli; har bir inson o'z mamlakatiga qaytish huquqiga ega; hech kim o'z mamlakatidan haydab yuborilishi mumkin emas; hech kim o'z mamlakatiga qaytish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. Harakatlanish va joylashish erkinligi davlat xavfsizligi yoki jamoat tinchligini saqlash, jamoat tartibini qo'llab-quvvatlash, jinoyatchilikning oldini olish, sog'liq yoki ma'naviyatni himoya qilish yoki boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish maqsadida cheklanishi mumkin.

Erksiz holatda saqlash – insonning erkin harakatlanishiga xalaqit berishda ifodalanadi. Uning qullikdan asosiy farqi ham tobelikning nisbiy bo'lishidadir. Erksiz holatda saqlash tobe tomonning erkin harakatlanishining chegaralanganligi va huquqlarining faqatgina ayrimlariga egaligi bilan baholanadi.

Ehtiyot choralari – jinoiy protsessual majburlovning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jinoiy javobgarlikka jalb etilgan, ba'zan esa jinoyat sodir etish da gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan odil sudlov faoliyatini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ehtiyot chorasi jinoiy protsessual majburlov choralarining asosiy qismini tashkil qiladi. Ularning qo'llanilishi muayyan shaxslar toifasi (ayblanuvchi, gumonlanuvchi) huquq va erkinliklari cheklanishi bilan bog'liq. Majburlov choralari majburlov xarakterga ega bo'lib, amalda uning har qanday shakli fuqaro shaxsiy erkinligining (iroda erkinligi, harakat qilish, daxlsizlik va h.k.) cheklanishiga sabab bo'ladi.

E'tiqod – ishonch, ishonish, ko'ngilda tasdiqlash, imon, maslak deganidir. E'tiqod erkinligi – insonning o'zi xohlagan, tanlagan diniga imon keltirishi, ishonishi erkinligidir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot (FKning 39-moddasi).

Yaqin qarindoshlar – er, xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar (SKning 22-moddasi).

Yakka tartibdagi tadbirkor – tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir (SKning 18-moddasi).

TEST SAVOLLARI

1. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?
- a) 1993-yil 2-iyulda
 - b) 1993-yil 20-iyunda
 - c) 1992-yil 22-sentabrda
 - d) 1992-yil 2-iyulda
2. Farobiyning fikriga binoan davlatning asosiy vazifasi –
- a) mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish
 - b) hukmdorlar manfaatlarini himoya qilish
 - c) jamoa tartibini ta'minlash
 - d) zodagonlar irodasini ifoda etish
3. "Orangizda eng yaxshingiz, o'ta-onasiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lganingizdir", deb ta'kidlaydi ...
- a) Farobiy
 - b) Ibn Sino
 - c) Ahmad Yugnakiy
 - d) Qur'on
4. Qonun ustuvorligi tamoyili va qonunlarning barcha uchun majburiyligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida belgilangan?
- a) 1, 70-modda
 - b) 89, 90-modda
 - c) 15, 48-modda
 - d) 114, 115-modda
5. Kim O'zbekiston Respublikasida naqd pul chiqarish va muomaladan qaytarib olish huquqiga ega?
- a) Oliy Majlis
 - b) Prezident
 - c) Markaziy bank
 - d) Moliya vazirligi
6. Qaysi tashkilotlar shartli ravishda hukm qilingan shaxs ustidan nazoratni amalga oshiradi?
- a) Sud idoralari
 - b) Ichki ishlar idoralari
 - c) Sud ijrochilari
 - d) Prokuratura idoralari
7. Qonun buzilganligi aniqlanganda prokuror qanday choralar qo'llashi mumkin?
- a) yozma ogohlantirish, qonun buzilishini bartaraf qilishni talab qilish
 - b) qonun buzilishini shoshilinch bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma berish

- c) jinoiy ish qo'zg'atish bo'yicha qaror qabul qilish
- d) barcha javoblar to'g'ri

8. Nima sababdan huquqiy davlatda hokimiyat bo'linish prinsipiga rioya etilishi shart?

- a) mamlakat xalqlari orasida urush bo'lmasligi uchun
- b) xalq hokimiyatini o'zlashtirishning oldi olinadi
- c) har kim o'z vazifalarini boshqa davlat organlariga yuklamasdan o'zi bajaradi
- d) hokimiyat uchun kurashning oldi olinadi

9. Necha yoshdan boshlab, aosan, shaxslar ishga qabul qilinadi?

- a) 18 yosh
- b) 16 yosh
- c) 21 yosh
- d) 25 yosh

10. Federativ davlat qurilishiga ega bo'lgan davlatni aniqlang.

- a) Kanada
- b) Fransiya
- c) Britaniya
- d) Yaponiya

11. Jamiyatda diniy muhitning ustuvorligi asosida o'rnatilgan siyosiy tuzumga ega davlat qanday nomlanadi?

- a) avtoritar
- b) teokratik
- c) demokratik
- d) totalitar

12. O'z harakatlari asosida huqularni amalgam oshirish va yuridik majburiyatlarni bajarish qoidalari ...

- a) huquq layoqati
- b) huquqiy munosabat
- c) muomala layoqati
- d) huquqiy odat

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-bo'limi necha bob va necha moddadan iborat?

- a) 3 bob, 18 modda
- b) 2 bob, 14 modda
- c) 4 bob, 17 modda
- d) 1 bob, 6 modda

14. Konstitutsiyamizning XIV bobi nimaga bag'ishlanadi?

- a) jamoat birlashmalariga
- b) oilaga
- c) ommaviy axborot vositalariga
- d) jamiyatning iqtisodiy negizlariga

15. Jamoat birlashmalari sirasiga kiruvchi tashkilotni ko'rsating

- a) rasaba uyushmalari
- b) faxriylar tashkilotlari
- c) xotin qizlar tashkilotlari
- d) barcha javoblar to'g'ri

16. Muayyan huquqiy me'yorlar bilan tartbga solinuvchi munosabatlar kompleksi qanday ataladi?

- a) huquq sohasi
- b) deklaratsiya
- c) yuridik aktlar
- d) dispozitsiya

17. Jamoaviy xat-murojaatnoma qanday ataladi?

- a) apellyatsiya
- b) petitsiya
- c) shikoyat legitimlashtirilishi
- d) shikoyat prologatsiyalanishi

18. BMT ning tarkibiy tuzilmasi – YUNESKO tashkil topgan sanani ko'rsating.

- a) 1932 yil.
- b) 1920 yil.
- c) 1946 yil.
- d) 1958 yil.

19. Tug'ilgan bolani ota-ona qaysi muddatgacha ro'yxatdan o'tkazishi shart?

- a) 1 oy
- b) 2 oy
- c) 4 oy
- d) 3 oy

20. "Orangizda eng yaxshingiz, ota-onasiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lganingizdir", deb ta'kidlyadi ...

- a) Farobiy
- b) Ibn Sino
- c) Ahmad Yugnakiy
- d) Qur'on

21. Jamoa birlashmalari faoliyatini chegaralash, taqiqlash va tarqatishga qaratilgan qarorlar qabul qilish huquqiga kim ega?

- a) Prezident; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
- b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- c) faqat Sud
- d) Vazirlar Mahkamasi va Sud

22. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori necha yilga tayinlanadi?

- a) 5 yilga
- b) 7 yilga
- c) 3 yilga
- d) 2.5 yilga

23. Jahon tarixida ilk bora hayot va ozodlik, teng huquqlilik qaysi hujjatda e'lon qilingan?

- a) Inson Huquqlari Deklaratsiyasida
- b) AQSHning mustaqillik Deklaratsiyasida
- c) Gretsiya Inson Huquqlarida
- d) Rim Konstitutsiyasida

24. Oliy Majlis Kengashi o'z faoliyatini qachon boshlagan?

- a) 1991-yil 31-avgustda
- b) 1993-yil 15-sentabrda
- c) 1994-yil 22-sentabrda
- d) 1995-yil 31-avgustda

25. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisi va a'zolari nomzodini Oliy Majlis Senatiga kim taqdim etadi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- b) Oliy Majlis raisi
- c) O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri
- d) hokimlar

26. Tuman va viloyatga bo'ysinuvchi shahar hokimlarini kim tayinlaydi?

- a) Prezident
- b) tuman hokimi
- c) viloyat hokimi
- d) Vazirlar Mahkamasi

27. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri partiyalarning maqsadini ifodalaydi?

- a) barcha partiyalar hokimiyat uchun kurashadilar
- b) barcha partiyalar sinfiy beligilar asosida bo'linadi
- c) har bir partiya o'zining Nizomi va dasturiga ega
- d) barcha partiyalar partiyaga a'zolikning alohida ro'yxatiga ega

28. "Fozil odamlar shahri" asarining muallifi kim?

- a) Beruniy
- b) Farobiy
- c) Ibn Sino
- d) Zamaxshariy

29. Quyidagilardan surishtiruv organini toping.
- a) bojxona organlari
 - b) soliq organlari
 - c) militsiya
 - d) barcha javob to'g'ri

30. O'zbekiston Respublikasida nechta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatadi?

- a) 6
- b) 5
- c) 4
- d) 3

31. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni yurituvchi davlat organlari...

- a) Prezident, Oliy Majlis, sudlar
- b) Oliy Majlis, Tashqi ishlar vazirligi
- c) Ichki ishlar va Tashqi ishlar vazirligi, Prezident
- d) Prezident, sudlar, Ichki ishlar vazirligi

32. Huquqning asosiy belgilarini ko'rsating.

a) huquq normalari qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanadi

- b) huquq barcha uchun majburiy
- c) davlat tomonidan o'rnatiladi
- d) A,B,C

33. Chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida kim qaror qabul qiladi?

- a) Prezident
- b) Bosh Vazir
- c) Bosh Prokuror
- d) Ichki ishlar vazirligi

34. Konstitutsion Sud qarori qayta ko'rib chiqilishi mumkinmi?

- a) yo'q, mumkin emas
- b) mumkin, faqat Prezident tomonidan
- c) mumkin, faqat Oliy Majlis tomonidan
- d) mumkin, Prezident taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan

35. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qamoq jazosi muddati qancha?

- a) 3 kundan 10 kungacha
- b) 1 oydan 3 oygacha
- c) 10 kundan 1 oygacha
- d) 10 kundan 15 kungacha

36. Konstitutsion sud sudyalari necha yilga saylanadilar?
a) 2 yilga
b) 3 yilga
c) 4 yilga
d) 5 yilga
37. O'zbekiston Prezidenti saylovi kunini qaysi davlat organi tayinlaydi?
a) Vazirlar Mahkamasi
b) Markaziy saylov komissiyasi
c) Konstitutsiyaviy sud
d) Prezident apparati
38. Bosh Prokurorni vazifasiga kim tayinlaydi?
a) Prezident tayinlaydi, Oliy Majlis Senati tasdiqlaydi
b) Oliy Majlis Senati
c) Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Prezident
d) Oliy Majlis Senati, Prezident bilan kelishilgan holda
39. O'zbekiston Prezidenti saylovi kunini qaysi davlat organi tayinlaydi?
a) Vazirlar Mahkamasi
b) Markaziy saylov komissiyasi
c) Konstitutsiyaviy Sud
d) Prezident apparati
40. Oliy Majlisga O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimiga nomzodlarni kim taqdim etadi?
a) Prezident
b) Oliy Majlis raisi
c) Bosh Vazir
d) Oliy Majlis deputatlari
41. Konstitutsion Sud qarorlari qaysi vaqtdan boshlab kuchga kiradi?
a) qabul qilingan vaqtdan boshlab
b) matbuotda e'lon qilingan vaqtdan boshlab
c) matbuotda e'lon qilingandan 2 hafta o'tib
d) matbuotda e'lon qilingandan 3 kun o'tib
42. O'g'rilik bu –
a) o'zganing mol-mulkini ochiq talon-taroj qilish
b) o'zganing mol-mulkini zo'ravonlik bilan tortib olish

- c) o'zganing mol-mulkini yashirin talon-taroj qilish
- d) to'g'ri javob A, B

43. Quyidagilardan qaysi biri ma'muriy jazo chorasi hisoblanadi?

- a) jarima
- b) ma'muriy qamoqqa olish
- c) muayyan huquqdan mahrum qilish
- d) barcha javoblar to'g'ri

44. Mulkiy munosabatlar va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlarni taribga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisi ...

- a) ma'muriy huquq
- b) mulk huquqi
- c) oila huquqi
- d) fuqarolik huquqi

45. "O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi" qachondan kuchga kirdi?

- a) 1998-yil 1-sentabr
- b) 1998-yil 1-yanvar
- c) 1998-yil 1-mart
- d) 1996-yil 1-aprel

46. Tovlamachilik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida o'z ifodasini topgan?

- a) 164-moddasida
- b) 165-moddasida
- c) 166-moddasida
- d) 167-moddasida

47. "Al-Mufassal" asarining muallifi kim?

- a) Beruniy
- b) Farobiy
- c) Ibn Sino
- d) Zamaxshariy

48. Siyosiy huquqlarni toping.

- a) mulkdor bo'lish va tadbirkorlik
- b) mehnat qilish va dam olish
- c) bilim olish va davolanish
- d) davlat ishlari va ommaviy harakatlarda ishtirok etish

49. Jamoaviy xat-murojaatnoma qanday ataladi?

- a) apellyatsiya
- b) petitsiya
- c) shikoyat legitimlashtirilishi
- d) shikoyat prolongatsiyalanishi

50. Quyida berilgan huquqbuzarlikning maxsus subyektini ko'rsating

1. 14 yoshli "A" ismli shaxs qo'shnisining velosipedini o'g'irladi

2. 16 yoshli "G" ismli shaxs bezorilik qilib katta magazin

oynasiga shikast yetkazdi

3. "I" ismli shaxs harbiy xizmat o'tayotgan joydan qochib ketdi

4. "D" va "Z" ismli shaxslar "S" ismli voyaga yetmagan shaxsni g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlar qilishga o'rgatdilar

a) 14 yoshli "A" ismli, "D" va "Z" ismli shaxslar

b) 16 yoshli "G" ismli va "D" va "Z" ismli shaxslar

c) "I" ismli va "S" ismli voyaga yetmagan shaxs

d) "I" ismli shaxs

51. Quyidagi berilgan – "davlat funksiyasi", – "siyosiy tartibot" – "jamiyat" tushunchalariga tartib bilan berilgan ta'riflarni joylashtiring

1. uning ma'muriy hududiy tashkil etilishidir.

2. davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, ularda davlatning ijtimoiy jihatlarini ro'yobga chiqariladi

3. jamiyatni boshqarish xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat organlarining yaxlit tizimi

4. muayyan hududda yashovchi o'z ehtiyoji va manfaatlariga ko'ra birlashgan tarzda tashkil topgan jamoa

5. davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari

a) 2,5,4,

b) 1,2,5

c) 2,1,3

d) 5,3,4

52. Davlat organi

1. qonun yo'li bilan tashkil topgan vakolatli davlat idorasi

2. jamiyatni boshqargan va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan yaxlit tizimi

3. davlat mexanizmining tarkibiy qismi

4. ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha zarur vakolatlarga ega idora yoki muassasa

5. vakillik organlari, qonun chiqaruvchi, mahalliy hokimiyat

6. ijro hokimiyati

7. sud hokimiyati – konstitutsiyaviy sud

- a) 1,2,3,4,5,6,7
- c) 1,2,3,6,7

- b) 1,2,3,4,5
- d) 2,6,7

53. "Do'stu dushmanligiga qaramay, har joyda ham sipohiylarni hurmat qildim. Chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foniylar dunyo moli uchun sotadilar. O'zlarini ma'rakmaydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar". Ushbu jumlar kimning qalamiga mansub?

- a) Amir Temur "Temur Tuzuklari"
- b) Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri"
- c) Abu Ali ibn Sino "Ishorat va tanbihat"
- d) Zahiriddin Mihammad Bobur "Boburnoma"

54. Quyidagi davlatlardan respublika boshqaruvidagi davlatlarni ko'rsating.

- 1. Fransiya
- 2. Shvetsiya
- 3. O'zbekiston
- 4. Buyuk Britaniya
- 5. Daniya

- a) 1,2,3
- c) 1,3

- b) 1,2,3,4,5
- d) 1,3,4

55. Quyidagi davlatlardan qaysilarida "hokimiyat muqaddas va ilohiy" deb e'lon qilinib, hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mavjud?

- 1. Daniya
- 2. Braziliya
- 3. Angliya
- 4. Saudiya Arabistoni
- 5. Yaponiya
- 6. Kuba
- 7. Italiya

- a) 1,2,3,4,5
- c) 5,6,7

- b) 1,3,4,5
- d) 1,3,5

56. Jinoyatning subyektiv tomoni

- a) aybdor shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati
- b) javobgarlikka tortish yoshiga yetgan shaxs
- c) qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosbatlar
- d) ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish usuli

57. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun qancha muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llaniladi?

- 1. Qasddan sodir etilib, uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddat
- 2. Ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ortiq muddat
- 3. Qasddan sodir etilib, besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat
- 4. Qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddat

a) 1,2,3

b) 2,3

c) 1

d) 1,2

58. Davlatning ibtidoiy urug'chilik jamiyatidan ajratib turadigan belgilarini ko'rsating.

- 1. Davlat paydo bo'lgan jamiyatda fuqarolar ma'lum bir hududga bilashadilar.
- 2. Odamlarning birgalikdagi hayotiy faoliyatlarida birlashgan muayyan murakkab tuzilmadir.
- 3. Davlat o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun murakkab tizimdan tashkil topgan boshqaruv apparatiga ega bo'ladi.
- 4. Davlat odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli.
- 5. Jamiyat davlatning mahsuli.
- 6. Davlat hokimiyatini to'liq amalga oshirish uchun qonunlar va turli normativ hujjatlar qabul qiladi.
- 7. Soliqlar va boshqa to'loblarni joriy qiladi.
- 8. Davlat o'z faoliyatini amalga oshirish uchun suverenitetga ega bo'lishi lozim.

a) 1,2,3,4,5,6,7,8

b) 1,3,6,7,8

c) 1,3,4,5,6

d) 1,2,6,8

59. Quyidagilardan federativ davlat belgilarini ko'rsating.

1. Federatsiyaning umumiy hududi uning subyektlari hududi yig'indisidan iborat bo'ladi.

2. Federatsiyaning umumiy konstitutsiyasi uning subyektlari va federatsiyaning o'zi o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi.

3. Federatsiya subyektlarini muayyan maqsadga erishish uchun birlashadilar.

4. Federatsiyaning sarmoyasi uning a'zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

5. Federatsiyaning hududi unga a'zo bo'lgan mustaqil davlatlarning hududidan tashkil topadi.

6. Federatsiya subyektlarining har biri alohida o'z konstitutsiyasi, o'zlarining Oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi.

a) 1,2,3,4,5,6

b) 2,4,5,6

c) 1,2,6

d) 1,2,3,5,6

60. Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimining yuridik atamasini ko'rsating.

a) davlatning boshqaruv shakli

b) davlatning tuzilish shakli

c) davlat funksiyasi

d) siyosiy tartib

61. Monarxiyaning asosiy belgilarini ko'rsating.

1. Davlat boshlig'i hokimiyatni yakka o'zi boshqaradi. O'z faoliyatida mustaqildir

2. Fuqarolar davlat boshqaruv ishlarida ishtirok eta oladilar

3. Hokimiyatning oily idoralari saylab qo'yiladi

4. Hokimiyat vakolatlari taqsimlanadi. Davlat boshlig'i o'zining boshqaruv natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar emas.

5. Hokimiyati ilohiy va muqaddas deb e'lon qilinadi.

6. Hokimiyatni o'rnatish, qabul qilishning alohida tartibi mavjud.

a) 1,2,3,5,6

b) 1,5,6

c) 1,4,5,6

d) 1,3,5

62. Quyidagilardan qaysi biri ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega emas?

1. Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari

2. Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalari

3. Kasaba uyushmalari

4. Mudofaa vazirligi idoralari

a) 1,2,3,4

b) 1,2

c) 1,3,4

d) 3

63. O'z harakatlari asosida huquqlarini amalga oshirish va yuridik majbuiyatlarini bajarish qoidalari ...

a) huquq layoqati

b) huquqiy ong

c) muomala layoqati

d) huquqiy odat

64. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolar uchun mehnat qilish burchi belgilangan moddani ko'rsating.

a) 37-modda

b) 6-modda

c) 41-modda

d) bunday modda yo'q

65. Ilk marotaba qaysi davlatda fuqarolik huquqi vujudga kelgan?

a) qadimgi Gretsiyada

b) qadimgi Rimda

c) Mesopotamiyada

d) Rossiyada

66. Qasddan badanga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazganligi uchun shaxslar necha yoshdan jinoiy javobgarlikka tortiladi?

a) jinoiy huquqbuzarlik sodir etganida 11 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi

b) jinoiy huquqbuzarlik sodir etganida 12 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi

c) jinoiy huquqbuzarlik sodir etganida 14 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi

d) jinoiy huquqbuzarlik sodir etganida 13 yoshga to'lgan shaxslar tortiladi

67. Qaysi jarayondan so'ng qabul qilingan qonun kuchga kiradi?

1. Qonunchilik palatasida qabul qilingach
2. Senatda tasdiqlangach
3. Prezident tomonidan imzolangach
4. Matbuotda e'lon qilingach kuchga kiradi
5. Ba'zi qonunlarda kuchga kirish muddati belgilab qo'yiladi

a) 1,2,3,4

b) 1,3,4,5

c) 1,4,5

d) 1,2,3,4,5

68. Quyidagilardan 14 yoshga to'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qaysi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan?

1. O'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilish
2. Odam o'g'irlash
3. Buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarish
4. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish
5. Transport vositasini olib qochish

a) 1,2,3,4,5;

b) 1,3,4,5;

c) 3,4,5

d) 2,4,5;

69. Mamlakatning asosiy qonunida mustahkamlab qo'yilgan O'zbekistonning tashqi siyosati prinsiplarini ko'rsating.

1. Boshqa davlatlar suvereniteti tengligini hurmat qilish;
2. Davlatning ichki ishlariga aralashmaslik;
3. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;
4. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
5. Respublika davlatning, xalqning oily manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin emas;

a) 1,2,3;

b) 1,2,3,4;

c) 1,2,4,5;

d) 1,3,4,5;

70. Huquq instituti –

a) bu o'zaro bog'langan, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar guruhidan iborat.

b) huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishga yordamlashadigan yo'llari, usullari, vositalarining yig'indisidir

c) davlat tomonidan o'rnatilgan, himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalari

d) turli-tuman, lekin o'zaro mustahkain alohida bo'lgan yuridik normalar yig'indisi

71. Voyaga yetmagan shaxlar qanday hollarda to'la muomala layoqatiga ega bo'ladilar?

1. Sudning qarori bilan – emansipatsiya qilingach;

2. Voyaga yetmaganlar to'la muomala layoqatiga ega bo'lmaydilar;

3. 18 yoshga to'lmasdan qonuniy nikohdan o'tgan fuqaro, nikohdan o'tgan vaqtdan boshlab to'la muomala layoqatiga ega bo'ladi;

4. Voyaga yetmagan shaxslar biror bir tashkilot bilan mehnat shartnomasi tuzganlaridan so'ng;

a) 1,2

b) 1,2,3

c) 1,3

d) 1,4

72. Quyidagilardan kimlarga sinov muddati berish mumkin emas?

1. Homilador ayollarga;

2. 3 yoshgacha bo'lgan farzandi bo'lgan ayollarga;

3. Muqobil xizmatni o'tayotganlarga;

4. Ko'p bolali ayollarga;

5. Ma'muriyatning tashabbusi bilan boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarga;

6. 6 oy muddatga mehnat shartnomasi tuzgan xodimlarga

a) 1,2,3,4,6

b) 1,2,3,5,6

c) 1,2,3,4,5,6

d) 1,2,4,5,6

73. Quyidagilardan to'g'ri talqin qilingan javobni toping.

- a) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar.
- b) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqil bo'lib, faqat konstitutsiyaga bo'ysunadilar.
- c) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqil bo'lib, faqat konstitutsiyaga va qonunga bo'ysunadilar.
- d) Konstitutsiyaviy sud sudyalari mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar

74. Ishga joylashishda ma'muriyatga qanday hujjatlar topshirilishi lozim?

1. 12 yoshdan 14 yoshgacha; ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchilarning yozma roziligi, o'qish joyidan ma'lumotnoma, sog'ligi haqida guvohnoma, harbiy bilet yoki harbiy ro'yxatda turganligi haqidagi guvohnoma;

2. 16-18 yoshgacha; ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchilarning yozma roziligi, o'qish joyidan ma'lumotnoma, sog'ligi haqida ma'lumotnoma, passport yoki tug'ilganligi haqidagi guvohnoma, turar joyidan ma'lumotnoma;

3. 18 yoshdan – pasport, mehnat daftarchasi yoki so'nggi vaqtlarda nima bilan shug'ullanganligi haqida turar joyidan ma'lumotnoma;

4. 14-15 yoshgacha; ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchilarning yozma roziligi, o'qish joyidan va sog'ligi haqida ma'lumotnoma, tug'ilganligi haqidagi guvohnoma;

a) 1,2,3,4

b) 3,4

c) 1,3,4

d) 1,2,4

75. Quyidagilardan "anglo-amerika" huquqiy oilasiga kiruvchi davlatlarni ko'rsating.

- 1. Fransiya
- 2. Ispaniya
- 3. Kanada
- 4. Avstraliya
- 5. AQSH

a) 1,2,3

b) 3,4,5

c) 1,3,4,5

d) 3,4

76. Quyidagilardan "roman-german" huquqiy oilasiga kiruvchi davlatlarni ko'rsating.

1. Germaniya
2. Kanada
3. Yaponiya
4. Fransiya
5. Ispaniya
6. Saudiya Arabistoni
7. O'zbekiston

a) 1,2,3,4,6

b) 1,4,5,7

c) 1,3,4,5,6,7

d) 1,2,5

77. Quyidagi qaysi hukumat tizimi sudlarning qonun chiqaruvchiga aylanishiga qarshi

1. romano-german;
2. anglo-amerika;
3. kontinental;
4. diniy-ana'naviy

a) 1,3

b) 1,2,3

c) 3,4

d) 1,2,3,4

78. Voyaga yetmagan shaxs ishga joylashdi. Bir oy o'tmasdan ishdan bo'shamoqchi. U qanday hujjatlarni taqdim etishi lozim.

1. ariza
2. mehnat daftarchasi
3. joylardagi vasiylik va homiylik organlari bilan kelishishi kerak
4. voyaga yetmagan shaxsni ishdan bo'shatish uchun otanasining yoki ularning o'rinlarini bosuvchilarning yozma roziliklari.

a) 1,2,3,4

b) 1,3,4

c) 2,4

d) 1

79. L.N. Tolstoyning fikrini davom ettiring: "Tuzalishning birinchi sharti - ..."

a) o'z aybini tan olishdir

b) ko'nglini ochish

c) bu jazo

d) uyalish

80. Ish vaqti to'g'ri ko'rsatilgan qatorlarni aniqlang

1. 14 yoshdan – 15 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga 12 soat qilib belgilangan;
2. 15 yoshdan – 16 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga 18 soat qilib belgilangan;
3. 15 yoshdan – 16 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga 24 soat qilib belgilangan;
4. 16 yoshdan – 18 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga 36 soat qilib belgilangan;
5. 14 yoshdan, – 15 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun haftasiga 4 soat qilib belgilangan;

a) 3,4

b) 1,2,3,4

c) 2,3,4

d) 1,3,5

81. Mehnat shartnomasining bekor bo'lishiga ... asos bo'ladi.

1. Xodimning o'z xohishiga ko'ra yozma arizasi;
2. Shartnomada ko'rsatilgan muddatning tugaganligi;
3. Xodimning harbiy xizmatga chaqirilishi;
4. Ma'muriyatning tashabbusi bilan mehnat shartnomasining bekor qilinishi;
5. Sud hukmining qonuniy kuchga kirishi;

a) 1,3,4,5

b) 1,2,3,5

c) 2,3,4

d) 1,3,5

82. F. ismli shaxs ishdan bo'shshah haqida ariza yozdi, lekin u 20 kundan ziyod vaqt ishini davom ettirdi ...

- a) ariza o'z kuchida qoladi
- b) uch hafta muddatga suriladi
- c) bir oy muddatga suriladi
- d) ariza kuchini yo'qotadi

83. Intizomiy jazo –

1. 1 yil o'tgach o'z-o'zidan olib tashlanadi
2. muddatdan ilgari ham olib tashlanishi mumkin
3. mehnat daftarchasiga hamda xodimning shaxsiy kartochkasiga yozilmaydi
4. intizomiy jazo haqida buyruq xodimga ma'lum qilinadi

a) 1,2,3,4

b) 2,3,4

c) 1,3,4

d) 1,2,3

84. Xalqaro huquq ...

a) xalqaro muloqot ishtirokchilari (subyektlari) munosabatlarini tartibga solib turuvchi yuridik qoidalar majmuidir;

b) davlat boshqaruvi, ijroiya hokimiyat sohasi (Hukumat faoliyati, ijroiya hokimiyatining boshqaruv organlari)da yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi;

c) konstitutsiyaviy tizim asoslarini, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mamlakatning davlat tuzilishini, Prezident, Oliy Majlis, hukumat, sud tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini mustahkamlab qo'yadi;

d) tabiatni muhofaza qilish jarayonida yuzaga keladi, yer, agrar, moliyaviy, ekologiya sohalariga oid munosabatlarni tartibga soladi.

85. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasi asosida ushbu matnni to'ldiring:

Davlat o'z faoliyatini ... ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

1. va ish jarayonini

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

3. inson va jamiyat farovonligini ko'zlab

4. fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ko'zlab

a) 1,2

b) 1,3

c) 1,2,3

d) 3

86. Quyidagilardan noto'g'ri javobni aniqlang.

1. Konstitutsiyaviy sud qarori e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sud qarori ustidan 10 kun muddat ichida appellyatsiya shikoyati keltirish mumkin.

2. O'zbekiston Respublikasining Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan birgalikda, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

3. O'zbekiston Respublikasida saylash huquqiga 18 yoshga yetgan fuqarolar haqlidir.

4. Konstitutsiyaviy Sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar.

5. O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy va ma'muriy ishlarni yuritish sohasida hokimiyatning oliy organi hisoblanadi.

- a) 1,2,3,4,5;
- c) 3,4

- b) 1,2,4,5
- d) 1.2,5

87. Quyidagilardan to'g'ri javobni aniqlang.

1. Konstitutsiyaviy sud qarori e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Konstitutsiyaviy sud qarori ustidan 10 kun muddat ichida appellyatsiya shikoyati kelitirish mumkin.

2. O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bilan birgalikda, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

3. O'zbekiston Respublikasida saylash huquqiga 18 yoshga yetgan fuqarolar haqlidir.

4. Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar.

5. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy va ma'muriy ishlarni yuritish sohasida hokimiyatning oliy organi hisoblanadi.

- a) 1,2,3,4,5
- c) 3,4

- b) 2,3,4,5
- d) 1,2,5

88. Quyidagilardan ma'muriy javobgarlikni ajrating.

1. Ov qilish huquqidan mahrum qilish;

2. Uch yilga ozodlikdan mahrum qilish;

3. 3 sutkadan 15 sutkagacha ayrim hollarda 30 sutkaga qamoq jazosi;

4. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

5. Ma'naviy zararni undirish;

- a) 1,2,3
- c) 1,3

- b) 1,3,4
- d) 1,2,3,4,5

89. Quyidagilardan fuqaroviy javobgarlikni ko'rsating.

1. Ma'lum bir huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari;

2. Aybdor shaxsning to'liq moddiy javobgarligi va ozodlikdan mahrum qilish;

3. Aybdorning to'liq moddiy javobgarligi;

4. Aybdorning to'liq ma'naviy javobgarligi;

5. Aybdorning to'liq moddiy javobgarligi, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

- a) 1,2
- c) 4,5

- b) 1,3,4
- d) 4,3

90. Quyidagilardan huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini ko'rsating.

- 1. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar;
- 2. Sotuvchi va xaridor;
- 3. Davlat organlari va munosabatga kirishgan shaxslar;
- 4. O'zaro bir-biri bilan munosabatga kirishgan tashkilotlar, davlat;

- a) 1,2,3,4
- c) 1,2

- b) 1,3,4
- d) 1,4

91. Huquqiy norma nechta elementdan tashkil topadi?

- a) 3
- c) 5

- b) 4
- d) 6

92. Quyidagi matnni to'ldiring: ... muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tashkil topgan jamoasi.

- a) davlat
- c) xalq

- b) jamiyat
- d) jamoat

93. Preambula ...

- a) davlat
- b) qonunning yoki boshqa huquqiy normaning kirish qismi, so'zboshi
- c) huquqning biror tarmog'iga oid qonun-qoidalar to'plami
- d) biror-bir hujjat ustidan shikoyat

94. Ma'muriy ushlab turish qancha vaqtdan oshmasligi kerak?

- a) 1 soatdan
- c) 24 soatdan

- b) 3 soatdan
- d) 3 sutkadan

95. 16 yoshdan – 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'ta og'ir jinoyat sodir etgan bo'lsa, qancha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan javobgarlikka tortiladi?

- a) 12 yil
- c) 10 yil

- b) 15 yil
- d) bir umrga ozodlikdan mahrum qilish

96. Yevropada ikkinchi Konstitutsiya qachon va qayerda qabul qilingan?

- a) 1791-yil Fransiyada
- c) 1791-yil Polshada

- b) 1215-yil Polshada
- d) 1415-yil Shotlandiyada

97. Konstitutsiyalar shakliga ko'ra ...

- a) yozma va og'zaki
- c) formal va moddiy

- b) yuridik va faktik
- d) yumshoq va qattiq

98. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi Konstitutsiyaning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

- a) 46-moddasida
- c) 55-moddasida

- b) 56-moddasida
- d) 45-moddasida

99. Yevropada birinchi Konstitutsiya qachon va qayerda qabul qilingan?

- a) 1791-yil Fransiyada
- c) 1791-yil Polshada

- b) 1215-yil Angliyada
- d) 1415-yil Shotlandiyada

100. Turkiston Avtonom Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- a) 1918-yil 30-aprel
- c) 1918-yil 20-aprel

- b) 1918-yil 15-oktabr
- d) 1918-yil 30-mart

101. "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Qonuni nechta moddadan iborat?

- a) 19 moddadan
- c) 17 moddadan

- b) 20 moddadan
- d) 10 moddadan

102. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?

- a) 1994-yil 3-avgust
- c) 1992-yil 2-iyun

- b) 1992-yil 2-iyul
- d) 1991-yil 2-sentabr

103. Qachon milliy-hududiy chegaralanish deklaratsiyasi qabul qilingan?

- a) 1924-yil 29-oktabr
- c) 1922-yil 20-aprel

- b) 1918-yil 15-oktabr
- d) 1922-yil 30-mart

104. 18 yoshga to'lmagan shaxslarga qanday jinoiy vobgarliklar qo'llaniladi?

1. mol-mulkini musodara qilish;
2. axloq tuzatish ishlari;
3. qamoq;
4. harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;
5. ozodlikdan mahrum qilish;
6. umrbod qamoq jazosi;
7. jarima;

a) 1,2,5,6

b) 1,2,3,7

c) 2,3,5,7

d) 2,3,5

105. Axloqqa oid tushunchalarni ajrating.

1. soliqlarni o'z vaqtida to'lash;
2. kattalarga joy berish;
3. saylovlarda ishtirok etish;
4. salomlashish
5. tabiatni qo'riqlash;
6. malakali tibbiy xizmatdan foydalanish;
7. kattalarni hurmat qilish;

a) 1,2,5,6

b) 1,2,3,7

c) 2,4,7

d) 2,3,5

106. Majburiy chora degan huquqiy atama qanday ataladi?

a) sanksiya

b) dispozitsiya

c) gipoteza

d) blanket dispozitsiya

107. Subyektiv huquqni ko'rsating.

1. Har kim bilim olish huquqiga ega;
2. Har kim mulkdor bo'lish huquqiga ega;
3. A. ismli shaxs mashina sotib oldi;
4. O'zbekiston fuqarolari respublika hududida erkin harakatlanish huquqiga ega;
5. P. ismli qo'shnimiz dala hovliga ko'chib o'tdi;
6. Sinfdoshim Davronga otasi Olapar ismli kuchukcha sovg'a qildi.

a) 1,2,3,4,5,6

b) 2,4,6

c) 3,4,5

d) 3,5,6

108. Shaxsiy huquq va erkinliklar buzilgan qatorni toping.

1. A. ismli shaxs xat oldi, lekin xat ochilgan ekan;
2. Emlash vaqtida bolaga gepatit virusi yuqdi;
3. Yigit bilan qiz bir-biriga ko'ngil qo'yib turmush qurmoqchi bo'ldilar. Ammo. ularning diniy e'tiqodlari turlicha bo'lgani uchun yigitning ota-onasi qizga uylanishni taqiqladilar;

4. O'quvchi qizning hamyoni yo'qoldi. U partadosh o'rtog'iga "Hamyonimni sen olgansan – sen o'g'risan", dedi.

a) 1,2,3,4

b) 2,4

c) 1,3,4

d) 1,2

109. Dam olish vaqti ...

1. Tanaffus va dam olish vaqti ikki soatdan oshmasligi kerak;
2. Kundalik dam olish vaqti kamida 12 soat;
3. Dam olish kunlari – 5 kunlik ish haftasida – ikki kun, 6 kunlik ish haftasida bir kun;
4. Bayram kunlari;
5. Yillik ta'tillar.

a) 1,2,3,4,5

b) 1,2,4,5

c) 1,3,4,5

d) 1,2,3,5

110. Qonun qachon kuchga kiradi?

1. E'lon qilinganidan 10 kundan so'ng;
2. Uning kuchga kirishi haqidagi maxsus akt qabul qilinganidan so'ng;
3. Qonunning o'zida ko'rsatilgan kundan boshlab.

a) 1,2

b) 1,2,3

c) 2

d) 2,3

111. Jinoyatning obyektiv tomoni ...

1. Ijtimoiy – xavfli qilmishni tashqi tomoni bo'lib, jinoyatning qanday sodir etilganligini ko'rsatadi;

2. Aldash yoki ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritish;

3. Aybdor shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati;

4. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar;
5. O'zganing mulkini yashirin tarzda talon-toroj qilish;
6. Qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxs.

a) 1,2,5

b) 2,5,6

c) 3,4,5

d) 1

112. O'zgaralar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlarni ajrating.

1. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish;
2. Talonchilik;
3. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon taroj qilish;
4. Aldash yoki ishonchini suiite'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish;
5. O'g'rilik;
6. Mulkn qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish.

a) 1,3,4,6

b) 1,4,6

c) 1,2,3,4,6

d) 1,2,3,4,5,6

113. JKning 105-moddasi: Sodir etilgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va ushbu kodeksning 104-moddasida nazarda tutilmagan oqibatlariga olib kelmagan, lekin sog'ligini uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatini o'n foizidan o'ttiz foizigacha yo'qolishiga sabab bo'lsa ...

- a) oddiy dispozitsiya;
- b) tasvirlovchi dispozitsiya;
- c) blanket dispozitsiya;
- d) havolaki dispozitsiya

114. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni ko'rsating.

1. Voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi;
2. Voqeani hodisa ro'y bergan joyida isbotlash;
3. Voyaga yetmaganing shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi;
4. Katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi;

5. Uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
6. Tanib olish uchun ko'rsatish.

- a) 1,3,4,5
- c) 1,3,4,6

- b) 1,2,3,4,5,6
- d) 1,2,4,6

115. Voyaga yetmagan 16 yoshli U. sinfdoshi Z. ning qizlarni oldida uni kamsitganligi uchun aqlini kiritib qo'yimoqchi bo'lib, ko'p qavatli uyning ikkinchi qavatida kutib turdi, uyiga zinadan ko'tarilayotgan U. ni itarib yubordi.

Ushbu holarda huquqbuzarlikning subyektiv tomonini ko'rsating.

- a) Z. ning o'z qilmishining oqibatiga bo'lgan ongli harakati
- b) Z. ismli shaxs
- c) U. ismli shaxs
- d) Z. ning zinadan U.ni itarib yuborishi

116. Konstitutsiyaning quyida keltirilgan XXII bobidagi moddalari va qoidalarining ketma-ketligini ko'rsating.

1. Konstitutsiyaviy sud vakolatlari;
2. Favqulotda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi;
3. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi;
4. Sud hokimiyati chiqaradigan hujjatlar;
5. Hokimlarning faoliyati;
6. Prokuratura;
7. Sud ishlarini yuritish tili.

- a) 4,5,3,6,1,2,7
- c) 2,1,4,7,3

- b) 2,3,7,4,1
- d) 2,7,4,5,3

117. Quyidagilardan ko'chmas mulkni aniqlang.

1. Velosiped;
2. Uy-joy;
3. Avtomashina;
4. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari;
5. Dala-hovli;
6. "Shohruh" firmasi;
7. Haydovchilik guvoohnomasi.

- a) 1,4,6
- c) 2,3,4,5

- b) 3,4,7
- d) 2,3,5,6

118. Quyidagilardan iste'mol qilinadigan va bo'linadigan ashyolarni ko'rsatining.

1. Benzin, 1 tonna bug'doy, 1 kilogramm olma, mashina;
2. Rembrant asari, Temur tuzuklari, 1 sentner sholi;
3. 1 tonna paxta, 10 tonna bug'doy, gaz;
4. Uy-joy, 1 tonna karam, qimmatli qog'ozlar.

- a) 1,3,4
- c) 3,4

- b) 2,3,4
- d) 3

119. Fuqarolik huquqlarining obyektlari sifatida ashyolar qaysi turlarga bo'linadi?

1. Xususiy va turga mos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar;
2. Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyolar;
3. Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar;
4. Asosiy va mansub ashyolar;
5. Murakkab ashyolar.

- a) 1,2,3,4
- c) 4,5

- b) 1,2,3,4,5
- d) 1,3,4,5

120. Er-xotinning umumiy mol-mulki ularning nikohda bo'lgan davrida bo'linishi mumkinmi?

- a) nikoh davrida bo'linmaydi;
- b) ajrashganlaridan keyin bo'linadi;
- c) nikoh davrida ham bo'linishi mumkin;
- d) er-xotin 10 yil davomidagi nikoh davrida topgan mol-mulklari bo'linmaydi.

121. Er-xotinning familiya tanlash huquqi qaysi biriga beriladi?

1. Nikoh tuzish vaqtida er va xotindan biri o'z familiyasini o'zgartirishi mumkin;
2. Er xotinning familiyasini qabul qilishi oila qonunchiligiga mos kelmaydi;
3. Xotin o'z xohishi bilan erining familiyasini tanlashi mumkin;
4. Oila qonunchiligiga ko'ra, xotin kishi erining familiyasini qabul qilishga majbur;

5. Milliy urf-odatlarimizga ko'ra xotin kishi erining familiyasini qabul qiladi.

a) 1,3

b) 1,2,3,4

c) 2,3,4,5

d) 1,2,4,5

122. Harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan jazo turlarini ko'rsating.

1. qamoq;

2. ozodlikdan mahrum qilish;

3. intizomiy qismga jo'natish;

4. xizmat bo'yicha cheklash;

5. harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

6. jarima;

7. maxsus huquqdan mahrum qilish.

a) 1,2,3,4

b) 1,2,3,4,5

c) 1,2,3,4,5,6

d) 1,2,3,4,5,6,7

123. Nikoh shartnomasi ...

1. nikohlanuvchi shaxslarning nikohda bo'lgan davrida tuziladi;

2. nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin;

3. nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilmaydi;

4. er va xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartiriladi;

5. er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluvchi qarori bilan o'zgartiriladi;

6. er-xotin nikoh shartnomasini tuzayotgani, uni o'zgartirayotgani yoki bekor qilayotgani to'g'risida o'z kreditorlarini xabardor qilishi shart;

7. qarzdor er-xotinning kreditorlari nikoh shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqli.

a) 1,2,3,4,5,6,7

b) 1,2,4,5

c) 1,2,4,5,6

d) 1,2,4,5,6,7

124. Intellektual mulk obyektlarini ko'rsating.

1. T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari;
2. Nyutonning butun olam tortishish kuchi qonuni;
3. Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobi;
4. "UzGazOil" firmasining nomi;
5. Yer osti qazilma boyliklari;
6. Belgilangan tartibda ajratib beriladigan yer uchastkasi.

a) 1,2,3,4

b) 1,2,3

c) 1,2,3,5,6

d) 1,2,3,4,5,6

125. Quyidagilardan noto'g'ri javobni aniqlang.

a) xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi, har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin;

b) 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni tuzishga va ularni amalga oshirishga haqlidirlar;

c) ashyolar iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan turlarga bo'linishi mumkin;

d) bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama bo'lishi mumkin.

126. Quyidagilardan iste'mol qilinmaydigan ashyolarni ko'rsating.

1. ko'p qavatli uy-joy;

2. yoqilg'i;

3. elektr energiyasi;

4. avtobus;

5. dazmol;

6. paxta;

7. bug'doy.

a) 1,4,5

b) 1,2,3,4,5,6

v) 1,4,5,6

d) 1,2,3,4,5

127. Quyidagilardan to'g'ri javobni aniqlang.

a) qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol-mulk to'g'risida umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi;

b) 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni tuzishga va ularni amalga oshirishga haqlidirlar;

c) nikoh shartnomasi yozma va og'zaki shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanadi;

d) O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk, ommaviy mulk, kolxoz mulki, jamoat mulki, davlat mulki, respublika mulkiga bo'linadi;

128. "Huquq – haqiqiy va adolatli bo'lgan hamma narsalardir". Ushbu fikr kimga tegishli?

a) Sh. Monteskye

b) V. Gyugo

c) Amir Temur

d) Ibn Sino

129. Xodim o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilmoqchi bo'lsa, bu haqda ish beruvchini qancha vaqt oldin yozma ogohlantirishi lozim?

a) 1 oy oldin

b) 10 kun oldin

c) 2 hafta oldin

d) 20 kun oldin

130. 18 yoshga to'lmagan shaxslarga necha kalendar kunlik yillik uzaytirilgan ta'til beriladi?

a) 10 kalendar kunlik

b) 15 kalendar kunlik

c) 20 kalendar kunlik

d) 30 kalendar kunlik

131. Agar xodim mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ariza berib, ishni davom ettirsa va ogohlantirish muddati o'tib ketsa, ariza ...

a) o'z kuchida qoladi

b) yana ikki haftaga uzaygan hisoblanadi

c) bir oygacha o'z kuchida qoladi

d) o'z kuchini yo'qotadi

132. Dam olish vaqti ...

1. 2 soatdan ortiq bo'lmagan tushlik
2. 12 soatdan kam bo'lmagan kundalik dam olish vaqti
3. dam olish kunlari, 5 kunlik ish kunida ikki kun, 6 kunlik ish kunida bir kun
4. bayram kunlari
5. yillik ta'tillar

a) 1,2,3,4,5

b) 1,2,4,5

c) 1,3,4,5

d) 1,2,3,5

133. Quyidagilardan to'g'ri talqin qilingan javobni toping.

- a) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlaridan mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar.
- b) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlaridan mustaqil bo'lib, faqat Konstitutsiyaga bo'ysunadilar.
- c) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlaridan mustaqil bo'lib, faqat Konstitutsiyaga va qonunga bo'ysunadilar.
- d) Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlaridan mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadilar.

134. Quyidagilardan anglo-amerika "huquqiy oila"sigira kiruvchi davlatlarni ko'rsating.

1. Fransiya
2. Ispaniya
3. Kanada
4. Avstraliya
5. AQSH

a) 1,2,3

b) 3,4,5

c) 1,3,5

d) 1,2,3,4

135. Quyidagilardan diniy-an'anaviy "huquqiy oila"sigira kiruvchi davlatlarni ko'rsating.

1. Yaponiya
2. Ispaniya
3. Hindiston
4. Avstraliya
5. Xitoy

- a) 1,3,4
- c) 1,3,5

- b) 1,2,3
- d) 1,2,3,4

136. Quyidagilardan romano-german "huquqiy oila"sig kiruvchi davlatlarni ko'rsating.

- 1. Germaniya
- 2. Kanada
- 3. Yaponiya
- 4. Fransiya
- 5. Ispaniya

- a) 1,2,3,4
- c) 1,3,4

- b) 1,4,5
- d) 1,2,5

137. Quyidagi qaysi hukumat tizimi sudlarni qonun chiqaruvchiga aylanishiga qarshi?

- 1. romano-german
- 2. anglo-amerika
- 3. kontinental
- 4. diniy-an'anaviy

- a) 1,3
- c) 3,4

- b) 1,2,3
- d) 1,2,3,4

138. Mehnat huquqi qonunchiligi manbalarini ko'rsating.

- 1. Konstitutsiya
- 2. Mehnat kodeksi
- 3. Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon Deklaratsiyasi
- 4. Mehnat tashkilotlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya
- 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari
- 6. Qonunlar va Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari
- 7. Mehnat shartnomalari

- a) 1,2,5,7
- c) 1,2,3,4,5,6,7

- b) 1,3,6,7
- d) 1,4,5,6,7

139. Voyaga yetmagan shaxs ishga joylashdi. Bir oy o'tmasdan ishdan bo'shamoqchi. U qanday hujjat taqdim etishi lozim?

- a) ariza.
- b) mehnat daftarchasi.

- c) joylardagi vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilishi kerak.
d) Mehnat qonunchiligiga ko'ra direktorga voyaga yetmagan shaxsni ishdan bo'shatishi uchun ota-onasining yoki ularning o'rnini bosuvchilarning roziliklarini olishi kerak.

140. L.N. Tolstoyning fikrini davom ettiring:

"Tuzalishning birinchi sharti ... "

- a) o'z aybini tan olishdir
b) ko'nglini ochish
c) bu jazo
d) uyalish

141. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun normalarini qaysi organ sharhlash vakolatiga ega?

- a) Oliy sud
b) Konstitutsiyaviy sud
c) Oliy xo'jalik sudi
d) Prokuratura

142. Ma'muriy ushlab turish necha soatdan oshmasligi kerak?

- a) 1 soatdan
b) 3 soatdan
c) 24 soat
d) 3 sutkadan

143. Ma'muriy qamoq necha sutkadan iborat?

- a) 3 sutka, 15 sutka
b) 1 sutka, 20 sutka
c) 1 sutka, 30 sutka
d) 3 sutka, 25 sutka

144. 13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga o'ta og'ir jinoyatlari uchun qancha muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanilishi mumkin?

- a) 3 yilgacha
b) 10 yilgacha
c) 12 yilgacha
d) 15 yilgacha

145. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan quyidagi qonunga zid harakatlar uchun qanday javobgarlik belgilangan?

1. Qasddan badanga shikast yetkazish
2. Talonchilik
3. Bosqinchilik
4. Xizmat vazifasini suiiste'mol qilish
5. Pora olish
6. Harbiy yoki mudofaa xizmatidan bo'yin tovlash
7. Transport vositasini olib qochish
8. Odam o'g'irlash

- a) 1,2,3,7,8
- c) 1,2,4,5

- b) 1,2,3,4,5,6,7
- d) 1,2,3,6

146. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga saylanadigan deputatlarning yoshi qanday bo'lishi lozim?

- a) 18 yosh
- c) 20 yosh
- b) 19 yosh
- d) 25 yosh

147. Fuqarolik jamiyatida ...

1. Davlat jamiyat nazoratida
2. Jamiyat davlat nazoratida
3. Davlat fuqarolik jamiyatining "yollanma xizmatkori"

- a) 1,2
- c) 2,3
- b) 1,3
- d) 1,2,3

148. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi qachon qabul qilingan?

- a) 1997-yil 29-avgust
- c) 1998-yil 29-avgust
- b) 2001-yil 4-yanvar
- d) 2001-yil 18-yanvar

149. Hokimiyatni boshqarayotgan siyosiy kuchlarning davlatni boshqarishda qo'llaydigan usullari va uslublarining yaxlit tizimi qanday ataladi?

- a) ijtimoiy demokratiya
- c) g'ayridemokratiya
- b) demokratiya
- d) siyosiy tartib (rejim)

150. Shanxay hamkorlik tashkilotiga O'zbekiston qachon a'zo bo'lgan?

- A) 1998-y
- C) 2003-y
- B) 2001-y
- D) 2002-y

Test javoblari

1	D	31	C	61	B
2	C	32	D	62	D
3	D	33	A	63	C
4	C	34	A	64	D
5	C	35	B	65	B
6	B	36	D	66	C
7	D	37	B	67	D
8	B	38	A	68	D
9	B	39	B	69	B
10	A	40	A	70	A
11	B	41	B	71	C
12	C	42	C	72	B
13	C	43	D	73	B
14	B	44	D	74	B
15	D	45	A	75	B
16	A	46	B	76	B
17	B	47	D	77	A
18	C	48	D	78	D
19	A	49	B	79	A
20	D	50	D	80	A
21	C	51	A	81	A
22	A	52	A	82	D
23	B	53	A	83	A
24	C	54	C	84	D
25	A	55	B	85	D
26	C	56	A	86	C
27	A	57	D	87	C
28	B	58	B	88	C
29	D	59	C	89	D
30	C	60	D	90	A

91	A	111	A	131	D
92	B	112	B	132	A
93	B	113	D	133	B
94	B	114	A	134	B
95	B	115	A	135	C
96	A	116	C	136	B
97	A	117	D	137	A
98	A	118	D	138	C
99	C	119	B	139	A
100	B	120	C	140	A
101	C	121	A	141	B
102	B	122	D	142	B
103	A	123	D	143	A
104	C	124	A	144	B
105	C	125	A	145	A
106	A	126	A	146	D
107	D	127	A	147	B
108	A	128	B	148	A
109	A	129	C	149	D
110	B	130	D	150	B

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1.1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 364 b.

1.2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.

1.3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 366 b.

1.4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 349 b.

1.5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.

1.6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.

1.7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 410 b.

1.8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 528 b.

1.9. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. T.15. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 320 b.

1.10. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 368 b.

1.11. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimizdir. T.17. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 280 b.

1.12. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.18. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 280 b.

1.13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

1.14. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi, [2010-yil 20-sentabr]; – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 184 b.

II. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:

2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.

2.2. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi // Inson huquqlari. – Toshkent: Adolat, 1998. – 80 b.

2.3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 556 b.

2.4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 276 b.

2.5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 408 b.

2.6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2010. – 672 b.

2.7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2010. – 432 b.

2.8. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 360 b.

2.9. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 248 b.

2.10. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2011. – 204 b.

2.11. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2010. – 400 b.

2.12. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1995-yil, 9-son, 183-modda.

2.13. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1991-yil, 9–12-son, 268-modda.

2.14. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003-yil, 9–10-son, 138-modda.

2.15. O‘zbekiston Respublikasining “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002-yil, 4–5-son, 60-modda.

2.16. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2007-yil, 15-son, 151-modda.

2.17. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993-yil, 9-son, 320-modda.

2.18. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002-yil, 5-son, 67-modda.

2.19. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002-yil, 5-son, 67-modda.

2.20. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004-yil, 9-son, 170-modda.

2.21. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001-yil, 1–2-son, 8-modda.

2.22. O‘zbekiston Respublikasining “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2006-yil, 10-son, 537-modda.

2.23. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2005-yil, 1-son, 18-modda.

2.24. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2007-yil, 4-son, 163-modda.

2.25. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004-yil, 5-son, 86-modda.

2.26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-martdagi "Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 86-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami. 2005-yil, 3-son, 16-modda.

2.27. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004-yil, 5-son, 90-modda.

2.28. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2007-yil, 1-son, 2-modda.

2.29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 28-apreldagi 86-son Qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida"gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007-yil, 17-18-son, 183-modda.

2.30. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999-yil, 5-son, 110-modda.

2.31. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2005-yil, 1-son, 18-modda.

2.32. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi Qarorlari to'plami: 1991-2006. N.Z. Toshmatovning umumiy tahriri ostida. 2-jild. - Toshkent: O'qituvchi, 2007. - B. 225-226.

III. MAXSUS ADABIYOTLAR:

3.1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - B. 33.

3.2. Azizxo'jayev A. A. Davlatchilik va ma'naviyat. - Toshkent: Adolat, 1997; - 112 b.

3.3. Axmedshayeva M.A. Hozirgi zamon davlati va huquqi nazariyasi muammolari: O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDYuL, 2008.

3.4. Odilqoriyev H. T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – Toshkent: Sharq, 2002.

3.5. Saidov A. O'zbekistonda adolatli demokratik huquqiy davlat arkonining bosh asosiy tamoyili, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat. – Toshkent: Adolat, 1995.

3.6. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – Toshkent: Sharq, 2001.

3.7. O'razayev Sh. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 1995.

3.8. Husanov O. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari. – Toshkent: Adolat, 1996. – 181 b.

3.9. Boboyev H. B., Hamrayev T., Alimasov V. Madaniyat-shunoslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – B. 178.

3.10. Ganibayeva Sh.K. O'zbekiston Respublikasida Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani amalga oshirilishining xalqaro-huquqiy masalalari (nazariya va amaliyot muammolari): Yurid. fan. nom. diss. – Toshkent, 2009. – B. 94–95.

3.11. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2009. – B.436-437.

3.12. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik / A.S.Yakubov, R.Kabulov va b. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – B. 244.

3.13. Inson huquqlari. Umuminsoniy va milliylikning birligi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari va qonunlari to'plami. T.4. – Toshkent, 1999. – B. 337–339.

3.14. Irkaxodjeyev A.K., Xolikulov U.Sh. Jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuI, 2007. – B. 4–5.

3.15. Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. – Toshkent: TDYuI, 2004. – 138 b.

3.16. Kashket A.G. Pravovie i organizatsionnie problemi proizvodstva po delam nesovershennoletnix (po materialam Respubliki Uzbekistan): Avtoref. diss. kand. yurid. nauk. – Tashkent, 1993.

3.17. Ma'muriy huquq. Darslik / prof. X.T.Odilqoriyev va B.Ye. Qosimovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2010. – B. 209.

3.18. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, – B. 208.

3.19. Musayev M. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot muammolari. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 132.

- 3.20.** Najimov M., Saburov N. Davlat: asosiy tushunchalar va atamalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuI, 2002. – 21 b.
- 3.21.** Najimov M., Saburov N. Huquq: asosiy tushunchalar va atamalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYuI, 2002. – 25 b.
- 3.22.** Nasriddinova O.T. Huquqiy madaniyat – fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil (yoshlar misolida): Yurid. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2009. – B. 12–42.
- 3.23.** Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. 3-tom: Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Darslik. – Toshkent: ILM ZIYO, 2011.
- 3.24.** Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. T.5.: Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011. – B. 116.
- 3.25.** Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
- 3.26.** Utemuratov M.A. O'zbekiston tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topishining nazariy, tarixiy, siyosiy-g'oyaviy asoslari / Mas'ul muharrir: prof. H.B. Boboyev. – Toshkent: TDYuI, 2005.– B. 3-5.
- 3.27.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh / Mas'ul muharrir: prof. A.A. Azizxo'jayev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 264–265.
- 3.28.** O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Narsh uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va b.; mas'ul muharrir: N.Toychiyev. – Toshkent: Adolat, 2010. – B. 98, 130, 383, 412.
- 3.29.** Hamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: prof. H.B. Boboyev. – Toshkent: TDYuI, 2005. – B. 25–26.
- 3.30.** Husanov O., Azizov X. Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at. – Toshkent: O'qituvchi 1996.
- 3.31.** Shodiyev J.M. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: prof. H.B. Boboyev. – Toshkent: TDYuI, 2005. – B. 49–50.

ILOVALAR

1-ilova. O'zR JK Maxsus qism moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflanishi

O'quvchiga qulay bo'lishi uchun quyida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflab chiqamiz:

I. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar:

1. Onaning o'z chaqalog'ni qasddan o'ldirishi – 99-modda, 1-qism.
2. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish – 100-modda, 1-qism.
3. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish – 101-modda, 1-qism.
4. Ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish – 102-modda, 1–2-qismlar.
5. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish – 105-modda, 1-qism.
6. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish – 106-modda, 1-qism.
7. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish – 107-modda, 1-qism.
8. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish – 108-modda, 1-qism.
9. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish – 109-modda 1-qism.
10. Qiynash – 110-modda, 1-qism.
11. Ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish – 111-modda, 1–3-qismlar.
12. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish – 112-modda, 1–3-qismlar.
13. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish – 113-modda, 1–2-qismlar.
14. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) – 114-modda, 1–2-qismlar.
15. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash – 115-modda, 1-qism.

16. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik - 116-modda, 1-2-qismlar.
17. Xavf ostida qoldirish - 117-modda, 1-qism.
18. Besoqolbozlik - 120-modda, 1-qism.
19. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish - 121-modda, 1-qism.
20. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash - 122-modda, 1-2-qismlar.
21. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash - 123-modda, 1-qism.
22. Farzandlikka olish sirini oshkor qilish - 125-modda, 1-2-qismlar.
23. Ko'p xotinli bo'lish - 126-modda, 1-qism.
24. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlariga jalb qilish - 127-modda, 1-qism.
25. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish - 128-modda, 1-qism.
26. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish - 129-modda, 1-qism.
27. Pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish - 130-modda, 1-qism.
28. Fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish - 131-modda, 1-qism.
29. Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish - 132-modda, 1-2-qismlar.
30. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish - 133-modda, 1-qism.
31. Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish - 136-modda, 1-qism.
32. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish - 138-modda, 1-qism.
33. Tuhmat - 139-modda, 1-3-qismlar.
34. Haqorat qilish - 140-modda, 1-3-qismlar.
35. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish - 141-modda, 1-2-qism.
36. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish - 143-modda, 1-qism.
37. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish - 144-modda, 1-2-qism.

38. Vijdon erkinligini buzish - 145-modda, 1-2-qism.
39. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish - 146-modda, 1-qism.
40. Mehnat qilish huquqini buzish - 148-modda, 1-2-qismlar.
41. Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish - 149-modda, 1-qism.
42. Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish - 154-modda, 1-qism.
43. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy alovat qo'zg'atish - 156-modda, 1-qism.
44. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish - 163-modda, 1-qism.
45. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish - 167-modda, 1-qism.
46. Firibgarlik - 168-modda, 1-qism.
47. O'g'rilik - 169-modda, 1-qism.
48. Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish - 170-modda, 1-2-qismlar.
49. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish - 171-modda, 1-2-qismlar.
50. Mulknı qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish - 172-modda, 1-qism.
51. Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish - 173-modda, 1-2-qismlar.
52. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish - 175-modda, 1-qism.
53. Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish - 177-modda.
54. Chet el valyutasini yashirish - 178-modda, 1-qism.
55. Soxta tadbirkorlik - 179-modda.
56. Soxta bankrotlik - 180-modda, 1-qism.
57. Bankrotlikni yashirish - 181-modda, 1-qism.
58. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish - 183-modda, 1-2-qismlar.
59. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yın tovlash - 184-modda, 1-2-qismlar.
60. Budjet intizomini buzish - 184-modda.
61. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalari-ni buzish - 185-modda, 1-qism.

62. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish – 185¹-modda.

63. Elektron, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish – 185²-modda.

64. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish – 186-modda, 1–2-qismlar.

65. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish – 186²-modda, 1-qism.

66. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish – 188-modda, 1–2-qism.

67. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish – 189-modda, 1–2-qism

68. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish – 190-modda, 1–2-qismlar.

69. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish – 191-modda, 1–2-qismlar.

70. Raqobatchini obro'sizlantirish – 192-modda, 1-qism.

71. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish – 193-modda, 1-qism.

72. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish – 194-modda, 1–2-qismlar.

73. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik – 195-modda, 1–2-qismlar.

74. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish – 196-modda, 1–2-qismlar.

75. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish – 197-modda, 1-qism.

76. Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish – 198-modda, 1–3-qismlar.

77. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish – 199-modda, 1-qism.

78. Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish – 200-modda.

79. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish – 201-modda, 1-qism.

80. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish – 202-modda, 1–2-qism.
81. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish – 203-modda.
82. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish – 204-modda, 1-qism.
83. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 205-modda, 1-qism.
84. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish – 206-modda, 1-qism.
85. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash – 207-modda, 1–2-qism.
86. Hokimiyat harakatsizligi – 208-modda, 1-qism.
87. Mansab soxtakorligi – 209-modda, 1-qism.
88. Pora berish – 211-modda, 1-qism.
89. Pora olish-berishda vositachilik qilish – 212-modda, 1-qism.
90. Xizmatchini pora evaziga og'dirish – 213-modda, 1–2-qismlar.
91. Tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish – 214-modda, 1–2-qismlar.
92. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish – 215-modda.
93. G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash – 216¹-modda.
94. Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish – 216²-modda, 1–2-qismlar.
95. Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish – 217-modda, 1–2-qismlar.
96. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik – 221-modda, 1-qism.
97. O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish – 224-modda, 1–3-qism.
98. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash – 225-modda, 1–2-qismlar.
99. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish – 226-modda, 1-qism.
100. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish – 227-modda, 1–2-qismlar.

101. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish – 228-modda, 1–2-qismlar.

102. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish – 228¹-modda, 1–2-qismlar.

103. O'zboshimchalik – 229-modda, 1-qism.

104. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish – 229¹-modda, 1-qism.

105. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish – 229²-modda, 1-qism.

106. Sud hujjatini ijro etmaslik – 232-modda, 1-qism.

107. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish – 234-modda.

108. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash – 235-modda, 1-qism.

109. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etish ga aralashish – 236-modda, 1-qism.

110. Yolg'on xabar berish – 237-modda, 1-qism.

111. Yolg'on guvohlik berish – 238-modda, 1–2-qism.

112. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish – 239-modda, 1-qism.

113. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi – 240-modda, 1-qism.

114. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish – 241-modda, 1-qism.

115. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish – 244¹-modda, 1-qism.

116. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish – 244³-modda, 1-qism.

117. Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish – 250-modda, 1-qism.

118. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish – 251¹-modda, 1-qism.

119. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish – 253-modda, 1-qism.

120. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish – 256-modda, 1–2-qism.

121. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish – 257-modda, 1-qism.

122. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish – 257¹-modda, 1-qism.

123. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish – 258-modda, 1-qism.

124. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish – 259-modda, 1-qism.

125. Temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish – 260-modda, 1–3-qismlar.

126. Mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'yish – 261-modda, 1-qism.

127. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish – 262-modda, 1-qism.

128. Xalqaro uchish qoidalarini buzish – 265-modda.

129. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish – 266-modda, 1-qism.

130. Transport vositasini olib qochish – 267-modda, 1-qism.

131. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish – 268-modda, 1-qism.

132. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish – 269-modda, 1-qism.

133. Taqiqlangan yekinlarni etish tirish – 270-modda, 1-qism.

134. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish – 274-modda, 1-qism.

135. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar – 276-modda, 1-qism.

136. Bezorilik – 277-modda, 1–4-qismlar.

137. Axborotlashtirish qoidalarini buzish – 278¹-modda, 1–2-qismlar.

138. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish – 278–2-modda, 1–2-qismlar.

139. Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish – 278³-modda, 1–2-qismlar.

140. Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish – 278⁴-modda, 1–2-qism.

141. Kompyuter sabotaji – 278⁵-modda, 1–2-qism.
142. Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish – 278⁶-modda, 1–2-qism.

II. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar:

1. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish – 98-modda, 1-qism.
2. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish – 103-modda, 1-qism.
3. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish – 104-modda, 1-qism.
4. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish – 105-modda, 2-qism.
5. Qiynash – 110-modda, 2-qism.
6. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish – 113-modda, 3-qism.
7. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) – 114-modda, 3-qism.
8. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik – 116-modda, 3-qism.
9. Xavf ostida qoldirish – 117-modda, 2-qism.
10. Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish – 121-modda, 2-qism.
11. Bolani almashtirib qo'yish – 124-modda, 1-qism.
12. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar-ga jalb qilish – 127-modda, 2-qism.
13. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish – 128-modda, 2-qism.
14. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish – 129-modda, 2-qism.
15. Fohishaxona saqlash yoki qo'shmachilik qilish – 131-modda, 2-qism.
16. Inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish – 133-modda, 2-qism.
17. Qabrni tahqirlash – 134-modda, 1-qism.
18. Odam savdosi – 135-modda, 1-qism.
19. Odam o'g'rilash – 137-modda, 1-qism.
20. Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish – 138-modda, 2-qism.

21. Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish – 142-modda, 1-qism.
22. Vijdon erkinligini buzish – 145-modda, 3-qism.
23. Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish – 147-modda, 1-qism.
24. Chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish – 154¹-modda, 2-qism.
25. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish – 156-modda, 2-qism.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish – 158-modda, 3-qism.
27. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish – 159-modda, 1–2-qismlar.
28. Davlat sirlarini oshkor qilish – 162-modda, 1-qism.
29. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish – 163-modda, 2-qism.
30. Tovlamachilik – 165-modda, 1-qism.
31. Talonchilik – 166-modda, 1–2-qism.
32. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish – 167-modda, 2-qism.
33. Firibgarlik – 168-modda, 2-qism.
34. O'g'rilik – 169-modda, 2-qism.
35. Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish – 173-modda, 3-qism.
36. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish – 176-modda, 1–2-qismlar.
37. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish – 182-modda, 1-qism.
38. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yın tovlash – 184-modda, 3-qism.
39. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish – 186¹-modda, 1-qism.
40. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish – 186²-modda, 2-qism.
41. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish – 188-modda, 3-qism.
42. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish – 201-modda, 1–2-qismlar.

43. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish – 202-modda, 3-qism.
44. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish – 204-modda, 2-qism.
45. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 205-modda, 2-qism.
46. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish – 206-modda, 2-qism.
47. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash – 207-modda, 3-qism.
48. Mansab soxtakorligi – 209-modda, 2-qism.
49. Pora olish – 210-modda, 1-qism.
50. Pora berish – 211-modda, 2-qism.
51. Pora olish-berishda vositachilik qilish – 212-modda, 2-qism.
52. Xizmatchini pora evaziga og'dirish – 213-modda, 3-qism.
53. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish – 216-modda.
54. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonada, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to'sqinlik qilish – 218-modda.
55. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar – 220-modda, 1-qism.
56. Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish – 222-modda, 1-qism.
57. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish – 223-modda, 1-qism.
58. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash – 225-modda, 3-qism.
59. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish – 230-modda, 1-qism.
60. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish – 231-modda, 1-qism.
61. Sud hujjatini ijro etmaslik – 232-modda, 2-qism.
62. Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish – 233-modda.
63. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etish ga aralashish – 236-modda, 2-qism.
64. Yolg'on xabar berish – 237-modda, 2-qism.
65. Yolg'on guvohlik berish – 238-modda, 3-qism.
66. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish – 241-modda, 2-qism.

67. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish – 241¹-modda, 1-qism.

68. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish – 244¹-modda, 2-qism.

69. O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash – 247-modda, 1-qism.

70. Qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish – 248-modda, 1-qism.

71. O'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash – 249-modda, 1-qism.

72. Portlash xavfi bo'lgan moddalar yoki pirotexnika buyumlaridan foydalanish qoidalarini buzish – 250-modda, 2-qism.

73. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 251-modda, 1-qism.

74. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish – 251¹-modda, 3-qism.

75. Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash – 252-modda, 1-qism.

76. Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish – 253-modda, 2-qism.

77. Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish – 254-modda, 1-qism.

78. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish – 255-modda, 1-qism.

79. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish – 257-modda, 2-qism.

80. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish – 257¹-modda, 2-qism.

81. Tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish – 258-modda, 1-qism.

82. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish – 259-modda, 2-qism.

83. Temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish – 260-modda, 2-qism.

84. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish – 262-modda, 2-qism.

85. Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish – 263-modda, 1-qism.

86. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarini buzish – 268-modda, 2-qism.

87. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish – 269-modda, 2-qism.

88. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish – 270-modda, 2-qism.

89. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 271-modda, 1-qism.

90. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab, qonunga xilof ravishda tayyorlash, egalash, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish – 273-modda, 1-qism.

91. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish – 274-modda, 2-qism.

92. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish – 275-modda, 1-qism.

93. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar – 276-modda, 2-qism.

94. Bezorilik – 277-modda, 3-qism.

III. Og'ir jinoyatlar:

1. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish – 103-modda, 2-qism.

2. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish – 104-modda, 2-qism

3. Tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish – 113-modda, 4-qism.

4. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik – 116-modda, 4-qism.

5. Nomusga tegish – 118-modda, 1–2-qism.

6. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish – 119-modda, 1–2-qism.

7. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish – 127-modda, 3-qism.

8. Odam savdosi – 135-modda, 2-qism.

9. Odam o'g'rilash – 137-modda, 2-qism.

10. Yollanish – 154-modda, 1-qism.

11. Terrorizm – 155-modda, 1-qism.

12. Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish – 156-modda, 3-qism.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish – 158-modda, 2-qism.
14. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish – 159-modda, 3-qism.
15. Davlat sirlarini oshkor qilish – 162-modda, 2-qism.
16. Bosqinchilik – 164-modda, 1–2-qism.
17. Tovlamachilik – 165-modda, 2-qism.
18. Talonchilik – 166-modda, 3-qism.
19. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish – 167-modda, 3-qism.
20. Firibgarlik – 168-modda, 3-qism.
21. Chet el valyutasini yashirish – 178-modda, 2–3-qism.
22. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish – 182-modda, 2-qism.
23. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish – 186¹-modda, 2-qism.
24. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish – 186²-modda, 3-qism.
25. Pora olish – 210-modda, 2-qism.
26. Pora berish – 211-modda, 3-qism.
27. Pora olish-berishda vositachilik qilish – 212-modda, 3-qism.
28. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar – 220-modda, 2-qism.
29. Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish – 222-modda, 2-qism.
30. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish – 223-modda, 2-qism.
31. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish – 230-modda, 2-qism.
32. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish – 231-modda, 2-qism.
33. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash – 235-modda, 2-qism.
34. Yolg'on xabar berish – 237-modda, 3-qism.
35. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – 243-modda, 1-qism.
36. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish – 244¹-modda, 3-qism.

37. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – 245-modda, 1-qism.
38. Kontrabanda – 246-modda, 1-qism.
39. O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash – 247-modda, 2-qism.
40. Qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish – 248-modda, 2-qism.
41. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 251-modda, 2-qism.
42. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish – 251'-modda, 2-qism.
43. Radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash – 252-modda, 2-qism.
44. Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish – 254-modda, 2-qism.
45. Yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish – 255-modda, 2-qism.
46. Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish – 255'-modda, 1-qism.
47. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish – 257'-modda, 3-qism.
48. Transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish – 262-modda, 3-qism.
49. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish – 264-modda, 1-qism.
50. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish – 266-modda, 2-qism.
51. Transport vositasini olib qochish – 267-modda, 2-qism.
52. Transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish – 268-modda, 3-qism.
53. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish – 269-modda, 3-qism.
54. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish – 270-modda, 3-qism.
55. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 271-modda, 2-qism.
56. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egal-

lash, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish - 273-modda, 2-3-qism.

57. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish - 278-modda, 1-2-qism.

IV. O'ta og'ir jinoyatlar:

1. Qasddan odam o'ldirish - 97-modda, 1-2-qism.
2. Nomusga tegish - 118-modda, 3-4-qism.
3. Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish - 119-modda, 3-4-qism.
4. Odam savdosi - 135-modda, 3-qism.
5. Odam o'g'irlash - 137-modda, 3-qism.
6. Urushni targ'ib qilish - 150-modda, 1-qism.
7. Agressiya - 151-modda, 1-2-qism.
8. Urushning qonun va udumlarini buzish - 152-modda, 1-qism.
9. Genotsid - 153-modda, 1-qism.
10. Yollanish - 154-modda, 2-qism.
11. Terrorizm - 155-modda, 2-3-qism.
12. Davlatga xoinlik qilish - 157-modda, 1-qism.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish - 158-modda, 1-qism.
14. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish - 159-modda, 4-qism.
15. Josuslik - 160-modda, 1-qism.
16. Qo'poruvchilik - 161-modda, 1-qism.
17. Bosqinchilik - 164-modda, 3-4-qism.
18. Tovlamachilik - 165-modda, 3-qism.
19. Talonchilik - 166-modda, 4-qism.
20. O'g'rilik - 169-modda, 3-qism.
21. Qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish - 176-modda, 3-qism.
22. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish - 186¹-modda, 3-qism.
23. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish - 186²-modda, 4-qism.
24. Pora olish - 210-modda, 3-qism.
25. Jinoiy uyushma tashkil etish - 242-modda, 1-2-qism.
26. Ommaviy tartibsizliklar - 244-modda, 1-qism.

27. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish – 244²-modda, 1–2-qism.

28. Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish – 245-modda, 2-qism.

29. Kontrabanda – 246-modda, 2-qism.

30. O'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash – 247-modda, 3-qism.

31. Qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish – 248-modda, 3-qism.

32. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 251-modda, 3-qism.

33. Bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurolari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish – 255¹-modda, 2-qism.

34. Temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish – 263-modda, 2-qism.

35. Temir yo'lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish – 264-modda, 2-qism.

36. Transport vositasini olib qochish – 267-modda, 3-qism.

37. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash – 271-modda, 3-qism.

38. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, egalash, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish – 273-modda, 3–4-qism.

Ilova № 2. O'zbekiston Respublikasida fan olimpiadalarini o'tkazishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 2-iyunda 1962-son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2009-yil 1-maydagi 18 Q/Q, 20, 13/QQ-son qarori bilan tasdiqlangan

Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadalarini o'tkazish va xalqaro fan olimpiadalari ishtirokchilarini tanlash to'g'risida

NIZOM⁵⁴

Muqaddima

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli Qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 42-son, 422-modda) muvofiq akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazish hamda xalqaro fan olimpiadalari ishtirokchilarini tanlash tartibini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Quyidagilar o'quvchi yoshlar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazishning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi:
 - a) o'quvchi yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish;
 - b) o'quvchilarda o'zlari tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o'rganishga qiziqishlarini oshirish;

⁵⁴ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009-yil, 23-son, 266-modda.

d) o'quvchilarning kelajakdagi kasblarni to'g'ri tanlashiga ko'maklashish:

2. Fan olimpiadalarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

a) O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari hamda ushbu Nizom talablari asosida ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo'lishini ta'minlash, fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni aniqlash hamda tarbiyalashga qaratilgan ijodiy izlanishlari va mehnatini ro'yobga chiqarish;

b) qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, rag'batlantirish va kamolotga yetkazish jarayonida ta'lim muassasasi, ota-onalar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini kuchaytirish;

d) fan olimpiadalarining g'oliblari orasidan xalqaro fan olimpiadalarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qiladigan o'quvchilarni aniqlash.

II. RESPUBLIKA OLIMPIADALARINI O'TKAZISH TARTIBI

3. Respublika (fan) olimpiadalari har yili akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning 1, 2, 3-kurs o'quvchilari va umumta'lim maktablarining IX, X, XI sinflari (majburiy 12 yillik ta'limga to'liq o'tilgungacha) hamda IX sinflar o'quvchilari (majburiy 12 yillik ta'limga to'liq o'tilgandan keyin) o'rtasida o'tkaziladi.

4. Fan olimpiadalari to'rt bosqichda o'tkaziladi:

a) 1-bosqich – o'qish joyi bo'yicha;

b) 2-bosqich – tuman, shuningdek hududi tumanlarga bo'linmagan shahar bo'yicha;

d) 3-bosqich – viloyat bo'yicha, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Toshkent shahrida;

e) 4-bosqich – respublika bo'yicha.

5. Fan olimpiadasining birinchi bosqichida umumta'lim maktablari va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning barcha o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin. Navbatdagi bosqichlarda esa faqat oldingi bosqichlarda I, II, III o'rinni egallab, g'olib bo'lganlar qatnashadilar.

G'oliblar 76–100 ball to'plagan o'quvchilar orasidan aniqlanadi.

6. Birinchi bosqichda akademik litseylar va umumta'lim maktablarining chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha I o'rinni egallagan

o'quvchilari olimpiadaning II bosqichida qatnashmasdan to'g'ridan-to'g'ri 3-bosqichida qatnashadilar.

7. Fan olimpiadalarining barcha bosqichlarida g'oliblar ham fanlar bo'yicha, ham kurslar (sinflar) bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli Qaroriga muvofiq fan olimpiadalarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'uliyat tegishli ravishda akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Yakunlovchi – to'rtinchi bosqich bo'yicha – majburiy 12 yillik ta'limga to'liq o'tilgungacha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga va Xalq ta'limi vazirligiga, majburiy 12 yillik ta'limga o'tilgandan keyin esa O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga yuklanadi.

9. Fan olimpiadalarini o'tkazish bo'yicha butun tadbirlar kompleksini bajarish uchun O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi hamda ularning hududiy bo'linmalari o'z buyruqlari bilan tashkiliy qo'mitalar, hakamlar hay'atlari, apellyatsiya komissiyalari va boshqa tuzilmalarni tashkil etadilar.

10. Tashkiliy qo'mitalar fan olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydilar, hakamlar hay'atlari, apellyatsiya komissiyalari tarkibini shakllantiradilar va tasdiqlaydilar, testlar va sinov topshiriqlarini tayyorlashni tashkil etadilar, baholash mezonlarini va yakunlar chiqarish tartibini tasdiqlaydilar.

11. Fan olimpiadalarining barcha bosqichlarida tashkiliy qo'mita, hay'at a'zolarining farzandlari, hay'at a'zolarining o'quvchilari yoki yaqin qarindoshlari ishtirok etayotgan bo'lsa, ushbu shaxslar tashkiliy qo'mita qarori asosida tashkiliy qo'mita yoki hay'at a'zolari tarkibidan chiqariladi.

12. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi fan olimpiadalarining barcha bosqichlarini, 4-bosqichini o'tkazishda esa Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda tasdiqlangan mezonlar hamda oshkoralik tamoyillari asosida o'tkazish chora-tadbirlarini belgilaydilar va amalga oshiradilar.

13. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi fan olimpiadalarining barcha bosqichlari uchun ishlab chiqilgan test topshiriqlari, yozma va amaliy ishlarni Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mazmunan mos kelishini hamda murakkabligiga qo'yiladigan talablarning oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinadigan abituriyentlar bilimlari darajasiga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

14. Ko'zi ojizlar maxsus maktab-internatlari o'quvchilari orasida ona tili va adabiyot, matematika fanlaridan olimpiada Brayl usulidagi yozuv asosida o'tkaziladi. Topshiriqlar tashkiliy qo'mita tasdiqlagan ijodiy guruhlar tomonidan ishlab chiqiladi, maxfiyligi ta'minlanadi hamda qatnashchilar ko'rsatgan natijalar baholash mezonlari asosida baholanadi.

15. Fan olimpiadalari g'oliblarining yoki boshqa qatnashchilarning ishlarini o'zga jamoa rahbarlari, ishtirokchilar va ularning ota-onalariga ko'rsatish qat'iyman qilinadi.

16. Fan olimpiadalari jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya qilmagan o'quvchilar hakamlar hay'ati qarori bilan olimpiadadan chetlashtiriladi. Bu haqda tuzilgan dalolatnoma hakamlar hay'ati raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

III. FAN OLIMPIADASINING BIRINCHI BOSQICHINI O'TKAZISH TARTIBI

17. Fan olimpiadasining birinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari direktorlari zimmasiga yuklanadi.

18. Birinchi bosqichda umumta'lim maktablarining 9–11-sinf o'quvchilari va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning 1–3-kurs o'quvchilari uchun topshiriqlar ta'lim muassasasi tashkiliy qo'mitasi tomonidan tayyorlanadi.

19. Olimpiadaning birinchi bosqichida umumta'lim maktablari va akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning barcha o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

20. Fan olimpiadalarining birinchi bosqichi natijalari ta'lim muassasasining pedagogik kengashlarida muhokama etiladi va olimpiada o'tkazilgan fanlardan I, II, III o'rinni egallagan g'oliblarning tuman olimpiadasida qatnashishi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

IV. FAN OLIMPIADASINING IKKINCHI BOSQICHINI O'TKAZISH TARTIBI

21. Fan olimpiadasining ikkinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmasi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining zimmasiga yuklanadi.

22. Ikkinchi bosqich uchun test, yozma va amaliy ishlar viloyat tashkiliy qo'mitasi tomonidan tayyorlanib, maxfiyligi ta'minlangan holda o'tkaziladigan kuni maxsus vakillar tomonidan yetkaziladi.

23. Fan olimpiadasining ikkinchi bosqichi yakunlari hududiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari kengashlarida ko'rib chiqiladi, III bosqichda ishtirok etuvchi o'quvchilar ro'yxati tasdiqlanadi.

V. FAN OLIMPIADASINING UCHINCHI BOSQICHINI O'TKAZISH TARTIBI

24. Fan olimpiadalarining uchinchi bosqichini tashkil etish O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

25. Fanlardan yozma ish variantlari, testlar hamda amaliy ishlar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan malakali mutaxassislar jalb qilingan holda ko'p variantlilik asosida hamda maxfiyligi ta'minlangan holda tayyorlanadi.

26. Tayyorlangan topshiriqlar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan tavsiya qilingan ekspert guruhlari tomonidan birgalikda ekspertiza qilinadi.

Tanlab olingan topshiriqlar tashkiliy qo'mitaning ikki mutaxassis bo'lmagan vakili tomonidan konvertlarga solinib, Xalq

ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining muhri qo'yiladi. Muhrlangan konvertlar viloyatlarga O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim markazi va Xalq ta'limi vazirligining mas'ul xodimlari tomonidan yetkaziladi.

27. Fan olimpiadasining uchinchi bosqichi yozma ish, test va amaliy ishlar respublikaning barcha hududlarida hamda Toshkent shahrida bir kunda va bir vaqtda o'tkaziladi.

28. Uchinchi bosqichda qatnashgan o'quvchilar tomonidan bajarilgan ishlar viloyat tashkiliy qo'mitasi tomonidan tahlil etiladi. Fanlar bo'yicha g'olib bo'lgan o'quvchilarning bajargan test topshiriqlari, yozma ish va amaliy ishlari hamda tavsiya etilgan boshqa hujjatlar xatosiz rasmiylashtirilgan holda olimpiada tugagan kunning ertasiga viloyat tashkiliy qo'mitasi raisi yoki mas'ul kotibi tomonidan respublika tashkiliy qo'mitasining vakiliga shaxsan topshiriladi.

29. Uchinchi bosqichda avvalgi o'quv yilida fan olimpiadasining viloyat bosqichida birinchi o'rinni egallagan 10-sinf o'quvchilari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2-kurs o'quvchilari ham to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadilar.

30. Qoraqalpog'iston Respublikasida qoraqalpoq tili va adabiyoti fani bo'yicha o'tkaziladigan uchinchi bosqich olimpiadasida 76 va undan yuqori ball to'plab, I, II, III o'rinlarni egallagan g'oliblar yakunlovchi IV bosqich sinovlaridan ozod etiladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli Qarorida belgilangan fan olimpiada g'oliblariga beriladigan imtiyozlardan to'liq foydalanadilar.

31. Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani bo'yicha 3-bosqich olimpiada topshiriqlarini tayyorlash mas'uliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

VI. FAN OLIMPIADASINING TO'RTINCHI BOSQICHINI O'TKAZISH TARTIBI

32. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining hududiy boshqarmalari olimpiadaning uchinchi bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilarni

4-bosqichga uyushqoqlik bilan tayyorlash maqsadida barcha tashkiliy chora-tadbirlarni ko'radi.

33. Uchinchi bosqich olimpiadasida I, II, III o'rinni egallab, g'olib bo'lgan 3-kurs (11-sinf) o'quvchilari IV bosqichda qatnashadilar.

G'oliblar 76–100 ball to'plagan o'quvchilar orasidan aniqlanadi.

34. Fan olimpiadasining 4-bosqichidagi test sinovlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan, amaliy ishlar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ko'p variantlilik asosida hamda mahfiyligini ta'minlagan holda tayyorlanadi.

35. Respublika fan olimpiadalari o'tkaziladigan joyga ishtirokchilarni olib kelish va olib ketish, ularning yashash va yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlar mas'uliyati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

36. Respublika fan olimpiadalarining to'rtinchi bosqichida fanlardan 76 va undan yuqori ball to'plab, I, II, III o'rinlarni egallagan umumta'lim maktablarining 11-sinf hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining 3-kurs o'quvchilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi "O'zbekiston' iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-sonli Qaroriga binoan oliy o'quv yurtlariga test sinovlarsiz hamda qo'shimcha imtihonlarsiz kirish imtiyoziga ega bo'ladilar.

VII. XALQARO FAN OLIMPIADALARIDA ISHTIROK ETUVCHI O'QUVCHILARNI TANLASH

37. Xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etuvchi o'quvchilarni tanlash O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

38. Respublika fan olimpiadasining III bosqichida umumta'lim fanlardan 1–5-o'rinlarni egallagan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 2, 3-kurs o'quvchilari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining 10, 11-sinf o'quvchilari xalqaro fan olimpiadasida qatnashish uchun tanlovda ishtirok etadilar.

39. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi.

40. Tanlovning birinchi bosqichida I, II, III o'rinlarni egallagan o'quvchilar keyingi bosqichda ishtirok etadilar.

41. Tanlov o'tkazish joyi va muddati O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

42. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Xalq ta'limi vazirligi tavsiya qilgan ekspert guruhi tomonidan tanlovda qatnashgan o'quvchilarning yozma ishlari tekshiriladi va g'oliblar aniqlanadi.

43. Foliblarni aniqlashda o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini masalalar yechishga tatbiq etish qobiliyatlari, topshiriqlarning original yechimlarini topishlari, yozma javoblarni to'la bayon etishi va ilmiy xulosalar chiqarishi e'tiborga olinadi.

VIII. HAKAMLAR HAY'ATI

44. Fan olimpiadalarining barcha bosqichlarini o'tkazish uchun har bir fan bo'yicha 5-7 kishidan iborat hakamlar hay'ati tarkibi tuziladi va tashkiliy qo'mitalar tomonidan tasdiqlanadi.

45. Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) fan olimpiadalarini ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni tasdiqlangan baholash mezonlari asosida tekshiradi va baholaydi;

b) fanlar bo'yicha g'oliblarni aniqlaydi;

d) fan olimpiadalarini yakunlari yuzasidan belgilangan tartibda qaror matnlarini tayyorlaydi va rasmiylashtiradi;

e) fan olimpiadalarini natijalarini olimpiada qatnashchilari va jamoa rahbarlari ishtirokida e'lon qiladi;

f) o'tkazilgan olimpiada natijalari haqida tashkiliy qo'mitaga batafsil hisobot beradi va zarur hujjatlarni taqdim etadi.

46. Hakamlar hay'ati tarkibiga tavsiya qilingan a'zolar olimpiadaning faqat bitta tuman (shahar), viloyat yoki respublika bosqichida ishtirok etadilar.

47. Har bir fan bo'yicha tuzilgan hakamlar hay'ati a'zolari o'zlari orasidan fan raisini saylaydilar.

48. Hakamlar hay'ati raisi va a'zolari uzluksiz ravishda ikki yildan ortiq olimpiada hakamlari tarkibiga kiritilmaydi.

IX. AUDITORIYA RAHBARI VA NAZORATCHILAR

49. Fan olimpiadasining barcha bosqichlarida olimpiada jarayonini boshqarish, tashkiliy ishlarni bajarish, adolat tamoyillariga amal qilinishini ta'minlash maqsadida tashkiliy qo'mita tomonidan qur'a tashlash (olimpiada o'tkazilishidan oldin) yo'li

bilan olimpiada o'tkazilayotgan xonalarga auditoriya rahbari va nazoratchi tayinlanadi.

50. Auditoriya rahbarlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) tegishli fan bo'yicha hakamlar hay'ati a'zolarini olimpiada hujjatlari bilan tanishtiradi;

b) fan olimpiadasi jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilmagan o'quvchilarni dalolatnoma tuzib, hakamlar hay'atiga topshiradi;

d) test, yozma ish, amaliy ishlarni shifrlab, tekshirish uchun hakamlar hay'atiga topshiradi;

e) hakamlar tomonidan tekshirilgan ishlarning shifr bo'yicha ro'yxatini tuzadi va g'oliblarni aniqlash uchun hay'atga taqdim etadi.

X. APYELLYATSIYA KOMISSIYASI

51. Hakamlar hay'ati tarkibiga kirmagan bittadan fan mutaxassislaridan iborat apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

52. Tashkiliy qo'mitaning raisi bevosita apellyatsiya komissiyasi raisi hisoblanadi.

53. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada qatnashchilarining shikoyatlari va arizalari olimpiada o'tkazilgan kunning o'zida qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.

54. Fan olimpiadalari qatnashchilarining arizalari apellyatsiya komissiyasi raisi, o'quvchi va hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokida apellyatsiya komissiyasi a'zosi tomonidan ko'rib chiqiladi.

55. Apellyatsiyaga fan olimpiadalari qatnashchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlari bo'yicha arizalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

56. Apellyatsiya komissiyasi zaruriyat bo'lganda, hakamlar hay'ati qarorini bekor qilish va ularga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

MUNDARIJA

Kirish so'zi	5
1-bob. Davlat va huquq asoslari fanidan olimpiada ishtirokchilari uchun umumiy tavsiyalar	8
2-bob. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini sharhlash	11
2.1. Konstitutsiyaviy normaning ahamiyatini yoritish	11
2.2. Qoidaning Konstitutsiyaning qaysi bo'limi va bobiga tegishli ekanligini to'g'ri ko'rsatish va ularga ta'rif berish	16
2.3. Qoidani amaliyot bilan bog'lash va misollar bilan to'ldirish	23
2.4. Qoidani huquqning qaysi sohasida qo'llanilishini yoritish va misollar keltirish	26
2.5. Tizimli sharhlash	28
2.6. Tarixiy sharhlash	32
2.7. Mantiqiy sharhlash	51
2.8. Nazariy sharhlash	53
2.9. Kengaytirib sharhlash	62
2.10. Qoidada berilgan so'zlarga ta'rif berish	64
2.11. Qoidaning inson va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini yoritish	67
2.12. Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish	70
2.13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini sharhlashga misollar	71
3-bob. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlash	138
3.1. Huquqbuzarlikning obyektiv belgilari	138
3.2. Huquqbuzarlikning subyektiv belgilari	146
3.3. Huquqbuzarlik belgilari va ularning yuridik tavsifi	154
3.4. Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatning farqlovchi jihatlari	155
3.5. Voyaga yetmaganlik tushunchasi	158
3.6. Voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari va bu boradagi xalqaro talablar	159
3.7. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar	163

3.8. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so'roq qilish tartibi	164
3.9. Huquqbuzarlikni tavsiflash (kvalifikatsiya qilish)	167
3.10. Vaziyatni O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan bog'lash	171
3.11. Huquqiy atamalardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish	172
3.12. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid vaziyatni sharhlashga misollar	173
4-bob. "O'zbekiston davlati va huquqi" o'quv faniga oid masalalarni sharhlash	208
4.1. Nazariy qoidaga ta'rif berish	208
4.2. Javobni amaliyot bilan bog'lash va aniq misollar keltirish	223
4.3. Qoidani Konstitutsiya yoki boshqa qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog'lash	224
4.4. Huquqiy atamalarga ta'rif berish hamda ulardan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanish	225
4.5. "O'zbekiston davlati va huquqi" o'quv faniga oid masalalarni sharhlashga misollar	226
Xulosa	242
Glossariy	243
Test savollari	316
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	351
Ilovalar	357

**U.J. HOTAMOV,
T.E. TO'RAYEV,
M.H. TOPVOLDIYEV**

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI
FANIDAN OLIMPIADA ISHTIROKCHILARI
UCHUN O'QUV QO'LLANMA**

*Ushbu o'quv qo'llanma 2011 yil 23 iyundagi Toshkent
davlat yuridik instituti O'quv-uslubiy kengashida
(11-sonli bayonnoma) muhokama qilingan va
nashrga tavsiya etilgan.*

Muharrirlar: *A. Omonov,
G. Ortiqxo'jayeva*
Texnik muharrir: *A. Ahmedov*
Kompyuterda
sahifalovchi: *Sh. Rasulov*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi «Adolat» nashriyoti. Nashr. lis. AI №133, 14.03.09.
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Terishga berildi 05.01.2012 y. Bosishga ruxsat etildi 24.01.2012 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. «AntiquaUz» garniturasida.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 24,0.
Nashriyot hisob tabog'i 22,75. Adadi 2000 nusxa.
...sonli buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

“Yoshlar matbuoti” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100113, Toshkent sh., Chilonzor-8, Qatortol k., 60.